

24(4 G2)
V 46

**ANTIFER TOG'ANING
AJJOYIB VA G'AROYIB
SARGUZASHTLARI**

Jyul Vern



ANTIFER TOG'ANING

AJOYIB VA G'AROYIB
SARGUZASHTLARI

Jyul Vern

Nizomiy nomli

T D P U

kutubxonasi

TOSHKENT
«ADABIYOT UCHQUNLARI»
2019

У-2914/7

UO'K: 811.202

KBK: 86.34

V – 63

Vern, Jyul

Antifer tog'aning ajoyib va g'aroyib sarguzashtlari: roman.
Birinchii kitob. Jyul Vern. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari,
2019. – 264 bet.

ISBN 978-9943-987-19-7

Ruschadan
ERKIN MIROBIDOV
tarjimasi

UO'K: 811.202

KBK: 86.34

ISBN 978-9943-987-19-7

© Jyul Vern, «Antifer tog'aning ajoyib va g'aroyib sarguzashtlari». «Adabiyot uchqunlari», 2019-yil.

BIRINCHI QISM

BIRINCHI BOB

Noma'lum kema kapitanining noma'lum kema-da noma'lum orolni izlab noma'lum dengizni kezgani 1831-yilning 9-sentabrida ertalab soat oltida kapitan kayutasidan chiqib, ko'prikchaga ko'tarildi.

Sharq tomon qizardi. Osmon endi chiqib kelayotgan quyoshning ilk nurlaridan yorisha boshladi. Subhidam shabadasida ohista mavjlanib turgan dengiz sathi, go'yo bu nur manglayini erkalab siypayotganday, yaraqlab jimirlardi.

Osoyishta o'tgan tun ajoyib kunni va'da qilardi. Ba'zan o'rtacha iqlimli mintaqa jazirama yoz bilan vidolashadigan damlarda shunday kunni ehson etadi.

Kapitan durbinini osmon bilan dengiz tutashib ketgan chiziq tomonga to'g'riladi.

Keyin durbinni tushirib, paxmoq soqol va yoshiga nisbatan tiyrak hamda o'tkir ko'zli keksa darg'a yoniga bordi-da:

- Vaxtaga qachon turding? - deb so'radi.
- To'rtida, kapitan.

Bu ikki kishi shunday g'aliz lahjada gaplashi-shardiki biror yevropalik, u xoh ingliz bo'lsin, basharti u Levantning¹ savdo portlari kelmagan bo'lsa, bularning bir og'iz ham gaplarini tushunol-masdi. Aftidan bu mahalliy turk lahjasi bilan suriya-arab² shevasining qorishib ketgani edi.

- Hech qanday yangilik yo'qmi?

- Hech qanaqa, kapitan.

- Tongdan beri birorta ham kema ko'rinmadimi?

- Bittagina... Kattakon uch machtaligi. U yelkanlarini yoyib to'ppa-to'g'ri ustimizga bostirib kelaverdi. Undan iloji boricha nariroq ketish uchun kemani shartta burdim.

- Juda to'g'ri qilibsan. Endi... - Kapitan butun ufqni diqqat bilan ko'zdan kechirib chiqdi-da, to'satdan baland ovoz bilan buyruq berdi:

- Kemani burishga tayyorlanilsin!

Vaxtadagilar sakrab turishdi. Rumpel³ burildi, shkotlar⁴ tortildi, kema burildi-da, yelkanlarini chap biqindan esayotgan shamolga moslab, shimoli-g'arb tomonga qarab suza ketdi.

Bu shxuna-brig⁵ - to'rt yuz tonna hajmli savdo kemasi edi. Ba'zi bir o'zgartishlardan keyin tez yurar yaxtaga aylantirilgan edi u. Kapitanning

¹ Levant - O'rtayer dengizining sharqiy qirg'og'ida joylashgan Yaqin Sharq mamlakatlarining umumiy nomi.

² Suriya arab tilining suriyacha lahjasida so'zlashadilar.

³ Rumpel - rulni boshqaradigan richag.

⁴ Shkot - yelkanlarni boshqarishga xizmat qiladigan an-jomlar.

⁵ Shxuna-brig yoki brigantina - ikki machtali yelkanli kema.

qo'li ostida o'n beshta matros bilan bir botsman bo'lib, yelkanlarni boshqarishga bimalol yetarli ekipaj edi. Bular zabardast, dovyurak odamlar edi, egnilaridagi kalta jun kamzul, movut qalpoq, keng shim va etiklari bilan Sharqiy Yevropa dengizchilarini eslatardilar.

Kemaning na quyrug'i, na tumshug'ida biror nom bor edi. Unda hech qanday bayroq ham yo'q edi. Buning ustiga vaxtada turgan dengizchi ufqda biror yelkan paydo bo'lgani haqida xabar berishi bilanoq, shxuna suzib kelayotgan kema bilan salyut berib salomlashishdan qochib, darhol yo'lini o'zgartardi.

Ehtimol, bu ta'qibdan cho'chiyotgan qaroqchilar kemasidir (bunaqa kemalar o'sha paytlarda hali bu suvlarda uchrab turardi)? Yo'q. Kemada qurol-yaroq yo'q edi; buning ustiga shu bir necha kishidan iborat ekipaj bilan bunaqangi ishlarga kim ham jur'at eta olardi deysiz!

Balki bu sohildagi shaharlarni boj to'lamay turli mollar bilan yashirinchta ta'minlovchi yoki shunday maxfiy mollarni oroldan orolga tashuvchi kontrabandachi kemadir? Bunday ham emas. Bordi-yu hatto eng tajribali bojxona amaldori kemandagi tagxonalarini tekshirib, yuklarni u yoqdan bu yoqqa surib, toylarni tit-pit qilib, hamma yashiklarni titkilab chiqqanida ham shubhali biron nima topolmasdi. Aslini olganda esa bu kemada bir necha yilga mo'ljallab jamg'arib qo'yilgan oziq-ovqat, tagxonaning ichkarisiga qo'yilgan vino va aroq solingan bochkalar, ko'prikcha ostidagi temir chambarli uchta eman bochkachadan boshqa hech qanday yukning o'zi yo'q edi... Kema muvo-

zanatini saqlaydigan ajoyib cho‘yan posongi uchun joy mo‘l bo‘lib, bu posongi kemanding kuchli shamol paytida ham hamma yelkanlarini ishga sola olishiga qulaylik tug‘dirardi.

Ehtimol anavi uchta bochkachada porox yoki boshqa portlovchi modda bordir, dersiz?.. Yo‘q, chunki ko‘prikcha ostidagi omborxonaga sira cho‘chimay, bemalol kiraverishardi.

Lekin, shunga qaramay, matroslardan hech biri shxunaning vazifasi nimadan iborat ekani haqida, xuddi olisda biror yelkan ko‘zga chalinishi bilanoq nega o‘z yo‘lini o‘zgartirishini aytib berolmaganidek, hech qanday axborot ham berolmasdi. Matroslar hatto o‘z kemalarini nima sababdan dam oldinga, dam orqaga qaytib, turli vaqtlarda turli suvlarni – goh hamma yelkanlarini ko‘tarib, goh to‘xtab, goh ichki suvlarni kesib o‘tib, goho bepoyon okeanga suzib chiqib, o‘n besh oy adashib-uloqib izg‘ib yurganini ham bilmasdilar. Mabodo bu g‘alati izg‘ishlar paytida baland sohil ko‘zga tashlanib qolsa, kapitan undan iloji boricha tezroq uzoqlashardi. Bordi-yu vaxtada turgan dengizchining e‘tiborini birorta orol tortadigan bo‘lsa, kapitan shxunani zudlik bilan boshqa tomonga burib ketardi.

Kema jurnalidagi yozuvdan yo‘lni tez-tez o‘zgartib turganlarini osongina sezish mumkin edi. Bunga ob-havo ham, shamolning to‘satdan o‘zgarishi ham sabab emasdi. Bu ikki kishining-gina: bizga tanish bo‘lgan kapitan bilan hozirgina palubaga ko‘tarilgan basavlat kishining siri edi.

– Hech gap yo‘qmi? – deb so‘radi notanish kishi.

– Hech gap yo‘q, janobi oliylari, – deb javob berdi kapitan.

Notanish kishi norozi qiyofada yelkasini qisib qo‘ydi-da, uch so‘zdan iborat bo‘lgan bu qisqagina suhbatni tugatdi. So‘ngra kapitan bunchalik ehtirof bilan muomala qilgan kishi trapdan⁶ pastga tushib, o‘z kayutasiga kirdi. U divanga cho‘zilib, xuddi dong qotib uxlayotgandek chuqur sukutga ketdi. Lekin bu uyqu emasdi, balki notanish kishining vujudini faqat birgina fikr qamrab olgandi.

Tashqi ko‘rinishidan u ellik yoshlar chamasida edi. Novcha, boshi katta, oq oralagan sochi qalin, kurak soqoli ko‘ksiga tushib turgan, qora ko‘zlari o‘tdan chaqnagan, chehrasida qayg‘u, aniqrog‘i noumidlik alomatlari aks etib turgan bu kishining mardonavor qad-qomati uning aslzodalardan ekanidan dalolat berardi. Egnidagi libosi ham o‘ziga xos: yengi uqali jigarrang zarbof chakmon, boshida qora popukli ko‘kish fas.

Ikki soatlardan keyin xizmatkor kayuta poliga mustahkam qilib mahkamlangan stolga nonushta keltirib qo‘ydi. Kayutaga ko‘zning nurini oladigan ajoyib gilam to‘shalgan edi. Zarbof chakmonli kishi taomlardan nomigagina yegandek bo‘ldi-yu, nozik did bilan ishlangan ikki kumush piyolada keltirilgan qaynoq xushbo‘y qahvani ichdi. So‘ngra unga muattar bo‘y taratib turgan chilim keltirishdi. U sadafdek oppoq tishlari bilan chilimning qahrabo nayini tishlab, muattar dud taratgancha beadam o‘ylari girdobiga cho‘mdi.

⁶ Trap – narvon zina. Kemalardagi narvonlar, ular qayerda va qanday turda bo‘lmasin baribir trap deb ataladi.

Kunning bir qismi shu tariqa o'tdi. Shxuna to'liqlarda ohista chayqalgancha, bepoyon dengizda o'zining sirli safarini davom ettirardi.

Soat to'rtlarga yaqin bu g'alati odam o'rnidan turib, ochiq illyuminator oldiga borib to'xtadi-da, ufqni ko'zdan kechirdi, keyin ustiga gilam tashlab qo'yilgan lyuk yoniga bordi. Lyukning bir burchagidagi qandaydir prujinaga oyog'i tegar-tegmas, kayutaning poli ostidagi omborning og'zi ochildi.

U yerda yuqorida zikr etilgan uchta temir chambarli bochka turardi. Notanish kishi xuddi bu bochkalarga ko'zi tushib mahliyo bo'lganday bir necha daqiqa lyuk yonida enkaygancha turib qoldi. Keyin qaddini rostlab, pichirladi:

– Yo'q... ikkilanish yetar endi! Basharti bi-rorta noma'lum orolni topib bularni ko'mish nasib etmasa, bochkalarni dengizga uloqtirganim ma'qul!

U lyuk ustini yana gilam bilan berkitib qo'ydi-da, trapdan kapitan ko'prikchasiga ko'tarildi.

Bu payt kunduzi soat beshlar chamasi edi. Havo birday. Ko'k betida parcha-parcha parqu bulutlar suzib yurardi. Mayin shabadada sal qiy-shayib, yelkanlarini chap biqindan esayotgan shamolga moslab suzib ketayotgan shxuna ortida ingichka vijir-vijir iz qoldirib borar, bu jimjima iz to'liqlarda yoyilib-taralib ketardi.

Zarbof chakmonli kishi yaqqol ko'zga tashlanib turgan lojuvard ufq chizig'ini shoshilmay, diqqat bilan nazardan kechirdi. Kapitan ko'prikchasidan har qanday o'rtacha do'nglik o'n to'rt yoki o'n besh mil olisdan ham bemalol ko'zga tashlanishi mumkin edi.

Biroq osmon gumbazini suv sathidan ajratib turgan tep-tekis chiziqda hech narsa ko'rinmasdi.

Kapitan notanish kimsaga yaqinlasharkan, u yana boyagi savolni berdi:

– Hech gap yo'qmi?..

Savolga yana o'sha birday javob bo'ldi:

– Hech gap yo'q, janobi oliylari...

Zarbof chakmonli kishi bir necha daqiqa jim qoldi. So'ngra kursiga o'tirdi, kapitan esa durbinini ufqning turli nuqtasiga to'g'rilagancha ko'prikchada u yoqdan bu yoqqa borib kelardi.

– Kapitan! – deb murojaat etdi yana notanish sayohatchi ko'zlarini ufqdan uzib.

– Janobi oliylari nimani istaydilar?

– Qayerda ekanligimizni aniq bilmoqchiman.

Kapitan xaritasini yozdi.

– Mana bu yerda, – deb qalami bilan meridian va parallellar kesishgan joydan aniq bir nuqtani ko'rsatdi.

– Manavi... sharq tomondagi oroldan qancha masofada?

– Yigirma ikki mil olisda.

– Manavi yerdan-chi?

– Taxminan yigirma olti milcha.

– Qayerda suzib ketayotganimizni shxunadagilarning hech qaysisi bilmaydimi?

– Siz va mendan tashqari hech zog' bilmaydi, janobi oliylari.

– Qaysi dengizni kesib o'tayotganimizni hammi?..

– Safarga chiqqanimizdan beri kema yo'lini shuncha o'zgartdiki, hatto eng tajribali dengizchi ham shu topda qayerda ekanligimizni aytib bera olmasa kerak.

– Dengiz sayyohlari nazaridan chetda qolgan orolni topishimga shum taqdir xalal berayotganining boisi nima ekan-a? Orol bo'lmasa, qayerdaligi yolg'iz menga ayon bo'lgan biror kaftdakkina orolcha yoki dengiz tubidan chiqqan biror qoya uchrasa-chi! U yerga o'z boyligimni ko'mardim-qo'yardim... Fursat yetganda, u yerdan yana olib ketishga bir necha kungina kifoya qilardi...

Shunday deb notanish kishi tag'in o'y daryosiga g'arq bo'ldi. Kema panjarasi ustiga tutilgan to'r uzra engashib, sakson futchacha chuqurlikkacha aniq ko'rinib turgan shaffof suvga uzoq tikilib qoldi. Keyin shaxt bilan burildi-yu:

– Mana... manavi tubsizlik!.. O'z boyligimni shunga tashlayman!.. – deya xitob qildi.

– Janobi oliylari! Boylikni u yerdan ikki dunyoda qaytarib ololmaysiz-ku keyin!

– Boyligim dushmanlar yoxud razillarning qo'liga tushgandan ko'ra undan tamoman ayrilganim afzalroq!

– Janobi oliylarining o'zlari biladilar.

– Basharti bugun qosh qorayguncha bu suvlarda noma'lum orolni topolmasak, uchala bochkachani ham dengizga uloqtiraman.

– Xo'p bo'ladi! – dedi kapitan va shamolga qarshi yurishga buyruq berdi.

Notanish kishi kapitan ko'prikchasiga qaytdi va kema panjarasiga tirsaklarini tiragancha tag'in o'yga cho'mdi.

Quyosh tez botib ketdi. Shu kuni, kechakunduz tengligi pallasidan ikki hafta ilgari, ya'ni 9-sentabrda quyosh ufqning xuddi kapitanning e'tiborini tortgan nuqtasida botdi. Bu quruqlik

yoki biror orol bilan tutashgan burunmasmikin? Bu ehtimoldan yiroq, zero savdo kemalari tez-tez qatnab turadigan va binobarin, dengizchilarga yaxshi tanish bo'lgan bu suvlarning xaritasida o'n-o'n besh mil tevarak-atrofdan hech qanday quruqlik belgilanmagan.

Ittifoqo bu g'aroyib odam uzoq va behuda izlagan, boyliklari uchun hazinalik vazifasini o'taydigan, suv sathi uzra bir necha tuaz⁷ bo'y cho'zib turgan biron qoya yoki suv osti toshi yo'liqib qolmasmikin? Dengizning shu qismi aniq tasvirlangan xaritalarda bunday narsadan nom-nishon ham yo'q edi. Hatto burunlar bilan qurshalgan eng mo'jaz orolcha ham sinchkov tadqiqotchilarning ko'zlaridan qochib qutula olmagan bo'lsa kerak. Ular bunday joyning aniq geografik nuqtasini xaritalarda ko'rsatishni aslo unutmaydilar. Mana hozir, ko'zi ilg'agunga qadar bu bepoyon bo'shliqni xaritaga chog'ishtirarkan, kapitan hatto birorta suv osti qoyasi ham yo'qligini tasdiqlashga tayyor edi.

«Sarob!» – deb qo'ydi ichida u, shubhali tomonga ikkinchi bor durbinni to'g'rilarkan. Chindan ham durbinda biron aniq shakl ko'rinmadi.

Xuddi ana shu damda (soat oltidan bir necha daqiqa o'tgan edi), agar bir vaqtlar iberiyaliklarning⁸ aytgan gaplariga ishonilsa, quyosh gardishi nola chekib dengizga cho'kib borayotgan, go'yo ufq uni yutib yuborayotgandek edi.

⁷ Tuaz – fransuzlarning qadimiy uzunlik o'lchovi, 1,95 m ga teng.

⁸ Iberiyaliklar – janubi-sharqiy yevropaning qadimiy aholisi.

Quyosh botayotganda nurlar sinishi oqibatida shafaq yallig'lanib, garchi u ufq ortiga sho'ng'ib ketgan bo'lsa-da, hanuz ko'rinib turganga o'xshaydi. Uning yaltiroq nurlari to'lqinlar bag'rini nashtar kabi teshib o'tib, g'arbdan sharqqa yo'l-yo'l bo'lib cho'zilib ketadi. Uchqunlar singari miltirab turgan so'nggi mavj yengilgina shabadada titrab turadi.

Quyosh gardishining tepasi suv sathi bilan barobarlashib, yashil nur taratgan hamonoq bu miltillash so'ndi-qoldi. Shxuna shu ondayoq qorayib, balanddagi yelkanlar esa och rangga kirdi.

Dengiz uzra tun chodiri yoyilgach, fok-machtadan⁹:

– Oe-e! – deb qichqirib qolishdi to'satdan.

– Nima gap? – deb so'radi kapitan.

– Oldinda, o'ng tomonda yer ko'rinyapti!

Ha, chindan ham bir necha daqiqa ilgari kapitanga allaqanday noaniq shakl ko'ringan tomonda quruqlik ko'zga tashlanardi. Demak, u yanglishmagan ekan!

Kuzatuv postidan yangragan qichqiriqni eshitgan vaxtadagilar kema bortiga tashlanib, g'arb tomonga tikila boshladilar. Durbinini yelkasiga osib olgan kapitan grot-machtaning¹⁰ arqoniga mahkam yopishganicha epchillik bilan yuqoriga tarmashib chiqdi-da, yelkan tiqilgan ko'ndalang yog'ochga minib olib, durbini bilan ufqning kuzatuvchi aytgan tomonini ko'zdan kechira boshladi.

⁹ Fok-machta – kema tumshug'i tomonidan hisoblaganda birinchi machta.

¹⁰ Ikki-uch machtali kemalardagi eng baland – ikkinchi machta.

Kuzatuvchi yanglishmabdi. Olti-yetti mil nari-da suv betida bir orolcha sho'ppayib turibdi; shafaqqa burkangan ufqda u qorayib ko'rinardi.

Bu orolcha oltingugurt bug'lari bilan qoplangan, balandligi o'rtacha, oddiy suv osti qoyasi bo'lsa kerak. Bu holni yarim asr keyinroq ko'rgan har qanday dengizchi sira ikkilanmay biror kema-ning mo'risidan chiqayotgan tutun deb o'ylagan bo'lardi. Ammo 1831-yilda esa, vaqti kelib, har qanday ob-havoda okeanning istagan tomoniga qatnay oladigan qudratli mashinalar paydo bo'lishini oldindan bilish amri mahol edi.

Biroq kapitan ko'z tashlashga ulgura oldi, xolos, o'ylab, mulohaza qilib o'tirishga esa fursati yo'q edi. Kuzatuvchi payqab qolgan bu orolcha deyarli o'sha zahotiyoq kechki tuman pardasiga chulg'anib ko'zdan yo'qolgandi. Lekin buning ahamiyati yo'q edi: muhimi uni ko'rishdi, ko'rganda ham aniq ko'rishdi. Bunga hech qanday shubha yo'q edi.

Kapitan palubaga tushdi. Shovqindan mudrog'i tarqab ketgan notanish kishi o'sha zamonoq kapitanni chaqirib, unga o'zining odatdagi savolini berdi.

- Xo'sh, demak...
- Ha, janobi oliylari.
- Quruqlik ko'rindimi?
- Hech bo'lmaganda orolcha bo'lsa kerak.
- Oralig'i qancha?
- Olti milcha keladi, g'arb tomonda.
- Xaritada shu joyda hech nima belgilanmaganmi?
- Hech nima.

- Bunga imoning komilmi?
- Ha, imonim komil.
- Demak, bu noma'lum orol ekan-da?
- Aftidan, shunday.
- Nahotki shunday bo'lsa?
- Agar orolcha yaqinda paydo bo'lgan bo'lsa, bu mumkin, janobi oliylari.
- Yaqinda paydo bo'lgan bo'lsa?
- Ha, bu ehtimoldan xoli emas. Menga orolcha oltingugurt bug'i bilan qoplanganga o'xshab ko'rindi. Bu yerdagi vulqon kuchlari juda faol va ular harakatga kelib suv osti tuzilishini o'zgargan hollar tez-tez uchrab turadi.
- Eh, kapitan, shunday bo'lsa koshkiydi! Menga keragi ham biron-bir to'satdan paydo bo'lib qolgan ana shunaqa qoya-da!.. Bu orol hech kimning mulki emasdir axir?
- Janobi oliylari, u birinchi bo'lib qadam qo'ygan odamniki bo'ladi.
- Unda men birinchi bo'lib qadam qo'yaman.
- Ha... siz.
- Endi kemani to'ppa-to'g'ri orolga qarab haydashlarini buyur.
- To'ppa-to'g'ri... lekin ehtiyotlik bilan! – deb javob berdi kapitan. – Suv osti qoyalari cho'zilib ketgan bo'lsa, shxunamiz shikastlanishi mumkin. Hozircha shoshilmay, orolga ertalab yaqinlashsak durust bo'larmidi...
- Ma'qul, kapitan, kutamiz, illo asta-sekin yaqinlashaveramiz...
- Ixtiyoringiz!
- Kapitan tajribali dengizchilardek ish tutdi. Qorong'ida kemani notanish qirg'oqqa yaqin olib

borib bo'lmaydi. Biroq yangi yerga yaqinlashganda lot¹¹ bilan chuqurlikni o'lchab ko'rish, tun qorong'iligidan ehtiyot bo'lish kerak.

Notanish kishi o'z kayutasiga qaytdi. U kechasi uxlagan bo'lsa-da, yunga uyg'otmasidan avval kallayi saharlab palubaga chiqib olgandi.

Kapitan ko'prikchani tark etmaslikka hamda tungi navbatni botsmanga topshirmaslikka ahd qildi.

Asta-sekin tun cho'kib, ufq tobora xiralashib borardi.

Quyoshning so'nggi nurlari qadalgan bulut parchalari shamday so'nib, shamol asta-sekin tina bordi. Kemani boshqarib, yo'lga solib turishgagina zarur bo'lgan yelkan qoldirilib, boshqalari yig'ildi.

Ko'k gumbazida dastlabki yulduzlar miltillay boshladi. Shimolda qutb yulduzi xiragina yiltirab, mijja qoqmay tikilib turardi, bu orada yetti og'aynining tirsagidagi Arktur charaqlay boshladi...

Uyquga cho'mgan dengiz sathi tungi osoyish-talik hukmida edi.

Kapitan shxuna bortiga suyanib, langar chig'iri yonida qotib turardi. Uning butun xayolini faqat birgina narsa – g'ira-shira qorong'ilik qo'ynidan ko'zga tashlangan qora nuqta haqidagi o'y band etgandi. Hozir uni yana shubha-gumonlar o'z girdobiga tortgan tun zulmati esa bu gumonlarini yanada orttirardi. Ko'ziga shunday ko'rindimikin? Chindan ham bu yangidan paydo bo'lgan orolmikin? Ha, albatta. U bu suvlarni yaxshi biladi, bu yerlarda yuz martalab bo'lgan-ku, axir... Nazarida orolcha bir milcha naridadek, eng yaqin

¹¹ Lot – dengiz chuqurligini o'lchaydigan asbob.

qirg'oqdan esa sakson lecha¹² berida turgandek edi. Ammo boringki u yanglishmagan va orolcha haqiqatan ham suv ostidan chiqib qolgan bo'lsin deylik, uni biror kimsa egallab olmaganmikin?.. Bordi-yu biror dengiz sayyohi o'z bayrog'ini qadab ketgan bo'lsa-chi?.. Okean laxtakchilari – inglizlar o'z yo'llarida uchragan bu tirnoqdakkina laxtak orolchani topib, shosha-pisha busiz ham to'lib-toshgan to'rvalariga solib olmaganmikinlar? Qorong'ida orolchani biror kimsa tomonidan egallanganidan dalolat beruvchi o't yonib qolmasmikin?.. Ehtimol, bu bir uyum tosh dengiz sat-higa bir necha hafta yoxud, hatto, bir necha oy burun chiqib qolgandir, unda gidrografning¹³ orolchani qayerda turganini aniqlovchi asbobidan qochib qutulishi amri mahol-ku.

Tong yorishishini kutarkan, bu iztirobli va tashvishli o'ylardan kapitanning yuragiga g'ulg'ula tushib qolgandi. Endi orolning qayerdaligini ko'rsatuvchi biron nishona qolmagan edi – hatto zulmatni sal yoritishi mumkin bo'lgan orolchani chulg'ab turgan bug' ham yo'qolgandi. Tun zulmatida osmonu suv qo'shilib-chatishib ketgan edi.

Vaqt o'tib boryapti. Qutb yulduzi turkumi ko'k gumbazi bo'ylab uning to'rtidan birini bosib o'tdi. Soat to'rtlarda shimoli-sharq tomon yorisha boshladi. Tonggi g'ira-shirada qoq tepada turgan paru bulut parchalarini ko'z bemalol ilg'ay olardi. Yana bir necha daqiqadan keyin ufqda shafaq

¹² Lye – fransuzlarning eskirib qolgan o'lchovi, 4,5 kmga teng.

¹³ Gidrograf – gidrografiya mutaxassisi, gidrografiya – geografiyaning suv osti tuzilishini o'rganuvchi bo'limi.

o'ynay boshlaydi. Biroq dengizchi uchun kecha kechqurun ko'zi tushgan orolchani, basharti u chindan ham mavjud bo'lsa, ko'rish, yana ko'rish uchun buncha yorug'likning hojati yo'q edi.

Xuddi shu asnoda kapitan turgan ko'prikchaga notanish kishi chiqib keldi.

– Xo'sh?.. Qani o'sha orol? – deb so'radi u.

– Ana u, janobi oliylari, – deb javob berdi kapitan, shxunadan taxminan ikki milcha nariroqda ko'zga tashlanib turgan bir to'da qoyalarni ko'rsatib.

– Yaqinroq borilsin!

– Eshitaman, janobi oliylari!..

IKKINCHI BOB

Ba'zi bir zaruriy tafsilotlar

Kitobxon Muhammad Ali poshsho¹⁴ nega to'satdan sahnaga chiqib qoldi, deb ajablanib yurmasin. Yaqin Sharq tarixida bu mashhur poshshoning tutgan mavqei qanchalar yuksak bo'lmasin, bizning qissamizda yangi Misr davlatining asoschisi bo'lgan bu odam shxunada sayohat qilib yurgan notanish aslzoda kimsa bilan adovatli mu-

¹⁴ Muhammad Ali (1769 – 1849) Misrning 1805 – 1849-yillardagi hukmdori. Turkiya tobeligidan qutulish uchun o'g'li Ibrohim ko'magida 1831 – 1833 va 1839 – 1840-yillarda olib borilgan urushlarda turk lashkarlarini tor-mor etadi. Biroq Yevropa davlatlari, ayniqsa, Angliyaning siquvi ostida qaytadan Turkiya sultoniga itoat etishga majbur bo'lgan. Ibrohim poshsho 1816 – 1818-yillarda Arabistonda urush olib borgan. 1824 – 1828-yillarda Turkiya Nizomiyoniga qarshi ko'tarilgan yunonlar qo'zg'olonini bostirishda qatnashgan.

nosabatda bo'lgani tufayligina qatnashadi, xolos.

O'sha paytlarda Muhammad Ali o'g'li Ibrohim podshoning lashkarlari yordamiga tayanib, Turkiya hukmdori bo'lgan sulton Mahmudga¹⁵ qarashli Falastin bilan Suriyani hali zabt etishga kirishmagan edi. Aksincha, sulton bilan poshsho do'st edilar, zero, Muhammad Ali mo'jazzgina yunon qirolligini tiklashga urinib ko'tarilgan qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirishda katta madad bergandi.

Uzoq yillar davomida Muhammad Ali bilan Ibrohim poshsho o'z poshsholiklarida tiichgina yashashdi. Biroq, sultonlikning oddiy fuqarolari bilan bab-baravar qilib qo'yadigan bu tobelik ularning izzat-nafsigaga tegardi, albatta. Shuning uchun ham ular asrlar mobaynida yelkalaridan ezib kelgan istibdod zanjirlarini parchalab tashlash niyatida qulay fursat kelishini kutib yotardilar.

O'sha paytlarda Misrda bobo va bobokalonlari davridan avlodlar osha to'plangan, eng katta boylikning egasi bo'lgan bir kimsa yashardi. Bu badavlat odam Qohirada istiqomat qilardi, uni Komulk poshsho deyishardi. Ana shu kishini kapitan janobi oliylari deb ulug'layotgan edi.

Bu fozil odam bo'lib, matematika fanlariga moyilligi zo'r edi. Uni bu ilmlarni faqat amalda qo'llash jarayoni emas, balki nazariy jihatlari ham qiziqtirardi. Jisman misrlik, qalban esa turk bo'lgan Komulk poshsho avvalo Sharq odami edi.

Yaqin Sharq mamlakatlarini G'arbiy Yevropa

¹⁵ Mahmud II (1785 - 1839) - Turkiya sultoni, u hukmronlik qilgan davrda Usmonli imperiyasi inqirozga yuz tutgan.

davlatlari tajovuzidan Muhammad Aliga qaraganda Mahmud ko'proq himoya qilajagini tushungan Komulk poshsho Mahmud tomoniga o'tib, butun vujudi bilan kurashga berilib ketdi. Komulk poshsho 1780-yilda harbiylar oilasida tug'iladi, hali yoshi yigirmaga to'lmasdanoq Jazzar¹⁶ qo'shiniga ko'ngilli bo'lib qo'shiladi va o'z jasorati tufayli ko'p o'tmay poshsholik unvoniga erishadi. Komulk poshsho 1799-yili Bonapart va uning generallari Kleber, Rene, Lann, Bon va Myurat boshchiligidagi fransuz qo'shinlari bilan bo'lgan urushlarda qatnashib, o'z hayoti, boyligi, erkini yuz marotabalab tahlika ostida qoldirdi. Al-Arishdagi jangda turklar bilan birga asir tushadi. Unga, bundan buyon hech qachon Fransiyaga qarshi kurashmayman deb qasamyod etsang, ozod qilamiz deyishadi. Biroq xatti-harakati singari qarashlari ham qat'iy va matonatli bo'lgan Komulk poshsho kelajakda taqdirning o'zgarib qolishiga qattiq ishonganidan oxirigacha kurashishga ahd qilib, bu taklifni rad etadi. Ko'p o'tmay u qochishga muvaffaq bo'ladi va jon-jahdi bilan kurashga otiladi.

6-martda, Yaffa topshirilganda, taslim bo'lganlar qatori uning hayoti saqlanib qoldi. Aksariyati alban yoki arnautlardan iborat bo'lgan to'rt ming asir Bonapart qarshisida saflanganda, u bu jasur askarlar qo'shib Suriyaning Aqqa porti poshshosining garnizoni kuchayib ketmasin deb cho'chidi. Shu boisdan Bonapart ularning hammasini otib

¹⁶ Jazzar (arabcha – jallod, qassob degani) – sultonlikning Suriya va Livandagi noibi. Sultonlikka qarshi ko'rilgan qo'zg'olonlar qatnashchilarini shafqatsizlik bilan jazolagani uchun shu laqabni olgan.

tashlashga buyruq berdi, bu bilan esa u o'zining hech narsadan qaytmaydigan fotih ekanligini isbotladi.

Bu safar Al-Arishdagidek harbiy xizmatni tashlayman, deb qasamyod etsanglar ozod qilamiz, degan taklifni qilib o'tirmadilar. Yo'q! Ularning barini o'limga hukm qildilar. O'q tekkanlar qumloq qirg'oqqa tappa-tappa qulayverdilar, o'q tegmay qolgan va qutuldim, afv etishdi deb o'ylaganlar esa baribir o'sha qoyali qirg'oqda ko'z yumdilar.

Ammo Komulk poshshoning peshonasiga bu yerda halok bo'lish bitilmagan ekan.

Fransuzlar orasidan – tan bermoq kerak ularga – bu dahshatli qirg'indan nafratlanganlar ham topildi. Bu dovyurak kishilar bir necha asirning hayotini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar. Xaloskorlardan biri, savdo kemasining dengizchisi tunda bu baxti qarolardan hali joni uzilmaganlari bo'lsa kerak deb qoyalar tomon jo'nadi, u yerdan og'ir yaralangan Komulk poshshoni topib, uni ishonchli yerga olib borib, parvarish qildi. Komulk poshsho bunday himmatni unuta olarmidi? Aslo. Uning o'z xaloskorini qachon, qanday va qay tariqa taqdirlagani mazkur haqqoniy hamda g'aroyib hikoya qilinadi...

Shundan so'ng oradan uch oy o'tgach, Komulk poshsho Bonapart Aqqa ostonalaridagi jangda boy berdi, Damashq hokimi Abdulla boshchiligidagi turk qo'shinlari 4-aprelda Iordaniyani bosib o'tdi, ser Vilyam Sidney qo'mondonligidagi ingliz eskadrasi esa ayni vaqtda Suriya suvlarida soqchilik qilardi.

Bonapart Kleber va Jyuno¹⁷ diviziyalarini madadga yuborganiga, hatto Tabor 'tog'idagi jangda turklarni tor-mor qilib, o'zi ham yetib kelganiga qaramay fursat o'tgan edi; Napoleon Aqqaga qaytadan tahdid qilib kelganida, u yerga allaqachon o'n ikki ming kishilik qo'shin madadga yetib kelgandi. Buning ustiga vabo tarqaldi. 20-mayda Bonapart qamalni bekor etdi.

Shundan keyin Komulk poshsho Suriyaga qaytishga jazm etdi. Bunday bezovta, xavotirli damlarda Misrga qaytish ulkan ehtiyotsizlik bo'lardi. Faqat kutish lozim edi, ana shuning uchun ham Komulk poshsho besh yil kutdi. O'zining davlatmandligi tufayli u Misr hukmdorining harisligidan saqlanish mumkin bo'lgan turli viloyatlarda beka-mi-ko'st hayot kechira olardi.

Xuddi mana shu yillar mobaynida og'olardan¹⁸ birining o'g'li hammaning diqqat markazida edi, uning jasorati 1799-yildagi Abukir jangida yaqqol ko'zga tashlangan edi.

Gap o'zining bunday obro'-ta'siridan foydalanib mamluqlarni sulton Hisrov poshshoga qarshi qo'zg'ab qo'ygan, Hisrovning vorisi Xurshidni taxtdan ag'darishga muvaffaq bo'lgan, va nihoyat, 1806-yili sultonlik hukumatining rizoligi bilan o'zini hukmdor deb e'lon qilgan Muhammad Ali haqida borayotir.

Komulk poshshoning homiysi Jazzar esa bundan ikki yil muqaddam vafot etgandi. Shundan

¹⁷ Jyuno – gersog d'Abrantes (1771 – 1813), fransuzlar generali. Bonapartning Italiya va Misrga qilgan yurishlarida qatnashgan.

¹⁸ Og'o – Turkiyaga tobe bo'lgan muzofot va viloyatlar hokimi.

keyin bu mamlakatda o'zini yolg'iz his etgan Komulk poshsho endi bexavotir Qohiraga qaytsam bo'lar degan qarorga keladi.

Bu paytda uning yoshi yigirma yettiga yetgandi. Yaqinginda katta merosga ega bo'lib, Misrning eng oldi boylaridan biriga aylangan edi u. Uylanishga aslo mayli yo'qligi va odamoviroq bo'lib, tanholikni yoqtirgani tufayli u o'zini butunlay harbiy san'atga baxsh etgan va harbiy iste'dodini amalda qo'llash uchun faqat qulay fursat yetishini kutib yotardi. Uning vujudida yoshlikka xos g'ayrat qaynab jo'sh urar, sirtga toshib chiqish uchun o'ziga yo'l izlardi. Bu yoshlik g'ayrati uning olis va uzoq vaqtlar davom etgan sayohatlarida qo'nish topdi.

Komulk poshshoning bevosita merosxo'ri yo'qligi sababli vaqti-soati yetib behisob davlatim kimga tegadi degan masala ko'ndalang bo'lardi qarshisida. Bu vaziyatdan foydalanib qoladigan biror urug'-aymog'i yo'qmikin?

Komulk poshshoning o'zidan olti yosh kichkina, 1786-yilda tug'ilgan Murod degan bir qarindoshi bor edi. Garchi ikkovlari ham Qohirada istiqomat qilsalar-da, siyosiy maslamlari turli bo'lgani uchun o'rtalarida bordi-keldi yo'q edi. Komulk poshsho Usmonli imperiyasi manfaatlariga sodiq bo'lib, o'zining bu sadoqatini qanday isbotlaganidan xabardormiz. Murod esa tilida ham, amalda ham turklar ta'siriga qarshi kurashar, Muhammad Ali Turkiya sultoni Mahmudga qarshi fitnalar uyushtira boshlaganida uning otashin muxlisiga aylangan edi.

Komulk poshsho qanchalik badavlat bo'lsa, shunchalik qashshoq bo'lgan Murod uning yakka-

yu yagona qarindoshi sifatida, lekin faqat muro-saga kelganlari taqdirdagina o'z qarindoshining davlatiga ega bo'la olardi. Ammo bunday bo'lishi mumkin emasdi. Aksincha, bu avlodning so'nggi vakillari bo'lgan bu ikki kimsa orasidagi ixtilof alamzadalik, adovat va hatto nafratlanish oqibati-da faqat chuqurlashib borardi.

O'n sakkiz yil mobaynida – 1806-yildan 1824-yilgacha – Muhammad Alining hukmronligi-ga hech qanday tashqi urushlar tahdid qilmadi. Ayni vaqtda Muhammad Ali o'zining sobiq sheriklari, taxtga chiqishga madad bergan hamkor-lari – kundan kunga ta'sir-e'tiborlari o'sib, xatti-harakatlari tobora xatarli tus olib borayotgan mamluklarga qarshi kurashishga majbur bo'ldi, 1811-yilda butun Misr bo'ylab uyushtirilgan yalpi qirg'in Muhammad Alini ichki xatarlardan xalos etdi. Shundan keyni hukmdor uchun osoyishga yillar boshlandi. Uning Devon¹⁹ bilan aloqasi soz bo'lib qolaverdi (sirtidan qaragandagina shunday edi). Aslida esa sulton Mahmud Muhammad Aliga ishonmasdi – bunga asosi bor edi albatta.

Komulk poshsho ko'pincha Murodning yovuz niyatlariga nishon bo'lardi. Muhammad Alining o'ziga bo'lgan iltifotidan foydalangan Murod hukmdorni badavlat misrlikka qarshi gij-gijlab, ig'vo qilishdan tinmasdi. U o'z hukmdoriga Komulk poshsho sulton Mahmudning tarafdori, turklarning do'sti ekanini, ularni deb qon to'kkanini eslatib turardi. Murodning aytishicha, Komulk poshsho xavfli, shubhali odam... ehtimolki, josus emish... Bir odamning qo'lida shunchalik behisob boy-

¹⁹ Devon – Turkiyada oliy davlat idorasi.

likning bo'lishi xatarli emish... Murod shuh-ratparast hamda qat'iyatsiz hukmdorning harislik ishtahasini qitiqlash uchun nimayiki lozim bo'lsa, barini gapirardi.

Biroq bu narsa Komulk poshshoni zarracha tashvishga solmasdi. U Qohirada hech kimga qo'shilmay shunchalar tanholikda yashardiki, unga qarshi tuzoq qurib ilintirish amri mahol edi. Mabodo u Misrni tark etganida ham o'zidan besh yashar kichik bo'lgan kapitan Zo boshqaradigan shaxsiy shxunasidagina olis safarlarga chiqardi, xolos. Kapitan Zo esa unga benihoya sodiq odam edi... Osiyo, Afrika va Yevropa dengizlari bo'ylab safar qilarkan, Komulk poshsho butun insoniyatga takabburona loqaydlik bilan qarovchi, bemaqsad hayot kechiruvchi kimsadek iztirob chekardi.

Kitobxon ehtimol, Komulk poshsho o'z hayo-tini saqlab qolgan anavi fransuz dengizchini unu-tib yubormadimikan, deb so'rar. Unutgan deysiz-mi?.. Yo'q, hech qachon. Bunaqangi xizmat unu-tilmaydi. Lekin o'sha dengizchi taqdirlanganmikin? Yo'q. Balki Komulk poshsho uni keyinchalik mu-kofotlashni ixtiyor qilib, navbatdagi dengiz sayo-hati paytida fransuz suvlariga boriladigan qulay fursatni kutayotgandir? Bunga kim ham javob bera olardi?..

1812-yilga kelib Komulk poshsho Qohirada qattiq nazorat ostida yashayotganini payqab qoladi. Bir necha bor hukmdor mo'ljallagan sayohatiga chiqishga izn bermadi. Komulk poshshoning erki tahlika ostida qoldi. Bu qarindoshining muttasil g'iybatining oqibati edi.

1823-yili, o'ttiz yetti yoshida Murod uylanishga ahd qiladi, lekin bu nikohdan davlat ortirolmaydi. U yoshgina falloh qiziga, deyarli bir cho'riga uylanadi. Shuning uchun ham Murodning Muhammad Ali bilan o'g'li Ibrohimga yaqinligidan foydalanib, qo'lidan kelganicha ularni Komulk poshshoga qarshi qo'yish yo'lida qilgan xatti-harakatlaridan ajablanmasa ham bo'ladi.

Bu orada Misr uchun yana jangu jadal pallasi boshlanib, qilich yalang'ochlashga to'g'ri kelib qolgandi. 1824-yili Yunoniston sulton Mahmudga qarshi bosh ko'tardi. Sulton o'z tobesi bo'lgan Muhammad Alini isyonchilarga qarshi kurashda madad berishga chaqirdi. Bir yuz yigirma kemadan iborat bo'lgan flot Ibrohim poshsho boshchiligida Moreyaga tomon yo'lga tushib, u yerda o'z qo'shinlarini jangga soladi.

Bu voqea Komulk poshshoda yana hayotga qiziqish uyg'otadi; yigirma yillik tanaffusdan so'ng yana yangi xatarli safarga otlanishga, qo'zg'olon ko'targan Peloponnesga qarshi kurashib, sultonlik haq-huquqini himoya qilishga jon-jahdi bilan oshiqadi. U Ibrohim lashkarlari safiga qo'shilmoqchi bo'ladi, biroq rad javobini oladi, sulton qo'shinlarida ofitserlik qilish maylini bildiradi – bu istagi ham rad etiladi. Millioner qarindoshini ko'zdan yo'qotmaslikdan manfaatdor bo'lgan anavi bizga ma'lum shaxsning mash'um qo'li yo'qmikin bunda?

Yunonlarning ozodlik yo'lida olib borgan kurashi bu mardonavor millatning g'alabasi bilan tugadi. Ibrohim poshsho lashkarlari Yunonistonni uch yil shafqatsizlarcha qamal qilib turgandan keyin, 1827-yildagi Navarin jangida ingliz, fransuz

ham rus flotlarining birlashgan kuchlari turklar eskadrasini yakson qiladilar va hukmdorni omon qolgan kemalari hamda qo'shinlarini Misrga chaqirib olishga majbur etadilar. Ibrohim poshsho Qohiraga Murod kuzatuvida qaytadi. Murod Peloponnes urushi davomida u bilan birga bo'lgan edi.

Shu damdan boshlab Komulk poshshoning ahvoli yanada mushkullasha bordi. 1829-yili falloh xotini o'g'il tug'ib bergach, Murodning adovati ming chandon ortdi. Davlati emas, uning oilasi ortgandi, xolos. Murod qanday bo'lmasin Komulk poshshoning davlatini qo'lga kiritishga ahd kildi. Hukmdorning bu borada madad berishidan aslo shubhalanmasa ham bo'ladi. Bunda muruvvat Misrda yangilik emas. Darvoqe, bunday ishlar faqat sharqdagina yuz bermaydi...

Kitobxon Murodning o'g'lining oti Souk ekanligini yodda tutsin.

Vujudga kelgan vaziyatga to'g'ri baho bergan Komulk poshsho faqat birgina chora: aksariyat qismi olmos va qimmatbaho toshlardan iborat bo'lgan butun boyligini jamlab Misrdan olib chiqib ketishgina qolganini tushundi. Bu tadbir badavlat misrlikling tamoman ishonchini qozongan, Iskandariyada yashovchi bir necha muhojir yordamida bag'oyat ehtiyotkorlik va ustalik bilan amalga oshirildi. Nihoyatda sir tuta bilishlik bu tadbirning muvaffaqiyatli chiqishining omili bo'ldi. Bu muhojirlar kimlar edi? Qaysi millatdan edi ular. Buni yolg'iz Komulk poshshoning o'zi bilardi.

Ko'rinishidan ispan vinolari saqlanadigan bochkalarga o'xshagan, temir chambarlar bilan mustahkamlangan qo'shqavat devorli mo'jazzgina uchta

bochkacha Komulk poshshoning bor boyligini joylash uchun kifoya bo'ldi. Nihoyatda ehtiyotkorlik bilan bu bochkachalar Neapolitan kemasiga chiqarildi; keyin kapitan Zo va ming bir xatardan mo'jiza bilan omon qolgan boyliklar egasi ham xuddi o'sha kemadan joy olishdi: ayg'oqchilar uning ortidan Qohiradan to Iskandariyagacha izma-iz ergashib borishdi, u o'sha yerdaligida har bir qadamini nazardan qochirishmadi.

Besh kundan keyin kema Ladikiyaga langar tashladi, u yerdan esa Komulk poshsho Aleppo²⁰ tomon yo'l oldi. U shu shaharda istiqomat qilishga qaror bergandi. Endilikda u o'zining sobiq boshlig'i, hozirda esa Aqqaga poshsho bo'lib olgan general Abdullaning homiyligida, Suriyada ekan, Murodning fitna-fujurlaridan xavotirlanishning hojati bormidi? Garchi Muhammad Ali qanchalik qudratli bo'lmasin, uni sultonlikka tobe bir chekka viloyatdan qidirib topa olarmidi?

Har qalay shunday bo'lishi mumkin ekan.

Xuddi o'sha 1830-yilda Muhammad Ali sulton bilan aloqasini uzdi. Shuhratparast hukmdor Mahmud bilan bo'lgan tobelik iplarini uzib, Misrdagi mulkiga Suriyani qo'shib olish, ehtimolki Usmonli imperiyasiga hukmdor bo'lish kabi zamindor fikrlarga jur'at etgandi. Mojaro chiqarish uchun bahona topish juda oson edi.

Muhammad Ali amaldorlari zulmidan ezilib ketgan fallohlar Abdulla homiyligida Suriyadan panoh izlab qoldilar. Misr hukmdori qochoqlarni qaytarishlarini talab qildi. Aqqa poshshosi esa bundan bosh tortdi. Shunda Muhammad Ali sul-

²⁰ Hozirgi Xalab.

tondan Abdullani qurol kuchi bilan ta'zirini berishga izn so'rab qattiq turib oldi. Dastavval Mahmud falohlar Turkiya fuqarolari, shuning uchun ham ularni Misr hokimiga qaytarib berishni istamasligini aytdi. Biroq oradan biroz fursat o'tib, Skutariy poshshosi qo'zg'olon ko'targach Mahmud yordam bermaganida ham, o'zini betaraf qilib ko'rsatish niyatida unga xayrixohlik bildirdi.

Turli sabablar, shu jumladan Levant portlarida tarqalgan vabo Ibrohim poshsho boshliq yigirma ikki harbiy kema hamda o'ttiz ikki ming kishilik qo'shinning hamlasini to'xtatib qoldi. Shunday qilib, misrliklar Suriyaga kelib tushishlari bilanoq o'ziga tahdid qilajak xatar haqida bosh qotirish uchun Komulk poshshoning yetarli vaqti bor edi.

Komulk poshsho bu paytlarda ellik ikkiga qadam qo'ygandi, lekin bu qadar bezovta hayot kechirganidan yoshiga nisbatan xiyla qarib qolgan ko'rinardi. Hafsalasi pir bo'lgan, horigan, deyarli noumidlikka tushgan Komulk poshsho faqat bir narsani – oromnigina istardi. Buni u Aleppondan toparman degan edi, biroq voqealar to'foni yana unga qarshi hamla qila boshladi.

Ibrohim Suriyaga bostirib kirish taraddudida turgan bir paytda Aleppoda qolish aqldanmidi? Hozircha hamma gap faqat Aqqa shahri va viloyati ustida borardi. Ammo Abdullaning hukmronligi tugagach, Misr hukmdori o'z muzaffar qo'shinini to'xtatib qolarmikin? Qaysar poshshoni jazolash bilan uning shuhratparastlik hirsini qanoatlanarmikin? Kezi kelib qolganda o'zining doimiy istagi bo'lgan Suriyani batamom zabt etish yo'lida bu qulay fursatdan foydalanishga urinib ko'rmasmikin?

Aqqani ishg'ol etgach, Ibrohimning sarbozlari Damashq, Sidon, Aleppoga tahdid qilmasmikin? Bu o'ylarning bari jiddiy xavf uyg'otardi.

Bu gal Komulk poshsho qat'iy qarorga keldi. Murodning shaxsan Komulk poshshoni qo'lga tushirish uchun emas, balki uning boyligini qanday bo'lmasin, hatto talaygina qismini Muhammad Aliga berib bo'lsa hamki, qo'lga kiritish niyatida ta'qib etib kelayotgani ayon edi. Demak, boylikni yo'qotish, shunday xilvat joyga gumdon qilish kerakki, toki hech kim topolmasin! Undan u yog'i voqealar oqimiga qarab bo'laveradi. Basharti Komulk poshsho keyinchalik hayoti bilan barobar bo'lmish Sharqni umrbod tark etishga jazm qilgudek yoki Suriyadagi vaziyat yaxshilikka yuz tutib, u tag'in qaytgudek bo'lsa, unda boyligini yakkash o'zigagina ma'lum bo'lgan xilvatgohdan olib kelaveradi...

Kapitan Zo Komulk poshshoning rejasini ma'qulladi va sir hech qachon ochilmaydigan qilib, bu rejani amalga oshirish yo'llarini o'ylab topdi. Shxuna sotib olindi, kema xizmatiga esa turli millat kishilaridan yolladilar. Matroslar avval bir-birini tanimas, bir-biri bilan mutlaqo aloqasi yo'q edi. Boshqa talaygina yuklar orasida uchta bochkachani ham shxunaga ortishdi. Ularga nima solingani hech kimning xayoliga ham kelmasdi albatta. 13-aprelda Komulk poshsho Ladikiyada shxunaga chiqdi-da, ochiq dengiz tomon suzib ketdi.

Komulk poshshoning qayerdaligi o'ziga va kapitangagina ma'lum bo'lgan biror orolni topishga qat'iy ahd qilganidan xabardor edik. Dastavval kema ekipajini chalg'itish, birorta ham matrosning

shxunaning qaysi tomonga hamda qayerga ketayotganini aniqlayolmasligiga erishish zarur edi. O'n besh oylik safar mobaynida kapitan Zo muttasil yo'lni o'zgartirib bordi. Shxuna O'rtayer dengizidan chiqib ketdimi yoki qaytib keldimi? Ko'hna Dunyo mamlakatlari qirg'oqlarini yuvib turgan boshqa dengizlarga kirib o'tdimi? Bu yangi orol Yevropa suvlarida topildimi? Hammasi qorong'i edi kema ekipajiga. Faqat birgina narsa ayon edi: shxuna navbati bilan turli kengliklar va turli iqlim mintaqalarini suzib o'tdiki, uning shu topda qasrda turganini eng mohir dengizchi ham aniqlayolmasdi. Ikki-uch yilga yetadigan oziq-ovqat g'amlab olingan shxuna chuchuk suv olganigina biror qirg'oqqa yaqinlashar, keyin tag'in ochiq dengizga yo'l olardi, qasrda suv olinganini yolg'iz kapitan Zogina bilardi, xolos.

Biz endi o'z boyligini dengizga uloqtirmoqchi bo'lib turgan damda najotbaxsh orol ko'zga tashlanib qolguniga qadar Komulk poshshoning uzoq vaqt suzib yurganidan xabardormiz.

Biz eslatib o'tishga to'g'ri kelgan, Misr va Suriya tarixiga aloqador bo'lgan voqealar ana shulardan iborat. Endi biz bu mavzuga qaytmaymiz. Qissamiz bunday jiddiy muqaddimaga qarab taxmin qilinganidan ko'ra birmuncha g'aroyib va g'ayri oddiyoqdir. Biroq qissa mustahkam asosga qurilmog'i lozim, muallif ham xuddi shunday qildi, yoxud hech bo'lmaganda shunday bo'lishiga harakat qildi.

UCHINCHI BOB

Noma'lum orolning po'lat sandiqa aylangani

Kapitan Zo yelkanlarning ba'zilarini yig'ish haqida buyruq, hamda darg'aga tegishli farmoyish berdi. Shimoli-sharqdan mayin subhidam shabadasi esardi. Shxuna tumshuqdagi birinchi machta yelkanini, pastdan ikkinchi va ikkinchi machtadagi eng pastki yelkanlarini shamolga tutganicha orolga yaqinlashib borardi. Boshqa yelkanlar yig'ib qo'yilgandi. Basharti dengiz to'lqinlanib qolgudek bo'lsa, shxuna orolchani shundoq biqinginasiga yashirina olishi mumkin edi.

Komulk poshsho kapitan ko'prikchasi panjara-siga tirsaklarini tiraganicha diqqat bilan olislarga tikilayotgan paytda, kapitan undan oldinroqda turib, tajribali dengizchilarga xos ehtiyotkorlik bilan shxunani hech qanday xaritada ko'rsatilmagan orol tomon olib borardi.

Haqiqatan bu yer xavf-xatarlarga to'la bo'lishi mumkin. Ohista mavjlanib turgan dengizdagi makkor suv osti qoyalari payqab olish bag'oyat mushkul ish. Bu yerda kemalar yura oladigan chuqur joyni ko'rsatib turuvchi biror belgi yo'q, bo'lishi ham mumkin emasdi-da, axir. Aftidan, orolga bemalol yaqinlashaversa bo'ladiganga o'xshaydi – suv osti qoyalari mutlaqo ko'rinmaydi. Botsman lot tashlab, biror xavfdan dalolat berguvchi hech nima topa olmadi.

Quyosh tongotar oldidagi tuman pardasini yirtib, o'zining qiya nurlari bilan orolchani yori-

tarkan, bu subhidam chog'ida bir milcha narida ular ko'z o'ngida quyidagi manzara namoyon bo'ldi.

Orolcha shunchalik mo'jaz ediki, faqat bosqinchi, ziqna Angliyani mustasno qilganda, uni birorta ham davlat ko'zga ilmasdi. Bu bir uyum toshloq qoyalarning dengizchilar bilan gidrograflarga noma'lumligi hamda eng yangi xaritalarda ham belgilanmaganining yorqin dalili – tevarak-atrofdagi suvlarni nazorat qilib turish maqsadida uni Buyuk Britaniyaning ikkinchi Gibraltarga aylantirib ulgurmaganidir. Orolcha chindan ham yaqinligida paydo bo'lgan va odatdagi kemalar qatnaydigan yo'ldan chetda edi.

Orolcha tashqi ko'rinishidan yaxlit bir yapasqi tepalikka o'xshar, hamma tomonini o'lchab chiqqanda arang uch yuz tuazga yetardi. Tuzilishi jihatdan tuxumga o'xshab ketar, bo'yi yuz ellik, eni oltmish-sakson tuazcha kelardi. Lekin orolcha muvozanat qonunlari bilan bahslashmoqchi bo'lgandek bir-biriga mo'jizaviy yo'llar bilan mingashib ketgan, betartib joylashgan qoyalar to'plami emasdi. Orolchanning suv betiga yer qobig'ining asta-sekin, bir maromda o'sishi natijasida chiqib qolgani shubhasizdir. Uning qo'qqisidan bo'lgan yer osti silkinishlari oqibatida emas, balki dengiz tubidan sekin-sekin o'sib chiqqani yaqqol ko'rinib turardi. Orolchanning qirg'oqlari tep-tekis, hech qanday qo'ltig'u hech qanaqa ko'rfazchalar yo'q. U tabiat ming bir xil naqsh o'yib, ming bir tur ajib jimjimalar chekkan dengiz chig'anoqlarining birortasiga o'xshamas, balki ustritsaning ustki qopqog'i yoxud – bunisi aniqroq bo'lsa kerak –

toshbaqaning kosasini eslatardi. Bu kosa o'rtasiga tomon balandlab borib, uning cho'qqisi dengiz sathidan bir yuz ellik futcha²¹ baland edi.

Orolchada biror tup daraxt bormidi? Bitta ham. O'simliklardan biron nishona-chi? Hech qanday. Odam qadam bosganidan biror dalolat bormidi? Hech qayerda. Orolchada tirik jondor zoti yo'q va bo'lishi mumkin emas, bundan shubhalanmasa ham bo'ladi. Shuning uchun ham agar Komulk poshsho o'z boyliklarini yashirmoqchi ekan, bu toshloq orolchadan ma'qulroq, xilvatroq, bexavotirroq joyni topib ham bo'lmasdi.

«Orolcha ataylab xuddi shu ishga yaratilgandaya!» – deb xayolidan o'tkazdi kapitan Zo.

Bu orada shxuna asta-sekin yelkanlarini yig'ib, shoshilmay suzib borardi. Orolchaga yetishga bir kabeltovcha²² masofa qolganda kapitan langar tashlashga buyruq berdi. Shu zahotiyoq chig'irdan bo'shatilgan langar tuynukdan shaldirab chiqayotgan zanjirni surgaganicha yigirma sakkiz sarjin chuqurlikdan joy oldi.

Orolchanning qatlam-qatlam qirg'og'i – har qalay ular yaqinlashgan tomon – nihoyatda tikka edi. Kema sayozga o'tirib qolishidan cho'chimay yanada yaqinroq borsa, qirg'oqqa taqalib to'xtasa ham bo'lardi-yu, lekin, har holda sal nariroqda to'xtalgani ma'qul edi.

Shxuna langar tashlab, botsman so'nggi yelkanlarni ham yig'ishga buyruq bergach, kapitan Zo tag'in o'z ko'prikchasiga ko'tarildi.

²¹ Fut – ingliz uzunlik birligi. 30,4 santimetrga teng.

²² Kabeltov – dengiz uzunlik o'lchovi, 185,2 metrga teng.

– Katta qayiq tushurishni buyuradilarmi, janobi oliylari? – deb so‘radi u.

– Yo‘q... yalik²³. Ikkimiz tushganimiz ma‘qul.

– Ixtiyoringiz.

Bir daqiqadan keyin kapitan ikkita yengilgina eshkakni ushlaganicha yalikning tumshug‘ida, Komulk poshsho esa quyruq tomonida o‘tirardi. Birpasda mo‘jazgina qayiqcha kapitanning nazari-da qirg‘oqqa chiqish eng qulay joy bo‘lib ko‘ringan yerga suzib bordi. Qoyaning yorig‘iga to‘rt tishli langarchani mahkamlab o‘rnatishdi, Komulk poshsho o‘z hukmiga olgan orolchaga qadam qo‘ydi.

Bu voqea sharafiga hilpiratib bayroq ko‘tarilmadi, zambaraklar ham gumburlagani yo‘q! Orolni egallash uchun unga biror davlat vakili emas, balki yana uch-to‘rt soatdan so‘ng orqaga qaytadigan bir shaxsgina qadam qo‘ygandi.

Komulk poshsho bilan kapitan Zo avvalambor orolchani yon bag‘irlari qumloq poydevor ustida qad ko‘tarmay, ellik-oltmish darajali burchak hosil qilib, to‘ppa-to‘g‘ri dengiz qa‘ridan chiqib kelganini ko‘rishdi. Orolcha darhaqiqat dengiz tubining o‘sishi oqibatida paydo bo‘lgani shubhasiz edi.

Ular orolchani tekshirishga kirishdilar. Uning butun tegrasini aylanib chiqib, allaqanday chaqmoqtosh kristallarini toptab o‘tisharkan, hali bu yerga inson qadami yetmaganini fahmlashdi – hali inson qadami yetmagan bu tuproqda, to‘g‘rirog‘i jinsda hech qanday izdan nom-nishon yo‘q edi. Orolcha qirg‘og‘ining biror yerida tarkibida turli kislotalar bo‘lgan dengiz to‘lqinlari ta‘sirida yemirilishdan nishona yo‘q, urug‘i shamol yordamida

²³ Yalik – kichkina, ensiz tez suzadigan qayiqcha.

qoya yoriqlariga tushib unib chiqadigan oddiy li-shaynik²⁴, dengiz ukropi yoki dengiz yo'siniga o'xshash biron o'simlikning qorasi ham ko'zga tashlanmas, bironta chig'anoqning na o'ligi-yu na tirigi bor edi.

Orolning qup-quruq kristall yuzasidan faqat so'nggi yoqqan yomg'ir paytida chuqurchalarga to'planib qolgan halqoblaru u yer-bu yerda yotgan parranda – bu atrofdagi hayvonot olamining yakka-yu yagona vakillari bo'lgan chorloqlarning go'ngi ko'zga tashlanadi, xolos.

Orolchanning tegrasini aylanib chiqqach, Komulk poshsho bilan kapitan yumaloq tepalikning qoq o'rtasiga yurishdi. Bu qoyalarning hech qaysida bir vaqtlar yoki yaqin orada odam bolasi bo'lganidan dalolat beruvchi zarracha alomat sezilmasdi. Chor atrofda tong qolarli darajada, agar shunday ifodalash joiz bo'lsa, chinniday top-tozalik barqaror edi: na biror tiralgan chiziq, na qatra dog' bor edi...

Sayyohlar markaziy dumaloq tepalik ustiga ko'tarilarkanlar, okean sathidan taxminan yuz ellik futcha balanddagi maydonchaga chiqib qolishdi. Yonma-yon o'tirib olib, qarshilarida namoyon bo'lgan ufqni diqqat bilan ko'zdan kechira boshladilar.

Beadad suv yalangliklarida quyosh nuri jilvalanar, atrofda kaftdekkina bo'lsa ham quruqlik ko'rinmasdi. Demak, bu orol halqa shaklidagi, o'rtasidagi ko'rfazcha ensizgina kanal orqali ochiq dengiz bilan tutashadigan marjon orollari to'dasiga

²⁴ Toshda, daraxtlarning po'stlog'ida o'sadigan mayda o'simlik.

kirmas ekan. Kapitan Zo bironta yelkan ko'rinib qolmasmikan deb durbini bilan atrofni sinchiklab kuzatardi. Dengiz mutlaqo bo'm-bo'sh edi, orolchadan yarim kabeltov narida langar tashlab turgan shxuna zarur bo'lgan bir necha soat mobaynida begona ko'zga tashlanib qolishdan mustasno edi.

– Qayerda turganimizni yaxshi bilasanmi? – deb so'radi Komulk poshsho.

– Albatta, janobi oliylari, – deb javob berdi kapitan Zo. – Darvoqe, yanada aniqroq bo'lsin uchun koordinatlarni tekshirib ko'raman.

– Ha, bu juda muhim... Har qalay, bu orolchanning nechun xaritaga tushirilmaganiga sira aqlim bovar qilmayapti.

– Menimcha, bunga orolning yaqinda paydo bo'lgani sabab. Har holda uning xaritada yo'qligi siz uchun ma'qulroq. Bu yerga qaytishni ixtiyor qilgudek bo'lsangiz, orolchani istagan kuni topa olishimizga bemalol ishonsak bo'ladi!

– Ha kapitan, bu notinch, alg'ov-dalg'ov kunlar o'tdi deguncha! Boyliklarim uzoq yillar bu qoyalar ostida ko'milib yotsa nima qipti deng! Axir, davlatimning Aleppodagi uyimdan ko'ra bu yerda turgani xavfsizroq emasmi? Meni talagani bu yerlarga na hukmdor, na uning o'g'li Ibrohim, na anavi muttaha Murod kela oladi!.. Bu qimmatbaho narsalarni Murodga berish-a! Undan ko'ra boyliklarimni dengiz qa'riga uloqtirib yuborganim ma'qul-ku!

– Bu eng qayg'uli zarurat! – deb javob berdi kapitan. – Axir dengiz o'ziga ishonib topshirilgan narsani aslo qaytarib bermaydi-da... Har qalay noma'lum orolchani topish baxtiga musharraf

bo'ldik. U, albatta, boyliklaringizni asraydi va o'zingizga halol qaytaradi.

– Ketdik, – dedi Komulk poshsho, o'rnidan qo'zg'alib. – Shxunamizni biror kimsa ko'rib qolmasdan iloji boricha tezroq bir yoqlik qilaylik bu ishni...

– Eshitaman!

– Qayerda turganimizni kemadagilarning hech qaysisi bilmasligiga imoning komilmi?

– Ishontirib aytamanki, janobi oliylari, hech zog' bilmaydi.

– Hatto qaysi dengizdaligimizni ham-a?

– Bu bir yoqda tursin-u, qaysi yarim sharda, Ko'hna yoki Yangi Dunyoda ekanimizdan ham bexabar ular. Dengiz va okeanlarni izg'ib yurganimizga o'n besh oy bo'ldi, bu o'n besh oy ichida esa kema qit'alar orasidagi olam-jahon masofani bosib o'tishi mumkin.

Komulk poshsho bilan kapitan Zo o'zlarini yalik kutib turgan joyga tushishdi.

Qayiqqa o'tirayotib, kapitan so'radi:

– Janobi oliylari! Bu ishni bir yoqlik qilib, keyin Suriyaga qaytamizmi?

– Yo'q. Men Aleppoga Ibrohimning lashkarlari viloyatdan quvilib, Mahmud hukmronligi ostida mamlakat yana osoyishta hayot kechira boshlamasidan burun qaytmayman.

– Viloyat Muhammad Ali mulkiga abadiy qo'shib qoladi, deb o'ylamaysizmi?

– Aslo! Payg'ambarimiz haqqi qasam ichamanki, aslo! – deb qichqirib yubordi bu taxmindan odatdagi sovuqqonligi yo'qolgan Komulk poshsho.

– Ehtimol, Suriya birmuncha, o'ylayman, qisqagina

vaqtga Muhammad Ali mulkiga qo'shib olinishi mumkin. Ollo taolo na qilsa o'zi biladi! Illo sulton hukmiga abadiy qaytmaslik... Ollo bunga yo'l qo'ymaydi!

– Janobi oliylari, endi qayerdan panoh topasiz?

– Hech qayerdan... ha, hech qayerdan! Bashartiki boyliklarim bu yerda bexatar turarkan, shu yerda qola qolsin! Biz esa, kapitan, allaqachonlar boshlagan safarimizni davom ettiraveramiz...

– Bosh ustiga, janobi oliylari.

Ko'p o'tmay Komulk poshsho bilan hamrohi shxunaga qaytib kelishdi.

Soat to'qqizlar chamasida kapitan uzunlikni aniqlash maqsadida dastlabki marta quyoshni kuzatdi; choshgohda samoviy charog'imiz meridianni kesib o'tadigan pallada ikkinchi kuzatishni o'tkazishi kerak, ana o'shanda kapitanga koordinatlar – uzunlik va kenglik ayon bo'ladi. U sekstantni keltirishni buyurdi va balandlikni o'lchadi, shunday qilib, Komulk poshshoga va'da qilganidek, o'lchashni puxta hamda tez bajardi. Natijalarni yozib olgach, kapitan orolchaning geografik holatini aniqlash uchun taxminiy hisobni ishlab chiqqani kayutasiga tushdi. Qat'iy ma'lumotlar esa kenglikni o'lchab bo'lgach olinadi.

Biroq kapitan o'z ishini boshlashdan avval katta qayiqni hozirlashga buyruq berdi: unga anavi uchta bochkachani, cho'kichlar, boltalar va sement – xullas Komulk poshshoning o'ylagan maqsadini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hamma narsani yuklashni buyurdi.

Soat o'nda hamma ish tappa-taxt bo'ldi. Olti matros botsman boshchiligidagi qayiqqa tushishdi.

Ular bu bochkachalarda nima borligini hamda nima uchun bularni kimsasiz orolchaga ko'mmoqchi ekanliklarini bilmasdilar. Buning ularga daxli bo'lmagani tufayli aslo tashvishlantirmasdi ham. So'zsiz itoat etishga o'rgatilgan dengizchilar xuddi jonli mashinalarday harakat qilardilar.

Komulk poshsho bilan kapitan Zo qayiq quy-rug'idan joy oldilar, bir necha marta eshkak eshilib, qayiq zum o'tmayoq orolcha qirg'og'iga yetib oldi.

Avvalo xilvatgoh uchun qulay yerni tanlash lozim edi: bu joy shunday bo'lsinki, kecha-kunduz tenglashgan vaqtdagi dovullar pallasida suv bosmasin hamda o'pirilish tahdid qiladigan balandlikda bo'lmasin. Bunday qulay joy nihoyat orolchaning janubi-sharqiy tomonidagi bir o'tkir cho'qqili qoyaning etagidan topildi.

Kapitan Zoning buyrug'i bilan matroslar bochkachalar bilan asboblarni orolchaga tushirishdi. Keyin o'ra qaziy boshlashdi.

Bu bag'oyat mushkul ish edi: chaqmoqtosh — juda pishiq, qattiq jins. Cho'kichlar zarbidan chetga sachragan chaqmoqtosh parchalari bochkachalar solingandan keyin o'rani yana ko'mish uchun zarur edi. Shuning uchun bittasini ham qoldirmay bir joyga to'planildi. Chuqurligi va eni besh-olti futcha keladigan o'rani kavlash uchun ikki soatcha vaqt ketdi, bu eng dahshatli dovullar ham murda oromini buzolmaydigan haqiqiy lahadning o'zginasi edi.

Komulk poshsho har doimgidek o'yga tolib va g'amgin qiyofada, shilqim fikrlardan iztirob chekib bir chekkada turardi. U o'z-o'zidan: boyliklarim

yoniga yotib, olamdan ko'z yumib qo'ya qolganim ma'qulmasmikin, deb so'rardi... Darhaqiqat, inson zulmi hamda makridan qochib qutulishga bundan ko'ra ishonchliroq panogohni qaydan topa oladi?

Bochkachalar o'raga tushirilgach, Komulk poshsho ularga so'nggi bor nazar tashladi. Bu damda uning qiyofasi kapitanga shunday g'alati bo'lib ko'rindiki, mabodo Komulk poshsho o'z buyrug'ini bekor etib, qalbida ardoqlab kelgan rejasidan qaytsa va boyligini olib, yana dengizga chiqsa ham aslo ajablanmagan bo'lardi.

Yo'q, u ishni davom ettiraveringlar deb imo qildi. Shunda kapitan bochkachalarni bir-biroviga taqab qo'yish na chaqmoqtosh parchalari bilan ko'mib, sement bilan mustahkamlashni buyurdi. Tezda orolcha qoyalaridan qattiqlikda qolishmaydigan qorishma tayyor bo'ldi. Ustidan yana sement bilan qorilgan bir talay tosh parchalari solinib, chuqur joylar to'latilgach orol bilan bir butun, yaxlit narsaga aylandi-qoldi. Oradan biroz muddat o'tgach, yomg'ir hamda shamolu bo'ronlar ustini silliqlab unga jilo beradi, ana o'shanda boylik ko'milgan joyni mutlaqo topib bo'lmay qoladi.

Bu maxfiy joyni kerak paytda topa olishga yordam beradigan biror o'chmaydigan belgi qo'yish zarur edi. O'raning ortidagi tik devorga botsman o'yib belgi qo'ydi. Bu belgi Komulk poshshoning odatdagi imzosining aniq tasviri – ikki K harfi, ya'ni ismining birinchi va oxirgi harfi bo'lib, u mana bunday aks ettirildi:

>1

Endi orolda qiladigan ishlar qolmagan edi. Boylik o'raga solinib, suvab, berkitib tashlandi.

Uni bu yerdan endi kim topa olar, bu xilvat joydan kim ham qazib chiqara olardi?.. Hech kim! Boylik bu yerda batamom bexatar saqlanadi. Bordi-yu Komulk poshsho bilan kapitan Zo bu sirni o'zlari bilan go'rga olib ketganlarida ham, to qiyomat qoyimgacha hech zog' u haqda hech nima bilolmaydi.

Botsman matroslarga buyruq berdi va qayiq oroldan nari suzib ketdi. Bir necha daqiqadan so'ng orolchani aylanib o'tdi-da, Komulk poshsho bilan kapitan Zoni ham olib, ularni langar tashlab qimir etmay turgan shxunaga yetkazdi.

Soat chorakam o'n ikki. Havo ajoyib. Ko'kda qatra bulut yo'q. Chorak soatdan keyin quyosh meridianga yetadi. Kapitan sekstantni olib, ikkinchi marta o'lchov o'tkazdi. So'ngra ertalab soat to'qqizdagi kuzatish bo'yicha soat burchagini hisoblab kenglikni aniqladi. Shunday qilib, orolchanning koordinatlarini yarim mil aniqlikda belgilab chiqdi.

Bu ishlarni tugatgach, kapitan endi palubaga chiqmoqchi bo'lib turgan ham ediki, Komulk poshsho kayuta eshigini ochib kirib keldi.

– Koordinatlar aniqlandimi? – deb so'radi u.

– Ha, janobi oliylari.

– Qani, ko'rsat!

Kapitan unga hisoblar yozilgan bir varaq qog'ozni uzatdi. Komulk poshsho orolchanning qayerga joylashganini umrbod yodda saqlab qolmoqchidek uni sinchiklab, bafurja o'qib chiqdi.

– Bu qog'ozni yaxshilab yashirib qo'y va ehtiyotlab saqla! – dedi u kapitanga. O'n besh oy mobaynida yurgan yo'limizni yozib borgan kema jurnalingga kelsa...

- Uni hech kim, hech qachon ko'rmaydi...
- Tamoman xotirjam bo'lish uchun sen uni hoziroq yo'qotasan...
- Xo'p bo'ladi.

Kapitan Zo shxuna bosib o'tgan turli dengiz yo'llari va ularning qanday o'zgartirilgani yozib borilgan jurnalni olib, mayda-mayda qilib yirtida keyin fonus o'tida kuydirib tashladi. Shundan keyin Komulk poshsho bilan kapitan palubaga ko'tarilishdi. Shxuna kunning qolgan qismini orolcha yonida langarda o'tkazdi.

Kechki payt soat beshlarda g'arb tomonda, ufqda qoramtir bulutlar paydo bo'ldi. Bulutlar yirtig'idan botib borayotgan quyoshning dastadasta nurlari tushib, dengizni oltindek jilolantirardi.

Kapitan Zo bosh chayqab qo'ydi - tajribali dengizchiga havoning bunday o'zgarishi yoqmagan edi.

- Janobi oliylari, - dedi u, - anavi pastak bulutlar kuchli shamoldan darak beryapti... balki tunda bo'ron turar!.. bu orolcha bizlarni himoya qila olmaydi. Qosh qorayguncha undan o'n milcha olislab olishimiz mumkin.

- Endi bizni bu yerda hech nima tutib turolmaydi, - deb javob berdi Komulk poshsho.

- Unday bo'lsa langarni ko'taramiz.

- Koordinatlarni oxirgi marta tekshirib ko'rmaysanmi?

- Yo'q, janobi olyilari, o'z onamning zuriyodi ekanimga qanchalik ishonsam, buning aniqligiga ham shunchalik ishonaman!

- Unda langarni ko'taraver!

- Eshitaman!

Tadorik ishlari zudlik bilan bajarildi. Langar ko'tarilib, yelkanlar shamolga roslandi va ular shimoli-g'arbga tomon yo'l oldilar.

Kema quyrug'ida turgan Komulk poshsho to kechki g'ira-shirada shakli ko'zdan yo'qolgunicha orolchaga tikilib bordi. Asta-sekin bu toshlar uyumi tuman orasiga kirib g'oyib bo'ldi. Biroq badavlat misrlik bu orolchani u bilan birga esa yuz million frank qiymatga ega bo'lgan oltin, olmos va qimmatbaho toshlardan iborat ko'mib ketayotgan boyligini istagan paytida topa olishini yaxshi bilardi.

TO'RTINCHI BOB

*Bir-biroviga mutlaqo o'xshamagan ikki do'st –
Antifer tog'a bilan sobiq kemachi
Jildas Tregomenlar qissasi*

Har shanba soat sakkizlar atrofida Antifer tog'a o'zining joni-dili bo'lgan trubkasini tutata-tutata g'azab otiga qamchi bosardi. Biror soatlardan keyin esa hamon jahldan qizarib-bo'zarib turgan bo'lsa-da, har qalay qo'shnisi hamda do'sti Jildas Tregomenga zahrini sochib bo'lib, yana xotirjam tortardi. Uning g'azabini qo'zg'aydigan nima edi o'zi? Buning boisi uning ko'hna atlasidagi Merkator²⁵ loyihasi bo'yicha chizilgan yarim sharlar xaritasidan o'ziga kerak bo'lgan nuqtani izlab topolmayotgani edi.

²⁵ Merkator Gerard – (1512 – 1594) – flamand matematika va geografik xaritalarni chizuvchi mutaxassis. U taklif etgan usuldan hozirgacha dengizlarda kema qatnovi uchun zarur bo'lgan xaritalarni chizishda foydalaniladi.

– La'nati kenglik! – xitob qildi u. – Jin urgur kenglik! Ammo-lekin agar jahannamdan o'tganida ham men uni baribir boshdan-oyog'igacha bosib o'tishim shart.

Shunday deya Antifer tog'a o'z niyatini amalga oshirish fursatini kutib, o'sha kenglik bo'ylab tirnog'i bilan chizib chiqdi. Umuman butun boshli xarita qalam bilan nuqilaverib, pargar bilan o'lchanaverib elak singari ilma-teshik bo'lib ketgandi.

Antifer tog'ani bunaqangi jazavaga soladigan o'sha kenglik sarg'ayib ketganidan tusi ispan bayrog'iga o'xshab qolgan bir parcha qog'ozda mana bunday belgilangan edi:

*Yigirma to'rt daraja-yu ellik to'qqiz daqiqa (sh. k.)*²⁶

Shu satrning ostiga, qog'ozning burchagiga qizil siyoh bilan:

– Buni aslo esdan chiqarmaslikni o'g'ilchamga maslahat beraman, deb yozib qo'yilgan edi.

Shuning uchun ham Antifer tog'a doim:

– Xotirjam bo'l, otajonim, bu kenglikni unutganim yo'q, hech qachon unutmayman ham!.. Lekin buning nimaga kerakligiga aqlim yetsa Xudo ursin! – deb takrorlagani-takrorlagan edi.

Mana bugun, 1862-yilning 23-fevralida ham hamishagidek kechki payt Antifer tog'aning jaza-vasi tutdi. G'azabdan jig'ibiyron bo'lib, qo'lidan arqon sirg'ilib chiqib ketgan matrosdek bo'ralab so'kinar, tishlarini g'ijirlatar, o'chib qolgan trubkasini yigirma martalab tutatarkan ketma-ket gugurt cho'plarini sindirib yuborardi. Keyin u atlasni burchakka, stulni ikkinchi tomonga uloqtirdi

²⁶ Sh.K. – shimoliy kenglik.

va kaminga husn berib turgan kattakon dengiz chig'anog'ini g'azab bilan polga urdi-da, shunday jon-jahdi bilan depsinib-toptay boshladiki, hatto shiftdagi to'sinlar qisirlab ketdi, naycha qilib o'ralgan kartonni karnay qilib og'ziga tutib, bo'ron paytidagi shovqinni bosishga harakat qilib o'rganib qolgan baland ovozda bo'kirdi:

– Nanon!.. Enogat!..

Biri to'r to'qiyotgan, ikkinchisi o'choqboshida dazmol urayotgan Enogat bilan Nanon ichkari kirib kelisharkan, xonaki bo'ronga barham berish fursati yetganini fahmladilar.

Antifer tog'a Sen-Malodagi qadimiy ajoyib uylardan birining egasi edi. Uy granitdan solingan bo'lib, old tomoni Ot-Sall ko'chasiga qaragandi. Uch qavatning har qaysisida ikkitadan xona bo'lib, eng yuqori qavati qal'a devori bilan bab-baravar edi.

Bu uyni bir tomosha qiling-a, devorlari musti-mustahkam – qadimiy to'p o'qlari uni teshib o'ta olmasdi ham, temir panjarali derazalari ensizgina, emandan yasalgan vazmin eshigiga metaldan naqshlar chekilgan, tepasida temir bolg'acha osilib turar, Antifer tog'a eshikni taqillatgan paytlarda uning ovozi Sen-Servangacha yetardi, tomi cherepitsa bilan yopilgan, tuynukchasi bor, bu tuynukchadan har nafasda iste'fodagi dengizchining durbini ko'rinib qoladigandek edi.

Butun shaharni o'rab turgan qal'a devori muyilishiga taqalgan yarim qishloqcha, yarim mudofaa istehkomiga o'xshab ketadigan bu binodan ajoyib manzara: o'ng tomonda – Gran-bey, Sezambr muyulishi, Puant dyu Dekolle bilan Freyel, chapda

esa – to'g'on va to'lqinto'sar, Rans daryosining quyilishi Dinar yaqinidagi Priyore cho'milish joyi va hatto surma rang-ko'kishtob Sen-Servan jome'si namoyon bo'lardi.

Bir vaqtlar Sen-Malo orol edi, Antifer tog'a orollikman deya oladigan o'sha zamonlarni eslab o'kinar balki. Darvoqe, Fransiya talaygina ulug' kishilarni yetkazib bergan Armorning²⁷ o'sha sohilida dunyoga kelgan har kim ham faxrlanishga haqli edi, bular orasida quyidagi ulug' zotlar bor edi. Dyuge-Truen²⁸ (hurmatli dengizchimiz hiyobondan o'tib borarkan, uning haykali huzurida ehtirom bilan bosh egib o'tardi hamisha); Lamenne (rost, tog'a bu yozuvchiga mutlaqo qiziqmasdi), Shatobrian (Antifer tog'a uning eng so'nggi asari bilangina tanish edi – so'z bu mashhur yozuvchining Granbey orolida qad ko'targan kamtarona, ayni vaqtda ulug'vor qabr toshi haqida borayotir).

Antifer tog'a (Per-Servan-Malo) qirq olti yoshda edi. O'zi va yaqinlarining farovon turmush kechirishlariga yetgulik birmuncha davlat orttirib, iste'foga chiqqaniga bir yarim yil bo'lgandi. Sen-Malo portiga qarashli ikki yoki uch kemaga kapitanlik qilib, bir necha yillar davomida dengizlar bo'ylab suzgani evaziga orttirgan mablag'i yiliga bir necha ming frank daromad keltirardi. Le-Bayif va K° savdo xonadoniga qarashli bu kemalar La-Mansh sohillari, Shimoliy, Boltiq va O'rtayer

²⁷ Armor (so'zma so'ziga «dengiz yurti» degani) – Fransiya Bretain viloyatining keltcha nomi.

²⁸ Dyuge-Truen (1673 – 1736) – flotdagi xizmatini ko'ngilli askarlikdan boshlab, umrining oxirida Fransiya harbiy-dengiz kuchlarining general-leytenant darajasigacha ko'tarilgan fransuz dengizchisi.

dengizlari bo'ylab suzardi. Antifer tog'a to bu yuksak unvonga erishguniga qadar xizmati yuzasidan olamning ozmuncha tomonlarini kezmadi. U tajribali dengizchi, jasur, uddaburro, o'ziga hamda boshqalarga nisbatan talabchan, hayoti tahlikada qolsa hamki hech narsadan tap tortmaydigan, hech qanaqangi to'siqlardan cho'chimaydigan va asl bretonlarday qaysar odam edi. Umrining qirchillama yillarida tark etgani dengizni qo'msamasmidi u?.. Ehtimol bunday qarorga kelishiga salomatligi sabab bo'lgandir dersiz? Aslo bunday emas. U go'yo Armor dengizi sohillaridagi granitdan yo'nilganday baquvvat edi.

Chindan ham bunga qanoat hosil qilish uchun unga bir nazar tashlash, uning momaqoldiroqday guldurak ovozi eshitish, uning mahkam qo'l siqishini his etishning o'zi kifoya edi. O'rta bo'yli, yag'rindor, chornahildan kelgan odamni ko'z ol-dingizga keltirib ko'ring-a. Mana uning alohida belgilari: boshi keltlarnikidek kattakon; sochi tikanday, yuzi dengiz bo'ronlarida chiniquqan, janub kengliklarida oftobda kuyib, qoraygan betini qoplab olgan moshguruch soqoli xuddi tog'u toshlarda chirmashib yotgan yo'singa o'xshaydi; baroq qoshlari ostidan boqib turgan qora o'ynoqi ko'zlari mushuknikidek chaqnaydi; nihoyatda kattakon va uzun burni qansharida ingichkagina bo'lib, uchiga tomon yalpayib boradi; egasining og'zidan tushmaydigan trubkani muttasil g'ajib turadigan tishlari yirik-yirik, baquvvat; banogo'shi osilgan, tuk bosgan qulog'i supradek; o'ng qulog'iga langarcha tasviri payvandlangan jez baldoq taqib olgan; nihoyat, tanasi xipcharoq, oyoqlari esa kema biqini

hamda tumshug'idan bo'ladigan har qanday chay-qalishga dosh bera oladigan baquvvat.

Antifer tog'aning butun vajohatidan jismoniy va ma'naviy zabardastligi yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Salomatligi temirday mustahkam bu odam yaxshi yeb, yaxshi ichishning lazzatini biladi, u uzoq yillar sog'-salomat, baquvvat yuradigan odamlar toifasidan.

Biroq bundan qirq yil muqaddam qavm cherkovining daftariga Per-Servan-Malo-Antifer degan uzundan-uzun nom bilan qayd etilgan bu tan va jon birikmasi o'z xilvatgohida qanchadan-qancha jahl, qanchadan-qancha asabiylik, qanchadan-qancha qiziqqonlikni asrab yotibdi deng!

Bu oqshom ham uning jazavasi tutib, jig'i-biyroni chiqdiki, bu musti-mustahkam uy larzaga kelganday bo'ldi, kecha-kunduz tengligi pallasida ellik fut ko'tarilib, shaharning yarmini ko'piklarga to'ldirib yuboradigan kuchli suv toshqinlaridan biri go'yo uyning poydevoriga zarb bilan kelib urildi deb o'ylash mumkin edi.

Qirq sakkiz yoshlardagi beva Nanon Le Goa tajang dengizchimizning opasi edi. Uning oddiy dehqon bo'lgan eri Le Bayif savdo xonadonida hisobchilik qilardi.

U yosh o'lib ketdi. Undan qolgan qizi Eno-gatni Antifer tog'a o'z tarbiyasiga olib, o'z homiylik burchini sidqidillik bilan ado etib kelmoqda. Nanon ko'ngilchan ayol edi. U ukasini astoydil sevar, undan cho'chir va ayniqsa g'azabi qo'zib, jazavasi tutgan paytlarda tashvishga tushib qolardi.

Moviy ko'z, malla soch, betlari sutga chayib olinganday oppoq, qaddi-qomati xushbichim, oqila,

ajoyib qiz Enogat onasiga qaraganda birmuncha dadilroq bo'lib, ba'zi-ba'zida o'zining badjahl valine'matiga dakki berib turardi.

Tog'asi esa o'z jiyanini sidqidildan yaxshi ko'rib-gina qolmay, uni butun Sen-Maloda eng suluv qiz deb hisoblar va xuddi shuningdek, eng baxtli qiz bo'lishini orzu qilardi. Biroq, aftidan uning baxt haqidagi tushunchasi suluv Enogatni qanoatlantira olmasdi.

Ikkala ayol ham ostonada paydo bo'lishdi: birining qo'lida to'r to'qiydigan uzun igna, ikkin-chisinikida – qizib turgan dazmol.

– Voy Xudoyim-ey, nima bo'ldi o'zi? – deb so'radi Nanon.

– Anavi mening kengligim!.. Padariga la'nat o'sha kenglikni!.. – deb bo'kirdi Antifer tog'a va boshiga shunday musht tushirdiki, bu zarbaga tabiat shovvoz dengizchimizga ato etganidan bo'lak birorta ham bosh suyagi dosh bera olmagan bo'lardi.

– Tog'ajon, – dedi Enogat, – o'sha qurib ketkur kenglik shunchalik jig'ibiyron bo'lib, butun xonani ostin-ustin qilishga arziydimi-ya!..

Shunday deb qiz polda yotgan atlasni oldi, bu payt Nanon xuddi porox bilan portlatilganday mayda-mayda bo'lib har tomonga sochilib ketgan chig'anoq parchalarini yig'ishtirardi.

– Buni siz sindirdingizmi, tog'a?

– Ha, men, qizalog'im... Agar boshqa odam qilganida-yu, sog' qolmasdi-ya!

– Nimaga polga uloqtirdingiz?

– Qo'lim qichib qoldi-da!

– Bu chig‘anoqni bizga akam sovg‘a qilgandi,
– dedi Nanon, – axir siz uni...

– Xo‘sh, u yog‘i-chi?.. Buni sindirmasliging keragidi deb ertalabgacha ming‘illaganingda ham, baribir endi uni but qilib bo‘lmaydi!

– Tog‘avachcham Jyuel nima deydi endi? – xitob qildi Enogat.

– U hech nima demaydi, agar indamasa, ma‘qul ish qilgan bo‘ladi! – deb o‘sha zahotiy oq e‘tiroz bildirdi Antifer tog‘a, qarshisida faqat ikki ayolgina turgani va ularga zahrini sochib, jahlini butunlay yoza olmasligidan afsuslanib. – Ha, aytganday, – qo‘shib qo‘ydi u, – Jyuel qayoqda o‘zi?

– Uning Nantga ketganini o‘zingiz yaxshi bilasiz-ku, axir, – deb javob berdi qiz.

– Nantga? Bu qanaqasi! Nantda nima qilarkan?

– Tog‘a, axir o‘zingiz yubordingiz-ku uni... o‘zingiz bilasiz-ku... olisga suzadigan kema kapitani unvonini olish uchun imtihon topshiradi.

– Olisga suzadigan kema kapitani... Olisga suzadigan kema kapitani emish-a! – deb to‘ng‘illadi Antifer tog‘a. – Menga o‘xshab yaqinga qatnaydigan kema kapitani bo‘lish kamlik qilib qolibdi-da u kishiga?

– Axir bu o‘zingning maslahating-ku, uka... o‘zing shuni istagan eding-ku...

– Ha, mening istagim bu... Nima ham derdim, juda qoyil bahonani topibsanzlar!.. Bordi-yu men xohlamasam u... haligi... o‘sha Nantga bormas ekan-da, a? Bari bir imtihondan yiqiladi u...

– Yiqilmaydi, tog‘a.

– Ha, yiqiladi, jiyani!.. Agar yiqilib keladigan bo'lsa, boplab kutib olaman... bir adabini beray, ha, tumshug'ini ezib qo'yay!

– Ko'ryapsizmi, bunaqa odam bilan gaplashib bo'larkanmi! Bir tomondan qaraganda Antifer tog'a Jyuelning olisga suzadigan kema kapitanligiga imtihon topshirishini istamasdi, ikkinchi tomondan esa, basharti u imtihondan qulaydigan bo'lsa toza eshitadiganini-eshitadi, shuningdek «anavi imtihon oluvchi eshak miya domlalaru o'sha gidrografiya furushlar» ham quruq qolmasdi.

Ammo Enogat yigitning imtihondan yiqilmasligiga ishonar edi, albatta. Nega deganda u avvalo qizning tog'avachchasi, ikkinchidan aqlli hamda tirishqoq va nihoyat, ular bir-birovlarini sevishadi, bir yostiqa bosh qo'yishga ahdi-paymon qilishgan. Ana shu uch dalil-isbotdan ma'qul va ma'zurrog'ini bir topib ko'ring-a!

Boz ustiga Antifer tog'aning jiyani bo'lib, Jyuel to balog'atga yetguniga qadar uning qaramog'ida yashagani va tarbiyalanganligini eslatib o'tmoq darkor. U go'dakligidayoq yetim qolgandi. U tug'ilib dunyoni ko'rgani onda onasi olamdan ko'z yumgan, bir necha yildan so'ng vsa flot leytenant bo'lgan otasidan ham ayrilgandi. Ana shuning uchun ham Jyuelni amakisi o'z vasiylikiga olgandi. Shu boisdan uning qismatiga dengizchilik bitilgani aslo taajjublanarli emas, binobarin, Enogatning esa uning olisga suzadigan kema kapitanligiga muvaffaqiyatli imtihon topshirishiga bo'lgan ishonchi har tomonlama asosli edi. Antifer tog'a ham bundan shubhalanmasdiyu, lekin hozir avzoyi nihoyatda buzuqligidan hech

qanaqangi fikrga qo'shila olmas va ko'ngliga qil ham sig'masdi.

Bo'yi yetib qolgan qiz uchun esa bu juda muhim edi, zeroki tog'avachchasi bilan ikkovlari bitishib qo'yanlariga binoan Jyuel olisga suzuvchi kema kapitani unvonini olishi bilanoq nikoh to'ylari bo'lishi kerak. Ikki yosh bir-birovini shunday pokiza va shunday qaynoq, samimiy muhabbat bilan sevardilarki, ana shunday sevgigina olam-olam baxt ehson eta olishi, shirin hayot baxsh etishi mumkin edi. Nanon butun oila uchun quvonchli bo'lgan ana shu nikoh damlarini intizorlik bilan kutardi. Zotan tog'a va ayni vaqtda valine'matlari bo'lmish qudratli oila boshlig'i rozilik bergan... yoki, aqalli kuyov kapitan unvonini olganidan keyin rozilik berishga va'da qilgan ekan, bu nikohga nima ham mone bo'la olardi?

Jyuel dastavval Le Bayif savdo xonadonining kemalarida yungalik, keyin davlat kemalarida matroslik, va nihoyat, uch yil savdo kemalarida leytenantlik xizmatlarini o'tab, dengizchilik maktabi bosqichlarini to'liq bosib o'tgan edi. Ana shunday qilib, u o'z kasbini tajribaviy hamda nazariy jihatdan puxta egallagan edi. Antifer tog'a ichida jiyan bilan faxrlanardi. Lekin u, ehtimol, qalbida bunday ajoyib yigitning badavlatroq qizga uylanishini va shuningdek Enogatning ham davlatmandroq odamga tegishini orzu qilardi, zero, butun muzofotda undan sohibjamolroq qiz yo'q edi. «Hatto butun boshli Il va Vilen departamentlarida ham yo'q!» – deb takrorlarkan

u o'zining bu fikrini Bretanning boshdan-oyog'igacha yoyishga ham tayyor edi.

Bir kun emas, bir kun million-millionlab boylik qo'liga kirishini o'ylar ekan – garchand yiliga olayotgan besh ming daromadi baxtiyor hayot kechirishlariga yetib ortsa-da – cheki-chegarasi yo'q shirin xayollarga berilib ketib, es-hushidan ayrilayozardi tog'a...

Bu orada Enogat bilan Nanon ana shu to'polonchi odamning xonasini yig'ishtirib, tartibga solishdi, afsuski uning boshini emas, xonasinigina tartibga solishdi. Shu asnoda boshini tartibga solish, u yerga uya qurib olgan kapalagu o'rgimchaklardan, o'zgacha aytganda – xomxayollardan xalos etish uchun shamollatish, artib-tozalash lozim edi.

Shu topda iste'fodagi dengizchi xonada u yoqdan bu yoqqa borib-kelar, ko'zlaridan o't chaqnardi. Bu esa hali bo'ronning tinmaganini va daqiqa sayin guldurak bilan yana quturib qolishini anglatardi. U devorda osig'liq turgan barometrqa qarab-qarab qo'yarkan, g'azabi yanada avjga minib borayotganga o'xshardi, chunki bu aniq va halol ishlaydigan asbob «ochiq havodan» dalolat berib turardi.

– Demak, Jyuel hali qaytmabdi-da, a? – deb so'radi u Enogatga qarab.

– Yo'q, tog'a.

– Soat allaqachon o'n bo'ldi-yu!

– Yo'q, tog'a.

– Mana ko'rib turibsizlar, u poezddan kech qoladi!

– Yo'q, tog'a.

– Ha-ha, shunaqa degin! Gap qaytarishni bas qilasanmi, yo‘qmi?

– Yo‘q, tog‘a.

Bu yosh qizcha Namonning zo‘r berib qilayotgan imo-ishoralariga e‘tibor ham bermay, o‘z qallig‘ini tili tiyilmas Antifer tog‘aning nohaq hamlalaridan himoya etishga qat‘iy jazm qilgan edi.

Momaqaldiroq har zumda guldurab qolishi sezilib turardi. Biroq tog‘aning vujudida to‘planib, portlay deb turgan elektr quvvatini jilovlab tarqatib yuboradigan yashin qaytargich yo‘qmikin?

Aftidan, bor edi bunday yashin qaytargich. Ana shuning uchun ham Antifer tog‘a:

– Tregomenni topib kelling oldimga! – deb xonani boshiga ko‘tarib baqirarkan, Nanon bilan uning qizi zing‘illagancha yugurib ketishdi.

Ular ko‘chaga otilib chiqdilar-u, Tregomenni izlab ketdilar.

– Ey, Xudoyim-ey! Ishqilib uyida bo‘lsin-da u! – deyishardi chopib borayotib.

Baxtlariga Tregomen uyda ekan, oradan besh daqiqa o‘tmayoq Antifer tog‘anikiga yetib keldi.

Jildas Tregomen ellik ikkiga qadam qo‘ygan edi. Uning qo‘shnisi bilan o‘xshash tomonlari quyidagilardan iborat edi: u ham Antifer tog‘aga o‘xshab bo‘ydoq edi; tog‘a singari ko‘p yillar kemada suzib, u ham iste‘foga chiqqandi, nihoyat, unisi ham, bunisi ham maluin, ya‘ni sen-malolik edi. Ana shu bilan ular orasidagi o‘xshashlik tugardi. Chindan ham Jildas Tregomen og‘ir-vazmin va yuvosh, Antifer tog‘a esa qiziqqon va baqiroq, shang‘i odam edi. Birinchisi qanchalik ko‘ngilchan, yumshoq tabiat odam bo‘lsa, ikkinchisi shunchalik

jizzaki edi; Jildas Tregomen qanchalik faylasufona aql yuritsa, Antifer tog'a faylasuflikdan shunchalik yiroqda edi. Ularning xulq-atvorlari bilan bog'liq bo'lgan fazilatlar ana shular. Tashqi qiyofalarida ham shunga o'xshash yer bilan osmoncha farq bor edi. Shunga qaramay ular nihoyatda do'st edilar. Antifer tog'aning Jildas Tregomenga nisbatan bo'lgan do'stona hislari tushunarli ediyu, lekin Tregomenning Antifer tog'aga moyillik va yaqinligi sababini aql bovar qilmasdi. Bunaqa odam bilan do'stlashish oson emasligi har kimga ham ayon-ku, axir.

Biz hozirgina Jildas Tregomen kemada suzardi dedik; lekin dengizchining dengizchidan farqi bor. Basharti Antifer tog'a yaqinga qatnaydigan kema kapitani bo'lguniga qadar savdo kemalarida dengizchilik qilib, yer sharining talaygina dengizlarida suzgan bo'lsa, uning hamsoyasi, beva xonimning o'g'li bo'lganligi tufayli harbiy xizmatdan ozod etilgan Jildas Tregomen esa aksincha flotda matroslik qilmagan va hech qachon dengizda suzmagan edi.

Ha! Hech qachon dengizga chiqmagan! U La-Manshni faqat Kankal²⁹ tepaligi va hatto Freyel burunidagina ko'rgan, bundan narisiga jur'at etolmagan. U daryoda yuk tashuvchi kema kayutasida olamga kelgan va uning butun hayoti ana shu kemada o'tgan. Dastavval «Go'zal Ameliya» kemasida xizmatchi, keyinroq esa uning egasi sifatida Rans daryosi bo'ylab Dinardan Dinanga, Dinandan esa Plyumoga taxta-yog'och, vino, ko'mir, xullas nimani buyurishsa shuni tashigan.

²⁹ Kankal – Sen-Malodan o'n to'rt kilometr nariroqdagi, Freyel buruni kabi bir tepalikka joylashgan port shaharcha.

Il, Vilen va Kotdyu-Nor departamentlaridagi boshqa daryolarni ko'rgan-bilgani ham dargumon. Antifer tog'a sho'r suvlarda qatnovchi chinakam dengizchi ekan, Jildas Tregomen esa chuchuk suvlarda qatnaydigan oddiygina kemachi edi. Oddiy kemachi Jildas Tregomen bu ustasi farang dengizchi oldida hech gap emasdi-da, axir! Ana shuning uchun ham Tregomen qo'shnisi va do'stiga tan berar, uning oldida o'zini past tutardi.

Jildas Tregomen Antifer tog'aning uyidan yuz qadamcha nariroqda, Tuluza ko'chasining oxirida, qal'a devori yonginasidagi shinamgina uyda istiqomat qilardi. Uyning bir tomonidan Rans daryosining mansabi, ikkinchi tomonidan ochiq dengiz ko'zga tashlanib turardi. Uy sohibi baquvvat, nihoyatda yag'rindor, bo'yi besh futu olti dyuym keladigan novcha odam edi: chorpahildan kelgan bu odam doim ikki qator suyak tugma qadalgan keng nimcha bilan yelkasi va o'mizlari burmali qora matroscha bluza kiyib yurar, ust-boshi hamisha chip-chinniday bo'lardi. Uning zabardast yelkalariga tutashgan qo'llari shunchalik bahaybat ediki, oddiy odamlarning soniday, panjasi esa kurakday kelardi. Devqomat, alp kelbatli Jildas Tregomenning qanday baquvvatliligi o'z-o'zidan ko'rinib turardi. Ammo u soddadil Gerkulessning o'zginasi edi. U hech qachon o'z qudratini ishga solmas, biror odam bilan salomlashayotgan yoki xayrlashayotganida yana qo'lini ezib yubormay deb cho'chiganidan bosh va shahodat barmog'i bilangina qisib so'rashib qo'ya qolardi. Tanasidagi kuch esa mudrab yotganga o'xshardi. Uning kuch-quvvati hech qachon to'satdan jo'shib

ketmas, bordi-yu, shunday bo'lib qolganida ham u aslo o'zini koyitmasdi.

Mabodo Jildas Tregomenni mashinaga o'xshatadigan bo'lsak, bu chog'da u bir zarba bilan har qanday temir parchasini parchinlab yuboradigan vertikal bolg'ani emas, balki eng qattiq prokatni asta-sekin bukadigan gidravlik pressni eslata-di. Aftidan bu uning og'ir-vazminligi, bosiqqonligining oqibati bo'lsa kerak.

Soyaboni kengbar shlyapa kiyib olgan boshi kattakon, sochi sip-silliq, chakkasida kotlet nusxa bakenbard, kamonsimon bukik burni esa o'ziga xos tabiatidan dalolat berib turadi, lablari doim jilmayib turadi, yuqorigi labi ichkariroq botgan, qat-qat go'shtdor dahani esa oldga sal turtib chiqqan, qatra tamaki tutuni ko'rmagan tishlari injudek oppoq (faqat bittagina kurak tishi yo'q edi, xolos), sap-sariq baroq qoshlari ostidan tiniq ko'zlari muloyim boqib turadi; Rans daryosi yellarida qoraygan, ammo hech qachon shiddatli okean bo'ronlarini ko'rmagan yuzi bug'doyrang edi.

Jildas Tregomen ana shunaqa muloyim tabiat, xushaxloq odamlardan bo'lib: «Peshinda keling... Soat ikkida keling», deyilsa, hamisha vaqtida aniq yetib keladigan, har qachon xizimatingizga hozir turadigan odamlar toifasidan edi. U Antifer tog'aning g'azab to'foni urilib yakson bo'ladigan mustahkam qoyaday bir gap edi. Tog'aning kayfi buzilib, fig'oni falakka chiqa boshlashi bilan Jildas Tregomenga odam yuborishar, u o'sha zahotiyoyq g'azab otiga mingan qo'shnisining qoshiga yetib kelar va har qanday g'azab po'rtanasiga dosh berib turaverardi.

«Go‘zal Ameliya»ning egasini uydagilarning bari – uni o‘z himoyachisi deb bilgan Nanon ham, uni o‘z otasiday sevgan Jyuel ham, uning beti va birorta ajini yo‘q sip-silliqlik peshanasidan o‘padigan Enogat ham, xullas hammalari sidqidildan yaxshi ko‘rishardi. Jildas Tregomenning yuzida birorta ham ajini yo‘qligi fizionomistlarning aytishicha, uning osoyishta va vazmin tabiatining shubhasiz dalilidir.

O‘sha kuni kechki payt, soat to‘rt yarimlarda, Jildas Tregomen ikkinchi qavatdagi xonaga olib chiquvchi taxta pillapoyadan yuqoriga ko‘tarilardi.

Uning vazmin, salmoqli qadamlari ostida zinapoya qisirlardi.

U eshikni ochdi-yu, Antifer tog‘aga ro‘para bo‘ldi.

BESHINCHI BOB

*Jildas Tregomenning Antifer tog‘aga
e’tiroz bildirishdan o‘zini
arang tiyib qolgani*

– Nihoyat yetib kelibdilar-da, qayiqchi!

– Meni chaqirtirishing bilanoq bu yoqqa otildim, qariya...

– Lekin ancha mahalgacha imillab yuguribdilar-da o‘zlariyam!

– Yo‘lga qancha vaqt ketsa xuddi o‘shancha.

– Rostdanmi?.. Xuddi «Go‘zal Ameliya»da suzib kelganga o‘xshaydilar-a.

Jildas Tregomen o‘zini go‘yo tez yurar dengiz kemalari oldida gabarasining³⁰ toshbaqaday imillab

³⁰ Gabara – iste‘moldan qolgan tubi yassi yuk tashuvchi kema.

yurishiga shama qilinayotganini tushunmayotganga soldi. U hamsoyasini avzoyi buzilgan kayfiyatda ko'rib aslo ajablanmadi va odatdagidek uning ta'na-dashnomlariga chidam bilan bardosh berishga ahd qildi.

Antifer tog'a Tregomenga qo'lini uzatdi, u bo'lsa bosh va shahodat barmoqlari bilan avaylabgina siqib ko'rishdi.

– Hoy, jin urgur! Sal evi bilan siqqin-da!

– Avf etasan... ataylab qilganim yo'q...

– Xuddi shu ataylab qilishing yetmay turuvdi-da o'ziyam!

Keyin Antifer tog'a Jildas Tregomenga xona o'rtasida turgan stol yoniga o'tir degandek ishora qildi.

Tregomen indamay stulga o'tirdi-da, poshnasi yo'q kattakon boshmoq kiygan oyoqlarini chalishtirdi. So'ngra u burchlariga langar nusxasi tikilgan zangori va qizil gulli ro'molchasini tiz-zasiga yozdi.

Ro'molchaga tikilgan langar suratlariga ko'zi tushgan Antifer tog'a albatta yelkasini uchirib qo'yardi... Yuk tashuvchi kema egasida langar bo'lish zap ajoyib ish-da!.. Bu gabaraga fok-machta, grot-machta yoki bizan machta o'rnatganday bir gap edi-da, axir!

– Qittak konyakdan otasanmi, qayiqchi! – deb so'radi u ikkita qadah bilan grafinni yaqinroqqa surarkan.

– Og'zimga olmasligimni o'zing bilasan-ku, qariya.

Bu hol uy sohibining ikkala qadahni ham to'ldirishiga aslo mone'lik qilmadi. Antifer tog'a

o'n yillar mobaynida qaror topgan odatlariga ko'ra o'z qadahini ichib bo'lgach, hamsoyasining tegishini ham otib yuborar edi.

– Mana endi gaplashib olamiz.

– Nima haqda! – deb so'radi Jildas, garchi uni nima maqsadda chaqirganlarini juda yaxshi bilsa-da.

– Nima haqda deysanmi?.. O'sha haqda bo'lmay nima haqda gaplashardik...

– E-ha!.. Anavi la'nati kenglikdagi seni shunchalik qiziqtirgan o'sha nuqtani topdingmi axiyri?

– Topdingmi? Qani ayt-chi, qanday qilib topaman? Anavi ikkita mahmadonaning chakagi-chakagiga tegmay sayrayotgan diydiyolariga quloq solib-a?

– Yuvoshgina Nanon bilan suluv Enogatni shunday deyapsanmi hali?

– A-ha! Hamisha ularning yonini olib, menga qarshi chiqishingni yaxshi bilaman!.. Ammo-lekin gap bunda emas. Otam Tomasning olamdan ko'z yumganiga mana sakkiz yil, ha-ha, sakkiz yil bo'ldi-yu, biroq bu nuqta borasidagi ishimiz oldinga bir odim ham jilmadi... Allaqachon bunga barham berishning vaqti yetdi.

– Menga qolsa, – dedi Jildas Tregomen ko'zlarini qisib, – allaqachon bas qilardim... bu ishni bir umrga tashlab yuborardim.

– Xo'sh, hali shunaqa degin!.. O'lim to'shagida yotgan otamning vasiyati nima bo'ladi? Xo'sh, nima qilgan bo'larding uni?.. Bu men uchun muqaddas burch!

– Afsus, hurmatli otang boshqa hech nima demagan ekan-da... – javob berdi Jildas Tregomen.

– Uning o‘zi boshqa hech narsani bilmasa yana nimani aytardi!.. Ming la‘nat! Nahotki kunim bitgunicha men ham hech narsani aniqlayolmasam?

Jildas Tregomenning, ehtimoldan xoli emas bu... va hatto, qani endi shunday bo‘lsa, deb yuborishiga oz qoldi, lekin shunday ham jazavasini qo‘zg‘atib yuborishdan cho‘chib o‘zini juda vaqtida tiyib qoldi.

Ana endi Tomas Antiferning o‘limidan bir necha kun ilgari sodir bo‘lgan voqealarni so‘zlab berish fursati yetdi.

Bu 1854-yili, ya‘ni kekxa dengizchining o‘limidan bir necha kun avval sodir bo‘lgan edi. O‘zini nihoyatda yomon sezgan Tomas Antifer uzoq yillar davomida qiynab kelgan sirdan o‘g‘lini voqif etishga qaror qildi.

U yuragidagini o‘g‘liga aytishidan ellik besh yil muqaddam, ya‘ni 1799-yili quyidagi gaplar bo‘lib o‘tgan edi. Bonapart Yaffada olingan asirlarni otib tashlashga buyruq bergan kuni Tomas Antifer o‘zining savdo kemasida Levant portlariga kirib borarkan, Falastin qirg‘oqlariga yaqinlashib qolgan edi. Ajali aniq yetib turgan, qoyada yashirinib yotgan o‘sha baxti qarolardan birini fransuz dengizchisi – Tomas Antifer qutqarib, yaradorni o‘z kemasiga olib keladi-da, uni parvarish qiladi. Ikki oy mobaynida ko‘rsatilgan g‘amxo‘rlik va davolashdan so‘ng sho‘rlik yarador hayotga qaytadi.

Asir xaloskoriga o‘zining misrlik, nomi esa Komulk poshsho ekanini gapirib beradi. U kemani

tark etarkan, bu dovyurak maluinini hech qachon unutmashligini hamda qulay fursat keldi deguncha uni mukofotlashini aytadi.

Misrlik bilan xayrlashgach Tomas Antifer yana safarni davom ettiraveradi. Ba'zi-ba'zida u bu va'dani eslab qo'yadi, lekin bu va'da amalga oshmasa kerak degan fikrga kelib, bora-bora uni unutib yuboradi.

Yosh jihatidan iste'foga chiqqach, keksa dengizchi Sen-Maloga qaytib, o'g'li Parning tarbiyasi bilan shug'ullanadi. Tomas Antifer 1842-yilning iyunida g'alati bir xat olganida yoshi oltmish yettida edi.

Fransuz tilida yozilgan bu xat qayerdan kelgan edi? Aloqa bo'limi markasiga qaraganda Misrdan. Unda nimalar yozilgan edi? Quyidagilar:

Kapitan Tomas Antiferdan yon daftariga 24° 59' shimoliy kenglikni yozib qo'yish so'raladi. Keyinchalik bu kenglik uzunlik darajasi haqida yuboriladigan xabar bilan to'latiladi. Kapitan buni doim yodida tutishi va nihoyatda sir saqlashi lozim. Gap uning katta manfaatdorligi haqida borayotir. Kenglik darajalari ustiga uzunlik darajalarini bilgach uning ixtiyoriga o'tadigan oltin, olmos va qimmatbaho toshlardan iborat katta boylik bir vaqtlar Yaffadagi asirga ko'rsatgan xizmat hamda g'amxo'rliklari evaziga munosib mukofot bo'lg'ay.

Maktub ostiga ustma-ust qilib yozilgan ikki K harfidan iborat imzo chekilgan edi.

Keksa dengizchining orzu-xayollari qanchalar jo'sh urib ketganini bir tasavvur etib ko'ring-a!

Demak Komulk poshsho qirq uch yildan keyin bo'lsa-da, harqalay, uni eslabdi-da! Buni ancha vaqt kutishga to'g'ri keldi... Lekin, shubhasizki, allaqanday g'ovlar Komulk poshshoni Suriyada tutib qolgan edi. Bu yerdagi siyosiy vaziyat faqat 1840-yil 15-iyuldagi London bitimidan keyingina uzil-kesil aniqlangan, bitim ham sultonning foydasiga hal bo'lgan edi.

Shunday qilib, Tomas Antifer yer sharining Komulk poshsho o'z boyligini ko'mgan nuqtasini kesib o'tadigan o'sha nuqtaning kenglik darajasiga ega bo'ldi. U yerga qancha boylik ko'milgan ekan?.. Tomas Antiferning o'ylashicha millionlar bo'lishi kerak... Harqalay buni nihoyatda sir tutish va qachonlardir va'da qilingan uzunlik darajasini ma'lum qilishlarini sabr-toqat bilan kutishi lozimligi tayinlangan edi. Darhaqiqat bu haqda hech kimga, hatto o'g'liga ham og'iz ochmadi.

U hamon kutardi. U o'n ikki yil kutdi, bu orada sirdan hech zog' voqif bo'lmadi. Lekin, harqalay, poshshodan ikkinchi maktubni olguniga qadar olamdan o'tadigan bo'lsa, bu sirni go'riga olib ketishiga yo'l qo'yib bo'larmidi?.. Aslo! Bunday bo'lishi mumkin emas, shuning uchun ham u o'zidan keyin bundan foydalana olishi mumkin bo'lgan kimsani, ya'ni o'g'li Per-Servan-Maloni sirdan voqif etishga qat'iy qaror qildi. Shu boisdan 1854-yili sakson ikkiga kirgan keksa dengizchi yakka-yu yagona vorisi bo'lgan o'g'liga Komulk poshshoning maktubi haqida hikoya qilib berdi. Shundan keyin chol bir vaqtlar o'zidan talab qilganlaridek o'g'lini o'sha kenglik darajasini ko'rsatuvchi raqamni hech qachon unutmaslikka,

ustma-ust qilib ikki K harfi bilan imzo chekilgan maktubni maxfiy tutishga, yana xabar kelishini sabr-toqat bilan kutishga qasamyod etishga majbur qildi.

Ko'p o'tmay bu muhtaram qariya bandalikni bajo keltirdi, qavm-qarindoshlari, yor-birodar, oshna-og'aynilari aza tutib, o'z xilxonasiga eltib qo'yishdi.

Antifer tog'aning tabiatini bilgan kimsa bu kashfiyotning uning ongiga, jo'shqin orzu-xayollariga qanchalar ta'sir etganini osongina fahmlay oladi. Uning qalbida ehtirosu hirslari jo'sh urib ketdi. Otasi umid qilgan millionlarni xayolan o'n karra oshirib cho'tlab ko'rar, Komulk poshsho esa nazarida «Ming bir kecha»dagi nabobga o'xshab ko'rinardi. Endilikda uning fikru yodi Aliboboning sim-sim g'origa yashirilgan oltin va qimmatbaho duru javohirlarda bo'lib qoldi. Biroq tabiatan betoqat hamda g'ayrati ichiga sig'maydigan odam bo'lgani tufayli otasiga o'xshab sabr-toqat qilolmadi. Birovga bir og'iz ham bu haqda gapirmay, hech kimga yuragini yormay, maktubga ustma-ust qilib ikki «K» bilan imzo chekkan kimsaning kimligini surishtirmay o'n ikki yillab qanoat qilib yashay oladigan otasi edi, ammo o'g'li bunga qodir emasdi!.. O'rtayer dengiziga qilgan safaridan foydalanib, 1855-yili u Iskandariyada to'xtadi va o'ziga xos bir mahorat bilan Komulk poshsho haqida surishtira boshladi.

Chindan ham bormi bu odam o'zi? Buning shubhalanadigan yeri yo'q, zero, u imzo chekkan maktubni keksa dengizchi saqlab qo'ygan edi. Hayotmikin u? Antifer tog'ani qiziqtirayotgan eng

muhim narsa shu edi. To'plangan axborotlar noxush xabarlar edi. Komulk poshsho yigirma yilcha muqaddam g'oyib bo'lgan ekan, unga nima bo'lganini biror kimsa aytib berolmadi.

Butun orzu-umidlari chilparchin bo'ldi! Biroq Antifer tog'a umidsizlikka tushmadi. Garchi 1855-yilda Komulk poshsho haqida biror nima bilolmagan bo'lsa-da, harqalay maktub uning 1842-yilda hayot ekanligini ko'rsatib turibdi-ku, axir! Aftidan, yurtini tashlab ketishiga hech kimga oshkor etib bo'lmaydigan ayrim sabablar majbur qilgan bo'lsa kerak. Lekin ko'pdan intizorlik bilan kutilgan kun keladi. Modomiki otasi olamdan o'tgan ekan, Komulk poshshodan keladigan xabar uning o'g'liga tegadi albatta...

Antifer tog'a Sen-Maloga qaytgach, garchi bu unga qimmatga tushsa-da, hech kimga hech nima demadi. U 1857-yilgacha dengizda suzdi, keyin esa iste'foga chiqib, o'z yaqinlari bilan uyida istiqomat qila boshladi.

Lekin bunday hayot kechirishdan qanchalar iztirob chekkanini aytmaysizmi uning! Endilikda u o'rganib qolgan ishi bilan shug'ullanmas, boshqa qiladigan mashg'uloti yo'qligidan beixtiyor butun vaqtini ilashqoq orzu-rejalariga bag'ishlardi. Bu 24° 59' raqamlar xira pashshaday sira ko'z oldidan nari ketmasdi... Nihoyat u toqat qilolmadi... Uning tili qichishib, opasiga, jiyanlariga va Jildas Tregomenga sirini aytib qo'ydi. Ko'p o'tmay Antifer tog'aning sir tutgan gapi sirtga chiqib, butun shaharga va hatto Sen-Servan hamda Dinargacha taralib ketdi. Bir kun emas bir kun Antifer tog'aning qo'liga juda katta, aql bovar

qilmaydigan boylik kirajagi, ertami-kechmi albatta shunday bo'lajagi hammaga oshkor bo'lib qoldi... Eshik tiq etib taqillarkan, Antifer tog'aning nazarida quyidagi:

«Siz kutayotgan uzunlik darajasi», degan muqaddas so'zlarni eshitadigandek tuyulardi.

Oradan bir necha yil o'tdi. Komulk poshshoning xabarchisidan darak bo'lmadi. Birorta chet ellik ostona hatlab ichkari kirmadi. Shu sababli Antifer tog'aning jahli hamisha burnining uchida turadigan, serzarda, jizzaki bo'lib qoldi. Bora-bora qarindoshlari bu aqlga sig'maydigan boylikka ishonmay qo'yishdi va maktub ularga shunchaki bir qalloblikday bo'lib tuyula boshladi. Jildas Tregomen esa Antifer tog'ani tentak hisoblar, shubhasiz buni o'z muomalasida sezdirmas, lekin bu holdan yaqinga suzuvchi dengizchilar jamiyati nomidan afsuslanardi. Biroq Per-Servan-Malo o'z so'zida qat'iy turar va har qanday e'tirozga toqat qilolmasdi. Uning ishonchiga hech narsa rahna sololmas edi. Nazdida o'ziga va'da qilingan o'sha tuganmas boylik deyarli qo'lga kiray-kiray deb turgandek edi.

Shunday qilib, bu oqshom ham Tregomen Antifer tog'anikida konyak quyilgan ikkita qadah dirillab turgan stol yonida o'tirarkan, qo'rxonadagi poroxning portlashiga yo'l qo'ymaslikka, boshqacha aytganda – qo'shnisining jahlini chiqarmaslikka qat'iy ahd qildi.

– Menga qara, – dedi Antifer tog'a uning ko'ziga tikilib turib, – gapni chalg'itmay to'g'ri javob ber, chunki aftingdan hech nimani tushunmayotgandek o'zingni go'llikka solayotganing ko'rinib turibdi. Ochig'ini aytganda, bu kenglik

va uzunlikni «Go'zal Ameliya»ning egasi aniqlamaydi-ku, yana manavi Ransga o'xshagan ariqchaning qirg'oqlarida balandlikni o'lchab, quyoshni, oy hamda yulduzlarni kuzatmaydi-ku, axir...

Antifer tog'a gidrografiyaning amaliy usullarini sanab o'tarkan, o'z suhbatdoshi oldida dengizda suzadigan kema kapitani bilan gabara egasi orasida yer bilan osmoncha farq bor ekanini namoyish qilmoqchi edi, albatta.

Ochiq ko'ngil Tregomen tizzasiga yoyib qo'ygan ro'molchasining chipor gullariga tikilganicha indamay jilmayib o'tirardi.

– Gapimni eshityapsanmi, hoy qayiqchi?

– Albatta, qariya.

– Unda ayt-chi, kenglikning nima ekanini aniq bilasanmi o'zi?

– Taxminan.

– Ekvatorga parallel bo'lgan aylananing nimaligini va uning uch yuz yoy bo'ylab oltmish darajaga yoki yigirma bir ming olti yuz oltmish daqiqaga bo'linishi-yu buning bir million ikki yuz to'qson olti sekundni tashkil etishini bilasanmi?

– Nega bilmas ekanman buni? – javob berdi Tregomen muloyimgina jilmayib.

– O'n besh darajali yoy bir soatga, o'n besh daqiqalik yoy – bir daqiqa vaqtga, o'n besh soniyalik yoy esa vaqt birligida bir sekundga muvofiq kelishidan xabaring bormi o'zi?

– Nima, sen bularning barini yoddan aytib berishimni istaysanmi?

– Yo'q! Bu befoyda... Shunday qilib, men kenglikni bilaman – ekvatorдан shimol tomondagi yigirma to'rt daraja-yu ellik to'qqizinchi daqiqa.

Biroq uch yuz oltmish gradusdan iborat bo'lgan – ha, uch yuz oltmish, eshityapsanmi? – bu parallelning men uchun sariq chaqaga ham arzi-maydigan yana uch yuz ellik to'qqizta darajasi bor. Ammo-lekin hozircha menga noma'lum bo'lgan birdan-bir gradus bor, uni kesib o'tadigan uzunlikni xabar qilganlaridan keyin u menga ma'lum bo'ladi... o'sha yerda... xuddi o'sha yerda millionlab boylik yotibdi... Tirjayaverma hadebl!..

– Kulayotganim yo'g'-e, qariya.

– Ha, millionlar! Bu boyliklar meniki, qayerga ko'milganini bilgan kunim ularni qazib olishga yolg'iz mengina haqliman.

– Juda soz, – javob berdi Tregomen xotirjamgina. – Demak sen bu haqda yaxshi xabar olib keluvchi choparni sabr-toqat bilan kutishing kerak...

– «Sabr-toqat, sabr-toqat»!.. Tomirlaringda oqayotgan nima o'zi?

– Qaydam, sharbat bo'lsa kerak, – deb javob berdi Tregomen, – ha, boshqa narsa emas, faqat sharbat.

– Meniki esa simob... Mening qonimga porox qo'shilib ketgan! Men ortiq xotirjamgina kutolmayman! O'z-o'zimni yeb qo'yaman... Tilka-pora qilaman o'zimni...

– Sen tinchlanishing, o'zingni bosib olishing kerak...

– Tinchlanishing kerak deysanmi? Hozir 1862-yil ekanini, otamning esa 1854-yilda qazo qilganini, sirini bo'lsa 1842-yildan beri saqlab kelganini, bu ma'lum jumboqni yechadigan bir kalimagina so'zni kutayotganimizga yaqin kunlarda yigirma yil to'lishini unutib qo'yyapsan!

– Yigirma yil-a! – deb qo'ydi Tregomen. – Vaqtning zing'illab o'tishini qarang-a! Yigirma yil burun men «Go'zal Ameliya»ni boshqarardim.

– «Go'zal Ameliya»ngni bunga nima aloqasi bor! – deb baqirdi Antifer tog'a. – Gap «Go'zal Ameliya» haqida boryaptimi yoki manavi xatda yozilgan kenglik haqidami o'zi?

Shunday deb u Tregomenning pirillab uchayotgan ko'zlari oldida vaqt o'tishi bilan sarg'ayib ketgan, Komulk poshsho imzo chekkan o'sha mashhur xatni silkita boshladi.

– Ha, mana shu xat... la'nati xat bu! – deb gap boshladi yana. – Ba'zan uni mayda-mayda qilib tashlashga, yoqib kulini ko'kka sovurishga ham rozi bo'lib ketaman!

– Bu juda oqilona ish bo'lardi-da... – deyishga jur'at etdi Tregomen.

– Bas... Janob Tregomen! – deb o'shqirdi Antifer tog'a. – Bundan buyon mening oldimda bunaqa bema'ni gapni hech qachon gapirmasliklarini talab qilaman!

– Yaxshi, ikkinchi aytmayman!

– Basharti aqldan ozgan onlarimda menga boylik keltiradigan bu xatni yo'q qilmoqchi, jigarbandlarim va o'z zimmamdagi burchimni pisand etmay, shunchalar ahmoqlik qilmoqchi bo'lsam... xullasi kalom, agar siz menga xalal bermasangiz...

– Xalal beraman, qariya, ha, xalal beraman, – deya shosha-pisha ishontirishga tirishdi Jildas Tregomen.

G'oyatda jazavasi tutib ketgan Antifer tog'a konyak quyilgan qadahni shartta oldi-yu:

– Sening salomatligingga, qayiqchi! – deb Tregomenning qadahi bilan cho‘qishtirib ichib yubordi.

– Sening salomatligingga! – javob qildi Jildas Tregomen, qadahni ko‘zi borabar ko‘tarib, keyin uni yana stolga qaytarib qo‘ydi.

Per-Servan-Malo o‘yga toldi. Titrab-qaqshab sochlarini changallagancha allanimalar deb so‘kinar, xo‘rsinib, g‘azab bilan yaxshi ko‘rgan trubkasini g‘ajirdi. Keyin qo‘llarini ko‘ksida chalishtirib, do‘stiga tikilgancha dedi:

– O‘sha la’nati parallelning... shimoliy kenglikning yigirma daraja-yu ellik to‘qqiz daqiqasi qayerdaligini bilasanmi aqalli?

– Nimaga bilmasakanman? – deb javob berdi Tregomen, geografiyadan yuzinchi bor ana shunday imtihonga duchor bo‘larkan.

– Hechqisi yo‘q, qayiqchi! Bunaqa narsalarni takrorlash foydali bo‘ladi!

Shunday deya u ikkala yarim shar xaritasi chizilgan atlasni ocharkan, aslo e‘tirozga o‘rin qolmagan bir ohangda:

– Manavinga qara! – dedi.

Jildas Tregomen atlasga qaradi.

– Sen-Maloni aniq ko‘ryapsan-a, shunday emasmi?..

– Ha, manavi Rans...

– E, Rans haqida gaplashayotganimiz yo‘q-ku! O‘sha Ransingning padariga la‘nat!.. Parij meridianini topib, undan yigirma to‘rtinchi parallelgacha tush.

– Mana tushyapman.

– Fransiyanı, Ispaniyanı kesib o‘t... Afrikaga o‘t... Jazoiridan ham... Rak tropiklarigacha bor... manavi yoqqa... Tumbuktuning yuqorisidagichi...

– Mana, o‘sha yerdaman.

– Juda soz. Shunday qilib, biz o‘sha badbaxt kenglikdaman.

– Ha, o‘shattamiz.

– Endi sharqqa qarab yuramiz... Afrikani kesib o‘tamiz. Qizil dengizdan sakrab o‘tamiz... Tezda Makkaning yuqorisidan Arabistonni ortda qoldirib, Maskat imomiga ta‘zim qilamiz-u, Bombay bilan Kalkuttani o‘ng tomonda qoldirib, Hindistondan oshamiz... Xitoyning janubiy qismini yoqalab borib, Formoza oroli, Tinch okean, Sandvich orollarini³¹ aylanib o‘tamiz... Ortimdan kelyapsanmi o‘zi?

– Ha, ortingdan ketyapman, – deb javob berdi Jildas Tregomen, kattakon ro‘molchasi bilan peshonasini artarkan.

– Juda soz. Mana sen Amerikada, Meksikadasan... Keyin Meksika ko‘rfaziga yetding... Keyin Gavanaga... Mana Florida bo‘g‘ozidan o‘tib boryapsan... So‘ngra Atlantika okeaniga chiqding... Kanar orollarini yoqalab suzib boryapsan... Mana Afrikaga yetib kelding... Endi Parij meridianidan yuqoriga ko‘tarilyapsan... Mana yigirma to‘rtinchi parallel bo‘ylab butun yer kurrasini sayohat qilib chiqib, yana Sen-Maloga qaytding.

– Uf! – yengil tin oldi Tregomen.

– Ana endi, – deya yana gap boshladi Antifer tog‘a, – ikkala qit‘ani, Atlantik, Tinch va Hind okeanlarini, minglab orol hamda orolchalarni kesib

³¹ Sandvich orollari – Gavay orollarining qadimiy nomi.

o'tib, dunyoni aylanib chiqdik, qani endi o'sha millionlar berkitib qo'yilgan joyni ko'rsatib berchi menga!

– Ana shunisini bilmayman-da!

– Lekin, albatta bilamiz buni.

– Ha... bilamiz, xabarchi kelgach...

Antifer tog'a «Go'zal Ameliya»ning egasi ichmagan ikkinchi qadahdagi konyakni ham ko'tardi.

– Sening salomatligingga! – deb qo'ydi u.

– Sening salomatligingga! – deb javob qildi Jildas Tregomen bo'sh qadahni cho'qishtirarkan.

Soat o'nga zang urdi. Shu payt qo'qqisdan darvoza bolg'asi daranglab qoldi.

– Uzunlik haqida xabar olib kelgan darakchi bo'lsa-ya? – deb qichqirib yubordi maluin hayajonlanib.

– O-o! – deb cho'zib qo'ydi Tregomen shubhasiz ikkilanib.

– Xo'sh, nimaga u bo'lmasakan? – deb qichqirib yubordi Antifer tog'a, betiga qon yugurib.

– Darvoqe!.. Nimaga uyamasakan? – deb shu zahotiyoq qo'shildi Tregomen, hatto xushxabar keltirgan darakchini qutlaydigan iboralarni izlay boshladi.

Birdan pastdan Nanon bilan Enogatning xursand qichqiriqlari eshitildi, bu ovozlarning Komulk poshsho yuboradigan odamga hech qanday aloqasi yo'q edi.

– Bu u... uning o'zi! – deyishardi ayollar qayta-qayta.

– O'shami?.. O'shamikin?.. – deya Antifer tog'a zina tomon yurdi.

Lekin shu asnoda xonaning eshigi ochildi.

– Salom, amaki, salom!

Bu xursand va mamnun bir ovoz edi. Bu so'zlar hozirgina bo'lib turgan suhbat ta'siridagi tog'aning g'azabini qo'zg'ab yubordi.

«U» deganlari Jyuel ekan. U kelibdi-da! Nantdan keladigan poezddan kechikmabdi-da! Imtihondan ham yiqilmabdi! Shuning uchun u hadeb:

– Oldim, amakijon, oldim! – deb takrorlardi.

– Oldim-de! – deya unga qo'shilib takrorlashdi yosh qiz bilan onasi.

– Oldim?.. Nimani?.. – deb so'radi Antifer tog'a

– Oligsa suzadigan kema kapitani unvonini oldim!

Amakisi quchog'ini ochmagani sababli u o'zini Jildas Tregomenning quchog'ida ko'rdi, Tregomen uni bag'riga mahkam bosganidan yigitning nafasi qisilib qolayozdi.

– Uni bo'g'ib qo'yasiz, Jildas! – dedi Nanon.

– Axir men uni jiidakkina bag'rimga bosdim-ku! – deb kuldi «Go'zal Ameliya»ning sobiq egasi.

Bu orada arang nafasini rostlab olgan Jyuel xonada u yoqdan bu yoqqa asabiy borib kelayotgan Antifer tog'aga murojaat qildi:

– Endi to'yni qachon qilamiz, amaki?

– Qanaqa to'y?

– Enogat bilan ikkovimizning to'yimizni-da, – javob berdi Jyuel. – Axir shunday deb kelishilgan edi-ku?

– Ha, kelishilgan edi, – deb uning gapini tasdiqladi Nanon.

– Agar oligsa suzadigan kema kapitani unvo-nini olganimdan keyin Enogat menga tegishdan aynib qolmagan bo'lsa...

– O, Jyuel! – deya qiz yigitga qo‘lini tutdi, odamoxun Tregomenning tili bilan aytganda u kaftlariga yuragini qo‘yib uzatgan edi.

Antifer tog‘a indamadi; aftidan u shamolning qaysi tomonga qarab esayotganini anglashga tiri-shayotgandek edi.

– Xo‘sh, nima deysiz, amaki? – deb qistadi yigit.

Shunday deb bu baland bo‘yli, bejirim, quvonch-dan ko‘zlari chaqnayotgan yigit amakisining qar-shisiga kelib to‘xtadi.

– Amaki, – gapida davom etdi u, – imtihon topshirib kelganingdan keyin to‘y kunini belgilay-miz, deb o‘zingiz aytmaganmidingiz, axir.

– To‘g‘ri, menimcha ham, qariya, shunday deganding, – deya gapga aralashishga jur‘at etdi Tregomen.

– Mana... imtihonni ham topshirdim, – takrorladi Jyuel, – qaytib ham keldim... agar siz yo‘q demasangiz, to‘yni aprelning boshlarida o‘tkazamiz.

Per-Servan-Malo bir sapchib tushdi.

– Sakkiz haftadan keyin-a?.. Nega sakkiz kun... sakkiz soat yoki sakkiz daqiqadan keyin emas?

– O! Koshkiydi shunday bo‘lsa! Men bunga tirnoqchayam qarshilik qilmasdim!

– Munaqa shosha-pisha to‘y qilib bo‘lmaydi-da, axir, – e‘tiroz bildirdi Nanon, – ancha-muncha narsalarni tayyorlash, bozor qilish kerak-ku...

– Men bo‘lsam hali yangi kostyum buyurtirishim kerak, – dedi bo‘lajak kuyov jo‘ra – Jildas Tregomen.

– Shunday qilib... beshinchi aprelga o'tkazamizmi? – deb so'radi Jyuel.

– Nima ham derdim... mayli, shunday bo'la qolsin... – dedi Antifer tog'a har tomonlama taslim bo'lganini his etib.

– Voy tog'ajonimdan o'rgilay! – deb qiz tog'asining bo'yniga osildi.

– Amakijon! – xitob qildi yigit.

Bir qo'li bilan amakisini, ikkinchisi bilan Enogatni quchoqlaganidan bo'lsa kerak, ularning yuzlari jipslashdi....

– Kelishdik, – dedi tog'a, – beshinchi aprelda o'tkazamiz... lekin bitta shartim bor...

– Hech qanaqa shart-part keragamas!

– Shartim bor? – qichqirib yubordi Jildas Tregomen, do'stim tag'in biror hiyla ishlatmoqchi shekilli deb cho'chib.

– Ha, shartim bor...

– Qanaqa shart ekan, amaki? – so'radi Jyuel qosh-qovog'i uyulib.

– Agar o'shangacha anavi uzunlik haqida biror xabar olmasam...

Hamma yengil tin oldi.

– Mayli!.. Bo'pti!.. – deb baravariga chug'urlashdi hammalari.

Chindan ham bu shartini qabul qilinmasa, Antifer tog'aga nisbatan shafqatsizlik bo'lardi.

Bundan tashqari, yigirma yildan beri kutilgan o'sha Komulk poshsho odamining kelib-kelib Jyuel bilan Enogatning to'ylari oldidan qadam ranjida qilishini tasavvur etish mumkinmidi, axir?

OLTINCHI BOB

*Sharqning birinchi to'qnashuvdayoq
G'arbdan mag'lubiyatga uchrangani*

Oradan bir hafta o'tdi. Darakchidan nom-nishon yo'q edi. Jildas Tregomen darakchining kelishidan ko'ra ko'proq payg'ambarning arshi a'lodan tushishiga ishonsa bo'ladi derdi. Lekin u Antifer tog'aning oldida o'z fikrini hatto injil tilida ham aytishdan tiyilib turardi.

Enogat bilan Jyuelga kelsak, yoshlar Komulk poshshoning o'sha afsonaviy xabarchisi haqida aslo o'ylashmas, bundan boshqa hech nima bo'lajak to'ylariga to'sqinlik qilmas yoki unga mone bo'lolmas ekan, zo'r berib hech qanday geografik xaritasiz osongina yetib olishlari mumkin bo'lgan ajoyib o'lkaga safarga otlanish tadorikini ko'rardilar. Bu niyatlari belgilangan kun – 5 aprelda amalga oshishiga imonlari komil edi.

Xo'sh, Antifer tog'a-chi! U avvalgisidan ham beshbattar odamovi, yanada badqovoq bo'lib qoldi. Har bir yangi kun belgilangan to'y muddatini yigirma to'rt soatga qisqartirardi. Yana bir necha haftadan keyin kelin-kuyov uzilmas nikoh iplari bilan chambarchas bog'lanadilar. Buning oqibati juda qoyil-da, u nima ham deya olardi! Axir tog'a tamoman boshqa narsani – badavlat bo'lib olganidan so'ng jiyanlariga davlatmand qalliq topishni orzu qilardi. Zotan u bu tutqich bermas, ammo shubhasiz o'ziga tegishli bo'lgan millionlarga shunchalar katta ahamiyat berayotgan ekan, o'z manfaatini – yasanib-bezanib yurish, qasru saroylarda

aysh-ishrat surish, karetalarda sayr etish, oltin idishlarda ovqat yeyish, oxorlangan yoqalariga brilliant tugmalar qadab yurishni ko'zlayotgani yo'q... Xudo haqqi bunday emas! U shunchaki Jyuelni malikaga uylantirishni, Enogatni esa biror shahzodaga uzatishni orzu qilardi, xolos. Nima ham qila olardik! Bu uning orzu-tilagi edi-da!

Agar Komulk poshshoning odami ma'lum bo'lgan raqamlarga qo'shiladigan o'sha zaruriy sonlarni o'z vaqtida yetkazib kelolmasa Antifer tog'aning bu ezgu niyatlari tutundek taralib ketadi. Badavlat misrlikning yashirib qo'ygan xazinasi axir bir kun topiladi va undagi boylik Antifer tog'aning qo'liga kiradi, lekin ming bor afsuski, unda fursat o'tgan bo'ladi!

Keksa dengizchining g'azabi tobora avjiga minib borardi. U uyda o'tirolmay qoldi. Rost, u yo'q bo'lsa uydagilar yengil nafas olardilar. U faqat ovqatlanish paytlarida ko'rinar va indamaygina ikki kishining ulushini pok-pokiza tushirardi. Ko'ngilchan Tregomen bo'lsa qulay fursat keldi deguncha Antifer tog'a zahrini sohib ko'nglini bo'shatib olsin deb o'zini qalqon qilib tutar, do'sti uni albatta so'kib solardi. Jigarlari tog'a kasal bo'lib qolmasaydi deb cho'chiy boshladilar.

Uning har kuni qiladigan birdan-bir ishi poyezdlar va odam tashiydigan kemalar yetib keladigan paytda vokzal va Sillon sohiliga yetib borish bo'lib qoldi. U goh platformada, goh pristanda u yoqdan bu yoqqa yurarkan, Komulk poshshoning xabar-chisiga o'xshashi mumkin bo'lgan biror antiqa libos kiygan kelgindini yoxud biron-bir muhojirni ko'rib qolarmikanman deb yo'lovchilar olomoniga

sinchiklab tikilardi. Aniqrog'i u, misrlik, ehtimolki armani ham bo'lishi mumkin... Harqalay sharq odami bo'ladi, aft-angori, ust-boshi, talaffuzi bilan boshqalardan ajralib turadi, dallolga uchrashib, undan Per-Servan-Malo Antiferning qayerda istiqomat qilishini so'raydi...

Yo'q! Bunaqa odamga sal bo'lsa-da o'xshaydigan biror kimsa, ha, biror kimsa ko'rinmasdi... Bretonlar, normandlar, hatto inglizlar va norvegiyaliklar to'lib-toshib yotardi-yu, biroq Yaqin Sharqdan biron sayyohning qorasi ham ko'rinmas edi.

Antifer tog'a 9-fevral kuni ertalabki nonush-tadan keyin miq etmay odatiy safariga jo'narkan, «chinakam odamni» izlab yo'lga tushgan Diogenga³² o'xshab ketdi. Garchand tog'a qadimiy ulug' faylasufga o'xshab, kupa-kunduzi qo'lida fonus ko'tarib chiqmagan bo'lsa-da, uning o'tkir ko'zlari o'zi sabrsizlik bilan kutayotgan odamini olisdanoq tanishga qodir edi.

Antifer tog'a shaharning xarsang yotqizilgan, ikki betiga baland granit imoratlar qurilgan tor ko'chalarini ortda qoldirib, Bey ko'chasidan borib Dyuge-Truen xiyoboniga chiqdi, suprefektura minorasidagi soatga qarab vaqtni aniqladi-da, Shatobrian maydoniga burildi. Chinor shoxlari shiyponcha hosil qilib turgan joydan aylanib, tosh devorni o'yib ochilgan teshikdan o'tarkan Sillonga chiqib qoldi.

Antifer tog'a shu yerda to'xtab, tutab turgan trubkasini zo'r berib tortgancha o'ng-u so'liga va

³² Diogen – qadimgi yunon faylasufi (eramizdan av. 404 – 323-y.). Bu yerda Diogenning kuppa-kunduzi qo'lida fonus ko'tarib ko'chalarda «chinakam inson»ni qidirib yurgani haqidagi afsona nazarda tutiladi.

orqa-oldiga qarab oldi. Yo'lovchilarning bari u bilan salomlashib o'tardi, chunki tog'a Sen-Maloda taniqli odam bo'lib, shaharliklarning hurmat-e'tiboriga sazovor edi. Biroq u o'zining ilashqoq fikrlariga shunday berilib ketgan, shunchalar faromushxotir ediki, salomga bazo'r alik olardi.

Portda kemalar tirband edi – yelkanli-yu bug' kemalar, briglar, shxuna-yu lyugerlar³³, baliqchilar qayiqlariyu barkaslar qalashib ketgandi.

Hozir suv qaytish vaqti bo'lib, dengiz semaforining ishorasi bilan kemalarning gavanga kirishini kam deganda uch yoki ikki soat kutish lozim edi.

Antifer tog'a yaxshisi vokzalga borib, ekspressning kelishini poylashga jazm qildi. To'satdan shu bugun, necha-necha haftalab kutganidan keyin, bir omadi kelib qolsa-ya?..

Ko'pincha odam noto'g'ri yo'lni tanlaydi-ya! Mana hozir ham Antifer tog'a o'tkinchilarni sinchiklab ko'zdan kechirarkan, yigirma daqiqadan beri bir odam uning orqasidan soyadek ergashib yurar, bu darhaqiqat diqqatga sazovor kimsa edi.

Bu boshiga qora popukli och qizil fas, egniga tugmalari tomog'igacha qadalgan sidirg'a uzun kamzul bilan kavushi betiga tushib turadigan keng cholvor kiygan bir chet ellik odam edi. Ko'rinishidan u ancha yoshi o'tib qolgan – oltmish, oltmish beshlarga borib qolgan edi. U uzun, qoq suyak qo'llarini ko'ksida chalishtirgancha, sal bukchayibroq odimlardi. Bu ko'pdan kutilgan o'sha sharqlik odammi, yo'qmi, bunisi noma'lum edi-yu,

³³ Lyuger – ikki yoki uch machtali, tuzilishi va yelkanlarining joylashishi bilan farqlanadigan mo'jazzgina yelkanli kema.

lekin O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mam-lakatlardan kelgani shubhasiz edi. U yo misrlik, yo suriyalik, yoxud turkiyalik...

Qisqasi bu muhojir Antifer tog'a ortidan ik-kilanibroq ergashib kelardi: goh uni to'xtatmoqchidek bo'lar, goh xato qilib qo'ymay deb cho'chiganday o'zi to'xtab qolardi.

Nihoyat u sohil bo'yi ko'chasining muyulishida odimini tezlatib, Antifer tog'aning oldiga o'tib oq shartta orqasiga burilgan edi, ikkovlari to'qnashib qolishdi.

– E, jin ursin sizni... namuncha lalaymasangiz!..
– o'shqirdi qoqilib ketib yiqilshiga oz qolgan Antifer tog'a.

Ammo o'sha ondayoq ko'zlarini artib va kaf-tini quyosh nuriga soyabon qilib peshonasiga tut-ganicha notanish kimsaga boshdan-oyoq nazar tashlarkan, revolverdan o'qlar ketma-ket otilib chiqqandek bidillay ketdi:

– Shoshmang!.. A!.. Nima?.. O'shami?... Na-hotki... Albatta o'sha! O'sha imzo chekkanning vakili bu!..

Basharti bu chindan ham poshsho yuborgan odam bo'lsa, uning qiyofasi unchalik yoqimtoy emasdi. Uning soqoli qirtishlangan beti, ajin bos-gan, peshonasi, qarmoqsimon burni, shalpang qu-loqlari, yupqa lablari, qirrador iyagi, o'ynoqi ko'zlari, pishib o'tgan limon rangidagi tusi, umu-man uning nimjongina qomati makr va qalloblik-dan dalolat berib turganday, unga ishonib bo'l-maydiganday ko'rinardi.

– Hozirgina bir iltifotli dengizchi aytgan An-tifer janoblari bilan suhbatlashish sharafiga muyas-

sar bo'lib turmaganmikinman? – dedi u sira takrorlab bo'lmaydigan bir darajada fransuzchani buzib. Shunga qaramay uning so'zlari hatto bretonga ham tushunarli edi.

– Antifer Per-Servan-Malo bo'laman! – deb javob berdi tog'a. – Xo'sh, o'zlari kim bo'ladilar?

– Binni Umar.

– Misrlikmisiz?..

– Iskandariyalik notariusman. Puassonner ko'chasi­dagi «Union» mehmonxonasiga tushdim.

Qizil fasli notarius! Chamasi sharq mamlakatlari­dagi notariuslar uchun fransuz notarial idoralari­dagi hatto oddiy kotib ham kiyib yuradigan qora kostyum bilan oq galstug-u oltin gardishli ko'zoynakning hojati yo'qqa o'xshaydi. Darvoqe, fir'avn fuqarosi orasida notarius bo'lishining o'zi umuman ajablanarli-ku!

Antifer tog'a qarshisida turgan kimsaning bundan yigirma yil muqaddam Komulk poshsho o'z maktubida xabar qilgan, ko'pdan orziqib kutilgan geografik uzunlikni albatta keltirishi shart bo'lgan o'sha maxfiy vakil ekaniga zarracha shubhalanmasdi.

Biroq Antifer tog'a shoshqaloqlik qilib, orqasiga qaramay Binni Umarni savollarga ko'mib tashlamadi (undan buni kutsa bo'lardi), balki tezda o'zini tutib oldi va birinchi bo'lib muhojirning gap boshlashini kutdi. Bu jonli mo'miyoning basharasida aks etib turgan makkorlik hushyorlikka undardi.

Jildas Tregomen hozir shu yerda bo'lganida jiz­zaki do'stining shunchalar oqilona ish tutganiga aslo ishonmagan bo'lurdi.

– Xo'sh, o'zlariga qanday yordamim tegishi mumkin, Binni Umar janoblari? – deb so'radi Antifer tog'a qarshisida qimtinibgina yer toptab turgan misrlikka diqqat bilan tikilarkan.

– O'zlari bilan suhbat qurish ishtiyoqida edim, Antifer janoblari.

– Mening uyimda suhbatlashishga xushlari qalay?

– Yo'q... bizni biron kimsa tinglayolmaydigan xoli yerda suhbatlashganimiz ma'qul.

– Demak, maxfiy gap ekan-da?

– Ham ha, ham yo'q... To'g'rirog'i savdo bitimiday bir gap.

Antifer tog'a seskanib tushdi. Hammasi ayon; mabodo bu odam o'sha geografik kenglikni bildiruvchi raqamlarni olib kelgan bo'lsa uni quruqqa bermoqchi emas. Vaholanki ikki «K» harfi ostma-ust qilib imzo chekilgan maktubda hech qanaqangi savdo bitimi haqida aytilmagan edi.

«Diqqat! – dedi u o'ziga o'zi. – Rulni mahkam tutginu yo'ldan og'ib keta ko'rma!»

So'ngra u suhbatdoshiga murojaat qilib, gavanning bo'm-bo'sh xilvat bir joyini ko'rsatarkan:

– Yuring o'sha yoqqa. U yerda har qanaqangi maxfiy gapni ham ikkimiz bafurja, xoli so'zlasha olamiz. Lekin tezroq, chunki izg'irin betlarimizni chimdib ketyapti, – dedi.

O'sha yergacha bor-yo'g'i yigirma odimcha yurilardi. Sohilda langar tashlab turgan kemalarda odam zoti ko'rinmasdi. Faqat bojxona nazoratchisigina Antifer tog'a bilan iskandariyalik notarius turgan joydan to'qson metrcha narida aylanib yurardi,

Oradan bir daqiqa o'tmayoq bo'sh yerga yetib bordilar-da, yo'g'on xodaga o'tirdilar.

– Bu yer sizga ma'qul keladimi, janob Binni Umar? – deb so'radi Antifer tog'a.

– Ha, ha... albatta!

– Unda boshlang, illo, anavi odamlarga jumboq berishni yaxshi ko'radigan sfinkslarga o'xshab emas, balki aniq-ravshan qilib gapiring.

– Chalakam-chatti qilib gapirmayman, Antifer janoblari, chin yurakdan, ochig'ini aytaman-qo'yaman, – dedi Binni Umar makkorona bir ohangda. Keyin ikki yoki uch marta yo'talib olgach, so'radi:

– Sizning otangiz bormidi?

– Ha... bizning yurtimizda odat bu. U yog'i-chi?

– Uning vafoti haqidagi xabar yetib borgandi qulog'imga...

– U bundan sakkiz yil avval olamdan o'tgan. Xo'sh, davom eting.

– U dengizda suzarmidi?

– Dengizchi bo'lganidan keyin, turgan gap, suzardi. Davom eting.

– Qaysi dengizlarda suzgan u?

– Hamma dengizlarda. Xo'sh, yana nima?

– Xo'sh-xo'sh... Demak u Sharqda ham bo'lgan ekan-da?..

– Sharqda ham, G'arbda ham. Yana nima deysiz?

– Safar paytida, – deb yana gap boshladi notarius, bu kalta-kulta javoblar uning bemalol gaplashishiga imkon bermayotgan edi, – xo'sh, safari paytida bundan oltmish yilcha muqaddam u Suriya sohillarida bo'lmaganmi?..

– Ehtimol bo'lgandir... ehtimol yo'q. Xo'sh, yana nima deysiz?

Bu «davom eting, yana nima deysiz» degan iboralar xuddi Binni Umarning biqiniga musht bo'lib tushayotganday edi, uning afti burishib-tirishib ketardi.

«Chap beraver, azizim, – deb o'yladi Antifer tog'a, – joningga tekkunicha kemangni aylantiraver. Illo meni lotsmanlik qiladi deb xomtama bo'lma!»

Notarius gapning po'st kallasini aytib qo'ya qolishi zarur ekanligini fahmladi.

– Otangizning birovga xizmati singgan... ha, katta xizmati singgan ekan... xuddi o'sha Suriya sohillarida, bundan xabaringiz bormi?

– Yo'q. Qani, yana nima gapingiz bor?

– A! – Binni Umar bunday javobdan lol qoldi. – Uning Komulk poshsho degan bir kimsadan maktub olganidan ham bexabarmisiz?

– Poshshodan?

– Ha.

– Tug'i qanday?

– Buning ahamiyati yo'q, janobi Antifer. Eng muhimi otangizning qimmatli mazmunga ega bo'lgan maktub olganini bilish.

– Xabarim yo'q. Xo'sh, yana nima deysiz?

– Siz uning qog'ozlari orasidan izlab ko'rmanmisiz? Bu maktubning yo'qolishi mumkin emas-ku, axir! Takror aytamanki, unda bag'oyat muhim narsa bitilgan...

– Siz uchunmi, janob Binni Umar?

– Siz uchun ham, janob Antifer, zero... Qisqasi, u men qo'lga kiritishim lozim bo'lgan maktubdir... Bu mening zimmamga yuklangan... u siz

uchun manfaatli bo'lgan bitishuvga vosita bo'lishi mumkin...

Shu ondayoq Per-Servan-Maloga hammasi ayon bo'ldi-qoldi: Binni Umar boyliklarning qayerga ko'milganini aniqlash uchun unga, ya'ni Antifer tog'aga zarur bo'lgan geografik uzunlik siridan voqif bo'lgan kimsalarning vakili ekan.

– Qalloblar! – deb pichirladi u. – Ular mening sirimni bilib olishmoqchi, maktubni sotib olishmoqchi... keyin mening millionlarimni qazib olishmoqchi!

U haqli edi chog'i.

Shu payt odim sharpalari eshitilib qoldi – allaqanday bir kishi sohil bo'yi ko'chaning muyulishidan aylanib o'tib, pristan tomonga qarab boraverdi. Suhbatdoshlar jim bo'lishdi, notariusning gapi og'zida qoldi. Hatto u yo'lovchiga ko'z qirini tashlab, sezilar-sezilmas salbiy ishora qilganday, bundan esa o'tib ketayotgan odamning jahli chiqqanday bo'ldi. Darhaqiqat, yo'lovchi ranjiganday qo'l silkib qo'yib, qadamini tezlatdi-da, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Bu o'ttiz uch yoshlardagi muhojir bo'lib, ustboshiga qaraganda misrlik edi. Uning qiyofasi juda g'alati: tusi qora, o'tdek chaqnab turgan ko'zlari ham charosday, bo'yi xiyla darozroq, ko'rinishidan shiddatli, basharasi ko'rimsizgina, hatto vahshiyona qiyofali odam edi. Notarius bilan tanishmidi u? Ehtimoldan uzoq emas. Ular o'zlarini bir-birlarini tanimaganga olishdimi dersiz? Shubhasiz.

Qanday bo'lsa-da, Antmfer tog'a uning imoishorasiga e'tibor bermadi – shunchaki bir qarab,

imo qildi-qo'ydi-da, bu yerda boshqa hech gap yo'q, – deb o'yladi-yu gapini davom ettiraverdi.

– Endi, janob Binni Umar, – dedi u, – menga shuni ayting-chi, o'sha maktub sizga nega bunchalik zarur? Siz uning mazmunini bilmoqchisiz va hatto basharti u menda bo'lsa sotib olishga ham tayyorsiz, shundaymi?

– Janobi Antifer, – dedi notarius dovdirab, – mening mushtariylarim orasida Komulk poshsho degan bir kimsa ham bor edi. Uning manfaatlariga rioya qilishga burchli bo'lganim tufayli...

– Bor edi, deysizmi?

– Ha... Uning merosxo'rlarining vakili sifatida...

– Uning merosxo'rlari deysizmi? – deb gichqirib yubordi Antifer tog'a oshkora taajjub bilan. Bu notariusning nazaridan qochib qutulolmadi. – Demak u vafot etibdi-da?

– Ha, qazo qildi.

«Diqqat! – deya pichirladi Per-Servan-Malo trubkasini g'azab bilan g'ajirkan. – Komulk poshsho o'libdi... Buni yodda tutish... va qovun tushirib qo'ymaslik kerak».

– Shunday qilib, janobi Antifer, o'sha maktub sizda emasmi?.. – deb so'radi Binni Umar ko'zlarini olib qochib.

– Yo'q.

– Ming bor afsus, zero Komulk poshshoning merosxo'rlari sevimli qarindoshlarini eslatadigan har bir narsani yig'ishga harakat qilib yurishgan edi...

– E-ha! Hali u esdalikkamidi?.. Juda olihimmat odamlar ekan-a!

– Shunday, janobi Antifer, siz bag‘oyat to‘g‘ri ifodalaganingizdek, o‘sha olihimmat odamlar bu maktub evaziga tuzukkina mablag‘ taklif etishdan aslo ikkilanmaydilar...

– Masalan, ular menga qancha berishardi?

– Sizga baribir emasmi bu... axir maktub sizda emas ekan-ku...

– Harqalay ayting-chi...

– O! Bir necha yuz frank berishadi.

– Voy-bo‘... – deb qo‘ydi Antifer tog‘a.

– Balki, hatto... bir necha ming!..

– E-ha, hali shunaqa deng! – deb baqirdi Antifer tog‘a tamoman o‘zini unutib, Binni Umarning yoqasidan olib, qulog‘iga shivirlarkan, uning qulog‘idan shartta tishlab olishdan arang tiyilib turardi. – Shuni bilib qo‘ying, o‘sha maktub menda!

– Siz-da?

– Ha, ostma-ust qilib ikki «K» harfi bilan imzo qo‘yilgan!

– To‘g‘ri... Ikki «K»!.. Mening mushtariyim xuddi shunday imzo chekardi.

– Maktub menda!.. Men uni o‘qiganman, ha-ha, yuz martalab qayta-qayta o‘qib chiqqanman!.. Nima uchun uni qo‘lga kiritishga tirishayotganingizni tushunib turibman, aniqrog‘i juda yaxshi bilaman!

– Janobi Anti...

– Hech qachon ololmaysiz uni!

– Taklifimizni rad etasizmi?..

– Shunday, keksa Umar, rad etaman! Uni sotib olishga quvvatingiz yetarmidi-ya!..

– Qancha deysiz? – so‘radi notarius va hamyonini olgani qo‘lini kissasiga tiqdi.

– Qancha deysizmi?.. Ellik million frank!

Binni Umar bu kutilmagan javobdan hatto sapchib tushdi. Antifer tog'a bo'lsa tishlarini g'ijirlatgancha notariusga shunday nafrat bilan yeb yuborgunday o'qrayardiki, hech kim hech qachon unga bunday tikilgan emasdi. Keyin go'yo dengizchilarga buyruq berayotgandek quruqqina qo'shib qo'ydi:

– Endi ikkisidan birini tanlang. *

– Ellik million! – deya joni bo'g'ziga tiqilib takrorladi notarius.

– Savdolashmay qo'ya qoling, janobi Binni Umar. Ellik santim ham kamaytmayman!

– Ellik million?..

– Ha... yana naqdga... oltinlarga yoki qog'oz pulga... yoki fransuz banki chekiga sotaman.

Dovdirab qolgan notarius asta-sekin o'ziga kela boshladi. Komulk poshsho merosxo'rlari uchun bu maktubni qo'lga kiritish qanchalik muhim ekanidan bu la'nati dengizchining batafsil xabardorligi unga ayon bo'ldi. Darhaqiqat, o'sha xazinani izlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning birdan-bir manbasi mana shu maktub emasmi, axir? Notariusning barcha hiyla-yu nayranglari behuda ketdi. Maktubga quruq qo'l bilan ikki dunyoda erishib bo'pti! Maluin tuzoqqa ilinmadi. Maktubni, boshqacha qilib aytganda – Binni Umarga ma'lum bo'lgan uzunlikka qo'shilganda boylik ko'milgan xazinaning turgan yeri ayon bo'ladigan kenglikni bildiruvchi raqamlarni sotib olishdan o'zga chora qolmagandi.

Biroq, muhtaram kitobxonlar, Binni Umar bu maktubning Antifer tog'ada ekanini qayerdan

bildi, deb so'rashlari mumkin. Bundan tashqari, o'sha badavlat misrlikning sobiq notariusi chindan ham Komulk poshshoning so'nggi vasiyatini bajo keltirib va'da qilingan geografik uzunlik haqidagi ma'lumotni olib kelishi lozim bo'lgan, ko'pdan orziqib kutilgan darakchimidi o'zi?.. Buni tezda bilib olurmiz.

Notarius qanday kuch va tazyiq ostida ish tutmasin – uni marhum poshshoning merosxo'rlari yuborganmi, yo'qmi – harqalay Binni Umar endilikda maktubning faqat oltin evazigagina qo'lga kirishi mumkinligini juda yaxshi bilib olgandi. Lekin – ellik million-a!..

Shu payt u mug'ombirona ovoz bilan so'radi:

– Janob Antifer, siz, yanglishmasam, ellik million dedingizmi?

– Balli, shunday dedim.

– Shu yoshga kirib bunday g'alati gapni birinchi eshitishim-a!

– Janob Binni Umar, bundan ham g'alatiroq gapni eshitishga toblari qalay?..

– O, bajonu dil!

– Bo'lmasa quloq soling: siz kekxa qallobsiz! Ha, misrlik ko'hna firibgarsiz! Kekxa Nil timsosisiz!..

– Janob An...

– Yetar, bas! Gapim tugadi!.. Siz loyqa suvdan baliq tutishda ustasi farangga o'xshaysiz, bu ko'rinib turibdi, shu boisdan ham zimmangizga yuklangan va meni voqif etishingiz majburiy bo'lgan maxfiy xabarni yetkazish o'rniga, bil'aks mening sirimni bilib olmoqchi bo'lyapsiz?

– Siz shunday deb o'ylaysizmi?

– O‘ylamayman, balki bilaman!
– Yanglishasiz, bu sizning xomxayollaringiz...
– Bas qiling, ey jirkanch firibgar!
– Janob A...
– Xo‘p, sal iltifotli bo‘la qolay. «Jirkanch» degan so‘zimni qaytarib ola qolay! Basharti istasangiz, qo‘limdagi maktubning nimasi sizni hammadan ko‘ra ko‘proq qiziqtirayotganini aytib beraman.

Nahotki notarius Per-Servan-Maloning og‘zi bo‘shlik qilib sirni ochib qo‘yishiga ishongan bo‘lsa?.. Harqalay uning bit ko‘zlari laqqa cho‘g‘dek yiltillab ketdi.

– Yo‘q! Garchi maluin g‘azabdan o‘zini unutayozib, rangi qizarib-bo‘zarib ketgan bo‘lsa-da, har holda batamom es-hushidan ayrilmagandi.

– Shularni qulog‘ingizga quyib oling, hatto amerikachasiga bopta qilib tayyorlaganlarida ham odam bolasi og‘ziga olmaydigan ey keksa badhazm Umar, o‘sha maktubda ikki «K» harfi bilan imzo chekkuvchiga mening otam ko‘rsatgan xizmatlar haqida bitilgan gaplar sizni zarracha qiziqtirmaydi... Yo‘q! Sizni undagi to‘rtta raqam qiziqtiradi, xolos! Eshityapsizmi – to‘rtta raqam!

– To‘rtta raqam?.. – deya g‘o‘ldirab qo‘ydi Binni Umar.

– Ha-ha, to‘rtta raqam! Men ulardan har birini sizga o‘n ikki yarim millionga sotaman! Endi gap tamom! Xayr, salomat bo‘lsinlar!..

Shunday deya Antifer tog‘a qo‘llarini cho‘ntaklariga suqib, o‘zining sevgan kuyini hush-takda chalgancha nari ketdi. Buning qanaqa kuy yoki qo‘shiqligini hech zog‘, hatto o‘zi ham bil-

masdi – u Ober³⁴ bastalagan kuydan ko'ra ko'proq adashib qolgan itning ulishiga o'xshardi.

Binni Umar turgan yerida qotib qolgandi! Ha, xuddi qoqqan qoziqdek serrayib turib qolgandi! Axir u bu dengizchini oddiy bir fallohdek laqillatmoqchi edi-ya! Yovuz taqdirning zayli bilan uning Iskandariyada oldi mahkama sanalgan la'nati idorasiga kelib qolgan o'sha baxti qaro dehqonlarni qanchalar laqillatgani hammaga ayon...

Binni Umar lapanglab, vazmin odimlab borayotgan maluin ortidan hangu mang bo'lib tikilib qoldi. Antifer tog'a dam bir yelkasi, dam ikkinchi yelkasi ko'tarilib-tushib borarkan, go'yo yonida hozirgina uning achchiq gaplarini eshitib bo'lgan do'sti Tregomen ketayotgandek, aftini bujmaytirib qo'yardi.

Birdan Antifer tog'a taqqa to'xtadi. Nima, yo'lida biron to'siqqa duch keldimi u? Ha!.. Bu to'siq miyasida qo'qqisdan paydo bo'lib qolgan bir fikr edi. U kichkinagina xatoga yo'l qo'yibdi, illo buni tuzatishning hali fursati o'tgani yo'q...

U Apollonning umidini puchga chiqarib, dafna daraxtiga aylanib qolgan go'zal Dafnedek³⁵ tosh qotib turgan notarius yoniga qaytib keldi.

– Janob Binni Umar, – dedi tog'a.

– Qulog'im sizda, nimani istaydilar?

– Bir narsani astagina qulog'ingizga shivirlab qo'yishni unutibman.

³⁴ Ober Daniyel Fransua (1782 – 1871) – mashhur fransuz kompozitori.

³⁵ Yunon afsonalaridan birida Xudo Apollonning farishta Dafnega bo'lgan sevgisi haqida hikoya qilinadi. Dafning otasi – daryolar xudosi Peney Apollonning ta'qibidan asrab qolish uchun qizini dafna daraxtiga aylantirib qo'ygan emish.

- Xo'sh, nimani?..
 - Bir raqamni...
 - A-a! Raqamni?! – sapchib tushdi Binni Umar.
 - Ha, uyimning nomerini bildiruvchi raqamni...
- Ot-Sall ko'chasi, uch... Mening turar joyim qayerdaligini bilib qo'yganingiz ma'qul. Tashrif buyurgudek bo'lsalar, do'stona kutib olurmiz...
- Meni taklif qilyapsizmi?
 - Ha, kissangizda ellik million bo'lsagina...
- Bu safar Antifer tog'a uyiga butunlay jo'nadi, darmoni qurigan notarius esa xudodan madad tilab, yana xodaga o'tirib qoldi.

YETTINCHI BOB

*Manfur tabiatli Nozim degan bir
kimsaning bosh gumashtalikka yollaysan deb
Binni Umarga zo'rlik bilan ilashib olgani*

Basharti o'n yettinchi xonaning eshigi havo o'tmaydigan qilib zichlab berkitilmagan va unga tovush o'tkazmaydigan qalin parda sirilmaganida edi «Union» mehmonxonasining derazalari Jak-Kyor maydoniga qaragan xonalarida mast uyquda yotgan mijozlar to'qqizinchi fevral tunidagi shovqindan uyg'onib ketishlari hech gap emasdi.

Gap shundaki, o'sha xonani band etgan ikki mehmon o'zaro jiqillashib qolgandi. Ulardan birining shunday g'azabi qaynab, tutaqib ketgan, sira uyalmay-netmay og'zidan bodi kirib-shodi chiqib ovozing boricha sherigini bo'ralab so'kar, po'pisa qilardi. Ikkinchisi esa birinchisini tinchlantirishga tirishar, ammo barcha urinishlari behuda ketardi,

zeroki u qo'rqa-pisa gapirar, nimadandir chuchi-yotgani ochiq-oydin sezilib turardi.

Darvoqe, ular orasidagi mojaro G'arb kishilariga notanish bo'lgan turk tilida borganidan uni eshitganida ham hech kim hech narsa tushunolmasligi mumkin edi. Goho-goho fransuzcha iboralar ham aralashib qolar, bundan mabodo suhbatdoshlar istasalar, bemalol bu asl tilda so'zlasha olishlari ko'rinib turardi.

Kaminda gurillab o't yonardi, dumaloq stoldagi chiroq vaqt o'tishi bilan sarg'ayib ketgan portfel ostidan yarim-yortisi chiqib turgan qog'ozlarni yoritardi.

Janjallashayotganlarning biri Binni Umar edi. Bag'oyat ezilib, g'ujanak bo'lib ketgan Binni Umar yarim yumuq ko'zlarini o'tga qadab o'tirarkan, suhbatdoshiga, uning kamindagi olovdan ham ortiqroq shu'la taratib chaqnab turgan dahshatli ko'zlariga qarashga botinmasdi.

Sohil bo'yida Antifer tog'a bilan suhbatlashib o'tirgan paytlarida notarius xufiya imo-ishora qilib qo'ygan o'sha dahshatli qiyofali muhojir shu edi.

Xuddi ana shu odam quyidagi so'zlarni yigirmanchi bor takrorlardi:

– Xullas, hech qanaqa ish chiqarolmabsan-da?

– Shunday, muhtaram janoblari, bunga Ollo taoloning o'zi shohid...

– Olloning shohidligidan menga nima foyda! Men ishdan gapiryapman senga!.. Demak, hech nima chiqarolmabsan-da, a?

– Minba'd afsuskim, shunday bo'ldi.

– Hye padariga la'nat o'sha maluinning! (Bu so'zlarni u fransuzchalab aytdi.) Shunday qilib, maktubni senga berishdan bosh tortdimi?

– Xuddi shunday, bosh tortdi!

– Sotishdan-chi?

– Sotishdan deysizmi? Rozi bo'ldi...

– Sen kallavaram bo'lsang sotib olmadingmi?

A, olmadingmi uni? Bu yerga maktubsiz quruq kelishga qanday jur'at etding.

Qancha so'raganidan xabaringiz bormi o'zi, muhtaram janoblari?

– Buning qanday ahamiyati borakan?

– Ellik million frank deydi-ya!

– Ellik million?!

Misrlik xuddi ikki biqinidagi to'plardan bir yo'la o't ochgan harbiy kemaday, bo'ralab so'ka boshladi. Keyin to'plarini qaytadan o'qlagan singari yana bo'kira ketdi:

– Bu ishning o'zi uchun qanchalik muhim ekanidan o'sha dengizchining juda yaxshi xabardor ekanini endi anglagandirsan, kallavaram?..

– Aftidan, fahmlayotganga o'xshaydi.

– Sen ham u bilan qo'shmazor bo'lgin! – deb o'dag'ayladi misrlik quturib, xonada u yoqdan bu yoqqa zir yugurar ekan. – O'z qo'llarim bilan bo'g'izlaganim bo'lsin, aqalli sen badbaxtni; boshimga keladigan bari baxtsizligu nadomatlar uchun sen javob berasan...

– Axir men gunohkor emasman-ku, muhtaram janoblari... Komulk poshshoning siridan bexabar edim-da...

– Buni bilishing kerak edi! U hayotligida sirlarini bilib olishing kerak edi!.. Axir sen uning notariusi eding-ku!..

Haqorat va so'kishlar harbiy kemandi ikkala biqinidan bir yo'la otilayotgan to'p o'qlariday yog'ila ketdi.

Bu dahshati zo'r odam Komulk poshshoning urug'i Murodning o'g'li Souk edi. U hozir o'ttiz uchga kirgandi. Otasining vafotidan so'ng badavlat qarindoshining yakka-yu yagona merosxo'ri bo'lib qolgandi. Basharti katta boylik otasining ochko'zligi va ta'magirligi oqibatida olislarga olib borib yashirib qo'yilmaganida uning qo'liga kirgan bo'lardi. Boylikning esa qaysi sabablarga ko'ra va qanday sharoitda Misrdan olib chiqib ketilgani hamda qanday yashirilganidan muhtaram kitobxon xabardor.

Endi biz Komulk poshshoning o'z boyligini bi-rorta noma'lum orolga yashirish niyatida Aleppodan chiqib ketganidan keyin sodir bo'lgan voqealarni qisqacha bayon etamiz.

1831-yilning oktabrida yigirma ikki kemadan iborat flot va o'ttiz ming kishilik lashkar Ibrohim poshsho sardorligida G'oz, Yaffa va Hayfani egalladi. 1832-yilning 27-martida esa Aqqa qal'asi ham uning qo'liga o'tdi.

Aftidan, Falastin va Suriya Porloq Porta – Turkiya sultonligi hukmronligidan uzil-kesil tortib olinadigan edi, biroq Yevropa davlatlarining aralashuvi Muhammad Ali o'g'lining g'olibona yurishini to'xtatib qo'ydi. 1833-yili ikkala raqib – sulton bilan uning noibi o'rtasida Kyutahyada majburiy sulh tuzdilar va hamma narsa eskichasiga saqlab qolindi³⁶.

³⁶ 1833-yilning mayida Kyutahya shahrida tuzilgan sulhga binoan Misr, Suriya bilan birga Falastin va Kilikiya Muhammad Alining hukmronligida qolishi kerak edi. Buning evaziga esa Muhammad Ali Anatoliyadagi qo'shinlarini olib chiqib ketishi hamda o'zining sultonga tobe ekanini rasman tan olishi lozim edi.

Ana shunday alg'ov-dalg'ov kunlarda Komulk poshsho bor boyligini ustma-ust qilib ikki «K»dan iborat belgi qo'yilgan bexatar yerga yashirib, sayohatini davom ettirib yurardi. Kapitan Zo boshchiligidagi shxunasida qayerlarda adashib-uloqib yurgandi u? Qaysi suv-u, qaysi dengizda, xullas yer sharining qaysi pallasida suzib yurgan edi bu paytlarda? Olisdagi Osiyo dengizlarida suzyaptimi yoki yevropani aylanib o'tdimikan?.. Kapitan Zo bilan Komulk poshshodan boshqa biron kimsa javob berolmasdi bu savollarga, zeroki, bilishimizcha, kemadagilardan na biror kimsa qirg'oqqa oyoq bosdi, na xo'jayinlarning G'arb yoki Sharqning, Shimol yoxud Janubning qaysi mamlakatlariga borishni xayol qilganidan biror dengizchining xabari bor edi.

Biroq bu oxiri yo'q izg'ishlardan keyin Komulk poshshoning Yaqin Sharq portlaridan biriga kirishga jazm etib ehtiyotsizlik qilib qo'yishiga oz qolgandi. Kyutahya bitimi Ibrohim poshshoning shuhratparastona orzulariga chek qo'ygan va Suriyaning shimoliy qismi yana sulton hukmronligi ostiga o'tgan edi. Ana shu boisdan Komulk poshsho Aleppoga qaytsa hech qanday xavf tahdid qilmasligiga ishongan edi.

Ammo, baxtga qarshi, 1834-yilning o'rtalarida bo'ron quturib, kemasini Aqqa sohillari tomon surib ketadi. Har damda hamlaga hozir turgan Ibrohimning floti sohilni kuzatib yurardi. Muhammad Ali tomonidan katta vakolat berib qo'yilgan Murod ana shu harbiy kemalardan birida edi.

Shxunada esa Turkiya sultonligining bayrog'i hilpirab turardi. Bu kemanding Komulk poshshoga

qarashli ekanidan Murodning xabari bormidi?.. Bunisi noma'lum. Harqalay, shxunani ta'qib etib, quvib yetdilar. Uni aboardajga³⁷ olib, mardona qarshilik ko'rsatishlariga qaramay, hamma matroslarni qirib tashlab, kema egasi bilan kapitanni asir qildilar-da, kemani g'arq etdilar.

Murod Komulk poshshoga ko'zi tushgani hamonoq uni tanidi. Bu poshshoning abadul abadga ozodlikdan mahrum bo'lganining dalolati edi. Bir necha haftadan so'ng kapitan Zo bilan Komulk poshsho maxfiy ravishda Qohiraga olib kelinib, qal'aga hibs etildi.

Bordi-yu, Komulk poshsho Aleppodagi hovlisiga yetib kelganida ham o'zi o'ylaganidek xotirjamgina va bexavotir yashay olmasdi. Misr hukmronligida bo'lgan Suriya qattiq arosatda qolgandi. Bu ahvol 1839-yilga qadar davom etdi; Ibrohim yaloqxo'rlarining jabru zulmi va shafqatsizliklari sultonni ilgari noilojlikdan yon berish haqidagi barcha va'dalarini qaytarib olishga majbur etdi. Ana shundan so'ng Muhammad Ali yangitdan yurish boshladi va uning lashkarlari shimoliy Suriyadagi Nizib yonida g'alaba qozondi. Buni ko'rgan Sulton Mahmudning, Turkiyaning yevropada joylashgan poytaxtiga dushman hujum qilib qolmasa go'rga edi, deb esxonasi chiqib ketdi. Shundan so'ng sultonlikning roziligi bilan Angliya, Avstriya va Prussiya Yaqin Sharq mojarosiga aralashdilar. G'olib zafarli yurishini to'xtatdi. Unga Misrni abadul-abad vorislari bilan boshqarish, Suriyaga Qizil dengizdan Tiveriad ko'lining Shimoligacha va O'rtayer dengizidan Iordangacha, ya'ni daryo-

³⁷ Aboardaj – ikki kemaning bir-biriga yopishib jang qilishi.

ning bu tomonidagi butun Falastin yerlariga umrbod hukmronlik qilish huquqi taklif etildi.

Biroq zafar sharobidan mast bo'lgan hukmdor o'z lashkarlarining yengilmasligiga ishonib, fransuz diplomatlarining ig'vosiga ishonibmi yoki Terning³⁸ ta'siridami, ishqilib, ittifoqchi davlatlarning takliflarini rad etdi. Shundan keyin ittifoqchilar floti urushni boshlab yubordi. Mashhur komandor³⁹ Nepir⁴⁰, keyinchalik Sulaymon poshsho deb unvon olgan polkovnik Selvaning shaharni mardlarcha mudofaa qilishiga qaramay, 1840-yilning sentabrida Bayrutni ishg'ol etdi. Sidon esa o'sha oyning yigirma beshinchi kuni taslim bo'ldi. Rosa bombardimon qilinib o'z maydonidagi porox omborxonalarining kuli ko'kka sovrilganini ko'rgan Aqqa ham batamom taslim bo'ldi. Muhammad Alining taslim bo'lishdan o'zga chorasi qolmagandi. U o'g'li Ibrohimning Misrga qaytishiga farmon berdi, ana shunday qilib, Suriya butunlay yana sulton Mahmud hukmronligiga qaytarib berildi.

Bundan ko'rinib turibdiki, Komulk poshsho o'zining behalovat umrining oxirlarini xotirjamgina o'tkazishga umid qilib, sevimli yurtiga borishga bag'oyat shoshilgan edi. U bor boyligini ham o'sha yerga olib borishni, bir qismini esa bir vaqtlar o'ziga katta xizmat qilgan, ehtimolki badavlat misrlikka qilgan bu xizmatlarini allaqachon unutib yuborgan odamlarga berib, minnatdorlik

³⁸ Ter Adolf – (1797 – 1877) – reaksion siyosat yurgizgan fransuz davlat arbobi, tarixchi.

³⁹ Komandor – admiral unvoniga ega bo'lmagan eskadra qo'mondoni.

⁴⁰ Nepir Charlz Jeyms – (1786 – 1860) – ingliz admirali, Napoleonga qarshi janglarda qatnashgan.

qarzini uzishni xayol qilgandi... Mana u Aleppoga borish o'rniga Qohirada, turmada, shafqatsiz dushmanlari qo'lida bandi bo'lib o'tiribdi.

Komulk poshsho kuni bitganini angladi. O'z boyligi evaziga ozodlikka chiqishni esa xayoliga ham keltirmasdi; aniqrog'i, u shunchalar g'ayriinsoniy chidamga va sabotga ega, shunchalar irodasi mustahkam odam ediki (na hukmdor, na Murodga o'z boyligidan zarrachasini bermaslikka ahd qilgan ekan), og'ziga so'k solib olganday miq etmasdi. Bunday sabotlilik faqat taqdirga tan beruvchilarning qo'lidangina kelardi.

Turgan gapki, Qohira zindonida o'tkazgan yillari osonlik bilan o'tmadi: u bir kishilik xonaga tashlangan, hatto kapitan Zoda ham ajratib qo'yilgan edi. Komulk poshsho kapitanning og'zidan gullab qo'ymasligiga bir on ham shubhalanmasdi. Oradan sakkiz yil o'tgach, ya'ni 1842-yilga kelibgina turma qorovulining iltifotidan foydalanib, o'zini qarzdor deb bilgan kimsalariga bir necha maktub yo'llashga muvaffaq bo'ldi. Ana shu maktublardan biri Sen-Maloda istiqomat qiluvchi Tomas Antiferga yuborilgan edi. Iskandariyadagi notarius Binni Umarning qo'lidagi, sobiq mijozining muqaddas vasiyati bitilgan maktub ham ana shu yo'l bilan olingan edi.

Oradan uch yil o'tgach kapitan Zo olamdan o'tdi.

Endi xazina ko'milgan orolning qayerdaligi ma'lum bo'lgan birdan-bir kimsa Komulk poshsho edi. Uning salomatligi xiyla yomonlashib qolgandi. Og'ir zindon sharoitida, torgina to'rt devor orasida u asta-sekin so'lib borardi. Nihoyat 1852-yili

yetmish ikki yoshida, hammaning yodidan ko'tarilib ketgan, o'n sakkiz yil zindonda yotib har qanday qiynog'-u do'q-po'pisalarga qaramay o'z sirini oshkor etmagan Komulk poshsho bandalikni bajo keltirdi.

Bir yil o'tgach Komulk poshsho boyligi huzurhalovatini tatish nasib etmagan noinsof qarindoshi ham arshi a'loga ravona bo'ldi; bu nobakor o'sha boyliklarni deb o'z hirsini yo'lida hatto jinoyatdan ham qaytmagan edi.

Muroddan bir o'g'il, Souk qoldi. Unda otasining barcha yaramas va razilona fazilatlarini meros bo'lib qolgan edi. Garchi o'sha paytda u hali yigirma uchdan oshmagan bo'lsa-da, vahshiyona va sayoq hayot kechirar, o'sha davrda Misrda bi-jib yotgan firibgarlar hamda muttahaamlar davrasida ularning o'z kishisi hisoblanardi. Agar boyliklar qo'ldan chiqib ketmaganida Komulk poshshoning yakka-yu yagona merosxo'ri sifatida ko'z ko'rib, quloq eshitmagan darajada badavlat kimsa bo'lardi. Komulk poshshoning o'limi bilan bu ulkan boylikning qayerga yashirilganini biluvchi birdan-bir odamning olamdan o'tganini eshitganda uning qanchalar jazavaga tushib, quturib ketganini tasavvur etish unchalik mushkul emasdi.

Oradan o'n yil o'tdi. Souk xazinaning qayerdaligini hech qachon bila olmasligiga allaqachon ko'nikib qolgandi. Shuning uchun ham huzurhalovatsiz, besaranjom hayotiga osmondan tushganday suqilib kirgan va ortidan son-sanog'i yo'q sarguzashtlarni yetaklab kelgan bu yangilik uni qanchalar dovdiratib qo'yganini bilish qiyin emas.

1862-yil, yanvarning dastlabki kunlarida Souk xat oldi, bu xatda u muhim ish bilan Binni Umar ismli notariusning mahkamasiga taklif qilingan edi.

Souk bu o'lgudek qo'rqq notariusni tanir va o'zining qaysarlighi hamda zo'ravonlighi bilan uning o'takasini yorajagini yaxshi bilardi. Souk Iskandariyaga yo'l oldi va u Binni Umarga o'shqirib, ovora qilib, mahkamangga chaqirishga qanday jur'at etding, deb do'q urdi.

Uning qo'lidan har narsa kelishi va hatto qotillikdan ham qaytmasligidan boxabar Binni Umar dahshatli Soukni qullarcha mulozamat bilan qarshi oldi. Shunday aslzoda bir zotni bezovta qilgani uchun Soukdan uzr so'rarkan, tilyog'lamalik bilan so'radi:

– Komulk poshshoning yakka-yu yagona merosxo'rlari bilan suhbatlashish baxtiga muyassar bo'ldimmi?

– Ha, albatta, yakka-yu yagona merosxo'ri bilan! – javob berdi Souk. – Komulk poshshoning qarindoshi bo'lmish Murodning o'g'liman-ku, axir.

– Poshshoning xuddi shunday huquqqa ega bo'lgan boshqa qarindoshlari yo'qligiga imonlari komilmi?

– Imonim komil! Komulk poshshoning mendan bo'lak merosxo'ri yo'q. Lekin o'sha meros qayoqda o'zi?

– Mana u... muhtaram janoblarining izmlarida!

Souk notarius uzatgan muhrlangan konvertga tashlandi.

– Bunda nima bor? – deb so'radi u.

– Komulk poshshoning vasiyati.

– Sening qo‘lingga qanday tushib qoldi bu?
– Zindonga tashlangandan keyin bir necha yil o‘tgach Qohiradan yuborgan edi menga.

– Qachon bo‘lgandi bu voqea?..

– Yigirma yil muqaddam.

– Yigirma yil muqaddam! – xitob qildi Souk.

– Axir uning olamdan o‘tganiga o‘n yil bo‘ldi-ku... Sen bo‘lsang shu kungacha kutib yotuvdingmi...

– Manavini o‘qing, muhtaram janob...

Souk konvert ustidagi yozuvni o‘qidi. Unda, vasiyat qoldiruvchi qazo qilganidan o‘n yil o‘tgach ochilsin, deyilgan edi.

– Komulk poshsho 1852-yili bandalikni bajo keltirgan, – dedi notarius, – hozir esa 1862-yil, ana shu boisdan ham siz muhtaram janoblarni bezovta qilishga jur‘at etgandim...

– La‘nati qonunxo‘r! – deb o‘shqirdi Souk tutaqib. – O‘n yil burun bu boylikka ega bo‘lishim kerak ekan-a...

– Basharti Komulk poshsho o‘z merosxo‘ri qilib tayinlagan kimsa bo‘lsangizgina, – qo‘shib qo‘ydi notarius.

– Basharti o‘sha kimsa bo‘lsangiz deysanmi?.. Boshqa yana kim bo‘lishi mumkin?..

Shunday deb konvert ustidagi muhrini buzmoqchi bo‘ldi, lekin Binni Umar uni to‘xtatib qoldi.

– Muhtaram janoblari, shoshilmang! Hamma ish qonuniy hamda guvohlar hozirligida bo‘lgani siz uchun foydadan xoli emasdir...

Binni Umar eshikni ochib, bu marosimda qatnashish uchun oldindan taklif etilgan ikki qo‘shnisini tanishtirdi.

Bu e'tiborli hamsoyalar konvertga qo'l urilmaganiga shohidlik berganlaridan so'ng, uni ochdilar.

O'ttiz satrdan iborat bu vasiyatnoma fransuz tilida bitilgan bo'lib, mazmuni quyidagicha edi:

Men o'z vasiyim qilib iskandariyalik notarius Binni Umarni tayinlayman va unga oltin, olmos, hamda qimmatbaho toshlardan iborat yuz million franklik davlatimning yuzdan bir ulushi berilishini vasiyat etaman. 1831-yilning sentabrida bu boyliklar solingan o'n nafar bochkacha bir orolchaning janubiy sohilidagi o'raga ko'milgan. 50° 57' uzunlikka Parij meridianidan sharq tomondagi kenglik raqamlarini qo'shilsa bu orolning qayerga joylashganini aniqlash juda oson. Bu raqamlar esa 1842-yili Fransiyaning Sen-Malo shahrida istiqomat qiluvchi Tomas Antiferga maxfiy ravishda yuborilgan maktubda ko'rsatilgan. Binni Umar uzunlikni ko'rsatuvchi raqamlarni yuqorida zikr etilgan Tomas Antiferga shaxsan o'zi eltmog'i darkor, basharti u odam qazo qilgan bo'lsa, bu axborotni uning eng yaqin vorisiga topshirmog'i lozim. Bundan tashqari, Binni Umar zimmasiga boyliklar ko'milgan yerni izlab topishda yuqorida nomi qayd etilgan merosxo'rni kuzatib borish vazifasi yuklanadi. Boyliklar mening ismimning bosh va so'nggi harflari bo'lmish ikki «K» harfidan iborat belgi qo'yilgan qoya etagiga ko'milgan.

Alalxusus, mening nomunosib qarindoshim Murod va xuddi shuningdek uning o'g'li nobakor Soukni o'z vasiyatnomamdan chiqarib tashladim.

Binni Umar Tomas Antifer yoxud uning bevosita merosxo'ri bilan muloqatda bo'lsin, bu borada u izlashlar jarayonida olinajak ko'rsatmalarga rasman rioya qilsin.

Mening irodam shunday va men buning bekami-ko'st ado etilishini qat'iyan talab etaman.

Ushbu vasiyat o'z dastim bilan 1842-yilning 9-fevralida Qohira zindonida bitildi.

Komulk poshsho.

Bu g'alati vasiyatning Soukka qanchalar ta'sir etganini, uni bajarsa o'ziga xazina topilganidan keyin boylikning yuzdan bir ulushi, ya'ni bir millioni tegishini eshitib Binni Umarning qanchalar taajjublanganini, ich-ichidan sevinganini tasvirlab o'tirishning hojati bo'lmasa kerak. Lekin, avvalo xazinani topish lozim, buning uchun esa vasiyatda ko'rsatilgan uzunlikni bildiruvchi raqamlarni faqat Tomas Antifergagina ma'lum bo'lgan kenglik raqamlari bilan birlashtirib o'sha orolning qayerga joylashganini aniqlash lozim.

Shu zahotiyoq Souk qanday harakat qilish rejasini o'ylab topdi, Binni Umar esa uning do'q-po'pisalaridan qo'rqib, sherik bo'lishga ko'ndi. Ular Tomas Antiferning 1854-yili vafot etganini va undan yakka-yu yagona o'g'il qolganini aniqlashga muvaffaq bo'ldilar. Endi birgina yo'l, u ham bo'lsa: Tomas Antiferning o'g'li Per-Servan-Maloning oldiga borib, undan bir vaqtlar otasiga xabar qilingan geografik kenglikni bildiruvchi o'sha sirli raqamlarni ustalik bilan bilib olish hamda poshshoning yuzdan bir ulushi Binni Umar-

ga va'da qilingan katta boyligini qo'lga kiritish qolgandi.

Souk bilan notarius bir kunni ham boy bermay yo'lga tushishdi. Iskandariyadan kemaga o'tirib Marselgacha borishdi, u yerda Parijga qatnaydigan ekspressga, keyin Bretanga boradigan poezdga o'tirib, ko'p o'tmay Sen-Maloga yetib kelishdi.

Souk ham, Binni Umar ham sodda maluinini laqillatib, maktubni osongina qo'lga kiritishlariga aslo shubhalanishmas, uning haqiqiy qimmatidan dengizchi bexabar deb o'ylashardi. Hech bo'l-maganda sotib olishadi-qo'yishadi-da!

Ularning bu boradagi urinishlarining chippakka chiqqani kitobxonga ayon.

Shu boisdan Soukning junbushga kelib, Binni Umarga dag'dag'a qilib, nohaq ta'na-malomatlar yog'dirgani, hamma aybni uning yelkasiga yuk-lamoqchi bo'lganining hech qanday ajablanadigan yeri yo'q.

Mehmonxonadagi mashmashaning, baqirib-chaqirishning boisi ham ana shunda (baxtlariga buni biror kimsa eshitmadi), sho'rlik notarius hatto bu xonadan omon chiqib ketishdan umidini ham uzgandi.

– Ha, hammasiga sening kallavaramliging sababchi! – takrorlardi Souk. – Sen qanday ish tutishni bilmaydigan merovsan!.. Bitta oddiy dengizchiga laqillab aldanib o'tiribsan! U burningdan ip o'tkazib, suvloqqa yetaklab borib sug'ormay olib kelibdi sen galvarsni!.. Shuni ikki qulog'ingga quyib ol: basharti Komulk poshshoning millionlari qo'ldan chiqib ketgudek bo'lsa, ajaling mening qo'limda.

– Ont ichamanki, muhtaram janoblari!..

– Men bo'lsam, agar ko'zlagan maqsadimga yetolmasam yetti qavat teringni shilib olaman, deb ont ichaman.

Binni Umar Soukning onti shunchaki po'pisa emasligini yaxshi bilardi:

– Siz, muhtaram janoblari, o'sha matrosni bir do'q bilan o'takasi yoriladigan va har qancha laqillatsa bo'ladigan bechora fallohlarga o'xshagan kaltafahm deb o'ylayapsiz shekilli? – dedi u Soukning jahlini bosishga urinib.

– Bunisi menga baribir!

– Yo'q, bu kuchli, dahshatli odam... Hech narsani bilishni ham, eshitishni ham istamaydi!

Binni Umar: «Xuddi sizga o'xshagan», deb qo'shib qo'yishi ham mumkin edi-yu, lekin o'ziga ayon bo'lgan mulohaza bilan bunga jur'at eta olmadi.

– Menimcha, – gapida davom etdi u, – taqdirga tan bermoq darkorkim... – Uning bu fikrini tugatishga yuragi dov bermadi.

– Taqdirga tan bermoq! – deb o'shqirdi Souk va mushti bilan stolni shunday tushirdiki, unda turgan chiroq sakrab tushib, shisha qalpog'i chilchil bo'ldi. – Taqdirga tan beraymi? Yuz milliondan voz kechib-a?

– Yo'q... yo'q... janobi oliylari! – shoshilib javob berdi Binni Umar. – Taqdirga tan berib... vasiyatda bitilganidek bregonlikka uzunlikni aytsak.

– Bundan maza qilib foydalansinmi, kalla-varam? O'sha millionlarni topib, kavlab olsin debmi?

Jahl chiqsa aql ketadi, deyдилar. Na aql, na uddaburonlik nasib etgan Souk ham nihoyat buni tushundi. U iloji boricha o'zini bosib, Binni Umarning bama'ni taklifi ustida bosh qotira boshladi.

Souk maluinning fe'l-atvorini tasavvur etarkan, hiyla bilan hech qanday ish chiqara olmasligini va bag'oyat ustomonlik bilan ish tutish lozim ekanligini fahmladi. Shuning uchun ham endilikda sherikchilikdan bosh tortolmaydigan Binni Umar ko'magida bundan buyon qanday ish tutish rejasini tuzdi: ertasiga Antifer tog'anikiga borishadi, xuddi vasiyatnomada talab qilinganidek unga uzunlikni bildiruvchi raqamlarni aytishadi, keyin o'z navbatida undan kenglikni anglatuvchi raqamlarni bilib olishadi. Orolning koordinatlari aniqlab olingach, Souk qonuniy merosxo'rdan oldinroq harakat qilib, boylikka ega bo'lish uchun qo'ldan kelgan hamma chorani qo'llaydi. Bordi-yu bunga muvaffaq bo'lolmasa, xazinani izlashga Antifer bilan birga borishning ilojini qiladi va boylikni qo'lga kiritishga urinib ko'radi. Basharti o'sha orolcha dengiz yo'llaridan chetda bo'lsa (bunday bo'lishi ehtimoldan xoli emas), unda rejasi bimalol amalga oshishi va Soukning foydasiga hal bo'lishi mumkin.

Qat'iy qarorga kelingach, Souk notariusni ogohlantirib qo'ydi:

– Umidim sendan, Binni Umar, lekin shuni aytib qo'yay, meni aldab, hiylagarlik qila ko'rma, yo'qsa naq...

– Imoningiz komil bo'lsin, muhtaram janob... Illo kaminalariga so'z bersalar, men qonuniy ulushimni ola bilamanmi?..

– Ha, vasiyatnomaga ko‘ra olishing kerak... lekin bir shart bilan, sen butun safar davrida Antiferdan biror daqiqaga ham nari jilmaysan!

– Shubhasiz, uning yonidan bir odim ham jilmayman-da!

– Men ham... men seni kuzatib boraman...

– Kim bo‘lib?.. Qanday nom bilan?

– Binni Umarning gumashtasi sifatida, ismim esa Nozim bo‘ladi.

– Siz-a?!

U «siz-a» deb umidsizlik bilan aytgan bu iborada oldinda turgan zo‘ravonlik va haqoratlardan nolish ohanglari sezilib turardi, baxtiqaro Binni Umar esa bu azob-uqubatlarni biron daqiqa ham yodidan chiqarolmasdi.

SAKKIZINCHI BOB

*Jildas Tregomen hozirligidagi
to‘rt ulfat suhbat*

Uyiga qaytgach Antifer tog‘a ovqatxonaga kirib, burchakdagi kamin yoniga borib o‘tirdi, u sovqotgan oyoqlarini toblarkan, bir og‘iz ham gapirmadi.

Deraza yonida Enogat bilan Jyuel gaplashib turishardi – tog‘a hatto ularni payqamadi ham.

Nanon oshxonada kechki ovqat tayyorlardi. Antifer odatda: «Qachon pishadi axir?» – deb o‘n martalab so‘rardi. Bu safar aqalli bir marta ham so‘ramadi.

Per-Sen-Malo xayol daryosiga g‘arq bo‘lgandi... Komulk poshshoning notariusi Binni Umar bilan

oralaridagi gapni opasi bilan jiyanlariga soʻzlab oʻtirishining foydasi yoʻq, albatta...

Hamma vaqt sergap Antifer togʻa bugun kechki ovqat paytida ogʻziga soʻk solib olganday miq etmay oʻtirdi. U hatto ikki ulushdan ovqat yemadi, faqat mis qalpoqchali uzui toʻgʻnagʻich bilan ochib, koʻkimtir chanoqdagi ustritsadan bir necha dyujinasini beixtiyor yutib yubordi.

Jyuel unga bir necha marta savol bergandi, javob ololmadi.

Enogat unga nima boʻlganini bilmoqchi boʻlib uvvalo tirishmasin, bari urinishi zoe ketdi: Jiyanining gapi hatto qulogʻiga kirmasdi ham.

– Nima boʻldi senga oʻzi, uka?.. – deb soʻradi Nanon togʻa oʻrnidan qoʻzgʻalib, oʻz xonasi tomon yurarkan.

– Shu, aql tishim chiqib kelayotganga oʻxshaydi-da! – deb javob berdi u.

Shunda har kim oʻzicha, aqllilik hech qachon, garchi keksayib qolganda ham zarar qilmaydi, deb qoʻydi ichida...

Keyin Antifer togʻa odatdagidek ertalab va kechqurunlari huzur qilib chekadigan trubkasini ham tutatmay, hech kimga «xayrli tun» ham tilamay pillapoyadan koʻtarildi-yu, koʻzdan gʻoyib boʻldi.

– Togʻam bir narsadan juda tashvishlangan koʻrinadi, – dedi Enogat.

– Birorta yangi xabar olmaganmikin? – deb pichirlab qoʻydi Nanon dasturxonni yigʻishtirarkan.

– Tregomen amakini chaqirib kelsakmikin? – dedi Jyuel.

Darhaqiqat, Antifer togʻa Komulk poshshoning xabarchisini bagʻoyat sabrsizlik bilan kuta

boshlagan paytlardan beri biron marta shunday iztirob chekib, shunchalar tashvishlanmagan edi. Bu bezovta tashvish uning ich-etini tirnar, butun vujudini kemirardi... Binni Umar bilan o'rniga qo'yib gaplasha olmagan bo'lsa-ya? U bilan shunchalik shartakilik qilish kerakmidi? Uning shunchalik shaxtini qayirib tashlash darkormidi? Unga biroz yon bosish, ish yuzasidan bafurja, atroflicha gaplashsa va nihoyat biror bitimga kelsa oqilona ish qilgan bo'lasmidi? O'zining bundan manfaatdorligini yashirib, u bilan muzokara boshlagani, iloji boricha uni cho'zgani, o'zini maktubni sotishga rozi qilib ko'rsatgani, maktubning qimmatini bilmaganga solgani va, nihoyat, loaqal g'azabi qaynab ketganida ham ellik million so'ramagani ma'qul emasmidi-ya! Albatta, maktub shunchaga arziydiku-ya! Biroq sal ehtiyotkorlik, ustalik bilan muomala qilish kerak edi. Bordi-yu u shunchalik qo'pol muomala qilgan notarius, bor-e, o'sha bilan yana pachakilashib o'tiramanmi, desa nima bo'ladi? Basharti u ashqol-dashqolini yig'ishtirib, hamma gapni chala-yarim qoldirib, Sen-Malodan Iskandariyaga jo'nab qolsa-chi? Antifer tog'a unda nima qiladi? O'sha uzunlikni deb Misrga yuguradimi?..

Shu sababli u o'rniga yotishdan avval peshonasiga mushtlab, rosa o'zini koyidi. Tun bo'yi mijja qoqmadi. Ertalab esa boshqacha yo'l tutishga ahd qildi – o'rnidan turgach, Binni Umarni qidirgani boradi, uni topib kechagi qo'polligini bir-ikki og'iz shirin so'z bilan paypaslaydi-da, notarius bilan muzokara boshlaydi, unga hatto biroz yon berishga ham rozi bo'ladi.

Ertalab soat sakkizlar chamasida Antifer tog'a shu xayollar bilan kiyinar ekan, xonasi eshigini Jildas Tregomen ohistagina tiqillatdi.

Nanon unga odam yuborgan edi, bu ajoyib kishi shu zahotiyoq oyog'ini qo'lga olgancha g'izillab yetib kelgandi. U janjalkash hamsoyasi-ning g'azabiga qalqon bo'lishga har qachongidek tayyor edi.

– Seni bu yerga qaysi shamol keltirdi?

– Suv ko'tarilishi, qariya, – deb javob berarkan, Jildas Tregomen bu dengizchilar iborasi suhbatdoshining chehrasini ochib yuborishiga ishongandi.

– Suv ko'tarilishi deysanmi?.. – dedi Antifer tog'a keskin ohangda. – Meni bo'lsa suv qaytishi tez kunda bu yerlardan olib ketadi!

– Ketyapsanmi?

– Ha, o'zlarining ruxsatlari bilan yoxud usiz.

– Qayoqqa borasan?

– Borishim kerak bo'lgan joyga.

– Hammayam o'ziga kerak joyga boradi. Nima qilmoqchi bo'layotganingni ham aytma-sanmi men-ga?..

– Qilib qo'ygan bir ahmoqligimni tuzatishga urinib ko'rmoqchiman...

– Yoki yana ham oshirib yuborarsan?

Do'stining tanbehi, garchi u mujmal qilib aytilgan bo'lsa-da, Antifer tog'ani g'oyatda tashvishga solib qo'ydi va u oshnasini bari gapdan xabardor qilishga jazm etdi. Kiyinishda davom etarkan, oshnasiga Binni Umar bilan uchrashganini, notariusning esa anavi kenglikni bilib olishga uringanini, o'zining afsonaviy shartini – (buning

havoyi gap ekanini ham yaxshi tushunadi) Komulk poshshoning maktubini ellik millionga sota-man deganini gapirib berdi.

– U sen bilan savdolishishi kerak edi, – dedi Jildas Tregomen.

– U bunday qilishga ulgurolmay qoldi, men o'sha zahotiyoyq jo'navordim, bu bilan yengiltaklik qilib qo'ydim!

– Menimcha ham shunday. Demak, o'sha notarius Sen-Maloga faqat sening qo'lingdagi xatni aldab olish uchungina kelibdi-da?

– Ha, faqat shuning uchun! Menga yetkazishi zarur bo'lgan narsani xabar qilish o'rniga olib ketgani kelibdi! Axir men yigirma yildan beri sabrsizlik bilan kutayotgan Komulk poshshoning odami ana shu Binni Umar-da...

– Shunaqa degin! Demak, bu chindan ham jiddiy ish ekan-da? – deb yubordi Jildas Tregomen.

Bunga javoban Per-Servan-Malo oshnasiga o'qrayib qarab, to'ng'illab berdi. Jildas Tregomen xijolat tortib boshini quyi solgancha, qo'llarini do'ppaygan qorniga qo'yib, bosh barmoqlarini o'ynay boshladi.

Bir daqiqadan so'ng Antifer tog'a kiyinib bo'lib, qo'lini endi shlyapasiga uzatgan ham ediki, eshik ochildi.

Ichkariga Nanon kirib keldi.

– Yana nima gap? – deb so'radi ukasi.

– Pastda allaqanday bir chet ellik odam turibdi... U sen bilan gaplashmoqchi.

– Kimakan u?

– Mana, o'zing ko'r...

Shunday deya Nanon unga ustida: «Notarius Binni Umar. Iskandariya», – degan yozuvi bor tashrif qog'ozchasini tutqazdi.

– O'sha! – deb qichqirib yubordi Antifer tog'a.

– Kim?.. – deb so'radi Jildas Tregomen.

– Hozirgina senga gapirib berganim Umar! Ana bunisi joyida bo'ldi! Bu yaxshilik alomati, uning kelgani zap ish bo'ldi-da!.. Nanon, uni bu yoqqa taklif et.

– U yolg'iz emas-ku!

– Yolg'iz emas deysanmi? – xitob qildi Antifer tog'a. – Yonidagi kim ekan?..

– Bir odam, yoshroq... u ham notanish, aftidan u ham chet ellikka o'xshaydi.

– Eh-ha! Demak, ular ikki kishi ekan-da?.. Yaxshi, unda biz ham ikki kishi bo'lamiz!.. Shu yerda qol, qayiqchi!

– Ixtiyoring...

Antifer tog'a amirona bir imo bilan hurmatli hamsoyasiga, qimirlama, Nanonga esa ularni boshlab kir, deganday ishora qildi.

Oradan bir daqiqa o'tmayoq mehmonlar xonaga kirib kelishdi. Antifer tog'a eshikni zichlab yopib qo'ydi. Basharti bu suhbatning sirli mazmuni tashqariga chiqqunday bo'lsa, faqat kalit solinadigan teshikdan eshitalishi mumkin edi, xolos.

– E, o'zlarimidi bu, janob Binni Umar? – dedi Antifer tog'a betakallufona, viqor bilan, bordi-yu u «Union» mehmonxonasiga borganida notariusga bunday muomala qilishga jur'at etmagan bo'lurdi, albatta.

– Xuddi shunday, janob Antifer.

– Hamrohingiz kim bo‘ladilar?..

– Bu kishi mening bosh gumashtam bo‘ladilar.

Nozim deb tanishtirilgan Souk bilan Antifer tog‘a beparvogina bir-birlariga qarab qo‘yishdi.

– Bosh gumashtangizning bu ishdan xabarlari bormi? – deb so‘radi maluin.

– Ha, xabardor, uning bu yerda hozir bo‘lishi men uchun zarur.

– Juda soz. Xo‘sh, janob Binni Umar, bu yerga tashrif buyurishlariga nima majbur etganini bilsak bo‘ladimi?

– Siz bilan yana bir karra suhbat qurmoqlik ishtiyoqi, janob Antifer... maxfiyona, – deb qo‘shib qo‘ydi u hamon bosh barmoqlarini qorni ustida o‘ynatib turgan Jildas Tregomenga qiya qarab qo‘yarkan.

– Mening do‘stim Jildas Tregomen – yuk tashuvchi kema «Go‘zal Ameliya»ning sobiq egasi. U ham bu masaladan xabardor, sizning bosh gumashtangiz Nozim singari uning shu yerda bo‘lishi men uchun bag‘oyat zarurdir.

Bir tomondan Souk bo‘lsa, ikkinchi tomondan. Tregomen edi, Binni Umarning e‘tiroz bildirishiga o‘rin qolmadi.

To‘rtovlari stol atrofiga o‘tirishdi, notarius esa portfelini oldiga qo‘ydi. Oraga og‘ir jimlik cho‘kdi. Hammalari bu jimlikni kim birinchi bo‘lib buzarkin deb kutishardi. Harqalay jimlikni birinchi bo‘lib Antifer tog‘a buzdi.

– Umid qilamankim, bosh gumashtangiz fransuzcha gaplasha olsa kerak? – dedi u Binni Umarga.

– Yo‘q, – javob berdi notarius.

– Aqalli tushunmaydi hammi?

– Birorta so‘zni ham.

Souk bilan Binni Umar oldindan shunday kelishib olishgan edi. Ular maluin, Nozim gapimni tushunmaydi-ku, deb o‘ylab, biror narsani gapirib yuborsa undan foydalanarmiz degan umidda edilar.

– Bo‘lmasa ishga o‘taylik, janob Binni Umar, – dedi Antifer tog‘a beparvolik bilan. – Suhbatimizni kecha uzilib qolgan yeridan boshlasak qanday bo‘larkin?

– Juda soz bo‘ladi.

– Demak, siz menga ellik million olib kelgansiz, shunday emasmi?

– Keling, jiddiyroq gaplashaylik, janob...

– Ha, to‘g‘ri aytasiz, Binni Umar janoblari, keling, jiddiyroq gaplashaylik! Mening do‘stim Tregomen ham vaqtni bekorga valaqlashib o‘tkazadiganlardan emas. Shunday emasmi, Tregomen?

Jildas Tregomen hech hachon bunday jiddiy va viqorli tutmagan edi o‘zini. Ro‘molchasi bilan hech qachon shunchalik salobat-la burun artmagandi.

– Janob Binni Umar, – deya gapida davom etdi tog‘a beparvolik bilan quruqqina qilib, bu esa uning qiziqqon tabiatiga aslo yopishib tushmasdi, – oramizda qandaydir tushunmovchilik borgan o‘xshaydi deb cho‘chib turibman... Bu narsaga barham bermasak, hech qachon kelisholmaymiz... Mening kimligimni bilasiz, sizning kimligingizni esa men bilaman.

– Notariusman...

– Ha, notariussiz, ayni vaqtda marhum Komulk poshshoning oilamiz yigirma yildan buyon kutayotgan darakhchisi bo‘lasiz.

– Meni afv etasiz-u, janob Antifer, illo, hatto shunday bo'lgan chog'da ham baribir ilgariroq kelishga haqqim yo'q edi.

– Sabab?

– Sabab shuki, bundan ikki hafta burun vasiyatnomani ochgachgina otangizning o'sha maktubni qanday olganidan xabar topdim.

– E-ha! Ustma-ust qilib ikki «K» bilan imzo chekilgan xatni aytyapsizmi?.. Bu gapga keyinroq qaytarmiz, janob Binni Umar.

– Shubhasiz. Sen-Maloga otlanarkanman, mening birdan-bir istagim o'sha maktubning boryo'qligini bilmoq edi...

– Bu yerga kelishdan murodingiz yakkash shugina edimi?

– Ha, yakkash shugina edi.

Hamsuhbatlar o'zaro savol-javob bilan band ekanlar, Souk go'yo bu gaplardan aqalli bir og'izini ham tushunmayotgan odamdek bezrayib o'tirardi. U o'z rolini shunday ustalik bilan bajarardiki, uni ko'z qiri bilan zimdan kuzatib o'tirgan Jildas Tregomenda zarracha bo'lsin shubha tug'ilmadi.

– Xo'sh, janob Binni Umar, men sizni bag'oyat hurmat qilaman, o'zingizga ma'lumdirkim, janoblarining sha'nilariga biror kalima haqoratomuz gap qotmog'likka izn etolmayman... – deb gap boshladi yana Per-Servan-Malo.

Kecha kechqurungina notariusni firibgar, muttaham, yovuz timsoh deb so'kkan Antifer tog'a so'nggi iboralarni xotirjamlik bilan aytdi.

– ...Har qalay, – qo'shib qo'ydi u, – yolg'on so'zlayapsiz deyishdan tiyolmayman o'zimni...

– Janob!..

– Ha, faqat maktubning bor-yo‘qligini bilgani kelgandim, deb xuddi kema bufetchisiday aldayapsiz.

– Ont ichaman! – dedi notarius qo‘llarini ko‘kka ko‘tarib.

– Ont-pontingizni qo‘ysangiz-chi, ey kekxa Umar! – deb o‘shqirdi Antifer tog‘a qizishib, garchand sal ilgariroq tuzukroq muomala qilishga ahd etgan bo‘lsa-da. – Bu yerga nima maqsadda kelganingiz menga besh qo‘lday ayon!

– Ishoning...

– Sizni kim yuborganini ham yaxshi bilaman.

– Hech kim yuborgani yo‘q, ishonimg...

– Siz marhum Komulk poshshoning amriga binoan kelgansiz...

– Uning olamdan o‘tganiga o‘n yil bo‘lgan-ku!

– Buning ahamiyati yo‘q! Shu topda siz Per-Servan-Maloning, ya‘ni Tomas Antiferning o‘g‘linikida shuning uchun o‘tiribsizkim, bu Komulk poshshoning so‘nggi irodasidir! Sizning zimmangizga Tomas Antiferning o‘g‘lidan maktub haqida so‘rab-surishtirish emas, balki ba‘zi raqamlarni yetkazish vazifasi yuklangan. Eshityapsizmi – raqamlar deyaрман!

– Raqamlar deysizmi?..

– Ha... bundan yigirma yil muqaddam Komulk poshsho otamning nomiga yuborgan maktubdagi kenglikni ko‘rsatuvchi raqamlarga qo‘shiladigan uzunlik raqamlari!

– Qoyil! – deb qo‘ydi Jildas Tregomen, xuddi dengizdan turib sohildagi semaforchilarga signal berayotgandek ro‘molchasini silkirkan.

Bu orada soxta gumashta, garchi Antifer tog'aning masalaning ipidan-ignasigacha bilishiga zarracha shubha qolmagan bo'lsa-da, ilgarigiday miq etmay so'rrayib o'tirardi.

– Siz bo'lsangiz, janob Binni Umar, – deb o'shqirdi Antifer tog'a, – o'rinlarimizni almashtirmoqchisiz – mendagi kenglikni ko'rsatuvchi raqamlarni urib ketmoqchisiz!..

– Urib ketmoqchisiz deysizmi?

– Xuddi shunday! O'g'irlab ketmoqchisiz! Yolg'iz mengagina taalluqli bo'lgan narsani o'zingizniki qilib olmoqchisiz?

– Janob Antifer, – e'tiroz bildirdi Binni Umar, u tog'aning ustma-ust qilayotgan hamlalaridan esankirab qolgandi, – ishoning... o'sha maktub qo'linga tekkan ondayoq... darrov o'sha raqamlarni aytardim...

– A-ha! Demak, o'sha raqamlarning o'zingizda ekanini tan olyapsiz-a?..

Notarius bu bilan devorga taqab qo'yilgan edi. U turli hiyla-nayrang ishlatish va gap chalg'itishga qanchalar usta bo'lmasin, shu topda o'zini iskanjaga tushib qolgandek his etib, taslim bo'lishdan o'zga iloj yo'qligini fahmladi. Shunday ahvolga tushib qolishlari mumkinligini ilgaritdan hisobga olib, Souk ikkovlari buning chorasini topib qo'yishgan edi. Shuning uchun ham Antifer tog'a notariusga qarab: – «Bas! Ochig'iga ko'ching, janob Binni Umar! Shuncha maynavozchilik qilganingiz yetar! – deb o'shqirganida, Binni Umar itoatkorlik bilan: «Xo'p bo'ladi», – deya javob berdi.

So'ng portfelini ochib, undan katta-katta harflar bilan bijir-bijir xat yozilgan suv o'tkazmaydigan qog'ozni oldi.

Bu Komulk poshshoning fransuz tilida yozilgan va bizga ayon bo'lgan vasiyatnomasi edi.

Antifer tog'a butun vujudi bilan bu hujjatni o'qishga kirishib ketdi. U Jildas Tregomen biror so'zini eshitmay qolmasin deb vasiyatnomani baland ovoz bilan boshdan-oxirigacha o'qib chiqdida, cho'ntagidan yondaftarchasini chiqardi-yu, dastavval o'sha orol joylashgan uzunlikni – ko'pdan orziqib kutilgan to'rtta raqamni yozib qo'ydi. Bu raqamlarning har bittasi uchun u sira ikkilanmay shartta bir barmog'ini kesib berishga ham tayyor edi. Keyin, yana o'zini biror joyning geografik kengligini aniqlayotgan kapitan his etib:

– Diqqat, qayiqchi! – deb qichqirdi.

– Eshitaman! – deb javob berdi Jildas Tregomen, keng kamzulining ichki cho'ntagidan yon daftarchasini olarkan.

– Kemani qoziqlar tomon bur!

Bu qimmatbaho uzunlik – Parij meridianidan sharq tomondagi $54^{\circ} 51'$ – raqamlarining qandayin sidqidillik bilan «mahkamlab bog'lab» qo'yilganini tasvirlab o'tirishning hojati bo'lmasa kerak.

Vasiyatnoma notariusga qaytarib berildi; notarius uni portfeliga solib, soxta bosh gumashtasi Nozimga tutqazdi.

Suhbatning hal qiluvchi payti yetgandi; endi masala Binni Umar bilan Soukning bevosita manfaatlariga borib taqalgan edi. Antifer tog'a orol joylashgan yerning meridiani hamda parallelini bilar, endilikda ana shu ikki chiziqni davom ettirib, ular kesishgan nuqtani aniqlasa bas edi. Bir nafas ham vaqtni zoe ketkazmay, shu topning o'zidayoq shunday qilmoqchi edi. Bu borada

tamoman haq edi u. Tog'a o'rnidan turdi-da, ta'zim bajo keltirayotgandek sal egilib, mehmonlarga ko'cha eshikni ishora qildi. Binni Umar bilan Soukning bu yerda qolishlarini mezbon istamayotgani oshkora ko'rinib turardi.

Tregomen iljaygancha, do'sti mohirlik bilan bajarayotgan bu unsiz manzarani kuzatardi. Lekin na notarius, na Nozim o'rnidan qo'zg'alishni xayoliga keltirardi. Uy sohibi ularning xonani tark etishlarini istayotgan edi, biroq ular buni tushunmas yoxud o'zlarini tushunmayotganga solishayotgan edi. Tarvuzi qo'ltig'idan tushib, gangib qolgan notarius Soukning dahshatli basharasidan yana bir savol berishni amr qilayotganini angladi.

Bu amrga itoat etmaslikdan cho'chigan Binni Umar shunday dedi:

– Komulk poshsho vasiyatnomasi zimmamga yuklagan burchni o'tagan ekanman, endi...

– ...Endi bir-birovimiz bilan izzat-ikrom-la xayrlashmog'imiz lozim, – uning gapini shunday tugatdi Per-Servan-Malo, – zotan birinchi poezd bu yerdan soat o'nu o'ttiz yetti daqiqada jo'naydi, tag'in...

– Kechadan boshlab o'nu yigirma uch daqiqada, – deb uning gapini to'g'riladi Jildas Tregomen.

– Sen haqsan, soat o'nu yigirma uch daqiqada jo'naydi, shunday ekan, qimmatli Binni Umar janoblari, sizni va muhtaram gumashtangiz Nozimni kurer poezdiga kech qolishlaringizni istamasdim...

Souk toqatsizlanib depsinarkan, soatiga qarab-qarab qo'yardi. U chindan ham poezddan kech

qolishdan qo'rqib bezovtalanayotibdi deb o'ylash mumkin edi.

– Bordi-yu, yana-tag'in yuklaringizni topshirishingiz lozim bo'lsa, – deya gapini davom ettirdi Antifer tog'a, – bu ham ancha-muncha vaqtingizni oladi.

– Buning ustiga vokzaldagi to'polonni aytmaysizmi... – qo'shib qo'ydi Jildas Tregomen.

Nihoyat Binni Umarning tili kalimaga keldi. U sal qaddini rostlab va ko'zini yerga tikib, shunday dedi:

– Afv etasiz-u, biroq, nazarimda hali batamom kelishib olmadik shekilli...

– Aksincha, Binni Umar janoblari, aksincha! Masalan, sizdan so'raydigan, siz bilan gaplashadigan hech qanaqa gapim qolgani yo'q.

– Yo'q, yana bir gap bor, men buni sizga aytib qo'yishim darkor, janob Antifer...

– Hayronman sizga, janob Binni Umar, lekin, axir... rostki shuni istasangiz... gapira qoling, marhamat...

– Men sizga Komulk poshshoning vasiyatnomasida qayd etilgan uzunlikni aytdim...

– Xuddi shunday! Men ham, do'stim Tregomen ham buni yondaftarlarimizga yozib oldik.

– Endi siz o'sha maktubdagi kenglikni menga aytishingiz kerak...

– Otamning nomiga kelgan maktubdagini-ya?..

– Ha, xuddi o'shandagini...

– Afv etgaysiz, Binni Umar janoblari! – e'tiroz bildirdi Antifer tog'a qoshlarini chimirib.

– Sizga uzunlik raqamlarini menga yetkazish topshirilmaganmidi axir?..

– Ha, shunday, men bu topshiriqni ado etdim...
– ...Buni bajonidil tasdiqlashim mumkin.
Menga kelsak, na vasiyatnomada, na maktubda otamga xabar qilingan kenglikni bildiruvchi raqamlarni biron kimsaga ko'rsatish haqida hech qanday ko'rsatma yo'q!

– Lekin...

– Lekin bu haqda sizda biron ko'rsatma bo'lsa, keling, shu haqda gaplashib olaylik...

– Menimcha... – e'tiroz bildirdi notarius, – bir-birini hurmat qiluvchi odamlar o'rtasida...

– Behuda shunday ko'rinibdi nazaringizda, janob Binni Umar. Oramizda hech qanaqangi hurmat-ehtirom bo'lishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Antifer tog'aning vujudini qamrab olgan asabiylik albatta g'azabga aylanishi ko'rinib turardi. Bu g'azab tug'yonining oldini olishga shoshilgan Jildas Tregomen noqulay holatga barham berish uchun zudlik bilan eshikni ochdi. Lekin Souk go'yo stulga payvandlab qo'yilgandek qimir etmay o'tiraverdi. Darvoqe, u fransuzchani tushunmaydigan bir chet ellik va birovga tobe bir kimsa sifatida, hech bo'lmaganda soxta xo'jayini buyurmaganicha o'rnidan qo'zg'alishi mumkin ham emasdi.

Binni Umar o'rnidan turdi, peshonasini artib, ko'zoynagini to'g'rilab qo'ydi-da, taqdirga tan bergan odamdek shunday dedi:

– Afv etasiz, janob Antifer, nazarimda, menga aytmalikka ahd qilgan ko'rinasiz...

– Balli, shunday ahd qildim, janob Binni Umar, ahd qilganda ham qat'iy, zero, Komulk

poshsho o'z maktubida otamga bu sirni g'oyat maxfiy tutishni buyurgan, otam esa o'z navbatida menga ham shunday vasiyat qilgan.

– Ko'p soz, janob Antifer, – dedi Binni Umar, – unda sizga bir oqilona maslahat berishga ijozat etasizmi?

– Qiziq. Qanday maslahat?

– Bu ishga kirishmaslikni.

– Sabab?..

– Sabab shukim, bu yo'lda bir kimsaga duch kelmog'ingiz mumkinkim, u sizni bu yo'ldan qaytishga majbur etmasa deb qo'rqaman...

– Kim ekan u?

– Komulk poshsho amakivachchasining o'g'li, sizni deb merosdan mahrum bo'lgan Souk! U chakana odamlardan emaski...

– Janob Binni Umar, o'sha amakivachchaning o'g'lini o'zingiz taniysizmi?

– Yo'q... – deb javob berdi notarius, – illo, uning juda xavfli raqib ekanini bilaman...

– Menga qarang, bordi-yu qachon bo'lmasin o'sha Soukni uchratguday bo'lsangiz, uning va Misrdagi barcha Souklar men uchun bir chaqalik ekanini aytib qo'ying!

Shunda Nozimning hatto bir tuki ham qimir etmadi. Per-Servan-Malo pillapoyaga chiqib:

– Nanon! – deb qichqirdi.

Notarius eshikka tomon yurdi. Souk uning ortidan ergasharkan, yo'lakay bexosdan qilgandek stulni to'ntarib yubordi – shu tobda uning butun vujudini g'azab qamrab olgan, Binni Umarning yelkasiga bir tushirib zinapoyadan pastga yumalatib yuborguday avzoyi buzuq edi.

Lekin Binni Umar qo'qqisdan ostonada to'xtab, Antifer tog'aga qaramay shunday dedi:

– Nazdingizda Komulk poshshoning vasiyatnomasidagi bir bandni e'tiboringizdan chetda qoldirmadingizmi?..

– Qaysinisini?

– Toki boyliklarni qo'lga kiritguningizgacha sizni kuzatib borish kaminalarining zimmasiga yuklangan, ya'ni o'sha uch bochkachani topganingizgacha siz bilan birga bo'lishim zarur ekanligi haqidagisini...

– Ma'qul, meni kuzatib borasiz, janob Binni Umar.

– Shunday ekan, qayerga borishingizni men bilishim kerak-da, axir!..

– Buni o'sha yerga yetib borganimizda bilasiz.

– Bordi-yu u joy olamning narigi burchida bo'lsa-chi?

– Narigi burchida bo'lsa narigi burchida-da.

– Mayli, shunday bo'laqolsin... Lekin shuni bilib qo'yingki, men bosh gumashtamsiz hech ish qilolmayman.

– Ixtiyoringiz. U bilan sayohat qilish siz bilan hamroh bo'lishdan kamroq huzur baxsh etmaydi menga.

So'ngra u pillapoya panjarasi uzra engashib;

– Nanon!.. – deb qichqirdi yana.

Ovozidan Antifer tog'aning toqati tugagani sezilib turardi.

– Nanon!

Pastda Nanon ko'rindi.

– Mana bu janoblarning yo'liga chiroq tutib yubor! – deb buyurdi Antifer tog'a.

– Chiroq tutib yubor deysanmi? Kuppa-kunduzi-ya?.. – hayron bo'ldi Nanon.

– Senga aytyapman – chiroq tutib yubor!

Uyni tark etish haqidagi bunday ochiq-oydin aytilgan talabdan so'ng Souk bilan Binni Umarning nomehmondo'st uydan chiqib ketishdan bo'lak ilojlari qolmagandi. Ularning ketidan eshik taraqlab yopildi.

Ana shunda Antifer tog'ani olam-jahon quvonch chulg'ab oldi, bunday quvonchni umrida avval ham his etgani dargumon. Shu kuniki quvonmasa, qachon quvonadi?

Bu nobakor uzunlikni bildiruvchi raqamlar nihoyat qo'lga kirdi-da! Qanchalar sabrsizlik bilan kutgandi uni, axir! Ilgarilari faqat orzu qilib yurgan narsalari tez kunda haqiqatga aylanadi. Behisob boyliklarga ega bo'lish endilikda faqat uning o'zigagina bog'liq, o'sha orolni izlab tezroq yo'lga chiqishiga bog'liq...

– Yuz million... yuz million-a! – deb takrorlardi nuqul.

– Bu ming karra yuz ming frank degani-ku, – deb qo'ydi Jildas Tregomen.

Shu daqiqada o'zini ortiq tutolmay qolgan Antifer tog'a avval bir oyog'ida, so'ngra ikkinchisida sakrab, cho'nqaydi-da, yana turib, chir aylangancha raqs tusha ketdi. Son-sanog'i yo'q matroscha o'yinlar orasida bunaqangi sho'x raqsni uchratish amri mahol edi. Keyin o'zining bahaybat do'stini o'yinga tortib, uni tez raqs tushishga majbur etdikim, bugun uyning poydevorigacha zirillab ketdi.

Antifer tog'a raqs tusharkan ovozini baralla qo'yib:

Qo'limdadir uz, uz, uz!
Qo'limdadir un, un, un!
Qo'limdadir lik, lik, lik!
Uzunlik!
Uzunlik!
Uzunlik!

– deb qichqirardi.

TO'QQIZINCHI BOB

*Antifer tog'aning geografik
atlasidagi qizil qalam bilan chizib
qo'yilgan bir nuqta*

Per-Servan-Malo Antifer do'sti Jildas Tregomen bilan zo'r berib oyoq o'yinga tushayotgan bir paytda Enogat va Jyuel meriyaga – shahar boshqarmasiga, u yerdan esa cherkovga yo'l olishdi. Shahar boshqarmasining grajdanlik holatlarini qayd etish bo'limidagi nikoh ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassis – baqaloq kekxa chinovnik e'lonlar osib qo'yiladigan yerdagi barcha rasmiyatchilik qoidalarini o'rniga qo'yib tayyorlangan unashtirish haqidagi xabarnomani ularga ko'rsatdi. Jomeda esa vikariy⁴¹ ovozi o'tkir xonandalar ishtirokida, organ va qo'ng'iroqlar jarangi ostida yaxshilab xutba o'qitilajagiga – xullas to'y marosimini boplab o'tkazib berishga va'da berdi.

Monsenordan⁴² tog'avachcha bilan ammayavachchaning nikohga ruxsat olganlaridagi xursandchi-

⁴¹ Vikariy – yepiskopning o'rinbosari yoki yordamchisi.

⁴² Monsenor – Fransiyada oliy din arboblari ehtirom yuzasidan murojaat qilinadigan ibora.

ligini aytmaysizmi! Ularning beshinchi aprelni – ya'ni tog'aning ikkilanib turgan paytda og'zidan chiqib ketgan kunni – qanday sabrsizlik bilan kutayotganlarini asti qo'yavering. Jyuel buni hat-to yashirmasdi ham.

Ular to'yga butun vujudlari zavq-shavqqa to'lib tayyorgarlik ko'rishar, kelinning sepi va zeb-ziynatlarini hozirlashar, pastdagi xonaning shinam bo'lishi, uni qanday jihozlash haqida bosh qotirishardi. Oq ko'ngil Tregomen bo'lsa bir vaqtlar Rans daryosi sohillarida istiqomat qiluvchi aholidan sotib olgan turli bezaklarni har kuni tashigani tashigandi. Ana shu buyumlar orasida o'z vaqtida «Go'zal Ameliya»ni bezab turgan Bibi Maryamning mo'jazgina haykalchasi ham bor edi. Tregomen sira ikkilanmay uni kelin-kuyovlarga tuhfa etishga ahd qildi. Axir u yoshlarning sirdosh otaxoni emasmi, shunday ekan yoshlar o'z orzu-umidlarining, kelajakka bo'lgan o'z rejalarining undan ko'ra yaxshiroq, undan ko'ra sodiqroq homiysini topa olarmidilar? Bu ochiq qo'l odam kezi kelib qolganda har kuni yigirma martalab quyidagi so'zlarni takrorlardi:

– To'ylaring o'tib ketgan, shahar boshqarmasiga, kyurega⁴³ aloqador rasmiyatchiliklarning bari allaqachon bitgan bo'lsa Xudoga ming qatla shukur qilgan bo'lardim!

– Nima uchun axir, qimmatli Tregomen amaki?.. – deb so'rardi shunda qiz tashvishlanib.

– Bu kekxa Antifer shunday aqlini yeb qo'yganki, otini egarlaboq o'z millionlarini izlagani jo'nay qolsa!..

⁴³ Kyure – Fransiya katolik cherkovi.

Jyuel Tregomenning gapiga batamom qo'shildirdi. Jyuel amakisiga butunlay qaram, garchi tog'a ajoyib odam bo'lsa-da, lekin sal esini yo'qotayozgan. Toki u shahar hokimi huzurida uzil-kesil «ha» deb javob bermaguncha unga aslo ishonib bo'lmaydi.

Dengizchilarning hayoti boshqa odamlarnikiga mutlaqo o'xshamaydi-da, axir. Ularning doim vaqtlari ziq! Yo yaqin dengizlararo qatnaydigan kema kapitani va gabaraning egasiga o'xshab bo'ydoq qolasan. Basharti shart-sharoit imkon bersa va ruxsat olgan bo'lsang tezroq uy lanib olishing kerak. Jyuel bo'lsa Le Bayif savdo xonadoniga qarashli uch machtali shxunada kapitan yordamchisi lavozimida dengizga chiqishi kerak edi. Ana unda — bir o'ylab ko'ring-a — necha oylab, necha yillab qadr don uyidan ming lelab olishlarda, basharti Tangri taqdirlarini qo'shgan bo'lsa, xotini hamda bolalaridan uzoqda dengiz va okeanlarda suzib yuradi-ya! Bunday bo'lishi esa mutlaqo mumkin. Odatda dengizchilarning bola-chaqasi ko'p bo'ladi. Enogat dengizchining qizi bo'lgani uchun Jyuelning uzoq vaqt safarda yurajagi, allaqancha vaqtgacha eri bilan ko'risholmasligi haqidagi fikrga ko'nikib ketgan, bundan boshqacha bo'lishini hatto tasavvur ham qilolmasdi. Oldinda muqarrar va uzoq vaqtga cho'ziladigan ayriliq bor ekan, biror kunni ham zoe ketkazmaslik kerak!

Yosh kapitan bilan uning qaylig'i shu kuni ertalab qiladigan ishlarini tugatib, uyga qaytar kanlar ana shular haqida suhbatlashib kelardilar. Ot-Sall ko'chasidagi bizga tanish uydan chiqib, bir-biri bilan qo'lini paxsa qilib gaplashib borayot-

gan, nimadandir norozi ekanliklari yaqqol ko'rinib turgan ikki muhojirga ko'zlari tushgan hamonoq qanday hayratga tushganlarini asti qo'yaverasiz! Bu odamlarning Antifer tog'ada qanaqa ishlari bor ekan? Jyuelning ko'nglida, qandaydir noxush voqea sodir bo'lganga o'xshaydi, degan shubha tug'ildi.

Bu shubha tezda qat'iy ishonchga aylandi: yuqorigi qavatdan shovqin va allaqanday pala-partish qo'shiq yangrar, naqorati esa qal'a devorining narigi chekkasidan eshitilardi.

Nahotki amakisi butunlay aqldan ozgan bo'lsa? Nahotki o'sha la'nati uzunlik shunga olib kelgan bo'lsa? Miyasi ayniganmikin?.. Bu ulug'lik vasvasasi emas, boylik orttirish vasvasasi bo'lsa-ya?..

– Nima bo'lyapti o'zi, amma? – deb so'radi Jyuel Nanondan.

– Tog'alaring o'yin tushyapti, bolalarim.

– Bir o'zining o'yinidan uy bunday titramaydiku, axir?

– Tregomen ham o'shatta-da...

– Iye! Tregomen ham o'yin tushyaptimi?

– Tog'amning rayini qaytarishdan qo'rqqan bo'lsa kerak, – dedi Enogat.

Uchovlari tepaga chiqishdi. Antifer tog'aning zo'r berib o'yinga tushib, tomog'i yirtilgudek bo'lib:

Qo'limdadir uz, uz, uz!

Qo'limdadir un, un, un!

Qo'limdadir lik, lik, lik! –

deb bo'kirayotganini ko'rib, uni darhaqiqat aqldan ozibdi, degan qarorga kelishdi.

U bilan birga oq ko'ngilli Tregomen ham qizarib-bo'zarib, miyasiga qon quyilgandek bo'lib ovozi baralla qo'yganicha kuylardi:

Ha, ha, ha! Qo'lidadir uzunlik!..

Ha, ha, ha! Qo'lidadir uzunlik!..

Ana shundagina Jyuelning xayoliga birdan: "e, boyagi ikki muhojir shuning uchun bu yerdan chiqib ketayotgan ekan-da", degan fikr keldi... Demak, nihoyat Komulk poshshoning mash'um xabarchisi kelibdi-da... Shu fikr xayolidan o'tarkan, yigitchaning rangi oqarib ketdi, u Antifer tog'ani o'yindan to'xtatarkan:

– Amaki, oldingizmi uni... – dedi.

– Ha, jiyan, qo'limda u!

– Ha, uning qo'lida, – deb tasdiqladi Jildas Tregomen va tinkasi quriganidan o'zini stulga tashlagan edi, stul og'irligiga dosh berolmay sinib ketdi.

Bir ozdan so'ng, Antifer tog'a sal nafasini rostlab olgach, Enogat bilan Jyuel hamma gapdan: Binni Umarning bosh gumashtasi bilan kelganidan, uning Komulk poshshoning xatini ayyorlik bilan olivolmoqchi bo'lganidan, vasiyatnomaning mazmunidan, boylik ko'milgan orolning koordinatini aniqlash uchun zarur bo'lgan uzunlikdan, xullas hammasidan xabardor bo'ldilar... Antifer tog'a o'sha boylikka ega bulish uchun endi faqat qo'l uzatsa basmish!

– Lekin, amaki, o'sha xazinaning qayerdaligi endilikda ma'lum ekan, ular sizdan oldinroq boyliklarni gumdon qilishlari hech gap emas-ku!

– Shoshma, oshiqma, jiyancha! – deya xitob qildi Antifer tog'a yelkalarini uchirib. – Nahotki sen meni duru javohirlar solingan po'lat sandiqning kalitini ularga qo'sh qo'llab berib qo'yadigan ahmoqlardan deb o'ylasang?

Jildas Tregomen ham o'z chavbatida bu gapni unday emas degandek ishora bilan tasdiqladi:

– ...Yuz million saqlanadigan po'lat sandiqning kalitini-ya!

Bu «mash'um» yuz million degan iborani Per-Servan-Malo shunday og'zini to'ldirib aytdiki, lunjlari shishib ketganidan nafasi tiqilib qoladigandek tuyuldi.

U bu yangilikni shod-hurramlik bilan qiy-qirishib kutib olishadi deb ishongan edi shekilli, yoshlarning xatti-harakatidan ko'ngli ranjidi. Bu qanaqasi! Ot-Sall ko'chasidagi mana shu qashshoq bir xonadonga hatto Danaya⁴⁴ ham havas qilgudek oltin yomg'ir, olmos va qimmatbaho toshlar jaladek quysa-yu, bular ilib olgani aqalli qo'l uzatishmasa, bir tomchisi ham nobud bo'lmasin deb tomni qo'porib tashlashmasa-ya!

Ha, bu haq gap! Yuz million haqida tantana bilan aytilgan gaplarni ular churq etmay, sovuqqina kutib olishgandi.

– Hali shunaqami! – deb o'shqirdi Antifer tog'a, navbati bilan opasi, jiyanlari va do'stiga tikilarkan. – Nimaga qovoqlaringdan qor yog'yapti! Qarshi shamol esib qoldimi deyman?

⁴⁴ Danaya – yunon afsonalaridagi malika, uni xudo Zevs sevib qolgan. Zevs uning huzuriga oltin yomg'ir qiyofasida kirgan ekan.

Uning o'dag'aylashi bu yerda turganlarning qiyofasini o'zgartirolmadi, birortasining yuzida xursandchilik alomati ko'rinmadi.

– Bu qanaqasi, – deb gapini davom ettirdi Antifer tog'a, – men sizlarga endilikda Krezday⁴⁵ badavlatman, Eldoradodan⁴⁶ birorta nabobda bo'lmagan boyliklarni kemamga tog'-tog' qilib uyib keldim desam-u, meni tabriklash hech qaysilaringning hatto xayolingga ham kelmasa-ya, bu qanaqasi bo'ldi?

Yana jimlik. Ko'zlar yerga qadalgan. Qovoqlar uyulgan.

– Sen nima deysan, Nanon?..

– Ha, katta pul bu, uka...

– «Katga pul» emish-a!.. Istasang – bir yil-gacha har kuni ovqatning o'ziga uch yuz ming frankdan xarj qilishlaring mumkin-a!.. Sen-chi, Enogat, sen ham katta pul bu deb qo'yaqolasanmi?

– Voy Xudoyim-ey! – dedi qiz. – Buncha boylikning nima keragi bor, tog'a?..

– O, men bilaman buni! «Pul baxt keltirmaydi» degan naqlni juda yaxshi bilaman men! Siz ham shunday fikrdamisiz, janob olisga suzadigan kema kapitani, siz ham shunday deb o'ylaysizmi? – deb so'radi Antifer tog'a jiyanidan shartta.

– Menimcha, o'sha misrlik merosga poshsholik unvonini ham qo'shib qoldirishi kerak ekan, nega desangiz, shuncha pulingiz bo'lsa-yu, hech qanaqa unvoningiz bo'lmasa... – dedi Jyuel.

⁴⁵ Krez – Lidiyaning afsonaviy podshosi, uning boyligi bitmas-tuganmas bo'lgan.

⁴⁶ Eldorado – oltin va qimmatbaho toshlarga boy afsonaviy shahar.

– Ha-ha... Antifer poshsho... – deb qo'ydi Tregomen jilmayib.

– Ovozingni o'chir, qayiqchi, senga ham gap bormi? – deb o'shqirib berdi Antifer tog'a unga, go'yo shamol kuchayib yelkanlarni kamaytirishni buyurayotgandek ohangda. – Nima, «Go'zal Ameliya»ning sobiq kapitani, meni mayna qilmoqchilar deyman-a?

– Seni-ya, o'zimning eng yaqin oshnamni-ya? Xudo saqlasin! – deb javob berdi Tregomen. – Basharti bu yuz million senga shunchalik quvonch baxsh etayotgan ekan, men seni yuz million karra tabriklayman.

Darhaqiqat uy sohibining qalbini quvonchga to'ldirgan bu voqeaga nima sababdan uydagilar bunday sovuq munosabatda bo'ldilar. Ehtimol u hozir jiyanlari uchun badavlat qallig' va kuyov qilishni ortiq havas qilmay qo'ygandir-ku?.. Garchi ko'pdan kutilgan uzunlikni beshinchi apreldan oldin olgan bo'lsa-da, balki Jyuel bilan Enogatning to'yini bekor qilish yoki keyinga surish fikridan qaytgandir? Ochig'ini aytganda, bu masala Enogat bilan Jyuelni, Nanon bilan Jildasni bagoyat tashvishga solib qo'ygandi.

Jildas Tregomen do'stining bu boradagi fikrini bilib olishga jazm etdi... Uning maqsadi nima ekanini vaqtni o'tkazmay hoziroq bilib olgan ma'qul. Shunda bu dahshatli odam bilan aqalli tortishib, oqilona ish tutishga majbur etishga muvaffaq bo'lishar. O'z yog'ingga o'zing qovrilaver deb tashlab qo'yib bo'lmaydi-ku uni, axir!

– Menga qara, qariya, – dedi Tregomen muloyimgina, – o'sha millionlar qo'lingda deb faraz qilaylik...

– Faraz qilaylik?.. Nega endi faraz qilarkanman?..

– Yaxshi, allaqachon qo‘lingga kirgan deya qolaylik... jo‘ngina kun kechirishga o‘rganib qolgan oddiy bir odam bo‘lsang, ayt-chi, o‘sha boyliklarni nima qilmoqchisan?

– Ko‘nglimning ko‘chasiga kelganini, – deb javob berdi Antifer tog‘a quruqqina qilib.

– Umid qilamanki, butun Sen-Maloni sotib olmoqchi emasdirsan?..

– Sen-Maloni ham, Sen-Servanni ham, Dinarna ham, agar istasam, faqat suv ko‘tarilishi paytida to‘ladigan o‘sha bema‘ni Ransni ham sotib olaman!

Antifer tog‘a Rans haqida bunday bema‘ni gapni aytarkan, bu ajoyib daryoda yigirma yil suzgan odamning izzat-nafsiga qattiq tegishini juda yaxshi bilardi.

– Bor, shunday ham bo‘laqolsin! – deb javob berdi Tregomen g‘ijinib. – Har qancha istasang ham nasibangdan ortiqcha bir tishlam taomni yoki ortiqcha bir qadah vinoni hazm qilolmaysan. Yoki yana bitta oshqozon sotib olmoqchimisan...

– Shuni yodingda tutki, ey chuchuk suvda suzadigan dengizchi, xohlagan narsamni sotib olaveraman! Bordi-yu, hatto oilamdagilardan birortasi bunga monelik qilgudek bo‘lsa... – bu so‘zlar qalliqlarga qarata aytiladi, – bu yuz millionimni yutib yuboraman, sariq chaqasigacha qoldirmay kulini ko‘kka sovuraman!.. Na Jyuel, na Enogat ularga meros qilib qoldirmoqchi bo‘lgan ellik millionimdan aqalli bir frankini oladi.

– Aniqroq qilib aytganda – ikkovlariga yuz million.

– Nima uchun?

– Chunki ular er-xotin bo'lishadi-ku!..

Nihoyat asosiy masala yuzaga qalqib chiqqandi.

– Hoy, qayiqchi! – deb bo'kirdi Antifer tog'a.

– Yaxshisi bom-bramselga⁴⁷ chiqib, ufqni ko'zdan kechir!

Bu Antifer tog'aning Tregomenni «shamollab kelish uchun» jo'natadigan odatdagi usuli edi; u shunchaki aytardi, albatta, negaki, bunaqa devqomat, davangiday odamni biror machtaning eng yuqorisidagi kuzatish maydonchasiga chig'irsiz chiqarishni aql bovar qilmasdi.

Suhbatga aralashishga na Nanon, na Jyuel, na Enogatning haddi sig'di. Yosh kapitanning rangi quv o'chib ketganidan g'azabini arang bosib turganini uqib olsa bo'lardi.

Lekin Jildas Tregomen do'stlarini ochiq dengizda taqdir taqozosiga tashlab ketadigan odamlardan emasdi. U chiqib ketish o'rniga, Antifer tog'aga yanada yaqinroq keldi:

– Axir so'z berganding-ku...

– Qanaqa so'z?

– Ularning nikoh o'qitishlariga ruxsat beraman deb.

– To'g'ri, agar ungacha uzunlik haqida ma'lumot olmasam degandim. Endi esa uzunlik qo'limda ekan...

– ...Ularning baxtli bo'lishlarini ta'minlash uchun ko'proq asos bor-ku endi.

– Barakalla qayiqchi, qoyilman! Ana shuning uchun ham Enogat shahzodaga tegadi...

⁴⁷ Bom-bramsel – pastdan to'rtinchi yelkan, uning asosiga kuzatish maydonchasi o'rnatilgan bo'ladi.

- Basharti shunaqa kuyov topilsa!
- Jyuel bo'lsa malikaga uylandi...
- Turmushga chiqmagan malikalar qolmagan!
- deb oxirgi e'tirozini bildirdi Jildas Tregomen.
- Sepiga ellik million beradigan bo'lsang, har doim topsang bo'ladi!
- Qidir, qidiraqol...
- Qidiraman ham, topaman ham... Goton almanaxidan bo'lsa ham topaman!

U «Gota almanaxi»⁴⁸ demoqchi edi. Bu o'taketgan o'jar, savdoyi tog'a qirolu shahzodalar qonini Antiferlar qoni bilan qo'shish dardiga muhtalo bo'lgandi.

Ana shu boisdan o'z zarariga tugashi mumkin bo'lgan bu suhbatni davom ettirishni istamay, nikoh haqidagi mojaroda yon berib qo'ymaslikka ahd qilib, xonasida yolg'iz qoldirishlarini va tushlikkacha bezovta etmasliklarini shama qildi.

Jildas Tregomen hozir unga e'tiroz bildirib o'tirishning payti emas, degan qarorga keldi va hammalari pastga tushib ketishdi.

Ochig'ini aytganda, bu kichikkina oila og'ir musibatda qolgan edi. Suluv qizning xumor ko'zlaridan yosh do'lday yumalardi, bu xol Jildas Tregomenning ko'nglini buzib yubordi.

- Bo'tam, yig'lagan odamni, ochig'i hatto boshiga og'ir musibat tushganida ham... yoqtirmayman! - dedi u.

⁴⁸ «Gota almanaxi» nemis shahri Gotada 1763-yildan boshlab chop etilardi. Unda aslzoda xonadonlarning qarindoshlik aloqalari, avlod-ajdodlari haqida batafsil axborotlar bosilardi.

– Hammasi barbod bo‘ldi-ku, axir, azizim! Tog‘am sirayam rozilik bermaydi endi! O‘sha katta boylik uni aqldan ozdirib qo‘ygan.

– Ha, ha, to‘g‘ri, – uning gapini quvvatladi Nanon, – ukamning miyasiga bir narsa o‘rnashib qoldimi, tamom...

Jyuel churq etmay, xonada u yoqdan bu yoqqa yurar, qo‘llarini ko‘ksida chalishtirib, mushtlarini mahkam tugib olgandi.

– Ochig‘ini aytganda, amakim menga xo‘jayin emas! – deb xitob qildi u. – Uning ruxsatisiz ham uylanaveraman... Men balog‘atga yetganman!

– Lekin Enogat balog‘atga yetmagan-da, – deb eslatdi Jildas Tregomen. – Shuning uchun vasiy sifatida ruxsat bermasligi mumkin...

– To‘g‘ri... hammamiz ham qarammiz unga! – deb qo‘shib qo‘ydi Nanon boshini xam qilib.

– Mening fikrim mana bunday, – dedi Jildas Tregomen, – yaxshisi unga qarshilik bildirmaslik kerak. Ayniqsa biz o‘zimizni unga xalal bermayotgan qilib ko‘rsatsak zora bu savdoyilik o‘z-o‘zidan o‘tib ketsa.

– Chamamda siz haqqa o‘xshaysiz, janob Tregomen, – dedi Enogat. – Menimcha qarshilik ko‘rsatishdan ko‘ra, muloyimlik bilan maqsadimizga erishsak bo‘ladi.

– Eng muhimi o‘sha millionlarning hozircha uning qo‘lida emasligidir!.. – deb qo‘shib qo‘ydi Jildas Tregomen.

– To‘g‘ri, – deb qo‘shildi Jyuel. – Rost, bu boylikning qaysi kenglik va qaysi uzunlikda ekani ma‘lum, lekin uni qo‘lga kiritishning o‘zi bo‘lmaydi. Buning uchun ancha-muncha vaqt kerak.

– Ancha-muncha... – deb shivirlab qo'ydi qiz.

– Ha! Shunday, azizim Enogat. Bularning hammasi to'yimizni kechiktirib yuboradi... Eh, badfe'l amakim-a!

– O'sha mal'un poshshoning huzuridan kelgan o'sha firibgarlarga ham la'natlar bo'lsin, – deb ming'irladi Nanon. – Kelganida kosov olib haydasam bo'lar ekan...

– Ular baribir amakim bilan bitishadi! – dedi Jyuel. – O'sha Binni Umari o'z xoliga qo'yib bo'pti, axir unga dallolik haqi tegishi kerak-da!

– Demak, tog'am ketarkan-da? – deb so'radi Enogat.

– Bunga shubhalanmasa ham bo'ladi, – javob berdi Jildas Tregomen, – chunki o'sha orolning koordinatlari endi unga ayon.

– Men u bilan birga ketaman, – dedi Jyuel qat'iy.

– Sen-a, Jyuel?.. – deb qichqirib yubordi qiz.

– Ha. Shunday qilish zarur. Biror ahmoqlik qilib qo'yishiga xalal berish uchun u bilan birga bo'lmoqchiman... va, nihoyat, olis o'lkalarda uzoq ushlanib qoladigan bo'lsa uni shoshiltiraman.

– Sen haqsan, ha, sen haqsan, bo'tam, – uning gapini ma'qulladi Tregomen.

– Kim biladi deysiz, bu xazinani izlab qaysi yurtlarga borib qoladi, uni qanday xavf-xatarlar kutyaptiykin yo'lda!

– Garchi Enogat qayg'uga botgan bo'lsa-da, Jyuelning oqilona qarorga kelganini yaxshi tushunardi. Balki Jyuelning birga bo'lishi tufayli tog'aning safari uzoqqa cho'zilmas?

Yosh kapitan iloji boricha qizga tasalli berishga tirishardi. Unga tez-tez xat yozib turadi.. U hamma ishdan xabardor bo'lib turadi... Uning yonida Nanon bilan Tregomen qolishadi, Tregomen har kuni sabr-toqatli bo'lish, itoatkorlik bilan kutishga o'rgatadi...

– Qizalog'im, menga bemalol ishonaver, – dedi ko'ngli buzilgan Tregomen. – Seni ovutishga, senga taskin berishga harakat qilaman albatta! Mening «Go'zal Ameliya»da qanday suzganlarimni sen bilmaysan-ku hali, shunday emasmi?

To'g'ri, Enogat buni bilmasdi, chunki Tregomen Antifer tog'aning mayna qilib kulishidan cho'chib, o'zining safarlari haqida og'iz ochishga hech qachon jur'at etolmagan edi.

– Senga hammasini gapirib beraman... Bu juda qiziq... Vaqt sezilmay o'tib ketadi... Shunday qilib, kunlardan bir kun millionlarini qo'ltiqlab olgan... yoki ikki qo'lini burniga tiqib qaytgan tog'a ham kirib keladi. Shuningdek qadrdonimiz Jyuel ham keladi, ana o'shanda uning bir sakrab Sen-Malo jomesiga borib qolishiga hech narsa monelik qila olmaydi... men ham, harqalay, tutib qolmayman o'shanda... Agar istasang, men o'zimga bu orada to'yga kostyum buyurtirib, uni har kuni ertalab kiyib chiqaman...

– Hoy qayiqchi!

Bu tanish ovoz hammalarini sapchitib yubordi.

– Eshityapsizlarmi, u meni chaqiryapti, – dedi Jildas Tregomen.

– Sizda nima ishi borakan? – deb so'radi Nanon.

– Jahli chiqqan paytlarda ovozi bunaqa bo'lmaydi, – deb qo'ydi Enogat.

– To'g'ri, – tasdiqladi Jyuel, – g'azablanishdan ko'ra toqatsizlik sezilib turibdi.

– Tregomen... kelyapsanmi?

– Ketyapman!.. – deb qichqirdi Jildas Tregomen unga javoban.

Shunday deb yuqoriga ko'tarilarkan, uning vazmin odimlari ostida pillapoya g'ijirlardi.

Oradan bir soniya o'tar-o'tmas Antifer tog'a uni o'z xonasiga surgab kirdi-yu, eshikni mahkamlab berkitib qo'ydi. So'ngra uni ikkala yarimshar xaritasi yozib qo'yilgan stol yoniga o'tqazdi-da, qo'lga pargarni tutqizarkan:

– Ushla! – dedi.

– Pargarnimi?..

– Ha! O'sha orol... millionlar ko'milgan orol... – Antifer tog'a entika-entika gapirardi. – Uning xaritada qayerga joylashganini bilmoqchiman.

– Nima, xaritada yo'g'akanmi?.. – deb qichqirib yubordi Jildas Tregomen, uning gap ohangida taajjulanishdan ko'ra ko'proq mamnunlik sezilib turardi.

– Kim shunaqa deyapti senga? – deb e'tiroz bildirdi Antifer tog'a. – Nimaga endi yo'q bo'lishi keragakan, ey baxti qora qayiqchi!

– Demak... bor ekan-da u?..

– Bor, ishonaver menga, bor, lekin men juda hayajonlanyapman... qo'llarim titrab ketyapti... bu pargar xuddi qo'limni chaqib olayotganga o'xshaydi... uni xaritada yurgizolmayapman...

– Shuning uchun men o'lchab ko'rishim kerakmi, qariya?

– Ha, mabodo qo'lingdan kelsa...

– Ho! – deb qo'ydi Jildas Tregomen.

– Albatta bunaqa ishga o'rganmagansan, axir sen faqat Ransda suzgansan-da... Mayli, shunday bo'lsa ham bir urinib ko'r-chi. Ko'ramiz, bundan nima chiqarkin... Pargarni tuzukroq ushlab, uchlarini ellik to'rtinchi meridian bo'ylab yurgiz, aniqrog'i ellik beshinchidan, nega deganda orol joylashgan uzunlik ellik to'rt daraja-yu ellik yetti daqiqa...

Bu raqamlarni eshitib bechora Tregomenning boshi g'ovlab ketdi.

– Ellik yetti daraja-yu ellik to'rt daqiqa deysanmi? – deb g'o'ldiradi u ko'zlari chaqchayib.

– Yo'q... ey ho'kiz-ey! – Antifer tog'aning jahli chiqib ketdi. – Buning teskarisi! Qani bo'l... Bo'laqolsang-chi axir!

Jildas Tregomen pargarni g'arb tomon yurgiza boshladi.

– Uyoqqamas!.. – o'shqirib berdi oshnasi. – G'arbgaga emas!.. Parij meridianidan sharqqa qarab... Eshityapsanmi o'zi, landovur! Sharqqa, sharqqa deyapman!..

Jildas Tregomen bu ta'na-yu so'kishlardan gangib qolib, ishni o'rniga qo'yolmadi. Ko'zlari tinib, peshonasiga marjon-marjon ter qalqdi, barmoqlari orasida pargar xuddi elektr qo'ng'iroqning tilidek dirillardi.

– Ellik beshinchi meridianga qo'ysang-chi axir, galvars! – deb bo'kirardi Antifer tog'a. – Tepadan boshlab... yigirma to'rtinchi deb yozib qo'yilgan nuqtagacha tushaver!

– Yigirma to'rtinchi parallelga deysanmi? – deb g'o'ldiradi Jildas Tregomen.

– Ha, ha!.. Bu galvars ajalimdan besh kun burun o'ldiradiganga o'xshaydi-ku!.. Ha... ha! Ana o'sha chiziqlar kesishgan nuqta orol joylashgan yerni bildiradi...

– Joylashgan yerni...

– Qani... pastga tushyapsanmi o'zi?..

– Ha, tushyapman.

– O, yaramas-ey!.. Tepaga ketyapti-yu, pastga tushyapman deydi-ya!

Chindan ham Tregomen pastga tushyaptimi, tepaga ko'tarilyaptimi, o'zi ham bilmasdi, oldinga qo'yilgan maqsadni bajarishda Antifer tog'adan beshbattar noshut bo'lib qolgandi. Ikkovlari ham bag'oyat hayajonlangan, asablari kuy savtini chalayotgan dutor toriday dirillardi shu tobda.

Antifer tog'aning nazdida hozir aqldan ozib qoladigandek edi. Shunda u birdan-bir to'g'ri qarorga keldi.

– Jyuel! – deb bo'kirdi u, jon-jahdi bilan baqirganidan ovozi kema karnayi orqali gapirganday jaranglab ketdi.

Yosh kapitan shu zahotiyuq yetib keldi.

– Nima deysiz, amaki?

– Jyuel... Komulk poshshoning oroli qayerga joylashgan?

– Uzunlik bilan kenglik chiziqlari kesishgan nuqtada...

– Juda soz. Qidir uni... va...

Antifer tog'a hozir odatda itlarga aytiladigan «Aport»ni⁴⁹ qo'shib qo'yadiganga o'xshardi.

⁴⁹ Olib kel, keltir (fransuz fe'li apporter – keltirmoq) degani.

Jyuelga hech qanaqangi tushuntirishning hojati bo'lmadi. Amakisining hayajonlanib turganidan bu yerda nima gap bo'lib o'tganini darrov fahmladi. Yigitcha pargarni qo'llari qilt etmay oldi-yu, shimol tomondagi ellik beshinchi meridian boshlanadigan nuqtani o'sha ondayoq topdi-da, asta pastga tusha boshladi.

– Meridianning qayerlardan o'tishini aytib tur! – deb buyurdi Antifer tog'a.

– Xo'p bo'ladi, amaki, – javob berdi Jyuel. Shunday deb tushuntirib bordi:

– Arktika dengizidagi Frans-Iosif yeri.

– Yaxshi.

– Barens dengizi.

– Yaxshi.

– Yangi yer.

– Davom etaver.

– Kars dengizi.

– Keyin-chi?..

– Rossiyaning shimoli, Osiyo qismi.

– Qaysi shaharlarni bosib o'tyapsan?

– Yekaterinburg.

– Keyin?

– Orol dengizi.

– Davom et.

– Turkistondagi Xiva.

– Yaqinlashib qoldikmi?

– Deyarli! Hirot.

– Yetib keldikmi o'zi?

– Ha! Maskat! Arabistonning janubi-sharqi.

– Maskat? – deya xitob qildi Antifer tog'a xarita ustiga engashib.

Darhaqiqat ellik beshinchi meridian bilan yigirma to'rtinchi parallel kesishgan nuqta «Maskat»ga qarashli Ummon ko'rfazining Arabiston bilan Eronni ajratib turgan fors qo'ltig'iga kelib tutashgan yeriga to'g'ri kelardi.

– Maskat?.. – deb takrorladi Antifer tog'a.

– Maskot deysizmi? – deb qaytarib so'radi Jildas Tregomen yaxshi anglayolmay.

– Maskot emas, Maskat, qayiqchi! – deb to'ng'illadi oshnasi, yelkalarini quloqlariga yetgudek uchirib qo'yarkan.

Aslida ularning qo'lida hozircha faqat taxminiyo koordinatlargina bor edi, xolos, chunki orol joylashgan yerni graduslar bo'yicha aniqlashgan, hali daqiqalar bo'yicha aniqlab ulgurishmagan edi.

– Nahotki Maskatda bo'lsa, Jyuel?!

– Shunday, amaki... aniqligi yuz kilometr atrofida.

– Lekin yanada aniqroq belgilansa bo'lmaydimi?

– Bo'ladi, amaki.

– Bo'laqol, Jyuel... Bo'laqol! Tezroq bo'laqol, toqatsizlikdan yuragim paqqa yorilib ketmasidan bo'laqol!..

Darhaqiqat qozon nihoyatda qizib ketsa, uning gumburlab portlashi shubhasizdir.

Jyuel yana pargarni qo'liga oldi. Uzunlik va kenglik daqiqalarini hisoblab chiqib, orol joylashgan yerni bir necha kilometr atrofida farq bilan aniqladi.

– Xo'sh?.. – dedi Antifer tog'a.

– Gap bunday, – dedi Jyuel, – orol Maskat shahrida emas ekan. U sal sharqroqda, Ummon ko'rfazida ekan.

– Jin ursin!..

– Nimaga jin ursin deysan? – qiziqsindi Jildas Tregomen.

– Ey «Go‘zal Ameliya» barjasining sobiq sohibi, gap orol haqida boryapti, u bo‘lsa quruqlikda bo‘lmaydi-ku, axir!

Garchi Antifer tog‘a buni qat‘iy e‘tiroz bilan aytmagan bo‘lsa-da, harqalay oshnasiga nisbatan nohaq gapirgandi, chunki gabara – barja emas-da.

– Ertadan, – deb qo‘shib qo‘ydi Antifer tog‘a, – safarga hozirlanamiz.

– Juda soz, – dedi amakisiga aslo e‘tiroz bildirmaslikka qat‘iy ahd qilgan Jyuel.

– Sen-Malodan Port-Sanyaga jo‘naydigan biror kema bor-yo‘qligini bilish kerak.

– Bu, safarga chiqishning eng yaxshi usuli. Bir kunimiz ketsa ketar, buning unchalik ahamiyati yo‘q-ku...

– Albatta, orolimni o‘g‘irlab ketishmaydi-ku!

– Nima, birorta firibgar yoki qallob yo‘limizga to‘g‘anoq bo‘larmidi? – deb gap qo‘shdi Tregomen, uning bu noo‘rin luqmasidan Antifer tog‘a yana yelkasini uchirib qo‘ydi.

– Jyuel, sen men bilan birga borasan, – dedi Antifer tog‘a.

– Xo‘l bo‘ladi, amaki, – deb javob berdi yosh kapitan, o‘z ahdidan qaytmay.

– Sen ham, hoy qayiqchi...

– Menmi? – dedi Tregomen hayron bo‘lib.

– Ha, sen!..

Bu ikki ibora shunchalik amirona ohangda yangragan ediki, oq ko‘ngil Tregomen rizolik alomati sifatida boshini quyi soldi.

U bo'lsa Per-Servan-Malo yo'qligida bechora Enogatga bir vaqtlar sokin Rans bo'ylab «Go'zal Ameliya»da qanday suzganlarini hikoya qilib berib, qizni ovutib yurish niyatida edi-ya!

O'NINCHI BOB

*Sen-Malodan Port-Saidga yo'l olgan
«Stirsmen» kemayi safarining
qisqacha tafsiloti*

21-fevral kuni ertalabki suv ko'tarilishi vaqtida Sen-Malodan Kardiff portiga mansub bo'lgan «Stirsmen» nomli ingliz kemai yo'lga tushdi. Bu Nyukasldan Port-Saidga toshko'mir tashish uchun maxsus ajratilgan to'qqiz yuz tonna hajmli kema edi. Odatda bu kema yo'lda uchraydigan portlarda to'xtamasdan o'tardi. Lekin bu safar ozginagina shikastlanib – kondensatori salgina teshilib – yo'lakay tuzatib olish uchun to'xtashga majbur bo'lgan edi. Biroq kapitan kemani Sherburga burish o'rniga o'zining eski oshnasi bilan ko'rishish niyatida Sen-Maloga qarab yo'lga soldi. Paraxod ikki kecha-kunduzdan keyin yana dengizga chiqib oldi, Freyel burni esa o'ttiz milcha ortda, shimoli-sharq tomonda qoldi. Shu yerda biz kitobxonning e'tiborini ingliz kemasiga jalb qilamiz.

Birlashgan Qirollik toshko'mir konlarining mahsulotini La-Mansh bo'ylab olamning har tomoniga tashmalab yurgan yuzlab ko'mir tashuvchi kemalar ichida bizni nega boshqasi emas, ayni «Stirsmen»gina qiziqtirardi.

Xo'sh, nima uchun? Chunki Antifer tog'a jiyani Jyuel va sodiq do'sti Jildas Tregomen bilan birga ana shu «Stirsmen»da edi.

Ularning qulay va yaxshi jihozlangan temir yo'l kompaniyasi vagoniga minmay, ko'mir tashuvchi kemaga o'tirishlarining boisi nimada bo'ldiykin?

Jin ursin! Yuz millionni deb safarga chiqilarkan, kim ham yo'l xarajatlari haqida bosh qotirib o'tirardi deysiz? Bunday paytda xarajati ko'p deb, huzur-halovatdan voz kechish kulgili hol-ku!

Badavlat Komulk poshshoning merosxo'ri bo'lgan Antifer tog'a ham, agar ajoyib vaziyatda safarga chiqish xonasy kelmaganida, albatta, xuddi shunday qilgan bo'lurdi.

«Stirsmen» kemasining kapitani 'Sip Antifer tog'aning eski oshnasi edi. Shuning uchun ham u Sen-Maloda turib qolganlarida fursatdan foydalanib oshnasini ko'rgani bordi. O'z-o'zidan ravshanki, Ot-Sall ko'chasidagi xonadonda uni quchoq ochib kutib olishdi. Antifer tog'aning Port-Saidga bormoqchi ekanini eshitgan kapitan Sip unga arzimagan haq evaziga «Stirsmen»da olib ketishni taklif etdi. «Stirsmen» sokin kunlarda soatiga o'n bir dengiz milyasi suzadigan ajoyib kema bo'lib, Buyuk Britaniyani O'rtayer dengizining janubi-sharqiy sohillaridan ajratib turgan besh ming besh yuz milya masofani o'n uch yoki o'n to'rt kunda bosib o'ta olardi. Rost, «Stirsmen» yo'lovchilarni tashishga moslashtirilmagan edi. Ammo dengizchilar qanoatli, kamsuqum odamlar bo'ladi, ularga birorta kayuta bo'lsa bas, bemalol joylashib ketaveradilar, muhimi esa kemadan kemaga o'tib yurilmaydi, bu uning eng afzal tomonidir.

Kapitan Sipning taklifi Antifer tog'ani nima uchun qiziqtirgani tushunarli. Allaqancha vaqtgacha diqqinafas vagonda qamalib o'tirsinmi? Yo'q, bunaqasi to'g'ri kelmaydi unga! Olti kun g'ildirakli sandiqda dud va qurum yutib dami qaytib o'tirgandan ko'ra, sarin dengiz havosidan lazzatlanib, ajoyib kemada ikki hafta suzgani ma'qul emasmi?

Jyuel ham xuddi shu fikrda edi, biroq shu kungacha faqat Rans daryosi bo'ylab suzgan Tregomen bunga boshqacha qarardi. G'arbiy va Sharqiy Yevropa temir yo'llarini yaxshi bilgan Tregomen yo'lning ko'p qismini poezdda o'tkazishdan umidvor edi, lekin oshnasi boshqacha yo'l tutdi. Bir kun oldin-u, bir kun keyinning ahamiyati yo'q, bir oyda yetib borishadimi yoki ikki oydami, baribir, orol turgan joyidan siljib qolmaydi. Uning qayerga joylashganini Antifer tog'a, Jyuel va Jildas Tregomendan bo'lak hech zog' bilmaydi. Ustma-ust qilib ikki «K» harfi bilan belgilangan xilvatgohda o'ttiz bir yildan beri yotgan javohirlar o'sha joyida yana bir necha hafta yotsa hech narsa qilmaydi...

Ana shu boisdan ham Per-Servan-Malo, u qanchalik oshiqmasin kapitan Sipning taklifiga faqat o'z nomidangina emas, balki hamrohlarining nomidan ham rozilik bildirgandikim, shu tufayli biz kitobxonlarning diqqatini ko'mir tashuvchi kema «Stirsmen»ga jalb etgandik.

Shunday qilib, Antifer tog'a, uning jiyani Jyuel va do'sti Tregomen ko'mir tashuvchi kemaga chiqishdi. Ular «Go'zal Ameliya»ning sobiq egasining kengbar tasmasi qavatiga tikilgan

talaygina oltinni, ajoyib xronometr, mohirona yasalgan sekstant, «Vaqtini o'lchash jadvali»⁵⁰ nomli qadimiy kitobni – xullasi kalom oldlarida turgan kuzatish ishlari uchun zarur bo'lgan narsalarni va, nihoyat, «xazinalar orolida» yer kavlagani cho'kich bilan belkuraklarni olivolishtigandi.

Endi biz bu ekipaji ikki mexanik, to'rt o'tyoqar va o'n ikki matrosdan iborat mohir kapitan boshqaruvidagi ajoyib kema edi deb bemalol ayta olamiz. Faqat daryo farishtalarining huzurbaxsh tabassumlaridangina bahramand bo'lib, shungagina ko'nikib qolgan Jildas Tregomenning ochiq dengizga chiqish va Neptunning⁵¹ g'azabiga qarshi ot qo'yishdan oldin bu fikrga ko'nikish uchun ko'p kuch sarflashiga to'g'ri keldi. Biroq Tregomen Antifer tog'adan yo'lga hozirlanish va chamadonlarni «Stirsmen» kemaiga topshirish haqida buyruq olarkan, uni churq etmay bajardi.

Safarchilar va kuzatib qoluvchilar so'nggi bor shirin gaplar aytib xayrlashishdi. Jyuel Enogatni avaylabgina bag'riga oldi, Nanon dam ukasiga, dam jiyaniga yopishib yig'lardi, Jildas Tregomenning esa, xayrlashgani bag'rimga tashlangan odamni ishqilib qattiqroq ezib qo'ymasam go'rga edi, deb joni halakda edi... Nihoyat, judolik ko'pga bormaydi, oradan olti hafta o'tmayoq yana Ot-Sall ko'chasidagi uyda jamuljam bo'lamiz, degan

⁵⁰ Ma'lum bir meridianga nisbatan (bu yerda Parij meridianiga nisbatan) turli uzunlikdagi vaqtini ko'rsatuvchi jadval. Biror joyning koordinatini aniqlashda shunday jadvallardan foydalanganlar.

⁵¹ Neptun – qadimgi rimliklarning e'tiqodicha dengiz xudosi.

va'da ham berildi... Ana o'shanda Antifer tog'ani – u xoh millionlarini olib, xoh ularsiz qaytsin – istaklariga zid ravishda kechiktirilgan to'yni o'tkazishga majbur etadilar...

Kema g'arb tomonga yo'l oldi. Qiz uni machtalari to ufqda g'oyib bo'lgunicha ko'zlari bilan kuzatib qoldi..

Shoshmang, shoshmang! Nima sababdan bu yo'lovchilar orasida Komulk poshshoning meros-xo'rini kuzatib borishi zarur bo'lgan anavi ikki muhtaram zot ko'rinmaydi?

Darhaqiqat, kemada na notarius Binni Umar, na o'zini Nozim deb tanitgan Souk bor edi. Safarga chiqiladigan kun nahotki yodlaridan ko'tarilib ketgan bo'lsa?..

Aslo! Gap shundaki, misrlik notariusni kemaga o'tirishga aslo ko'ndirib bo'lmadi. Zeroki u Iskan-dariyadan Marselga kelayotganida dengiz kasaliga muftalo bo'lib, rosa azob chekkandi. Ana shu bois-dan ham shum taqdir uni Suesga, u yerdan esa yana allaqanday noma'lum tomonlarga borishga majbur etarkan, dengizda suzmaslikning zarracha iloji bo'lsa, faqat quruqlikdan yurishga qasam ichgandi. Buning ustiga Souk ham bunga e'tiroz bildirmadi, Antifer tog'a Binni Umarning hamrohligiga orzumand emas-di. U notariusga oyning oxirlarida Suesda uchrashamiz deb qo'ya qoldi, lekin Suesdan Maskatga qarab yo'l olishlarini aytmadi. Bu sho'rlikning dengizning makkorligi va g'azabga minishidan qanday azob chekishini ana o'shanda ko'rasiz!

Antifer tog'a ular bilan qayerda va qachon uchrashishlarini kelishib olgach, shunday deb qo'shib qo'ydi:

– Zotan mushtariyngiz xazinani kavlab olish paytida vasiy sifatida o'sha yerda hozir bo'lishingizga vakolat bergan ekan, marhamat qilib, birga bo'ling. Illo, vaziyat birgalashib sayohat qilishimizni taqozo etarkan, o'zimizni bir-birimizdan olisroq tutaylik, zero ki na siz va na gumashtangiz bilan yaqinlashish, do'stlashishga zarracha bo'lsa-da xushim yo'q!

Bunday iltifotli bayonot tuzalmas malu in xulq-atvorining yaqqol tafsiloti edi.

Ana shu suhbatdan so'ng Souk bilan Binni Umar «Stirsmen» yo'lga chiqmasdanoq Sen-Maloni tark etdilar. Kapitan Sip yo'lovchilari orasida ularning yo'qligining boisi ana shu edi. Bundan esa hech kim afsuslanmadi ham, achinmadi ham. Bir tomondan, xazinani ochish paytida hozir bo'lmasa o'ziga tegadigan ulushdan ajralib qolishdan qo'rqqan, ikkinchi tomondan, shafqatsiz Soukning irodasiga batamom bo'ysungan notariusning Antifer tog'a bilan uchrashuvga o'z vaqtida yetib kelishiga mutlaqo shubhalanmasa ham bo'ladi!

Bu orada «Stirsmen» o'zini janubdan esadigan shamol epkinidan to'sib turgan Fransiya qirg'oqlari bo'ylab bor quvvatini ishga solib shitob bilan suzib borardi. Shuning uchun ham kema ortiqcha qattiq chayqalmas. Jildas Tregomen esa bunday muvaffaqiyat bilan o'zini muborakbod etardi. U bu sayohatdan foydalanib, taqdirning taqazosi bilan ko'rish nasib etadigan turli mamlakatlarning odat-udumi va tabiatini o'rganishga ahd qildi. Biroq umrida birinchi marotaba ochiq dengizga chiqib qolganidan, hammadan ko'ra dengiz kasalining qurboni bo'lishdan cho'chirdi. Shu

boisdan u suv ko'k gumbazi bilan tutashib ketgan ufq chizig'iga qo'rqa-pisa va qiziqsinib tikilardi. Bu olijanob kimsa o'zini ko'pni ko'rgan dengizchi qilib kursatishga hatto urinmas, yon tomondan yoxud ostidan to'lqin turib, kemani chayqata boshlagan paytlarda palubada yurishga botinolmasdi. Nimasini aytasiz, uning gabaraning bir tekisda suzib boruvchi palubasiga o'rganib qolgan oyoqlari o'sha zamonoq muvozanatini yo'qotgan bo'lardi. Kemaning quyruq qismida bort to'rini mahkam ushlagancha, taqdirga tan bergan odamdek o'tirishi berahm Per-Servan-Maloning uni masxara qilishiga sabab bo'lardi.

– Xo'sh, qayiqchi, ahvollaring qalay?

– Hozircha shikoyat qiladigan joyi yo'q...

– Ha-ha!.. Bu hali sokin suvlar, hozircha qirg'oq yoqalab suzyapmiz, shuning uchun o'zingcha, «Go'zal Ameliya»mda torgina Ransda suzib ketyapman, deb tasavvur qilsang ham bo'laveradi. Hali bir shimol shamoli turib, dengiz o'z badanidagi burgalarni partirlatib silkib bersin, ana o'shanda o'zingniki esingga ham kelmay qoladi.

– Mening hech qanaqa burga-purgam yo'q, qariya.

– Endi, bu shunchaki bir gap-da!.. La-Manshdan chiqib, okeanga o'tganimizda qay ahvolga tushishingni tasavvur qilyapman!

– Seningcha, chayqataverib boshimni aylantirib tashlaydimi?..

– Shunday bo'ladi deb tilxat berishim mumkin!..

Bundan ko'rinib turibdiki, Antifer tog'aning odamlarga taskin berish, tinchlantirish usuli o'zgacha, o'ziga xos edi. Shuning uchun ham

Jyuel bu noxush taassurotni ko'tarish niyatida dedi:

– Amakim juda oshirib yubordi, janob Tregomen, siz o'zingizni...

– Delfindan yomon his etmaymanmi?... Shuning o'zi kifoya, bundan ortiq tilagim yo'q, – javob berdi Jildas Tregomen, «Stirsmen»ning quyruq tomonida o'ynashib-irg'ishlab sho'xlik qilayotgan bu dengiz masxarabozlariga ishora qilib.

Kechga tomon kema Bretanning eng so'nggi turtib chiqqan qirg'og'ini aylanib o'tdi. Kema Uessan tepalari bilan qurshalgan Fur bo'g'oziga kirib borgan paytda, garchi qarshi shamol esayotgan bo'lsa-da, dengiz xiyla osoyishta edi. Soat sakkiz-to'qqiz oralarida yo'lovchilar uxlagani kirib ketishdi, kema tunda Sen-Matyo, Brest burnini, Duarnene qo'ltig'i va Sen qoyalarini ortda qoldirib, Iruaz yonida janubi-g'arbga burilishi kerak edi.

Tregomen tush ko'rdi, u og'rib, o'lim to'shagida yotganmish... Baxtiga bu faqat tush edi. Mana tong ham otdi. Garchi kema u biqinidan bu biqiniga chayqalsa-da, garchi goh pastga sho'ng'ib, goh yana jahannam qa'riga sho'ng'imoq uchun ko'kka sapchib borayotgan ersa-da, Tregomen sira ikkilanmay palubaga ko'tarildi. Bu voqea daryoda suzadigan kema kapitanining o'z xizmatini dengiz sayohati bilan tugatishga majbur etgan ekan, u hech bo'lmaganda yo'lda ko'rgan-kechirganlarini xotirida saqlab qolishni istardi.

Mana u palubaga olib chiqadigan zinaning so'nggi poyalarida paydo bo'ldi, keyin beligacha ko'tarildi. Shunda panjarasimon to'shamada chalqancha yotgan odamga ko'zi tushdi. Bu odam

kim edi deng? Rangi pag'a bo'lib ketgan, tinkamadori qurigan, allaqanday g'alati tovush chiqarib oh chekayotgan Antifer tog'aning o'zginasi edi! Ha, bu Antifer Per-Servan-Malo edi, u shu topda bamisoli Pade-Kale bo'ylab Bulondan Flokstonga havo aynib turgan paytda kemada o'tadigan ipakoyim malikalarday iztirob chekardi. Og'zidan esa bodi kirib shodi chiqardi. Har bir o'xchiqdan yana o'ziga kelganida do'stining xotirjam, qon tomib turgan qip-qizil betiga tikilib, unda dengiz kasalidan tirnoqcha ham asar ko'rmay, alamidan bo'ralab so'kardi.

– Padariga ming la'nat! – deb qichqirdi Antifer tog'a. – Shunaqa bo'ladi deb kim o'ylabdi deysan?.. Oyoqlarim kema palubasini ko'rmaganiga atigi o'n yil bo'lsa-yu... shu arzimagan vaqtni deb... menday kema kapitani... dengiz chayqatishini qandaydir gabaraka kapitanlarichalik ko'tarolmasam-a...

– Lekin... chayqatishni sirayam sezmayapman, – deyishga jur'at etdi Jildas Tregomen, odatdagidek oq ko'ngillik bilan, xijolatomuz iljayib.

– Hali soppa-sog'man degin?.. Xo'sh, nimaga soppa-sog'san?..

– O'zim ham hayronman, qariya.

– Sening o'sha Ransing bu dengizning janubig'arbdan esadigan la'nati bo'ronlarini ko'rmagan-ku umrida!

– Ha, hech qachon ko'rmagan, aslo unga o'xshamaydi ham...

– Turqing ham juda xotirjam ko'rinadi...

– Bundan o'zim ham afsuslanyapman, – deb javob berdi Jildas Tregomen, – jo'rttaga jig'imga tegyapti deb o'ylashing mumkin axir...

Bunday ajoyib, ko'ngilchan odamni yetti iqlimdan topib ko'ring-chi!

Antifer tog'aning dardi tezda o'tib ketadigan betoblik edi deb aytib qo'yaylik. Darhaqiqat, «Stirsmen» Ortegál burni yonidan Ispaniyaning shimoli-g'arbiy tumshug'ini mo'ljalga olgancha yo'lini o'zgartirib, Atlantika okeanining ko'kka sapchib turgan suviga tutashib ketgan Biskay ko'rfazidan suzib borayotganidayoq maluin o'zini o'nglab olgandi. U ko'pchilik, hatto dengizda uzoq vaqt bo'lmagan eng tajribali dengizchilar ham yo'liqadigan dardni boshidan kechirgan edi. Ammo-lekin shu topda uning izzat-nafsigá tekkan boshqa narsa edi. «Go'zal Ameliya»ning xo'jayini, qandaydir bir daryo kemachasining komandiriga balo urmasa-yu, uning, ko'pni ko'rgan mohir dengizchining ichakchavog'i ag'darilib ketayotgan bo'lsa-ya, bunga tog'a asti chidayolmas va tan berolmasdi-da!

Kechasi, rosa toshko'mir ortilgan «Stirsmen» La-Korunya va Al-Ferrolni yoqalab suzayotgan paytda ozmuncha qiyinchiliklarni boshdan kechirishga to'g'ri kelmadi. Hatto kapitan Sipning xayoliga bunday rasvo havoda birorta yo'ldagi portga kirib turish fikri ham kelgandi, basharti Antifer tog'a e'tiroz bildirmaganida xuddi shunday qilgan bo'larmidi. Yo'ldagi har qanday kechikish uni tashvishlantirardi, chunki u Suenda minmoqchi bo'lgan xat-xabar va yo'lovchi tashiydigan kema Fors qo'ltig'iga oyda bir martagina kirib o'tardi. Buning ustiga kecha-kunduz tengligi pallasida esa doimo xatarli bo'ronlar bo'lib turadi. Shuning uchun ham, hozircha jiddiy xavf yo'q ekan, yaxshisi, hech qayerda to'xtamaganlari ma'qul.

«Stirsmen» ispan qirg'oqlaridagi suvosti qo'yalaridan allaqancha masofa naridan suzib borardi. Chap tomondagi kallaqandga o'xshagan uch konussimon cho'qqili Vigo qo'ltig'i (bu uch cho'qqi qo'ltiqqa kirish joyini ko'rsatib turadi), keyin esa Portugaliyaning so'lim manzarali sohillari ortda qoldi. Ertasiga o'ng tomondagi, qit'aning yaqinligi dengizdan suzib kelayotgan kemalarga bilinib tursin deb mayoq yoqib qo'yish uchun ataylab yaratilgandek to'dalashib turgan Berleng orollari guruhini chamalab, yo'llarini to'g'rilab olishdi.

Bunday olis safar vaqtida yo'lovchilar oldida turgan muhim ish, o'zlarining g'aroyib sayohatlari va bu sayohatning taxminiy natijalari haqida obdan gaplashib olganlarini fahmlamoq qiyin emas, albatta. Antifer tog'a jisman sog'ayish bilan birga, odatdagi o'ziga ishonish kuchi ham yana qaror topgandi. Oyoqlarini kerib turgancha olis ufqqa diqqat bilan tikilarkan, palubada dadil qadam tashlar va ochig'ini aytsak, do'stining xotirjam chehrasida hamon asari ko'rinmayotgan dengiz kasalining qanday bo'lmasin biron-bir alomatini ko'rishni juda-juda istardi. Keyin bardoshi tugab, gapga tushardi. U:

- Xo'sh, okean qalay ekan?.. - deb so'rardi.
- Talay, ko'z ilg'amas suv ekan, qariya.
- Ha... sening Ransingdan sal kattaroq-da!..
- Shubhasiz. Ammo-lekin, daryoning ham o'zgacha, o'ziga xos gashti, latofati bor... uni kamsitish, pisand qilmaslik yaramaydi...
- Pisand qilmaymangina emas, ey qayiqchi... hazar qilaman undan...

– Menimcha, amaki, – gapga aralashdi Jyuel, – hech qanaqa hazar qiladigan joyi yo‘q, daryoning ham o‘ziga yarasha qadr-qimmatini bor...

– Ha, orol ham xuddi shunaqa, – deb qo‘shib qo‘ydi Jildas Tregomen.

Bu so‘zni eshitib Antifer tog‘a sergaklandi – uning eng nozik yeri qitiqlab o‘tilgandi.

– Albatta, – deb qichqirib yubordi u, – shunaqa orollar borki, ularni cho‘chimasdan birinchi darajali desa bo‘ladi!.. Masalan, mening orolimni!

Bu egalik olmoshidan bretonlikning miyasida qanday o‘ylar uya qurib olganini bilsa bo‘lardi. Ummon ko‘rfazidagi o‘sha orol meros sifatida uning mulkiga aylangan emas-u, halitdan umrbod o‘zinikidek bo‘lib ko‘rina boshlagan edi.

– Aytganday, mening orolim borasiga kelsak, – davom etdi u, – har kuni xronometrni tekshirib borishni unutganing yo‘qmi, Jyuel?..

– Aslo, amaki. Bunaqangi ajoyib mexanizmni juda kam uchratganman umrimda!

– Sekstant-chi?..

– Xotirjam bo‘ling, u ham xronometrdan qolishmaydi.

– Shundoq bo‘lishi kerak ham-da, ozmuncha pul to‘laganmanmi axir ularga!

– Modomiki bu asboblarni yuz millionlik boylikni topib beradigan bo‘lgandan keyin, shu arzimagan xarajatga ham parvo qilib o‘tirilarkanmi?..

– ustalik bilan gap qistirib o‘tdi sermulohaza Tregomen.

– Qoyilman, juda oqilona gapni aytding, qayiqchi!

Darhaqiqat, asboblarning narxi bilan hisoblashib o'tirishmadi. Xronometr Breget ustaxonasida tayyorlangan edi, shu boisdan uning ajoyib asbob ekanini gapirib o'tirishga hojat bo'lmasa kerak! Sekstantga kelsak, uning ham xronometrda kamchilik joyi yo'q bo'lib, undan mohirlik bilan foydalanilsa, hatto bir sekunddan iborat bo'lgan burchakkacha aniq ko'rsata olardi. Asboblarni ishlatishni esa yosh kapitanga bermalol ishonish mumkin edi. Xronometr va sekstant yordamida u orolning qayerga joylashganini aniq belgilay olardi.

Biroq Antifer tog'a bilan uning hamrohlari bu aniq asboblarga qanchalik ishonishsa, Komulk poshshoning vasiysi bo'lmish Binni Umarga shunchalik ishonmasliklari turgan gap edi. Ular tez-tez bu borada suhbatlashib turishardi, bir kuni esa tog'a jiyaniga shunday deb qoldi:

– Anavi Umar menga sira yoqmaydi-da. Uning xatti-harakatini diqqat bilan kuzatib borish kerak!

– Kim biladi deysiz, uni Suesda uchratamizmi, yo'qmi?.. – deb so'radi Tregomen ikkilanib.

– Gapingni qara-yu! – o'dag'aylab berdi Antifer tog'a. – Zarur bo'lgandan keyin u bizni o'sha yerda haftalab, oylab kutar!.. Axir birgina maqsadda – qo'limdagi kenglikni o'g'irlash niyatida hatto Sen-Malogacha bormadimi o'sha firibgar?

– Nazarimda, amaki, siz haqsiz, o'sha misrlik notariusga ishonmay to'g'ri qilasiz, – dedi Jyuel. – Menimcha, u bir paqirga, gumashtasi Nozim bo'lsa sariq chaqaga ham arzimaydigan odamlar!

– So'zingga batamom qo'shilaman, Jyuel, – dedi Tregomen. – Bu Nozim gumashtaga shunchalik o'xshamaydiki, xuddi men...

– ...xuddi sen teatrdagi bosh qahramonga o'xshamaganingchalik! – dedi Per-Servan-Malo, trubkasini g'ajib. – Yo'q, bu gumashta hujjatlarni yozib-chizish qo'lidan keladigan odamga aslo o'xshamaydi... Endilikda men, basharti Misrdagi oddiy hattotlar shporli va shopmo'ylov boylarga o'xshaydilar deyishsa, sira ajablanmayman... Fransuzcha bilmagani yomon ekan... Tilidan ilintirib qolarmidik...

– Tilidan ilintirardik deysizmi? So'zlarimga ishonavering, amaki, rostki notariusdan hech nimani bilib ololmagan ekansiz, uning gumashtasidan tirnoqcha narsani bilib ololmasligingiz turgan gap! Undan ko'ra anavi Souk masalasini bir yoqlik qilganimiz muhimroq, deb o'ylayman.

– Qanaqa Souk?

– Anavi sizni deb merosdan mahrum bo'lgan, Komulk poshshoning qarindoshining o'g'li-chi?..

– Qani, yo'linga ko'ndalang bo'lib ko'rsinchi, abjag'ini chiqarib tashlayman!.. Vasiyatnomada hammasi ochiq-oydin aytib qo'yilmaganmi axir? Xo'sh, shunday ekan, o'sha poshsholar avlodi nimani istaydi bizdan, naq tilka-pora qilib, parpatini bittalab yulib olarman!..

– Lekin, amaki...

– E! Men undan anavi Binni Umardan ko'ra kamroq xavotirlanaman, bordi-yu, o'sha har xil yozuv-chizuvlar sarkori qittak ishkal qiladigan bo'lsa...

– Ehtiyot bo'l, qariya! – dedi Jildas Tregomen.

– Notariusni yo'qotolmaysan... Boylikni izlashda seni kuzatib borishga haqi bor va hatto birgalashib orolga borishga majbur u...

– Mening orolimga, qayiqchi!..

– Ha, to‘g‘ri, sening orolingga. Vasiyatnomada bu ochiq-oydin bitilgan, sababki, boylikdan unga bir poyizi, ya‘ni million frank tegishi kerak...

– Ketiga millionta tepki degin! – xitob qildi qiziqqon maluin.

Binni Umarga tegishi kerak bo‘lgan bu katta mukofot haqidagi fikr xayoliga keldi deguncha Antifer tog‘aning odatdagi tajangligi beshbattar ortib ketardi.

Suhbatni shu topda San-Vinsenti burni bilan yaqingina qirg‘oqdagi qoyalar orasida suzib borayotgan «Stirsmen»ning quloqni qomatga keltiruvchi chinqirig‘i bo‘lib yubordi.

Kapitan Sip qoya cho‘qqisida joylashgan monastirga salom yo‘llab o‘tishni hech qachon unutmasdi – bu salomga javoban esa monastir noziri har doimgidek fотиha berib, oq yo‘l tilashga shoshilardi: yapasqi tepalik ustida bir necha keksa monax ko‘rindi, bu oq yo‘l tillb qilinayotgan duolar kuzatuvida kema burunni aylanib o‘tib, janubi-sharq tomon yo‘l oldi.

Kechasi, sohil yoqalab suzib borisharkan, safarchilar Kadisning miltillagan chiroqlarini ko‘rishdi, keyin Trafalgar burnini yuvib turgan ko‘rfazni ortda qoldirishdi. Erta tongda Spartel burniga o‘rnatilgan mayoqqa qarab yo‘llarini to‘g‘rilab olib, ilgarilab borisharkan, «Stirsmen» o‘ng tomondagi yam-yashil barglarga burkangan, miltillab ko‘zga tashlanib turgan oppoq binolarni, bog‘lar saf tortgan go‘zal Tanjer tepalarini, chap biqinda esa bir-biriga mingashib ketgan Tarif tepalari safini ortda qoldirib, Gibraltar bo‘g‘oziga kirib keldi.

Keyin kapitan Sip O'rtayer dengizi oqimidan foydalanib, paraxodni tezlik bilan Marokash sohillari sari burdi. Ispan Gibraltariga o'xshab qoyaga mingashib olgan Seuta ham ko'zga chalindi-yu ortda qoldi, janubi-sharq tomondagi yana bitta burun yonidan o'tib ketishdi, yigirma to'rt soatdan so'ng esa Alboran oroli ham orqada qoldi.

Ko'z o'nglarida Afrika sohillari namoyon bo'lganida safarchilar maftun bo'lib qoldilar. Ko'zlari o'ngidan g'izillab o'tib turgan bu manzaradan ko'ra ko'rkamroq, rang-barangroq, undan so'limroq yer bo'lmasa kerak, orqaroqda arra tishi bo'lib dengiz qirg'og'iga bostirib keladigan qat-qat tog' tizmalari, oldinda — tog' chekingan yon bag'irlarda qad ko'targan, yam-yashil dov-daraxtlar bilan qurshalgan sohil bo'yi shaharlari to'satdan ko'zga tashlanib qoladi. Bu yerlardagilar qish nimaligini bilishmaydi, iqlimi ham iliq, dengiz iqlimi.

Qadrdon Rans bo'ylab, Dinar bilan Dinan oralig'ida yuqoridan quyiga, quyidan esa yuqoriga tinmay qatnab yurgan chog'larida u joylarning manzarasidan zavqlanishdan hech qachon charchamagan Tregomen qadrdon sohillarini bu yer-ning go'zal tabiati bilan taqqoslab ko'rdimikin, unga to'g'ri baho bera oldimikin? Cho'qqisida qasr qad ko'targan konussimon tepalikli Oranni, pastga qarab yarim doira shaklida pillapoya singari tushib keladigan Jazoirni, osmono'par qoyalar bilan qoplangan Sitorni, yarim zamonaviy, yarim qadimiy binolardan tashkil topgan ko'rfazning olis qirg'og'iga joylashgan Bon shahrini, Buja, Filippvil shaharlarini ko'rarkan ko'nglidan qanday hislar kechdi? Bir so'z bilan aytganda, qarshisida

namoyon bo'layotgan maftunkor sohilni ko'rib Jildas Tregomenning qalbida qanday his-tuyg'ular jo'sh urdi? Bu uning hayotidagi eng ajoyib va xotiridan ko'tarilmas damlar edi.

La-Kalni yoqalab borib, Tunis qirg'oqlaridan uzoqlasharkan, «Stirsmen» Bon burni tomon suza ketdi. Beshinchi mart kuni kechqurun quyosh qalin tuman ortiga yashiringan onda oppoq osmon fonida Karfagen tepalari bir daqiqagina ko'rindi. Tunga borib, Bon burni ortda qolgach, kema O'rtayer dengizining sharqiy qismi – Yaqin Sharq suvlariga o'tdi.

Ob-havo suzish uchun juda qulay edi. Ba'zi-ba'zida shamol epkini bostirib kelib qolar, biroq tezda to'xtab, yana musaffo ufq namoyon bo'lardi. Ana shunday damlardan birida nayzasimon Pantel-leriya cho'qqisi ko'zga tashlandi. Bu qadimiy, so'ngan vulqon bir kun emas, bir kun yana uyg'onib qolishi mumkin. Umuman, Bon burnidan tortib to yunon orollari guruhigacha bo'lgan oraliqdagi suv tubi vulqonli yerlardir. Bu oraliqda paydo bo'lgan orollar – Santorin va talaygina boshqalari – balki vaqti bilan yangi orollar guruhiga aylanar.

Shuning uchun ham Jyuel amakisiga:

– Baxtimizga Komulk poshsho o'z boyligini saqlash uchun shu orollardan birortasini tanlamagan ekan, – derkan, gapi tamoman asosli edi.

– Ha, bu baxt... Bag'oyat katta baxt! – deb javob berdi Antifer tog'a.

Mening orolim ham yuzasi va tuzilishini vulqoniy kuchlar ta'sirida muttasil o'zgarib turadigan, suv tubidan o'sib chiqqan orollardan bo'lsa-

ya, degan fikrdan hatto rangi quv o'chib ketdi. Baxtiga Ummon ko'rfazi bunaqangi tasodiflardan mustasnodir. U yoqda yer osti silkinishlar bo'lmaydi, shuning uchun ham u geografik koordinatlari ko'rsatilgan joyda bo'lishi kerak.

«Stirsmen» Gotsso va Malta orollaridan o'tgach, Misr sohillariga yaqinlasha boshladi.

Kapitan Sip Iskandariyani olisdanoq ko'rdi. Rozetta bilan Damietta oralg'ida kanallari bilan yelpig'ich singari yoyilib ketgan Nil deltasini aylanib o'tib, 7-mart ertalab ko'mir tashuvchi kema Port-Saidga yetib kelgani haqida xabar berdi.

U paytlarda Sues kanali hali bitmagandi. U kemalar qatnovi uchun 1869-yildagina ochildi. Shu boisdan kema Port-Saidda to'xtashi kerak edi. Bu fransuzlar ta'siri ostida dengiz, kanal va Manzala oroli oralg'idagi kambargina qumloq sayozlikda barpo etilgan, yevropacha binolar, tomi cho'qqi uchli bog' uylar, afsonaviy qasrlar shahri edi. Kanal qazishdan chiqqan tuproqning bir qismi botqoqlikka sochildi, bir qismi ko'tarmalarga uyilib, ustiga tosh yotqizildi. Port-Saidda cherkov, gospital, kemasozlik korxonasi – hamma-hammasi bor. Ko'rkam binolar O'rtayer dengiziga qaragan, ko'l esa yam-yashil orolchalar bilan qoplangan, ular orasida baliqchilar qayiqlari ohista suzib yuradi. Ikki yuz o'ttiz gektar maydonni egallagan kemalar turadigan chog'roqqina reyid ikki to'g'on bilan muhofaza qilingan; ulardan biri – g'arb tomondagi mayoq qurilganining uzunligi uch yarim ming metr keladi, ikkinchisi – sharq tomondagisi xiyla qisqaroq – yetti yuz metr.

Antifer tog'a va uning hamrohlari kapitan Sipga ko'rsatgan iltifoti uchun chin dildan minnatdorchilik bildirib, u bilan qizg'in xayrlashishdi. Ertasiga uchovlari Port-Saiddan Suesga boradigan poezdga o'tirishdi.

Sues kanalining bitmaganini qarang-a! Jyuel uchun Suesda suzish qanchalar qiziqarli edi, Jildas Tregomen esa, garchi Amir va Ismoiliy ko'lining qiyofasi Dinan bilan Dinarnikiga aslo o'xshamasa-da, o'zini Ransda suzayotgandek his etarmidi.

Xo'sh, Antifer tog'a-chi?.. Bu mo'jizalar unda qanchalik taassurot qoldirdiykin? Vijdonan aytganda, uni na tabiat, na inson dahosi yaratgan mo'jizalar qiziqтира oldi. Uning uchun bu iqlimda faqat birgina nuqta – Ummon ko'rfazidagi orolchagina mavjud bo'lib, ko'zni qamashtiruvchi bir ma'dan kabi uning aql-u hushini tushovlab qo'ygan edi...

Hozirgi kunda geografik jihatdan juda muhim mavqe tutgan Suesdek shaharni ko'rishni istamasdi. Ammo uning ko'zi vokzaldan chiqaverishda turgan ikki kishini darrov ilg'ab oldi. Ulardan birovi tilyog'lamalik bilan o'ta xushomad ko'rsatgan bo'lsa, boshqasi o'zini chinakam sharqliklarga xos mag'zur tutardi.

Bular Binni Umar bilan Nozim edi.

O'N BIRINCHI BOB

*Jildas Tregomenning o'z do'sti
Antiferni aqldan ozayozibdi degani*

Shunday qilib, Komulk poshshoning vasiysi notarius Binni Umar va uning gumashtasi shartlashilgan uchrashuvga yetib kelishgan edi. Ular

bu uchrashuvni hech qachon qo'ldan boy bermas-dilar ham! Ularning Suesga yetib kelishganiga bir necha kun bo'lgan, maluin bilan uchrashuvni qanchalik sabrsizlik bilan kutishayotganini asti qo'yaverasiz!

Antifer tog'aning ishorasi bilan Jyuel va Jildas Tregomen taqqa to'xtab qolishdi. Uchovlari ham o'zlarini go'yo suhbatga berilib ketib hech nimani payqamayotgan va hech nima qiziq-tirmayotganga soldilar.

Binni Umar odatdagidek xushomadkorona qiyofada bedana yurish qilib ular yoniga keldi.

Uchovlari o'zlarini uni payqamayotganga solishdi.

– Shunday qilib, janob... – deyishga jur'at etdi notarius iloji boricha riyokorona shirinsuxanlik bilan.

Antifer tog'a boshini burib, xuddi birinchi marta ko'rayotgandek unga boshdan-oyoq beparvoga razm solib chiqdi.

– Janob... bu menman... menman... – deb takrorlardir Binni Umar ketma-ket ta'zim qilib.

– Siz... kimsiz o'zi?..

Uning bu javobidan: boshimga uramanmi seni, ey tobutini tashlab chiqqan misrning mo'miyoli murdasi, degan ma'noni anglash mumkin edi, xolos.

– Axir... bu menman-ku... men... Binni Umar... Iskandariyalik notariusman-ku... nahotki tanimayotgan bo'lsangiz meni?..

– Biz bu janob bilan tanishmizmi? – deb so'radi Per-Servan-Malo trubkasining uchini tishlaganacha hamrohlariga ko'z qisib.

– Nazarimda, – deb javob berdi Jildas Tregomen o'zini yo'qotib qo'ygan notariusga rahmi

kelib, – bu kishi biz bir karra uchrashish sharafiga musharraf bo'lgan janob Binni Umar bo'lsalar kerak...

– Rost-a... ha, ha... rost... – dedi Antifer tog'a, go'yo bir vaqtlar bo'lib o'tgan voqeani eslashga tirishayotgandek. – Ha, ha, chamamda eslayotganga o'xshayman... Bonni Umar... yoki Binni Umar edi chog'i?

– Ijozatlari bilan – Binni Umar...

– Xo'sh, mayli... xo'sh, bu yerlarda nima qilib yuribsiz?..

– Bu yerlarda nima qilib yuribsiz deganingiz nimasi? Men sizni kutayotgan edim, janob Antifer.

– Meni kutayotgan edingiz...

– Albatta-da!.. Nahotki unutgan bo'lsangiz?.. Suesda uchrashishga kelishganimizni...

– Uchrashish? Nimaga? – javob berdi maluin o'zini bag'oyat taajjublanayotgan qilib ko'rsatib, hatto eng tajribali notariusni yosh boladay laqillatarkan.

– Nimaga deganingiz qanaqasi?.. Komulk poshshoning vasiyatichi... anavi orol... vasiyat qilingan millionlar-chi...

– Sizning orolingiz desangiz bo'larmidi.

– Ha, sizning orolingiz... Chamamda xotirangiz tiklanayotganga o'xshaydi... shunday ekan, vasiyatnomada mening zimmamga shunday burch yuklanadikim...

– Xuddi shunday bo'ladi ham, janob Binni Umar... E, salom! Salom alaykum!

Shunday deb, xayr-ma'zurni ham nasiya qilib, Jyuel va Tregomenga orqamdan yuringlar degandek yelkasi bilan ishora berib, yo'lga tushdi.

Notarius yana orqalaridan quvib yetganda, ular vokzaldan ancha olislab qolishgan edi.

– Suesda qayerga tushmoqchisizlar? – deb so‘radi u.

– Birorta mehmonxonaga qo‘narmiz, – javob berdi Antifer tog‘a.

– Men gumashtam Nozim bilan tushgan mehmonxona to‘g‘ri kelmaydimi sizlarga?

– Umi, boshqasimi, mutlaqo farqi yo‘q bizga... Bu yerda qirq sakkiz soat turish uchun baribir...

– Qirq sakkiz soat deysizmi? – deb qaytarib so‘radi Binni Umar oshkora bezovtalanib. – Safaringizning nihoyasiga yetganingiz yo‘qmi hali?..

– Aslo, – javob berdi Antifer tog‘a, – hali kemada suzishimiz kerak...

– Suzishimiz kerak? – xitob qildi notarius va xuddi shu topda kema palubasida chayqalib borayotgandek rangi o‘zgarib ketdi.

– Ha, Bombeyga jo‘naydigan aloqa kemasida suzamiz...

– Bombeyga boradigan!..

– ... va indinga Suesdan yo‘lga chiqadigan kemada. Janoblarini bu sayohatda ishtirok etishga taklif qilaman, zero ki bu ulfatchilik zimmamizga majburan yuklatilgandir...

– Qayerda ekan o‘sha orol o‘zi?.. – deb so‘radi notarius umidsizlik bilan.

– Qayerda turgan bo‘lsa, o‘sha yerda, janob Binni Umar.

So‘ngra Antifer tog‘a Jyuel bilan Tregomenni ergashtirib, eng yaqin mehmonxona tomon jo‘nadi, tezda yengil-yelpigina yuklari ham o‘sha yerga keltirildi.

Oradan bir daqiqa o'tmayoq Binni Umar Nozimning oldiga qaytdi. Sergakroq odam soxta gumashtaning notariusni qanday iltifotsizlik bilan kutib olganini darrov fahmlab olishi mumkin edi. Eh, padariga la'nat! Agar o'sha millionlardan unga beriladigan ulushi bo'lmaganida, agar Souk dag'dag'a qilib yuragini olib qo'ymaganida edi, vorisni ham, Komulk poshshoning vasiyatini ham, qayerdaligini izlab dengiz va qit'alarni bosib o'tishi lozim bo'lgan o'sha noma'lum orolni ham jon-jon deb bahridan o'tgan bo'lardi-ya!

...Basharti hozir bizning maluinimizga Suesni bir vaqtlar arablar Suays, misrliklar esa Kleopatris deb atashgan deyishsa, u hech ikkilanmay:

– Ilgarilari nima deb ataganlarining «mening ishimga hech qanday aloqasi yo'q!» – deb javob bergan bo'lurdi.

Masjidlarni, darvoqe bir-birovidan unchalik farq qilmaydigan binolarni, ikki yoxud uch maydonni, ulardan diqqatga sazovori don-dun bozoriyu, bir paytlar general Bonapartning qarorgohi bo'lgan, old tomoni dengizga qaragan uyni tomosha qilish fikri bu to'ng odamning hatto yetti uxlab tushiga ham kirmagan edi.

Biroq Jyuel Antifer tog'aning aksicha, bo'sh vaqtlarida bu befayz, iflos, o'n besh ming aholi yashaydigan ko'rimsiz shaharni aylanib chiqishga ahd qildi.

Yosh kapitan Jildas Tregomen bilan birgalashib, ikki kunda hamma katta ko'cha-yu tor ko'chalarni aylanib chiqishga, besh yuz kema xotirjamgina langar tashlab tura oladigan Sues kema to'xtash

joyini tekshirishgacha ulgurdi: Reydning chuqurligi o'n olti-yigirma metr kelardi, kemalar sayozga o'tirib qoladi deb cho'chimasa ham bo'lardi, buning ustiga yilning istagan pallasida shimoli-g'arb tomondan bostirib keladigan shamollardan ham pana edi.

Kanal qurishga qaror qilishdan avval ham Sues Iskandariya va Qohirani bog'lab turgan temir yo'l orqali dengiz savdosi olib borardi. Misr bilan Sinay yarim oroli oralig'ini yorib qit'a bag'riga bir yuz sakson olti kilometr kirib borgan shu nomdagi ko'rfazning ichkari sohiliga joylashgan Sues Qizil dengiz hayotida hokimlik qilar va garchand asta-sekin bo'lsa-da, o'z ravnaqi sari dadil odimlardi.

Biroq, yana bir bor ta'kidlab o'tamizki, bularning bari Antifer tog'ani zarracha bo'lsa-da, qiziqtirmasdi. Ikkala hamrohi shaharni kezib yurgan bir paytda u sayrgohga aylanib qolgan ajoyib cho'milish joyini deyarli tark etmadi. To'g'ri, Antifer tog'a o'zini goh Nozim, goh Binni Umar muttasil kuzatib, soyaday ergashib yurganini sezib turdi. Garchi ular tog'aga yaqinlashmasalar-da, uni aslo ko'zdan qochirmasdilar. U ham o'zini go'yo hech nimani payqamayotganga solardi. Maluin o'z fikrlariga g'arq bo'lib, harrakda o'tirarkan, mutlaqo ko'zga ko'rinmas narsani ilg'ab oladigandek Qizil dengiz ufqidan nigohini uzmasdi. Goho uning tasavvuri o'sha fikrlariga shunchalik tobe bo'lib qolardiki, nazarida orolni... o'z orolini ko'rayotganday bo'lardi... orolcha u yoqda... janub tomonda... olisdagi tuman pardasi orasidan bo'y

cho'zib chiqayotganga o'xshab ketardi... Bu hol mana shu qumloq sohillarda tez-tez paydo bo'lib turadigan o'ziga xos bir sarob edi.

11-mart kuni ertalab aloqa kemasi «Oksus» safarga jo'nash taraddudini tugatib, Hind okeani bo'ylab suzish va odatdagidek oraliqdagi portlarga kirib o'tish uchun zarur bo'lgan ko'mirni yuklab oldi.

Antifer tog'a, Jildas Tregomen va Jyuellarning kallayi saharlab, Binni Umar va Soukdan avval aloqachi kemaga kelib olganlariga ajablanmasa ham bo'ladi.

Bu kattakon aloqachi kema asosan savdo-sotiq mollarini tashishga mo'ljallangan bo'lsa-da, yo'lovchilarni, aksariyat Bombeyga boradiganlarni tashishga ham moslashgan edi; kemadagilar-ning ozgina qismi Adan va Maskatda tushishlari kerak edi.

Ertalab soat o'n birda «Oksus» langar ko'tarib, Sues ko'rfazi bo'ylab yo'lga chiqdi. Keyinroq g'arbdan esadigan shimoli-g'arb shamoli turdi. Bot-bot to'xtab suzilgani sababli sayohat ikki haftadan kam davom etmasa kerak, shuning uchun Jyuel tushki ovqatdan so'ng va kechasi kirib uxlashga uchta yig'ma karavotli kayuta berishlarini so'radi.

Souk bilan Binni Umar ham, o'z-o'zidan ayonki, boshqa kayutani egallashdi. Bechora notarius u yerdan kamdan-kam, shunda ham bir nafasgagina chiqib qolardi. Antifer tog'a har ikki tomonning aloqasini iloji boricha kamaytirmoqchi bo'lib qo'rs xushmuomalalik bilan sho'rlik notariusga tushuntirdi:

— Janob Binni Umar, birga sayohat qilamiz, bunisi aniq, illo har kim o'z yo'li bilan boradi. Men o'z yo'limdan, siz o'z yo'lingizdan... Merosni qo'lga kiritishimning shohidi bo'lasiz-u, shu bilan tamom-vassalom! Keyin, umid qilamankim, na bu dunyoda va na u dunyoda uchrashamiz!..

«Oksus» qator tepaliklar bilan qoplangan bo'yinni panalab ko'rfazdan quyi tomonga borarkan, safar xuddi ko'lda suzib borayotgandek osoyishta davom etdi. Biroq, kema Qizil dengizga o'tishi bilan Arabiston sahrolaridan esadigan shamollar bu osoyishtalikni alg'ov-dalg'ov qilib yubordi. Biqin tomondan shunaqangi chayqalish boshlandiki, yo'lovchilarning aksariyati behuzur bo'la boshladi. Bu chayqalish Nozimga Antifer tog'a bilan Jyuel va chuchuk suvlarda suzuvchi dengizchilar obro'-e'tiborini saqlab qola olgan Jildas Tregomenlardan ko'ra ortiqroq ta'sir etmagandi chog'i. Notariusga kelganda esa, uning qanchalar ayanchli ahvolga tushganini tasvirlashdan har qanday qalam ojiz edi. Biron marta bo'lsin u na palubada, na salonda va na oshxonada qorasini ko'rsatdi. Umuman uni, butun safar davomida hech kim ko'rmadi, faqat kayutadan uning oh-u nolasigina eshitilardi, xolos. Darhaqiqat, bu safar paytida uning uchun mo'miyolangan murdaga aylanib qolgani ming karra ma'qul edi. Bu bechoraga rahmi kelgan oq ko'ngil Tregomen uning huzuriga bir necha bor kirdi, bu hol hech kimni ajablantirmadi, chunki bu odamning ko'ngilchan va mehribon ekanligini hammalari yaxshi bilishardi. Jildas Tregomen u bechoraga nisbatan Antifer tog'aning ko'nglida rahm-shafqat va hamdardlik hissini uyg'otmoqchi

bo'lsa, tog'a faqat yelkasini qisibgina qo'ya qolardi, chunki tog'a Binni Umarning anavi geografik kenglikni bildiruvchi raqamni bilib olish uchun qilgan urinishlarini aslo esdan chiqarolmasdi.

– Xo'sh, qayiqchi, – derdi u bunday paytda trubkasini g'ajib va og'zining u burchidan bu burchiga olib, – qalay, Umaringning ichak-chavog'i ag'darilib ketmabdimi hali?..

– Deyarli shunga kelib qolibdi.

– Unday bo'lsa tabriklayman seni!

– Qariya, nahotki uni kirib ko'rmasang... bir martagina bo'lsa ham-a?..

– Albatta, qayiqchi, albatta!.. Albatta kirib ko'raman uni... Faqat ichak-chavog'i ag'darilib bo'lgandan keyingina!

Ana shunday qo'pol va kulib turib joningni oladigan bunaqa odam bilan qanday jiddiy gaplashib bo'lardi deysiz!

Notarius safar mobaynida o'z tashrifi bilan hech kimning me'dasiga tegmagan bo'lsa, uning gumashtasi Nozim esa tez-tez Antifer tog'aning g'ashiga tegib, asabini qo'zg'ardi. Rost, Nozim hadeb unga suykali ilashavermasdi... Aslo! Darhaqiqat, ular gaplasha olmaganlaridan keyin buning nima hojati ham bor edi: Nozimni fransuzchani bilmaydiga chiqarib qo'yishgandi-da, axir... Lekin bu soxta gumashta doim yaqin-orada o'ralashib yurgan bo'lardi; xuddi xo'jayinining topshirig'ini bajarayotgandek maluinni zimdan kuzatgani-kuzatgandi. Antifer tog'a uni jon-jon deb dengizga uloqtirib yuborgan bo'lardi-ya!.. Albatta misrlik bunday muomala qilishlariga indamaygina qarab turadigan odam bo'lganida shunday qilardi.

Garchi hali saraton kirib, chidab bo'lmas jaziramalar boshlanmagan bo'lsa-da, Qizil dengizdan suzib o'tish ancha og'ir edi. Bu pallada bug' qozonlari yonida ishlashga arablargina dosh bera olishi hammaga ayon – bir necha daqiqada tuxum pishib ketadigan bunday issiqqa faqat ulargina chiday oladilar.

15-martda «Oksus» Bobul-Mandib bo'g'ozining eng tor yeriga yetib bordi. Chap sohildagi inglizlarga qarashli Perim orolini ortda qoldirib, uchala fransuz Afrika sohilidagi Obok qal'asi teppasida hilpirab turgan o'z yurtlarining bayrog'iga salom berib o'tishdi⁵². So'ngra kema Adan ko'rfaziga o'tib, shu nom bilan ataladigan portga tomon suzib ketdi. Bu yerda bir necha yo'lovchi tushib qolishi kerak edi.

Adan besaranjom, hamisha jonsarak, sertashvish beka – Buyukbritaniyaning belidagi Qizil dengiz kalitlari shodasidagi yana bir kalit edi. Ikkinchi Gibraltarga aylantirilgan Perim oroli soyasida u Hind okeaniga olib chiqadigan, olti yuz le uzunlikdagi bu yo'lakni o'z qo'llarida tutib turardi. Garchi Adanning kema to'xtaydigan gavani asta-sekin qum bosib, sayozlanib borayotgan bo'lsa-da, harqalay, sharq tomonida kemalar langar tashlashi uchun keng va qulay manzil, g'arbida esa butun boshli flot joylashadigan ajoyib dok bor. Inglizlar bu yerga 1823-yili joylashib olishgan. XI va XII asrlardayoq ravnaq topa boshlagan bu shaharning qismatiga sharq mamlakatlaridan keltiriladigan buyumlar omborxonasi bo'lish bitilgan ekan.

⁵² Bu yerda fransuz Somilasi nazarda tutilgan.

O'sha oqshom Adanning o'ttiz ming aholisiga yana uch kishi – uch fransuz qo'shildi. Yigirma to'rt soat mobaynida Fransiya bu yerda o'zining uch jasur maluin fuqarosi bilan namoyon bo'ldi. Kemadan tushish Antifer tog'aning xayoliga ham kelmadi. U bu vaqtni notarius Binni Umarning palubaga chikishiga sharoit tug'dirib bergan tasodifiy to'xtashni bo'ralab so'kish bilan o'tkazdi. Biroq, notarius qanday ahvolga tushibdi-ya! Yo Tangrim! U kema quyrug'iga arang yetib keldi.

– E-ha! Bu o'zlarimi, Binni Umar janoblari?
– dedi Per-Servan-Malo yasama jiddiylilik bilan.
– Voy bo'! Men o'zlarini tanimay qolibman-a!.. Safarimizning oxiriga salomat yetib borishingiz amri-maholga o'xshaydi yov!.. Sizning o'rningizda bo'lganimda... Adanda qolgan bo'lardim...

– Men ham jon-jon deb shunday qilardim-a!
– deb pichirlardi sho'rlikning ovozi salgina hilpirab o'tgan shabadaday arang chiqdi. – Bir necha kungina orom olsam oyoqqa turib ketardim... mabodo keyingi aloqa kemasini kutishga ko'nsangiz, albatta...

– Ming afsus, janobi Binni Umar, o'zlariga tegishli bo'lgan mo'maygina pulni qo'llariga tutqazishga oshiqyapman, shuning uchun yana ming bora afsuski, to'xtab kutolmayman!

– Hali ancha olismi?

– Olis ham gapmi! – deb javob berarkan, Antifer tog'a qo'li bilan aql bovar qilolmaydigan uzoq masofani ko'rsatdi.

Shundan keyin Binni Umar langustaday⁵³ sudralib o'z kayutasiga zo'rg'a yetib oldi, bo'lib

⁵³ Langusta – kattakon dengiz qisqichbaqasi.

o'tgan bu suhbatdan keyin tarvuzi qo'ltig'idan tushib ketgandi, albatta.

Jyuel bilan Tregomen kemaga peshinida qaytishdi. Adanni sayr qilib olgan taassurotlarini Antifer tog'a bilan o'rtoqlashishdi. Albatta, u baribir gaplariga quloq ham solmasdi.

«Oksus» ertasiga choshgohdan so'ng dengizga chiqib oldi, biroq Hind okeani ma'budasi Amfitrita ularni quchoq ochib, mehmondo'stlik bilan kutib olgani yo'q, uni Jildas Tregomen: «Amfitrita»⁵⁴, – derdi. Ma'buda qaysar, injiq, serjahl bo'lib, buni kemadagilarga namoyish qila boshlagan edi. Binni Umarning kayutasida bo'layotgan gaplardan yaxshiroq misolni topib bo'lmasa kerak bunga! Basharti uni adyolga o'rab palubaga olib chiqib, oyog'iga to'p o'qini bog'lab, yuqorida zikr etilgan ma'budaning quchog'iga otmoqchi bo'lganlarida ham u o'zini bemavrud ajal changaliga tashlashlariga qarshilik ko'rsata olmagan bo'lardi.

Ob-havo uch kun deganda, shimoli-sharqdan shamol turgachgina yaxshilandi, chunki kemanding Xadramaut⁵⁵ sohillarini panalab suzib borishiga sharoit tug'ilgan edi.

Souk dengizda suzishning barcha makrli bevafoligi va beqarorliklariga osongina chidash berayotgan, jismoniy tomondan hech qancha azob chekmayotgan ekan, uning ruhiy hissiyoti tamoman o'zgacha ekanini fahmlash unchalik mushkul emasdi. Allaqanday bir la'nati fransuzga mute

⁵⁴ Amfitrita – yunon afsonalarida dengiz Xudosi Poseydonning xotini.

⁵⁵ Xadramaut – Angliyaning Adan protektoratidagi tarixiy muzofot.

bo'lsa-yu, undan orol sirlarini bilib ololmasa, uning orqasidan to... toki safari qariguncha ergashib yurishga majbur bo'lsa!.. Qayerda to'xtarkin? «Oksus»ning yo'lida uchraydigan biror portda – Maskatdami, Suratdami yoki Bombeydami, qayerda to'xtarkin?.. Agar maluin Maskatda to'xtash niyatida bo'lsa Ormuz bo'g'ozi orqali suzmasmikin?.. Bordi-yu, Komulk poshsho o'z xazinasini Fors ko'rfazidagi behisob orollardan birortasiga ko'mgan-u, maluin o'sha yoqqa ketayotgan bo'lsa-chi?..

Bu mavhumot va mujmallikdan Souk hamisha darg'azab bo'lib, asabiylashib yurardi. U bu sirni Antiferning ichidan jon-jon deb sug'urib olishga tayyor edi. U fransuzlar o'zaro gaplashishayotganda bir necha og'izgina so'zni ilib olishga ozmuncha urindimi! Axir ular Soukni fransuzchani bilmaydi deb hisoblashar, shu sababli uning oldida ehtiyotkorlik qilmasliklari ham mumkin edi-ku!.. Biroq uning barcha urinishlari behuda edi... Xuddi ana shu soxta gumashta maluinlarda ayniqsa shubha uyg'otardi. Uning tashqi qiyofasida kishi ko'nglida nafrat ung'otadigan allaqanday sovuq va jirkanch bir narsasi bor edi. Unga nisbatan bo'lgan ana shunday ixtiyorsiz, noaniq sezgini Antifer tog'a qanchalik his etsa, do'stlari ham undan qolishmasdilar. Soukka ko'zlari tushdi deguncha nariroqqa jo'nab qolishar, bu hol esa gumashtaning battar g'azabini qo'zg'ab, fig'onini oshirardi.

«Oksus» 19-mart ertalab Arabiston sohilidagi Marbatda to'xtab, o'n ikki soat turdi. Keyin Ummon sohillarini yoqalab Maskat tomon suzishda davom etdi. Ikki kundan keyin u Rasul-Had

burnini aylanib o'tadi. Oradan yana yigirma soat o'tgach, «Oksus» imomlik poytaxtiga yetib boradi va Antifer tog'a ko'zlagan manziliga tashrif buyuradi.

Shuncha yo'l bosgani yetar, axir! Maskatga yaqinlashgan sari maluinning tobora qosh-qovog'i uyulib va odamovilashib borardi. U o'z mulkiga aylangan oltin va olmoslar ko'milgan orolga butun vujudi bilan intilardi. «Ming bir kecha»dagi afsonani takrorlamoqchi bo'lgan Komulk poshshoning vasiyati bilan o'zining izmiga topshirilgan Ali Boboning tilsimli g'ori Antifer tog'aning ko'zi o'ngida xayolan gavdalanardi.

– Bilasizlarmi, – dedi tog'a o'sha kuni hamrohlariga – soddadil, olijanob anavi misrlikning boyligi – u Komulk poshsho haqida xuddi meros qoldirib ketgan amerikalik amakisi haqida so'zlayotgan jiyandek betakalluf gapirardi agar u quyma oltinlardan iborat bo'lsa, uni Sem-Maloga olib ketishda qiyinchilik tug'ilishi mumkin.

– Tashvishingizga sherikman, amaki, – dedi Jyuel.

– Menimcha, ilojini topamiz, – deb gap qistirishga jur'at etdi Jildas Tregomen, – jomadonlarimiz, cho'ntaklarimiz va hatto, shlyapalarimizga solib olib ketarmiz.

– Xuddi qayiqchiga o'xshab mulohaza qilasan-a! – deb xitob qildi Antifer tog'a. – Bu kishi million so'mlik oltinni qo'ltiqqa qistirib olib ketmoqchilar.

– Menimcha, qariya, haligi...

– Umringda millionni, buning ustiga oltinni ko'rganmisan o'zi?

– Hech qachon... hatto tushimda ham ko‘r-maganman!

– Uning og‘irligi qancha bo‘lishini bilasanmi?..

– Tasavvur ham etolmayman.

– Men bilaman, ey qayiqchi, chunki erinmay hisoblab chiqqanman.

– Unda ayt.

– Million so‘mlik quyma oltinning og‘irligi taxminan uch yuz yigirma ikki kilogramm keladi...

– Undan og‘irroq emasmi? – deb so‘radi soddadillik bilan Jildas Tregomen.

Antifer tog‘a unga qiyg‘ir qarash qilib qo‘ydi. Bu gapning hech qanaqangi kinoya-pichingsiz aytilganiga qanoat hosil qilgach, o‘dag‘aylab berishdan o‘zini tiyib:

– Illo, – davom etdi so‘zida u, – agar bir millionning og‘irligi uch yuz yigirma ikki kilogramm bo‘lsa, unda yuz millionning og‘irligi o‘ttiz ikki ming ikki yuz kilogramm keladi...

– E-e!.. – xitob qildi Tregomen. – Qo‘y-e, opqochma buncha!

– Xo‘sh, qani ayt-chi, har qaysisi yuz kilogrammdan ko‘targanida bu yuz millionni tashish uchun qancha odam kerak bo‘ladi?

– Gapiraver, qariya, gapiraver...

– Uch yuz yigirma ikki kishi kerag-a! Zero, biz bor-yo‘g‘i uch kishi ekanmiz, mening orolimda qanday mushkulliklar boshimizga tushishini bir xayolingga keltirib ko‘rgin-a! Baxtimga mening boyliklarim asosan olmos va qimmatbaho toshlardan iborat.

– Chindan ham amakim haq gapni aytyapti, – deb tasdiqladi Jyuel.

– Unda bu baraka topgur Komulk poshsho ishni juda boplagan ekan, – deb qo‘shib qo‘ydi ularga Tregomen.

– Boplaganda qandoq! – xitob qildi Antifer tog‘a. – Olmoslarni Parij yoki London zargarlariga pullash juda oson... Juda ajoyib savdo bo‘ladi, do‘stlarim, rosa zo‘r savdo bo‘ladi!.. Illo, turgan gapki, barini sotmayman... yo‘q-yo‘q, hammasini yammas!

– Nima, bir qisminigina sotasanmi?

– Xuddi shunday, qayiqchi, shunday! – deya javob berarkan Antifer tog‘aning beti pir-pir uchib, ko‘zlaridan uchqun chaqnab ketdi. – Xuddi shunday!.. Avvalo, bittasini o‘zimga olib qolaman... million frank turadiganini... uni ko‘ylagimga taqib yuraman.

– Ko‘ylagimga taqib yuraman! – deya takrorladi uning gapini Jildas Tregomen. – Unda hammaning ko‘zini qamashtirib yuborasan-ku! Unaqada senga qarab bo‘lmaydi...

– Bittasini Enogatga qoldiraman, – so‘zida davom etdi Antifer tog‘a. – Uni taqib yursa gul-gul ochilib ketadi...

– Yo‘g‘-e, amaki. Hozirgi turishidan ham chiroyli bo‘lishi mumkinmi, axir? – deb uning gapini bo‘ldi Jyuel shosha-pisha.

– Xo‘p, xo‘p, jiyan, xo‘p... Uchinchisini bo‘lsa opamga beraman!

– Suluv Nanonimizga-ya! – xitob qildi Jildas Tregomen. – U Porkon de la Barbin ko‘chasidagi nozanin xonimdan ham bezanib ketadi-ku!.. Menga qara, mabodo uni tag‘in birovga uzatmoqchiasmisan?

Antifer tog'a yelkalarini uchirib qo'yib, so'zida davom etdi:

– To'rtinchi olmosni senga beraman, Jyuel. Ajoyibini. Sen uni to'g'nag'ichdek ko'kragingga taqib yurasan...

– Rahmat, amaki.

– Beshinchisi senga, qayiqchi!

– Menga?.. «Go'zal Ameliya»ning tumshug'iga qadab qo'yganimi?..

– Yo'q, qayiqchi, sen uni barmog'ingga taqib yurasan... Uzuingga... kattakon ko'z qilib olasan...

– Qip-qizil so'laqmonday barmog'imga uzuk taqsam, juda qiziq bo'ladi-ku!.. Qashshoq katolik monaxlariga paypoq qanchalik yarashsa, bu ham menga o'shanchalik yarashar deyman, – e'tiroz bildirdi Tregomen, uzuk taqishdan ko'ra yo'g'on kema arqonini smolalashga mos bahaybat qo'lini ko'rsatib.

– Hech qisi yo'q, qayiqchi! Seni yoqtiradigan birorta ayolni uchratib qolishing mumkin hali...

– Kimni nazarda tutyapsan, qariya? Rost, sen-servanlik bitta go'zal beva baqqol bor...

– Boqqol xotin, boqqol xotin!.. unga qarab o'shqirib berdi Antifer tog'a. – Mundoq o'ylab ko'rasanmi o'zi, o'sha baqqol xotining Enogat shahzodaga tegib, Jyuel malikaga uylangach, bizning xonadonimizga qaysi yuz bilan kirib keladi?

Shu bilan suhbat uzildi, amakisining hamon puch, bo'lmag'ur orzular osmonida parvoz qilib yurgani haqida o'ylarkan, yosh kapitan og'ir xo'rsinib qo'ydi... Bordi-yu baxtga qarshi, ha-ha, aynan baxtga qarshi, amakisi o'sha millionlarni qo'lga kiritisa, uni oqilona yo'lga solib bo'pti.

– Mutlaqo aqldan ozadi, ish shunday davom etaversa tez kunda shunaqa bo'ladi, – dedi Jildas Tregomen Jyuelga, ikkovlari yolg'iz qolishganda.

– Ana shunisidan qo'rqaman-da! – deb javob berdi Jyuel o'zicha allanimalar deb g'o'ldirayotgan amakisi tomonga qararkan.

Ikki kundan so'ng, 22-martda «Oksus» Maskat portiga yetib keldi va uch matros Binni Umarni kayutadan ko'tarib chiqishdi. Yo piray, kimga o'xshab qolibdi-ya!.. U xuddi skeletning o'zginasi edi... yoxud, aniqrog'i, naq mo'miyolangan murdaning o'zi edi, chunki bu baxti qaro notariusning ustixoniga yopishib ketgan terisigina qolgandi.

O'N IKKINCHI BOB

Soukning Komulk poshsho xazinasining yarmiga ega bo'lish maqsadida bu boylikning ikkinchi yarmini qurbon qilishga qaror bergani

Jyuel Jildas Tregomenning iltimosi bilan Maskatning qayerda joylashganini xaritadan ko'rsatgannda u o'z ko'zlariga ishonmadi. Bizga ma'lum bo'lgan va faqat Rans bo'ylab qatnagan «Go'zal Ameliya»ppng kapitani shuncha olis yerga... ha-ha, shuncha olis yerga... Osiyo sohillariga kelib qolibdi-ya!

– Shunday qilib, Jyuel, Arabistonning eng chekkasidamizmi hozir? – deb so'radi Tregomen ko'zoynagini to'g'rilab qo'yarkan.

– Ha, janob Tregomen, Arabiston yarim orolining janubi-sharqiy chekkasidamiz.

- Manavi voronkaga o'xshagan qaysi ko'rfaz?..
- Bu Ummon ko'rfazi.
- Qo'yning pochasiga o'xshagani-chi?
- Bunisi Fors qo'ltig'i.
- Ularni tutashtirib turgan bo'g'oz-chi?
- U Ormuz bo'g'ozi.
- Do'stimizning oroli qayerda?
- U Ummon ko'rfazining qayeridadir joylashgan.

- Basharti u chindanam bo'lsa! - deb qo'ydi Tregomen, Antifer tog'aning eshitmasligiga qanoat hosil qilgach.

Ellik uchinchi va ellik yettinchi meridianlar bilan yigirma ikkinchi va yigirma yettinchi parallellar oralig'ida joylashgan Maskat imomati uzunligi besh yuz qirq, eni ikki yuz sakson kilometrlik maydonni egallagan. Bunga yana Loris-tondan Mohistongacha cho'zilgan kambargina Fors sohilini, Ormuz hamda Qistrim qirg'oqlarining bir qismi; Afrikaning ekvatoridan Delgadu burnigacha bo'lgan qismi - Zanzibar, Malindi, Sofala ham qo'shiladi. Agar shu yerlarning hammasi birga qo'shib olinsa, unda imomatga qarashli yer besh ming kvadrat kilometrni tashkil etadi - bu esa Fransiya egallagan maydonga yetib qoladi. O'n millionlik aholisi arab, fors, hind va ko'pchilikni tashkil etgan negrlarga bo'linadi. Binobarin, imom bir qadar diqqat-e'tiborga sazovor hukmdordir.

«Oksus» ko'rfazi bo'ylab tegrasi qadimiy feodal qasru saroylarning xarobalarini eslatuvchi baland va tik qoyalar bilan o'ralgan, giyoh unmaydigan dashti-biyobon sohilni yoqalab Maskat tomon suzib borardi. Sohilning sal ichkarirog'ida

balandligi besh yuz metrğa yetadigan bir necha dumaloq tepalik osmonga bo'y cho'zib turardi, bu dengiz sathidan uch ming fut balandlikka ega bo'lgan Jobil-Ahbor tog' tizmasining boshlanishi edi. Bu o'lka yerlarining hosil bermasligidan taajjublanmasa ham bo'ladi, chunki uni sug'oradigan biron-bir sersuv daryo yo'q edi-da, axir. Shunga qaramay, harqalay, bu yerning oltmish ming kishilik aholisi poytaxt atrof-tevaragidan olinadigan hosil hisobiga oziq-ovqat bilan ta'minlanadi. Maskat tevaragidagi uzumzorlar, mango⁵⁶, shaftoli, anjir, anorzorlar, limon va xurmozorlardan behisob hosil olinadi, polizlarda mo'l-ko'l tarvuzlar yetishtiriladi. Arab tuprog'ining eng qimmatli daraxti xurmo. Bu yerlarda mulk-amlokning bahosi va daromadi xurmo daraxtlarining soniga qarab belgilanadi hamda Fransiyada: «Ikki yoki uch yuz gektarlik uchastka» deyilganidek: «Uch yoki to'rt ming tup xurmoli amlok», deb gapirishadi.

Imomat – avvalo savdo-tijorat ishlari bilan shug'ullanadigan davlat edi, chunki imom faqat oliy hukmdor va shayxulislomgina bo'lib qolmay, o'z mamlakatining bosh savdogari ham edi. Uning davlati ixtiyorida hajmi o'ttiz yetti ming tonnalik ikki mingtacha kemasi bor edi. Harbiy floti esa yuzlab zambaraklar bilan qurollangan yuzta kemadan iborat edi. Yigirma besh ming kishilik qo'shinga ega edi. Imomning daromadiga kelsak, u yigirma uch million frankka yetardi. Shaxsan o'zining beshta kemasi bo'lishiga qaramay, yana

⁵⁶ Mango – tropik mamlakatlarda o'sadigan, shirin va xushbo'y isli mevali daraxt. Mevasi zarg'aldoq tusli bo'lib, kattaligi olmaday keladi.

o'z fuqarolarining kemalarini ham o'z manfaati yo'lida ishlatishga haq-huquqli edi, bu esa uning tijorat ishlarini keng ko'lamda olib borishiga imkoniyat tug'dirardi.

Nihoyat imom 1507-yili d'Albukerki tomonidan zabt etilgan, keyinroq Portugaliya asoratidan qutulgan davlatning hokimi mutlaqidir⁵⁷. Bundan yuz yil muqaddam o'z ozodligini qo'lga kiritgan Maskatni inglizlar qo'llab-quvvatladilar⁵⁸, chunki ular Ispaniya Gibraltari, Adan Gibraltari va Perim Gibraltari qatori Fors ko'rfazida ham yana bir Gibraltarga erishish umidida edilar. Bu tirishqoq anglo-sakslar, ko'rinib turibdiki, yer sharidagi barcha bo'g'ozlarni «gibraltarlashtirish» niyatidaga o'xshaydilar.

Qiziq, Fransiyaning tark etishdan avval Antifer tog'a va uning hamrohlari Maskat haqida siyosiy, sanoat va savdo-tijoratga oid biror axborot to'plaganmidilar?

Aslo, buni hatto xayollariga ham keltirmagan edilar.

Bu mamlakat salgina bo'lsa-da, ularni qiziqtirarmidi?

Mutlaqo, zeroqi ularning butun diqqat-e'tiborini shu ko'rfazdagi orolchalardan bittasigina band etgandi.

⁵⁷ Affonsu d'Albukerki (1453 – 1515) – portugaliyaning Hindistondagi umri qisqa mustamlakachilik imperiyasiga asos solgan foh. Maskat portugallar asoratidan 1650-yilda xalos bo'lgan.

⁵⁸ 1800-yildan boshlab Maskat ingliz siyosiy agentining rezidensiyasi bo'lib qoladi. O'sha vaqtdan e'tiboran O'mmunda hokimiyat aslida inglizlar qo'lga o'tadi.

Biroq o'z safarlaridan foydalanib, garchi umuman bo'lsa-da, bu mamlakatning hozirgi ahvoli-sharoiti bilan tanishish niyatlari yo'qmikin?

Bor, zero ular Arabistonning ana shu burchidagi Fransiyaning rasmiy vakili bilan uchrashishga qaror bergandilar.

Nahotki Maskatda Fransiya vakili bo'lsa?

Ha, 1841-yili imom bilan Fransiya hukumati o'rtasida shartnoma tuzilgandan keyin vakil yuborilgan edi.

Bu yerda rasmiy fransuz vakili bo'lishining nima hojati bor?

U taqdir taqozosi bilan yo'llari Hind okeani sohillariga tushib qolgan vatandoshlariga zarur bo'lgan ma'lumotlarni berib turish uchun kerak edi.

Per-Servan-Malo fransuz vakili huzuriga tashrif buyurishni lozim topdi. Darhaqiqat, bu uch fransuzning hech narsadan hech narsa yo'q Maskatda paydo bo'lishi yaxshi tashkil etilgan, hushyor mirshabxonaning nazarida shubha uyg'otishi turgan gap edi, ular bu yerga kelishdan maqsadlari nima ekanini ishonarli qilib tushuntirishlari lozim edi, lekin o'z rejalarini oshkor etmasliklari ayon edi, albatta.

«Oksus» Maskatda qirq sakkiz soat tuxtab turgach, yo'lga tushishi va Bombay tomon jo'nashi kerak edi. Antifer tog'a, Tregomen va Jyuellar kema bu yerga yetib kelishi bilanoq qirg'oqqa tushishdi. Nozim bilan Binni Umarga e'tibor ham berishmadi, albatta. Notarius bilan uning gumashtasi fransuzlarga bemaolol ergashib borishlari va Ummon ko'rfazidagi orolni izlashga tushishlari bilanoq

ularga qo'shilishlari uchun to'liq imkoniyat berilgan edi.

Antifer tog'a oldinda, Jyuel o'rtada, Jildas Tregomen ortda o'sha zamon Vavilonining⁵⁹ xiyobon va ko'chalaridan yurib, yo'l boshlovchi orqasidan ingliz mehmonxonasi tomon shoshilib borishardi.

Yuklari ham orqalaridan kelayotgandi. Sen-Malodan sotib olingan sekstant bilan xronometrni, ayniqsa xronometrni, juda avaylashardi. Hatto taxtiravondagi muqaddas in'omlarni ham bunchalik ehtirom bilan olib borilmasdi. Antifer tog'a esa xronometrni shaxsan o'zi avaylab ko'tarib olgan edi. Axir bir o'ylab ko'ring-a: o'sha mashhur orol joylashgan geografik uzunlikni aniqlashga yordam beradigan asbob-ku bu! Uni har kuni qanday aniqlik bilan burashganini qo'yaverasiz! Uning aniq yurishiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan silkinishdan saqlash uchun qanday ehtiyot choralarini ko'rishmadi, deysiz. Parij vaqtini saqlashi lozim bo'lgan bu asbobga bizning maluinimiz shu qadar g'amxo'rlik qildiki, hech bir er zoti ikki dunyoda o'z xotiniga bunchalar g'amxo'rlik qilmasa kerak.

Maskatga tushgan Tregomen o'zini bu yerda ko'rib, xuddi Lyudovik XIV ning saroyiga to'satdan kirib qolgan Genuya dojiday ang-tang bo'lib qoldi.

⁵⁹ Vavilon – qadimiy shahar, zabur rivoyatlariga ko'ra bu shaharning aholisi osmonga yetadigan minora qurmoqchi bo'lishgan, bundan Xudoning qahri kelib, ularning tillarini bir-birovi tushunmaydigan aralash-quralash qilib yuborgan emish, shundan keyin minora chala qolgan emish. Bu yerda Vavilon aholisi turli-tuman tilda gaplashadigan shahar ma'nosida keltirilgan.

Mehmonxonadan o'zlariga xona tanlab olganlaridan keyin sayohatchilarimiz Fransiya vakili huzuriga jo'nadilar. U bo'lsa o'z ostonasida uch vatandoshini ko'rib suyunganidan hayratda qoldi.

Bu kishi ellik yoshlar chamasidagi Jozef Bard ismli provanslik edi. U paxta, gazmol, hind ro'mollari, xitoy shohilari, zarbof – xullasi Sharqning badavlat kishilari ehtiyoji zo'r bo'lgan buyumlar bilan savdo qilardi.

Basharti fransuz fransuznikiga, buning ustiga provanslik qadam ranjida qiladigan bo'lsa hech qancha vaqt o'tmayoq inoqlashib oladilar.

Uy egasi ular bilan qo'l olishib ko'rishib, muzdekkina orombaxsh ichimliklardan taklif qilgandan keyin, mehmonlardan bu sayohatdan maqsadlari nima ekanini so'radi.

– Bu yerga vatandoshlarim kamdan-kam tashrif buyuradilar, – dedi u. – Sizlarni o'z uyimda ko'rib boshim osmonga yetdi, janoblar. Butun vujudim bilan xizmatlaringizga hozirman.

– Mehmondo'stligingizdan bag'oyat xursandmiz, – dedi Antifer tog'a, – basharti bizga bu mamlakat haqida ba'zi bir ma'lumotlarni so'zlab bersangiz katta iltifot ko'rsatgan bo'lardingiz.

– Olamni ko'rish, tomosha qilish maqsadida sayohat qilib yurgan bo'lsalaringnz kerak-a?..

– Bunga ham ha, ham yo'q deb javob bersak bo'ladi, janob Bard. Uchalamiz ham dengizchilarmiz. Jiyanim Jyuel – olisga suzadigan kema kapitani, Jildas Tregomen – «Go'zal Ameliya»ning sobiq komandiri.

Bu safar Tregomenni taajjubga solgan narsa shu bo'ldiki, Antifer tog'a gabara haqida go'yo

fregat yoki harbiy kema haqida gapirayotganday so'zladi.

– O'zim bo'lsam yaqinga, qirg'oq bo'ylab qatnaydigan kema kapitaniman, – deb qo'shib qo'ydi Antifer tog'a g'urur bila. – Sen-Malodagi salmoqli firmalardan biri yo Maskatda, yoxud Ummon, yoki Fors qo'ltig'idagi biron portda o'z bo'limiga asos solish uchun vakolat bergan.

Jozef Bardning xayoliga, bu ishga qo'shilsam katta foyda olaman, degan fikr keldi.

– Kapitan, – dedi u, – bu niyatlaringizni olqishlayman va rejalaringsizni nihoyasiga yetkazishda yordam berishga tayyorman.

– Unday bo'lsa, – dedi Jyuel, – bizga maslahat bersangiz: savdo idoramizni Maskatda ochganimiz ma'qulmi yoki sohilga joylashgan biror boshqa shahardami?

– Maskatda bo'lgani ma'qulroq, albatta, – deb javob berdi vakil. – Bu portning ahamiyati kun sayin ortib boryapti, chunki u Eron, Hindiston, Mavrikiy va Reyunon⁶⁰ orollari, Zanzibar hamda Afrika sohillaridagi mamlakatlar bilan savdo qiladi.

– Bu yerdan qanday buyumlar chetga chiqariladi? – deb qiziqsindi Jildas Tregomen.

– Xurmo, mayiz, baliq, oltingugurt, gummiarabik (daraxt yelimi), kopal⁶¹, toshbaqa kosalari, karkidon shoxi, o'simlik moyi, kokos yong'og'i, guruch, jo'xori, qahva va mahalliy aholi tayyorlaydigan shirinliklar chetga chiqariladi...

⁶⁰ Mavriki va Reyunon – Hind okeanidagi Maskaren guruhiga kiruvchi orollar.

⁶¹ Kopal – o'simliklar turiga kiruvchi yerdan qazib olinadigan qatron, yuqori sifatli lok olishda ishlatiladi.

– Shirinliklar deysizmi? – deb qaytarib so‘radi Tregomen og‘zidan suvi kelib.

– Ha, – deya javob berdi Jozef Bard, – shirinliklar, bu yerda holva deyiladigan shirinlik asal, shakar, dondan olingan oqsil va bodom mag‘izini qo‘shib qaynatib tayyorlanadi.

– Qani endi o‘sha mazali shirinlikdan bir tatib ko‘rsam, do‘stlarim.

– Xohlaganingcha tatib ko‘raver!.. Illo, – deb gapini davom ettirdi Antifer tog‘a, – ishga qaytaylik. Biz Maskatga holva yeb maza qilgani kelganimiz yo‘q. Janob Bard iltifot ko‘rsatib, chetga chiqariladigan asosiy buyumlarni aytib berishga rozilik berdilar...

– Buning ustiga Fors qo‘ltig‘ida olib boriladigan marvarid ovini qo‘shish kerak, – dedi vakil, – bu ov yiliga sakkiz million frankkacha daromad keltiradi...

Bu gapni eshitgan Antifer tog‘aning afti qanday bujmayganini bir ko‘rsangiz edi! Yuz million franklik qimmatbaho toshlari bo‘lgan odam yiliga sakkiz million frank daromad keltiradigan marvarid qidirishdek ishni nazarga ilarmidi!

– Rost, – deb so‘zida davom etdi Jozef Bard, – marvarid savdosi batamom hind savdogarlari qo‘lida, ular raqobatga yo‘l qo‘ymaydilar.

– Hatto Maskatdan tashqarida ham-a? – deb so‘radi Jyuel.

– Ha, hatto Maskatdan tashqarida ham, yana shuni aytib qo‘yayki, bu savdogarlar... horijiy yurtlardan kelganlarga ko‘z olaytirib qaraydilar.

Jyuel bunday javobdan foydalanib, suhbatni boshqa tomonga burib yubordi.

Imomatning poytaxti 50°20' sharqiy uzunlik bilan 23°38' shimoliy kenglik oralig'ida joylashgan. Orolning koordinatlarini e'tiborga olinsa, uni xuddi shu yerdan izlash kerak. Asosiy masala maluin savdo idorasi uchun qulay joy topish bahonasi bilan Maskatdan chiqib olish edi. Shuning uchun Jyuel Maskatda joylashishdan avval boshqa yerlarni ham borib ko'rsak ma'qul bo'lardi, dedi va bu atrofdagi sohilga joylashgan shaharlardan yana qaysilari imomatga qarashini so'radi.

– Ommon, – deb javob berdi Jozef Bard.

– Maskatdan shimoldami u?

– Yo'q, janubi-sharqida.

– Shimoli yoki shimoli-g'arbida-chi?

– Muhimrog'i Rostak.

– Ko'rfaz yoqasidami?

– Yo'q, mamlakat ichkarisida.

– Sohilda-chi?

– Soxor.

– Bu yerdan ancha olisdami?

– Taxminan ikki yuz kilometrcha narida.

Jyuel bu javob juda muhim degandek amakisiga ko'z qisib qo'ydi.

– Haligi... Soxor savdo shahrimi?

– Ha, savdo shahri. Ba'zan, a'lo hazratlarining xayoliga kelib qolganda o'sha yerda vaqt o'tkazadilar...

– A'lo hazratlari dedingizmi? – qaytarib so'radi Jildas Tregomen.

Aftidan, imomni Turkiya sultoniga tegishli bo'lgan bu unvon bilan ulug'lagani Tregomenga g'alati tuyulgandi Jozef Bard imomni shunday deb ulug'lashni hurmat alomati deb bilardi.

– A'lo hazratlari hozir Maskatdalar, – deb qo'shib qo'ydi u, – joylashadigan shaharni tanlab bo'lganlaringdan keyin, ruxsat olish uchun unga murojaat qilishinglar lozim.

– Umid qilamanki, a'lo hazratlari iltimosimizni rad etmas? – deb so'radi maluin.

– Aksincha, – dedi vakil, – a'lo hazratlari o'z manfaatlarini ko'zlab xursand bo'ladi.

Antifer tog'a shohona tortiq qilishga tayyor ekanini anglatmoqchi bo'lib iljayib qo'ydi.

– Soxorga qanday borgan ma'qul? – deb so'radi Jyuel.

– Karvon bilan.

– Karvon bilan!.. – xitob qildi Tregomen bezoztalanib.

– Ha, – davom etdi Jozef Bard, – bu yurtida temir yo'l u yoqda tursin, hali hatto dilijon ham yo'q. Bu yerlarda, agar piyoda yurgilari kelmasa, ikki g'ildirakli izvoshda yoki xachir minib yurishadi...

– Bunaqa karvonlar tez-tez yo'lga chiqib turmasa kerak-a? – deb so'radi Jyuel.

– Aksincha, – dedi vakil, – Maskat bilan Soxor orasidagi savdo juda qizg'in, xuddi ertaga...

– Ertaga deysizmi? – deb uning gapini bo'ldi Antifer tog'a. – Juda soz! Demak, ertaga karvonga qo'shilib yo'lga tusharkanmiz-da!

Karvon bilan yo'lga chiqish Jildas Tregomenga yoqmadi, uning nuroniy yuzi burishdi. Biroq u Maskatga o'z do'stiga gap qaytarish uchun kelmagandi, shu boisdan har qanday qiyinchiliklarga qaramay, xohlasa-xohlamasa safarga chiqishga ko'nishga majbur edi.

Shunday bo'lsa-da, Tregomen Maskatdan Soxorga qilinadigan safar borasidagi ba'zi mulohazalarni o'rta ga tashlamoqchi ekanini aytdi.

– Mayli, gapir, – deb ruxsat berdi Antifer tog'a.

– Gap bunday, – dedi Jildas Tregomen, – uchalamiz ham dengizchilarmiz-a, shunday emasmi?

– Ha, uchovimiz ham, – deb tasdiqladi uning gapini Antifer tog'a, lekin o'zini tutib turolmay, «Go'zal Ameliya»ning sobiq egasiga mug'ombirona ko'z qisib qo'ydi.

– Men tushunolmay qoldim, – deb so'zini davom etdirdi Tregomen, – shunday ekan, nega endi Soxorga dengizdan bora qolmaymiz-a. Ikki yuz kilometr... mustahkamgina kemada...

– Rost, nimaga shunday qilmaymiz? – uning gapini ma'qulladi Antifer tog'a. – Jildas haq. Shunda vaqtdan yutamiz...

– Shubhasiz, – deb javob berdi Jozef Bard, – lekin bu ba'zi bir xil xatardan xoli bo'lganida, men ham avvalambor shuni maslahat bergan bo'lardim...

– Qanaqa xatar? – deb so'radi Jyuel.

– Bilasizlarmi, janoblar, Ummon ko'rfazi unchalik xatarsiz emas. Birorta katta savdo kemasida, ko'pchilik bilan birga ketganlaringda hech nimadan cho'chimasa bo'lardi...

– Cho'chimasa bo'lardi? – deb shang'illadi Antifer tog'a. – Bo'rondan cho'chirkanmizmi? Po'rtanadan qo'rqish keragakanmi?..

– Yo'q, Ormuz bo'g'ozida to'satdan paydo bo'lib qoladigan dengiz qaroqchilaridan...

– Ming la'nat! – beixtiyor og'zidan chiqib ketdi maluinning.

Xavotirlanishida jon bor edi. U boyliklarini olib qaytayotganda qaroqchilarga yo'liqib qolishdan cho'chigandi.

Vakil ogohlantirib qo'ygach, safarchilarimiz oqilona qarorga keldilar: basharti dengiz orqali orqaga qaytolmas ekanlar, u yoqqa dengizdan borishning ham hojati yo'q. U yoqqa ketadigan karvonga qo'shilib borishadi-yu, boshqasiga qo'shilib qaytishadi, ana shunda safarlari bexatar bo'ladi. Shu sababli Jildas Tregomen karvonga qo'shilib yo'lga tushishga majbur bo'ldi-yu, ammo nimaga o'tirib yoxud nimaga minib borarkinman degan o'y ko'nglini g'ash qilib qo'ydi.

Shu bilan suhbat tugadi.

Uchala fransuz ham hamyurtlari bilan qilgan suhbatlaridan mamnun edilar. Vakilga qaytgalaridan keyin huzuriga albatta kirishlarini... uni hamma ishdan xabardor etib turishlarini va faqat uning maslahati bilan ish ko'rajaklarini aytishdi... Gap orasida ayyor Antifer tog'a hatto ular ta'sis etadigan savdo idorasi katta-katta savdo ishlarini bajarajagini, buning vakil hamyoniga ham nafi tegishi mumkinligini qistirib ketdi.

Mehmonlar bilan xayr-ma'zur qilarkan, Jozef Bard ularga a'lo hazratlari huzuriga tashrif buyurishlarini maslahat berib, bunday e'tiborli horijiy do'stlar uchun shaxsan o'zi ruxsat olishga urinib ko'rajagini aytdi. Shundan keyin yuqorida nomlari zikr etilgan hurmatli zotlar mehmonxonaga qaytishdi.

Bu orada o'sha mehmonxonaning xonalaridan birida Binni Umar bilan Nozim o'rtasida kengash borardi. Bu kengash Soukning qo'poldan-qo'pol haqoratlari va do'q-po'pisalari ostida o'tayotganini anglash mushkul emasdi, albatta.

Soxta gumashta bilan notarius Maskatga yetib olishdi. Juda soz. Biroq ular safarlarining nihoyasi Maskatmi, yo'qmi, bilishmasdi. Antifer tog'a yana yo'lda davom etmasmikin? Bor gapni Antifer tog'adan aynan u, shu ahmoq Umar bilib olishi zarur, chunki notariusning buni so'rashga haqi bor-ku, axir. Lekin u o'zining soxta gumashtasidan ortiqroq narsa bilmasdi.

– Odām yo'lda o'lat tekkan hayvonday madordan ketib qolsa, buning oqibati ana shunaqa bo'ladi! Sog'lom, tetik bo'lishning qanchalik zarur ekanligini nahotki tushunmasang?!

Notarius ham xuddi shunday fikrda edi. Albatta, o'sha firibgar fransuz bilan gaplashib, uning sirini boyliklarning qayerga ko'milganini bilib olish kerak edi...

– Xotirjam bo'ling, janobi oliylari, – dedi u, – men shu bugunoq Antifer bilan uchrashib, hammasini bilib olaman. Faqat, yana kemaga tushmasak bo'lgani!..

Komulk poshsho merosxo'rining boylikni qayerdan izlamoqchi ekanini bilish, harqalay, ishga xalal bermasligi lozim. Axir vasiyning hozir bo'lishi vasiyatnomada qayd qilingan-ku, basharti bu vasiy Binni Umar ekan, shubhasiz Antifer tog'a ochiq javob berishdan bo'yin tovlayolmaydi. Ammo orolcha topilib, o'sha uchta bochkacha yerdan kavlab olingach, Souk ularni egasidan qanday tortib ol-

moqchi? Notarius bilan bo'lgan suhbatlarda tez-tez ana shu savol tug'ilar, nima deb javob berishini o'zi ham bilmagani sababli Souk hamma vaqt indamay qo'ya qolardi. Lekin Souk bu boylikni o'ziniki deb hisoblar, uni Komulk poshsho allaqanday bir chet ellikka vasiyat qilib qoldirib, bu boylikdan meni nohaqdan-nohaq judo qilgan deb hisoblar va boylikni qo'lga kiritishda hech narsadan toymasligi shubhasiz edi. Xuddi ana shu narsa notariusni hamma narsadan ko'ra ko'proq cho'chitardi, bu yuvosh, qo'rqqoq odam hamma ish osoyishta, hech qanday zo'rliksiz bitishini ma'qul ko'rardi. Boshqalarni qo'yavering-u, lekin u Souk janoblarining inson hayotini pashshachalik ko'rmasligini juda yaxshi bilardi. Biroq, eng muhimi uchala maluin ortidan qadam-baqadam ergashib yurish, qidiruv paytida ularni ko'zdan yo'qotmaslik, xazinani kavlash vaqtida ustida bo'lishdir. Xazina qo'lga kimgach esa sharoitga qarab ish tutish kerak.

Souk shunday qarorga kelarkan, Binni Umarni ming turli do'q-po'pisalar bilan qo'rqitib, bundan buyongi hodisalarning borishidagi butun mas'uliyatni uning zimmasiga yukladi. Keyin Souk bechora notariusga Antifer tog'a mehmonxonaga qaytishi bilanoq, fursatni boy bermay, u bilan gaplashishni qat'iyan buyurib, chiqib ketdi.

U kechqurun qaytdi. Antifer tog'a xayolan bu yerdan bir necha o'n kilometr naridagi, Soxorning sharq tomonidagi oroli yashirinib yotgan joylarda sayr qilib yurgan bir paytda Jildas Tregomen bilan Jyuel Maskat ko'chalarida huzur qilib tentirashardi. Tog'adan imomatning poytaxti qanday

taassurot qoldirganini, ko'chalar gavjummi, yo'qmi, do'konlar oldida xaridorlar ko'pmi, bu yerda yas-hovchi millatlar – arablar, hind va eronlarning o'ziga xos xususiyatlari nima ekan, deb so'rash befoyda bir gap edi, albatta. U hech narsani ko'rishni ham, bilishni ham istamasdi. Lekin Jyuel bilan Tregomen o'zining sharqqa xos fazilat va xususiyatlarini saqlab qolgan bu shaharni zo'r qiziqish, zavq-shavq bilan tomosha qilishardi. Turli-tuman, rang-barang buyumlar – sallaliklar, belbog'lar, jun chakmonu ip gazlamalar, sirlangan va yarqirab ko'zni qamashtiradigan katta-katta xumu ko'zalar uyulib yotgan do'konlar oldida to'xtab o'tishardi. Bu chiroyli, ajoyib buyumlar-dan ko'zi qamasharkan, Jyuel ichida, bularni Eno-gat bir ko'rsa rosa quvonardi-da, deb o'ylardi. Bunday mohirlik bilan yasalgan nozik bezagu ta-qinchoqlar qanchalar huzur bag'ishlardi-ya unga! Bu oddiygina sovg'alar tog'aning olmoslaridan ko'ra ortiqroq suyuntirmasmidi uni?

Jildas Tregomen ham xuddi shu haqda o'ylardi. Go'yo yosh do'stining xayolidagini uqib olayotgandek:

– Kel, manavi marjonni olamiz, qaytib borganimizdan keyin uni jajji qizimizga sovg'a qilasan, – dedi u.

– Qaytib borganimizdan keyin! – deb takrorladi Jyuel xo'rsinib.

– Manavi uzukni ham olamiz. Chiroyliligini qara!.. Nega endi bitta uzuk olarkanmiz? O'ntasini olamiz! Uning har bitta barmog'iga bittadan taqib qo'yamiz...

– Nimalarni o'ylayotganiykin shu topda bechora Enogatim? – deb pichirladi Jyuel.

– Albatta seni-da, bo'tam! Fikri-yodi hamisha senda bo'ladi.

– Bizni yuzlab le keladigan hijron jarligi ajratib turibdi!..

– Aytganday, – uning gapini bo'ldi Tregomen, – janob Jozef Bard bizga rosa maqtagan anavi holvadan bir ko'zasini unga olishni esdan chiqarmasak bo'lgani!..

– Lekin, – e'tiroz bildirdi Jyuel, – avval o'zimiz tamini tatib ko'rib, keyin olganimiz ma'qul emasmikin...

– Yo'q, bo'tam, yo'q! – deya e'tiroz bildirdi Jildas Tregomen ham. – Men bu shirinlikni birinchi bo'lib Enogat yeyishini istayman.

– Bordi-yu, unga holva yoqmasa-chi?

– Yoqadi, chunki uni sen olib borasan, buning ustiga shuncha olis joydan olib borasan-a!

Garchi na Sen-Malodagi, na Sen-Servandagi, na Dinardagi ayollarning birortasi Tregomen xonim bo'lishni hatto xayoliga keltirmagan bo'lsa-da, bu ajoyib odam yosh qizlarning qalbini juda yaxshi bilardi...

Qisqasi, ular imomat poytaxti bo'ylab qilgan sayllaridan aslo afsuslanishmadi. Bu shaharning ozodaligi va batartibligiga ko'pgina Yevropa shaharlari havas qilsa arzigudek edi, albatta ularning ona shahri Sen-Malo mustasno bundan. Antifer tog'aning fikricha u dunyodagi eng yaxshi shahar edi.

Bundan tashqari, Jyuel ko'chalarda izg'ib yurgan, yaxshigina ta'lim olgan, nihoyatda sergak

mirshablarni allaqachon payqab olgandi. Ular talaygina edi.

Mirshabxona izquvarlari Maskatga kelib, kelish sababini bayon etmagan har bir muhojirning bosgan qadamini nazardan qochirmasdilar. Ba'zi bir Yevropa mamlakatlaridagi pasport talab qilib, o'rinsiz savol-javob uyushtirib, bo'lar-bo'lmasga tergaydigan politsiyaning aksicha, bu yerning mirshablari, aftidan, ular qayerga bormasin uchala maluinning ortidan indamaygina kuzatish bilan kifoyalanardilar, xolos. Darhaqiqat, bu yerning udumiga ko'ra, imomat tuprog'iga qadam qo'yarkanlar, imomni o'z rejalaridan xabardor etmay turib, ularning bu mamlakatni tark etishlari amri mahol edi.

Haytovur Antifer tog'a buni xayoliga ham keltirmasdi, yo'qsa o'z maqsadining oqibati xunuk bo'lishidan xavotirga tushib qolgan bo'larmidi. O'z manfaati yo'lida jon kuydiruvchi a'lo hazratlari Ummon ko'rfazidagi orolchada yotgan yuz millionlik xazinani olib chiqib ketishga o'la qolsa izn bermas. Agar Yevropa davlatlari o'z tuprog'idan topilgan xazinaning faqat yarmini olib qoladigan bo'lsa, osiyolik hukmdor (uning o'zi davlat hamdir) sira ikkilanmay barini olib qoladi.

Antifer tog'a mehmonxonaga qaytishi bilanoq, Binni Umar o'rinsiz bir savol berishga jur'at etdi. U eshikni astagina qiya ochib, tilyog'lamalik bilan so'radi:

- Bir narsani bilishga ruxsat etsangiz...
- Nimani?
- Janob Antifer, sizdan bir narsani, endi qaysi tomonga borishimizni so'ramoqchiydim.

– Birinchi ko'chadan o'ngga, ikkinchisidan chapga, keyin to'ppa-to'g'riga...

Shunday deb Antifer tog'a eshikni taraqlatib yopib qo'ydi.

O'N UCHINCHI BOB

Jildas Tregomenning "sahro kemasi" da muvaffaqiyatli suzgani

Ertasiga, ya'ni 23-mart kuni tong endi zar kokilini taray boshlagan pallada karvon imomat poytaxtidan chiqib, sohil bo'ylab yo'lga tushdi. Ha, chinakam karvon! Tregomen Il va Vilen viloyatlarida bunaqa karvonni ko'rmagandi. U buni Jyuelga ochiq ko'ngillik bilan aytarkan, yigit sira ajablanmadi. Karvonda yuz chog'li arab va hindlar, taxminan o'shancha yuk ortilgan ulov bor edi. Bunchalik ko'pchilik bo'lib yo'lga chiqilganda quruqlik qaroqchilarining, ular harqalay dengiz qaroqchilaridan xavotirliroq bo'lmasalar-da, to'satdan tashlanib qolishi ehtimoldan xoli edi. Sayohatchilarimizga vakil, ilgariroq aytganidek, yerliklar orasida bir necha savdogar ajralib turardi. Aftidan Soxorga chorlovchi o'z ishlari tashvishida ketayotgan ulgurji tijorat bilan shug'ullanuvchi mahalliy savdogarlar hech handay dabdabasiz, xotirjamgina borishardi.

Muhojirlarga kelsak, ular uch fransuz – Antifer tog'a, Jyuel, Jildas Tregomen va ikki misrlik – Nozim hamda Binni Umardan iborat edi.

Ikkala misrlik shosha-pisha karvonga qo'shilgandilar, albatta. Antifer tog'a ertaga yo'lga

chiqish niyatida ekanini ulardan yashirmagan edi, shuning uchun misrliklar ham yo'l tadorikini ko'rib qo'yishga ulgurgan edilar. O'z-o'zidan ma'lumki, maluin zarracha bo'lsa-da, Binni Umar va uning gumashtasi tashvishini qilmasdi. Xohlasalar, orqalaridan borishlari mumkin – tog'aning ular bilan aslo ishi yo'q.

Antifer bu odamlarni tanishini sezdirmaslikka qat'iy ahd qilgandi. Karvonga qo'shilgan Nozim bilan Binni Umarga ko'zi tusharkan, hatto salomlashmadi. Tregomen esa tog'aning xo'mrayib qo'ygani ko'rib misrliklar tomonga o'girilib qarashga ham botinolmadi.

Yuklar ortilgan va odamlar minib borayotgan ulovlar uch turdan: tuya, xachir va eshaklardan iborat edi. Biror izvosh yoki aravada borishni esa xayolga keltirmasa ham bo'lardi. Bunday past-baland, o'ydim-chuqur, dam-badam botqoqliklar uchrab turadigan yo'lga qanday g'ildirak ham dosh bera olardi deysiz! Shuning uchun ham har kim o'ziga yarasha ulovni minib olgandi.

Amaki-jiyan o'zlariga ikkita baquvvat va yo'rg'a, lekin o'rtacha xachirni tanlab olishgandi. Karvon bilan yurishga o'rgangan xachirlarni tuzukkina haq evaziga yuk tashuvchi ulovlarni ijaraga beradigan maskatlik yahudiylardan olishgandi. Antifer tog'a uchun yuz pistol⁶² ortiqroq sarf qilish nima degan gap edi! Yuz ortig'u yuz kam – bu bilan hisoblashib o'tirarmidi? Yo'q, albatta! Biroq Jildas Tregomenni ko'tara oladigan xachirni har qancha pulga bo'lsa-da topishning

⁶² Pistol – XVIII asr oxirlarida muomaladan chiqib ketgan qadimiy oltin tanga. Bu yerda kinoya tarzida ishlatilgan.

iloji yo'q edi. O'z belida bunday yukni ko'tarib, ellik le yo'l bosishga bu hayvonlar turidan birontasining quvvati yetmasa kerak. «Go'zal Ameliya»ning sobiq egasi uchun xachirdan ko'ra baquvvatroq boshqa bir ulovni topish zarur edi.

– Menga qara, qayiqchi, sen odamni toza ovora qiladigan bo'lding-da! – dedi Antifer tog'a o'ziga xos sipolik bilan, Tregomen uchun keltirilgan hamma xachir chiqitga chiqarilgach.

– Nima ham qilardik, qariya! Meni birga borasan deb majbur qilishning hojati yo'g'iydi... Maskatda qoldirib keta qol meni... Seni shu yerda kuta qolaman.

– Hech qachon!

– Axir meni nimta-nimta qilib, bo'lib oborib bo'lmaydi-ku!

– Janob Tregomen, – gapga aralashdi Jyuel, – tuyaga mina qolsangiz bo'lmasmikin?.. Undan hazar qilmaysizmi o'zi?

– Aslo, bo'tam. Tuya mendan hazar qilmay, ustiga mindirishga ko'nsa bo'lgani.

– Ajoyib fikr! – qichqirib yubordi Antifer tog'a. – Tuyada rosa savlat to'kib o'tirasanda o'ziyam!..

– «Sahro kemasi» deb bekorga aytishmaydida, – qo'shib qo'ydi Jyuel.

– Bo'pti! Mayli, sahro kemasi bo'lsa, sahro kemasi bo'la qolsin! – dedi darrov gapga ko'na qoladigan Tregomen.

Ana shu sababli o'sha tong pallasida u kavsh qaytaruvchilar turining antiqa vakilining ikki o'rkachi o'rtasida savlat to'kib o'tirardi. Bu Tregomenga hatto yoqib qoldi. Balki uning o'rnida

boshqa odam bo'lganida gerdayib ketarmidi. Mabodo Tregomen ko'nglida ana shunday batamom haqli tuyg'uni his etganida ham, sirtidan bu hol aslo bilinmasdi, chunki daryoda qatnovchi kema kapitanining fikri-yodi faqat bir narsaga, o'z kemasini yaxshiroq boshqarish, o'zini ortiqcha chayqalishdan asrash va yo'ldan chetga chiqib ketmaslikka qaratilgan edi. To'g'ri, karvon tezlasharkan, tuya ko'proq lo'killardi. Lekin Tregomenning go'shti shunchalik vazmin ediki, buning oqibatida chayqalish unchalik sezilmasdi.

Karvon ortida borishni afzal ko'rgan Souk usta chavandozlarday ostidagi o'ynoqi xachirni yo'rg'alatib kelardi. Unnig yonida, to'g'rirog'i undan ortda qolib ketmaslik uchun pastakkina eshagini jon-jahdi bilan qichab Binni Umar kelardi. Uning oyog'i yerga tegay-tegay deb turardi, u behosdan yiqilib ketgudek bo'lsa, oyoqlari yerga tiralib qolishini mo'ljallagan edi. Xachirga minsinmidi?.. Shunday balanddan yiqilib tushsinmi? Notarius u dunyo-yu bu dunyo bunga jur'at etolmasdi. Bundan tashqari, arab xachirlari sarkash va asovroq bo'ladi, ularni faqat baquvvat qo'lgina jilovlab yura oladi.

Karvon kuniga o'n ikki ledan yo'l bosar, choshgohda ikki soatdan dam olardi. Basharti tasodifiy to'xtash bo'lmasa, to'rt kundan so'ng karvon Soxorga kirib boradi.

To'rt kun!.. o'z oroliga butun vujudi bilan oshiqayotgan Antifer tog'aning nazarida umrbod yo'l bosadigandek bo'lib tuyulardi. Shunday bo'lsa-da, harqalay, xatarli sayohatining tugayozganini o'ylarkan, tanasi yayrab, huzur qilardi.

Yana bir necha manzilni bosib o'tgach ko'zlagan yerida bo'ladi... Biroq hal qiluvchi daqiqa yaqinlashgani sari Antifer tog'a nima sababdan tobora tajanglashgani tobora bezovtalanib boryaptiykin? Hamrohlari harchand urinsalar ham undan aqalli bir og'iz so'z eshitmay qo'ydilar. Ular chor-nochor ikkovlari suhbatlashishga majbur edilar.

Tregomen ikki o'rkach orasida chayqalib borarkan, o'sha yerdan, balanddan turib Jyuelga navbatdagi savolni berdi:

– Menga qara, bo'tam, qani, ochig'ini aytchi: o'sha Komulk poshshoning xazinası rostdan borligiga ishonasanmi?

– Hm!.. – dedi Jyuel. – Bularning bari nazarimda alahlash, afsonaga o'xshaydi!

– Jyuel, bordi-yu unaqa orol umuman bo'lmasachi?..

– O'sha orol bor deylik, janob Tregomen, lekin u yerda hech qanaqa xazina bo'lmasligi mumkin, ana unda amakim Burbon orolini izlab allaqancha ovorayi-sarsongarchiliklardan so'ng Marselga qaytgan kapitandan o'rnak olishga majbur bo'ladi.

– Bu uning uchun og'ir zarba bo'ladi, Jyuel, miyasi bunga dosh bera olishiga ishonolmayman...

Tregomen va uning yosh do'sti bunday farazlarni Antifer tog'a oldida aytmasliklarini hurmatli kitobxon fahmlagan bo'lsa kerak, albatta. Shunday qilganlarida ham nafi bo'larmidi? Yo'q, bu qaysar odamni baribir hech narsa yo'ldan qaytara olmasdi, ishonchiga rahna sololmasdi. Olmos va boshqa qimmatbaho toshlarning koordinatlari o'ziga ma'lum bo'lgan orolda ekanligidan zarracha

shubhalanish uning hatto xayoliga ham kelmasdi. Antifer tog'ani tashvishlantirayotgan birdan-bir narsa – orol topilib, boyliklarni muvaffaqiyatli olib ketish va ishni ko'ngildagidek tugatish jarayonida ro'y berishi mumkin bo'lgan to'siqlargina edi, xolos.

Sayohatning o'ziga kelsak, hamma ish osongina, xamirdan qil sug'urgandek ko'chmoqda edi. Hamma ish uning muvaffaqiyatli tugashidan dalolat berib turardi. Tezroq Soxorga yetib olishsa bo'lgani! U yerga borgach, birorta kemani topib, orolni izlagani yo'lga tushishadi, o'sha uchala bochkachani kavlab olishadi... Hozircha jasur maluinimizni xavotirlantiradigan hech gap yo'q. Karvon bilan yo'l yurishdan osoni borakanmi, yana-tag'in Tregomen bilan Jyuel yonida bo'lsa. Keyinroq esa oroldagi xazinani Soxorga olib o'tadi... Bularning bari hech gap emas. Ammo undan u yog'i qiyin bo'ladi. Oltin va qimmatbaho toshlar bilan to'la uchga bochkachani Maskatga yetkazish kerak... ana unda tuya va karvonsiz ish bitmaydi, buning ustiga Ormuz sohillari bo'ylab yo'l bosish kerak... Keyin bunday og'ir yukni bojxona xizmatchilarida shubha tug'dirmay yuklab bo'larmikin?.. Axir ular bu yuklarni olib chiqib ketishga ruxsat berish uchun talaygina boj talab qilishlari mumkin-ku... Yana kim bilsin, balki imom boyliklarni o'ziniki qilib olishga urinar – xazina imomat tuprog'idan topilgani sababli o'zini boyliklarning qonuniy egasiman deb e'lon qilmasmikin?

Garchi Antifer tog'a «mening orolim» deyishni yaxshi ko'rsa-da, aslida orol unga qaramaydi-ku,

axir!.. Komulk poshsho, mabodo buni istaganida ham, Maskat imomining mulki bo'lgan orolni unga vasiyat qilib qoldirolmagan bo'lardi-ku!..

Ana shu to'siqlar Antifer tog'ani og'ir o'yga solib qo'ygandi. Orqaga qaytishda, Sues tomonga boradigan aloqa kemasiga o'tirishda albatta sodir bo'ladigan qiyinchiliklarni-ku hozir aytmasa ham bo'ladi. O'sha badavlat misrlik Ummon ko'rfazidagi orolga o'z boyliklarini ko'mib qanchalar bema'ni va nojo'ya ish qilgan-a!.. Nahotki dengiz sathiga sochilgan yuzlab, hatto minglab orollar, aqalli Tinch okeandagi kishi ko'zidan chetda joylashgan, hech kimga qaram bo'lmagan behisob orollardan birortasi ma'qul kelmagan bo'lsa-ya?.. Nahotki vasiyat qoldiruvchi o'z boyligini hech kimda shubha tug'dirmay, bundan ko'ra ishonchliroq yerga yashirolmagan bo'lsa?..

Ammo-lekin bo'lar ish bo'lgan. Endi hech nimani o'zgartib bo'lmaydi. U orol boshda Ummon ko'rfazida paydo bo'lgan ekan, endi qiyomatgacha o'sha yerda turadi. Qani endi uni shatakka olib Sen-Maloga tortib ketib bo'lsa! Ish qanday oson ko'chgan bo'lardi-ya!

Antifer tog'aning parishonxotirligi, bezov-talanayotgani va g'azab otini jilovidan tutib qololmayotganining sababi ayon edi. Ha, Antifer tog'a safarda yomon hamroh edi. U muttasil al-lanimalar deb qichqirar, savollarga javob qaytar-mas, hamrohlaridan o'zini chetga olar, bo'lar-bo'lmasga ostidagi xachirni qamchilardi... Vij-donan aytganda, bu bardoshli jonivor ustidagi toqat qilib bo'lmaydigan chavandozni bir sapchib

uloqtirib yuborganida ham hech zog' xachirga ta'na qilmasdi.

Jyuel amakisining naqadar bezovtalanayotganini fahmlab borardi, albatta, lekin undan buning sababini so'rashga jur'at etolmasdi. Jildas Tregomen ham shu topda do'stining qalbida nimalar sodir bo'layotganini sezib turardi. Biroq Antifer tog'ani yaxshi bilganlaridan hatto unga dalda berib, xayolini joyiga keltirishga urinib ham ko'rmadilar, faqat bir-birlari bilan ma'noli ko'z urishtirib qo'ya qoldilar.

Safarning birinchi kuni qahramonlarimiz hech qancha charchashmadi, hatto bu yerning jazirama issig'i ham ularni toliqtirolmadi. Janubiy Arabistonning, iqlimi, ayniqsa, Rak tropigi, nihoyatda issiq bo'lib, yevropaliklarga juda zararli. Tog'tomondan lang'illagan issiq havo oqimi bostirib keladi, hatto dengiz shamollari ham unga qarshi turolmaydi. Saraton kunlari havo shunday dim bo'ladi, kechalari na nafas olib, na mijja qoqib bo'ladi.

Shunday bo'lsa-da, maluinlarimiz dastlabki ikki manzilni jaziramada unchalik qiynalmay bosib o'tdilar, chunki karvon sohil bo'yidagi soya-salqin vohalardan borardi. Maskat atrofi hech narsa unmaydigan cho'l-biyobon emasdi. Bu yerlarning o'simlik dunyosi boy, anvoyi daraxtlar o'sadi. Sug'oriladigan joylarda jo'xorizorlar tez-tez uchraydi, minglab anhoru ariqlar tarmoq otgan, zax, botqoq pastliklarda sholidan mo'l hosil yetishtiriladi. Banyan o'rmonzorlari, yelim beradigan arab akaszorlari tangadek oftob tushmaydigan soya-salqin. Akas yelimlari esa chetga ko'plab chiqa-

riladi, u mamlakatning asosiy daromad manba'laridan biri.

Kechqurun karvon G'arb tog'laridan suv oladigan va ohistagina ko'rfazga quyiladigan anhor bo'yiga manzil qurdi. Xachirlarni yalang'ochlab, hatto tushovlamasdan o'tlagani qo'yib yuborishdi. Bu jonivorlar karvon bilan yuraverib shunday o'tlashga o'rganib qolishgandi. Lekin ularni o'z holiga qo'yib, qahramonlarimiz xususiga qaytaylik. Amaki-jiyan o'z xachirlarini umumiy o'tloqqa qo'yib yuborishdi; Souk ham xuddi shunday qildi. Tregomenning tuyasi cho'kkaladi, sayohatchi pastga tushib, mehr bilan uning tumshug'ini siypaladi. Binni Umarning eshagiga kelsak, u to'satdan taqqa to'xtadi-yu, ustidan tusholmay imillayotgan notariusni shataloqlab uloqtirib yubordi. U chalpakdek bo'lib tushdi.

Maskatdan qirq kilometr naridagi, odatda karvonlar dam oladigan bu manzilgohda tun tinchosoyishta o'tdi.

Ertasiga kallayi saharda karvon qo'zg'alib, yana Soxor tomon yo'lga tushdi.

Endi atrofni yaydoq dalalar qurshab olgandi. Ufqqacha cho'zilgan bepoyon tekisliklardagi qum maysa-giyohlarni chetga surib chiqara boshladi. Bu jazirama, ilgarilash amri mahol bo'lgan sahrani yodga solardi. Karvon bilan bunday safarga chiqib ko'nikib qolgan arablar uchun bu manzara hech gap emasdi. Ular jazirama issiqda ham bemalol olis yo'l bosaveradilar. Ammo bunga yevropaliklar qanday chidash bera olarkinlar?..

Keling, buni oldinroq aytib qo'ya qolaylik, ular hech qanday ziyon-zahmat chekmadilar. Hatto

semiz Tregomenga ham hech narsa qilmadi. Bu sayohat bir necha hafta keyinroq bo'lganida, u tropik quyoshining jazirama nurlari ostida erib ketarmidi. Tuyaning bir maromda chayqalib borishiga monand ikki o'rkach o'rtasida tebranib o'tirgan Tregomen huzur qilib mudrar, mahkam o'rnashib olganidan jonivor bilan birga qo'shilib, yaxlit bir narsaga aylanib ketganday ko'rinardi. Harqalay u yiqilib ketaman deb cho'chimasa ham bo'lardi. «Sahro kemasi»ning notekis yo'ldan undan ko'ra yaxshiroq yurishini fahmlab olgan Tregomen, jonivorni ortiq boshqarmay qo'ydi. Basharti «Go'zal Ameliya»ni Rans qirg'oqlari yoqalab arqon bilan tortib borgan chog'larida ham bunday osoyishta suzolmasdi.

Imomning mulki bo'ylab Maskatdan Soxorgacha bo'lgan safar vaqtida Jyuel o'zini qanday sezdi? Bu yosh va navqiron yigit xayolan o'z qalbiga yaqin breton shahri, Ot-Sall ko'chasi, Enogat yashayotgan uyda sayr qilardi... Amakisi olib bermoqchi bo'lgan malikaga kelsak, yigit u haqda aslo tashvishlanmasdi. Faqat go'zal ammavachchasidan bo'lak hech kim hech qachon uning yori bo'lolmaydi! Garchi tomirlarida qirol qoni oqayotgan bo'lsa-da, bu olamdagi biror gersoginyani Enogat bilan tenglashtirib bo'larkanmi? Aslo! Ko'mulk poshshoning millionlari ham, modomiki bu millionlar hatto «Ming bir kecha»dagi afsonalardan bo'lmay, haqiqiy meros bo'lgan chog'da ham, baribir hech nimani o'zgartirolmaydi. Maskatga qadam bosishi bilanoq uning o'z yoriga maktub yo'llaganiga sira shubhalanmasa ham bo'ladi. Biroq qachon yetib boradi bu maktub!

Antifer tog'aning esa qovog'idan qor yog'ardi, uning kayfiyati bundan ham beshbattar aynimasa degan tashvish tamoman asosli edi. Uchala bochkachani qanday olib ketadi? Uni g'oyatda tashvishga solib qo'ygan muammo ana shu, rostini aytganda, bu o'rinli tashvish edi.

Bordi-yu, uni kuzatish uchun ortidan ayg'oqchi qo'yilganini bilib qolsa, uning vujudini qanchalar dahshatli o'ylar chulg'ab olardi. Ha... chindan ham yoshi qirqlarga borgan, ayyor qiyofali bir yerlik karvonga qo'shib yuborilgan, u hech qanday shubha tug'dirmay Antifer tog'aning har bir bosgan qadamini kuzatib borishi kerak zdi.

Kezi kelganda shuni aytib o'tish lozimki, Suesdan Maskatga qatnaydigan hech bir kema yo'qki, u imomning ayg'oqchilaridan qochib qutulolsa. Imomat tuprog'iga qadam ranjida qilgan har bir muhojirdan olinadigan kattagina soliqdan tashqari, hukmdor bu yerga kelgan yevropaliklarga sof sharqchasiga qiziqsinib qarardi. O'zining yurtiga tashrif buyurgan har bir muhojirning nima maqsadda va qancha muddatga kelganini bilish istagidan ko'ra tabiiyroq narsa bormi olamda? Shu sababli uch fransuz kemadan tushib, inglizlar mehmonxonasidan joy olganlari zamonoq mirshabxona boshlig'i ularni o'z vasiyligiga olgandi.

Shunday qilib, yuqorida aytib o'tganimizdek Maskat mirshabxonasi ko'chalardagi tartib-qoidani saqlashda qanchalik yaxshi saboq olgan bo'lsa, dengiz yoki quruqlik orqali mamlakatga kelgan chet elliklarni o'shanchalik mohirlik bilan kuzatishda katta tajribaga ega edi. Mirshabxona har bir muhojirdan tegishlicha rasmiylashtirilgan huj-

jatlarni talab etishni zarur deb hisoblamasdi – firibgar-muttahamlarning hujjatlari hamisha batartib bo‘ladi – va ularni so‘roqqa tutib o‘tirmasdi, chunki bu so‘roqlarga javob oldindan tayyorlab qo‘yilgan bo‘ladi. Ammo-lekin mirshabxona muhojirlarni ko‘zdan qochirmaydi, sergaklik bilan ularni nazorat qilib turadi, ehtiyotlik bilan ularga aslo tirkalmay zimdan kuzatadi, bu albatta Sharq odamlarining aqlu zakovatini sharaflaydi.

Antifer tog‘a qayoqqa bormasin ortidan kuzatib yurish vazifasi topshirilgan mirshabxona ayg‘oqchisi fransuzdan ko‘z uzmasdi. Ayg‘oqchi Antifer bilan gaplashib, undan bir og‘iz ham gap so‘ramay, unga ilakishib yurib, nihoyat, yevropaliklarning Maskatga kelishdan maqsadlarini bilib olishi kerak. Bordi-yu, ular yerlik xalq tilini bilmay mushkul ahvolda qolishsa, u iltifot ko‘rsatib, bajonidil xizmatlarida bo‘lishini aytadi. Keyin, kerakli ma‘lumotlarni bilib olgach, ularni tutib turishdan biror manfaat chiqmaydigan bo‘lsa, imom fransuzlarning bu yerdan xotirjam chiqib ketishlariga ruxsat etadi.

Turgan gapki, bunday nazorat Antifer tog‘aning ulug‘vor niyatlarining muvaffaqiyatli tugashiga xalal berardi. Behisob boylikka ega bo‘lgan xazinani kavlab olish, uni Maskatga eltish, Suesga boradigan kemaga yuklash – bu o‘z-o‘zidan bitadigan oson ish emasdi. Ammo a‘lo hazratlari bunday paytda o‘z foydasiga ish ko‘rishga qaror bergudek bo‘lsa, o‘ylangan maqsadni muvaffaqiyatli tugallash amri mahol edi.

Baxtiga, ha-ha, takror aytamizki, baxtiga – Per-Servan-Malo boshqa to‘siq va mushkilotlar

yoniga bunday g'ov qo'shilishini hatto xayoliga keltirmasdi. Shundoq ham tashvishi yetib-ortardi. Imom ayg'oqchilaridan birining o'tkir ko'zlari nazorati ostida kelayotganini payqaydigan holi ham yo'q edi. Na uning o'zi, na hamrohlari bir qadam ham ortda qolmay orqalaridan ergashib yurgan og'ir-vazmin indamas arabga e'tibor berishdi. Ayg'oqchi esa ular bilan zarracha bo'lsin aloqa qilishdan o'zini olib qochardi.

Agar maluinlar bu arabning xatti-harakatini payqamagan bo'lsalar, Souk ham ularga o'xshab hech nimani sezmasdi deyish xato bo'lurdi. Binni Umarning soxta gumashtasi til bilganidan Soxorga ketayotgan savdogarlarning dam unisi, dam bunisi bilan suhbat qurardi. Albatta bu odamlar ayg'oqchini yaxshi bilishar va undan aslo cho'chishmasdi. Ayg'oqchining Antiferni kuzatish uchun qo'yilganini darrov fahmlagan Souk, tabiiyki, xavotirga tushib qoldi. Modomiki, u Komulk poshshoning merosi allaqanday bir fransuzning qo'liga tushishini xohlamas ekan, boyliklarni imom egallab olishi mutlaqo yoqmasdi. Yana shuni ham aytib qo'yaylikki, har ikkala misrlik ham ayg'oqchida zarracha bo'lsa-da shubha tug'dirmagandi. Ularning anavi yevropaliklar bilan maqsadlari bir ekanligini qayoqdan ham bilsin? Misrliklar Maskatga tez-tez kelib turishadi. Modomiki, Binni Umar bilan Souk ayg'oqchi ko'nglida shubha uyg'otmagan ekan, bu dunyoda benuqson mirshabxona yo'q ekanligining yana bir dalilidir, hatto a'lo hazratlarining mirshablari ham bu qusurdan holi emas ekan.

Karvon odatdagidek choshgohda dam olib, kun bo'yi og'ir yo'l bosib, kun botar oldida suvi qurib yarim tushib qolgan chog'roqqina hovuz yonida tunagani to'xtadi. Hovuz bo'yida bu yer tabiatining ajoyib bir tuhfası – bahaybat daraxt o'sardi. Butun boshli karvon bu daraxtning soya-sida peshingi jaziramada jon saqlashi va bermalol joylashishi mumkin edi. Bu bahaybat daraxtning shoxlari o'ranib-chirmanib, o'n besh fut balandlikda ulkan bir soyabon vujudga kelgan, pastga tangadek oftob tushmasdi.

– Bunaqa daraxtni umrim bino bo'lib ko'rmaganman! – deb qichqirib yubordi Jyuel, ostidagi xachir daraxt soyabon ostiga kelib to'xtarkan.

– Men ham, bunaqasini bundan keyin ham hech qachon ko'rmasam kerak! – dedi Tregomen, cho'kkalagan tuyasidan tushayotib.

– Siz nima deysiz, amaki? – deb so'radi Jyuel.

Amakisi javob qaytarmadi. U jiyani va do'stini hayajonga solgan narsaga e'tibor ham bermagandi.

– Shu topda bir narsa yodimga tushdi, – dedi Jildas Tregomen, – jonajon Bretanimizning so'lim joylaridan biri, Sen-Pol-de-Leondagi antiqa uzumzor, u...

– Siz haqsiz, janob Tregomen, lekin u aslo bu daraxt bilan tenglasholmaydi!

Darhaqiqat, Sen-Pol-de-Leon uzumzori har qancha antiqa bo'lmasin, o'simliklar dunyosining sultoni bo'lmish bu bahaybat daraxt qarshisida bir butazordek gap edi.

Bu tanasining yo'g'onligi kam deganda yuz fut keladigan banyan daraxti edi. Minoraga o'xshagan tanasidan har tomonga behisob shox-butoqlar tarvaqaylab ketgan, o'z navbatida bu butoqlarning har biri yana son-sanoqsiz shox chiqargandi; bu shox-butoqlari chor atrofga tarvaqaylab, o'rgimchak to'riday o'ralib-chirmashib ketgan daraxt yarim gektarcha yerga soya tashlab turardi. Bu ulkan soyabon ostida jazirama issiqdan va kuchli jaladan bemalol jon saqlasa bo'ladi; bu yerga na qaynoq quyosh nuri, na osmondan paqirlab quyilgan jala tomchisi tusha oladi.

Basharti Tregomenning vaqti yetarli bo'lganida sabri-toqatining-ku yetarli ekanini aytmay qo'ya qolaylik! – bu daraxtning shox-shabbasini jon-jon deb sanab chiqishdan ham toymasdi. Qanchaykin-ular? Bu qiziqsinish unga halovat bermay qo'ydi. Lekin ko'p o'tmay uning qiziqsinishi qanoatlantirildi. Bu mana bunday sodir bo'ldi.

U qo'lini cho'zib, barmoqlarini kergancha, chor atrofga o'girilib, banyanning pastki shox-butoqlarini ko'zdan kechirib turganida, orqa tomonida kimdir sharqqa xos talaffuzda inglizchani buzib shunday dedi:

– Ten thousand⁶³.

Tregomen bu ikki iboraning ma'nosiga tushunmadi, chunki u ingliz tilini bilmasdi. Biroq inglizchani Jyuel bilardi, shuning uchun u yerlik bilan bir-ikki og'iz tillashib, o'z do'stiga bunday dedi:

– Bu daraxtning o'n mingcha shoxi bor ekan.

– O'n ming?!

⁶³ O'n ming.

– Manavi arab kamida shuncha deyapti.

Bu arab imomat tuprogʻidan chiqib ketgunlaricha ularni kuzatib yurish topshirilgan mirshabxona aygoqchisining xuddi oʻzginasi edi. Hozir u fransuzlar bilan tanishib olish uchun qulay fursatdan foydalanib qolgan edi.

Jyuel inglizchalab bir necha savol berib, arabdan oʻshancha javob olgach, u oʻzini Maskatdagi Britaniya vakolatxonasning tilmochi deb tanishtirdi va uchala yevropalikning xizmatiga tayyor ekanini aytdi.

Jyuel yerlikka minnatdorchilik bildirib, oʻzining fikricha Soxordagi ishlarining yurishib ketishiga qoʻl keladigan bu maqbul taklifni amakasiga aytdi.

– Yaxshi, yaxshi! – rozi boʻldi Antifer togʻa.
– U bilan tuzukroq kelishib ol, yaxshigina haq toʻlashimizni ham ayt...

– Haq toʻlashga arzigudek foyda ololsak, degan shart bilan, – deb toʻngʻillab qoʻydi Tregomen.

Agar Jyuel bu muvaffaqiyat bilan oʻz-oʻzini tabriklayotgan boʻlsa, Souk bundan norozi edi, albatta. Aygʻoqchining maluinlar bilan gaplashayotganini koʻrgach, u qattiq xavotirga tushib qoldi va yerlikdan koʻz-quloq boʻlib yurishga ahd qildi. Binni Umar qayoqqa ketayotganlarini bilib ololganda edi! Safar nihoyasiga yetib qolganmikin, yoki davom etarmikin? Qayerdaykin oʻsha orol? Ummon koʻrfazidami yoki Ormuz boʻgʻozidami, yo Fors qoʻltigʻidamikin? Uni Arabiston sohillari yoqalab qidirilarmikin, yoki sultonning yeri shohning mulkiga borib tutashadigan chegaragacha

Eron sohillarini yoqalab izlanilarmikin? Bundan buyon ishlar qanday bo'larkin va bu sarsonlik ko'pga cho'zilarmikin? Antifer Soxorda kemaga o'tirmoqchi emasmikin? Rostki u Maskatda shunday qilmagan ekan, bundan orol qayerdadir Ormuz bo'g'ozining biron yerida joylashmaganmikin degan xulosa kelib chiqmaydimi? Ehtimol bu sayohat Fors qo'ltig'ining ichkarirog'iga, Sharjgacha, yoki Al-Qatif, yoxud hatto Al-Quvaytgacha davom etar?

Bunday beshafqat mavhumot va xavotirli sezgidan Soukning g'azabi qaynab, fig'oni falakka yetdiki, bu hol bechora notariusga ta'sir etmay qololmasdi.

– Antiferning menga musofirdek muomala qilishiga nahotki men aybdor bo'lsam? – deb ta'kidlardi u qo'rqa-pisa.

Musofirdaymi? Yo'q, bundan ham battarroq – vasiyat qoldiruvchi majburan unga ko'ndalang qilib ketgan jonga teguvchi, xira mehmonday muomala qiladi!.. Eh, o'sha o'ziga tegadigan ulushi bo'lmaganida edi-ya! Qancha azob-uqubat evaziga qo'lga kiradigan bo'ldi-ya u! Bu azob-uqubatlari qachon tugarkin?..

Ertasiga karvon birorta ham voha uchramaydigan qaqroq sahroga o'xshagan cheki-chegarasi ko'rinmaydigan yalanglikdan imillab borardi. O'sha kuni ham, undan keyingi ikki kunda ham jazirama issiqda rosa holdan toyishdi. Tregomen nazarida xuddi u shimol dengizlaridan issiq kengliklarga oqib kelib qolgan katta muz parchasiday erib ketadiganga o'xshardi. O'z og'irligining o'ndan birini yo'qotgan bo'lsa yaxshi edi-ya, bun-

day og'ir yuk ostida tinkasi qurib borayotgan tuya xursand bo'lardi, albatta.

Safarning keyingi kunlarida hech qanaqa eslashga arzigulik hodisa yuz bergani yo'q. Faqat bir narsani – anavi arabning ismi Selik ekanligini, har ikkalasi ham inglizchani bilishi tufayli Jyuel bilan yaqinroq tanishib olganini aytib o'tish kifoya. Biroq yosh kapitan og'ir-vazminligicha qoldi va Antifer tog'aning sirini og'zidan gullab qo'ymadi – bunga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas, albatta! Maskatdagi Fransuz vakiliga aytgan uydirmalari – sohildagi birorta shaharni tanlab, u yerda savdo idorasi ochish haqidagi afsonalari bu soxta tarjimonni aldash uchun bu gal ham ish berdi.

Bu uydirmaga ishonganmikin u? Jyuelning nazdida ishongan edi. Aslida esa bu ayyor kerakli bo'lgan ma'lumotlarni bilib olish uchun o'zini sodda, go'l qilib ko'rsatardi.

Nihoyat, tyarim kunlik yo'l bosishdan keyin, 27-mart kuni choshgohda karvon Soxorga kirib keldi.

O'N TO'RTINCHI BOB

*Antifer tog'a, Jildas Tregomen va
Jyuellarning Soxorda bir kunni juda
diqqinafaslik bilan o'tkazganlari*

Bizning uch fransuzimiz Soxorga yaxshiyamki sayr-tomosha uchun emas, ish bilan kelganlari. Shaharda tomosha qilishga arzigulik, sayohatchilar e'tiborini tortadigan hech vaqo yo'q ekan. Ko'chalar

garchi chip-chinniday bo'lsa-da, maydonlari jazirama oftob, issiqdan holsizlanib doim chanqov azobini tortadigan bir necha ming kishilik aholini bitta suv havzasi arang ta'minlab turarkan; uylar pala-partish qurilgan, derazalari Sharq taomiliga ko'ra ichkariga qaragan. Yolg'iz birgina bino sal ajralib turar, u hech qanday me'morchilik uslubiga qarab qurilmagan va ajoyib arab naqshlaridan bebahra edi. Bu bino qishloqcha yashashni ko'ngli tusab qolganda o'z mamlakatining shimoliy qismiga kelgan imomning ikki-uch hafta istiqomat qilishiga yarardi.

Biroq Soxor qanchalik kam ahamiyatga ega bo'lmasin, har qalay u Ummon ko'rfazi sohilida turibdi va bunga uning geografik koordinatlari eng yaxshi dalil bo'la oladi: shahar sharqiy uzunlikning 54°29' hamda shimoliy kenglikning oralig'ida joylashgan.

Binobarin, Komulk poshshoning ko'rsatmalarini e'tiborga olinganda, orolni Soxordan sharqqa qarab boradigan yoy bo'ylab 28' va shimol tomonga 22' oralig'idan, ya'ni sohil bo'ylab qirq-ellik kilometr naridan izlash kerak edi.

Soxorda mehmonxonalar kam. Bittagina yumshoq, uzun kursi bilan jihozlangan bir nechagina hujrasi bor bu karvonsaroyini mehmonxona deb ham bo'lmasdi.

Antifer tog'a, uning jiyani va do'stini seriltilot tarjimon Selik xuddi ana shu yerga boshlab kelgandi.

– Omadimiz kelib, yaxshiyam bu xushmuomala arabga uchraganimiz! – derdi Jildas Tregomen nuqul. – Esiz, fransuz tilini yoki aqalli bretonchani bilmas ekan-da.

Lekin kelishib olish uchun Jyuel bilan Selik bir-birovlarining gaplarini juda yaxshi tushunishardi,

Yo'l azobi go'r azobi deganlaridek, qiynalib ketgan Jyuel bilan Tregomen, tabiiyki, o'sha kuni yaxshilab ovqatlanib olib, o'n ikki soat miriqib uxlashdan bo'lak narsani o'ylamas, ularning birdan-bir orzusi shu edi. Biroq Per-Servan-Maloni bu oqilona maslahatga ko'ndirish oson bo'lmadi. Orolga yaqinlashgan sayin uning bardoshi tugab, toqatsizligi orta borar, kutishga aslo rozi bo'lgisi kelmasdi... Uning fikri-zikri faqat birgina narsa – tezroq kema yollab yo'lga tushish bilan band edi... So'nggi, o'ziga maftun etib, betinim chorlab yotgan bochkachalar ko'milgan joyga atigi o'n ikki lelik oxirgi odim qolganda dam olib o'tirsa-ya!..

Xullasi kalom, Antifer tog'aning toqatsizligi, asabiyligi va hatto, vasvasaga tushib qolgani qay darajaga yetganini ko'rsatuvchi manzara namoyon bo'ldi. Jyuel uni alhol tinchitdi. Axir, ehtiyot choralarini ko'rish kerak-ku... Bunday shoshilish Soxor mirshabxonasidagilarda shubha uyg'otishi mumkin-ku... Bundan tashqari, xazina ham bir kecha-kunduzda g'oyib bo'lib qolmaydi-ku...

«Agar xazina o'sha yerda bo'lsa – deb qo'ydi Jildas Tregomen ichida. – Agar boylik u yerda bo'lmasa... yoki allaqachon o'marib ketishgan bo'lsa, sho'rlik do'stim aqldan ozadi-ku!»

Oqko'ngil Tregomenning xavotirlanishi bejiz emasdi.

Basharti Antifer tog'aning orzulari puchga chiqib, aldangudek bo'lsa, uning chindan ham aqldan ozishi turgan gap edi. Bunaqa xafagarchilik

Soukka balki bunchalik ta'sir etmasdi, lekin, harqalay, oqibat uning uchun ham yengil bo'lmasdi. Soxta Nozimning g'azab kosasi to'lib-toshib, bechora Binni Umarning holiga maymunlar yig'larmidi. Uning ham maluidan battar sabri tugayozgandi. Shu boisdan o'sha kuni tunda karvonsaroyda kam deganda, ikki kishi mijja qoqmadi, deb kitobxonni bemalol ishontirsak bo'ladi. Har ikkalasi ham bir maqsad sari, lekin turli yo'l bilan intilmayotibdimi? Agar birovi tezroq kema yollash o'yi bilan tong ottirolmayotgan bo'lsa, boshqasi katta-katta mukofotlar va'da qilib, o'n besh-yigirma nafar kallakesarni to'plab, Soxorga qaytilayotganda boylikni qanday tortib olsamikin, deb bosh qotirardi.

Nihoyat tong yorishib, quyoshning ilk nurlari o'sha unutilmas 28-mart kuni boshlanganidan darak berdi.

Avvalo Selikning xizmatidan foydalanishga qaror berildi. O'ylagan rejalarini amalga oshirish uchun arab bilan so'zlashishni Jyuel o'z zimmasiga oldi. Fransuzlar borgan sayin unga shubhaliroq ko'rina boshlagani uchun, Selik butun tunni karvonsaroy hovlisida o'tkazdi.

Rost, Jyuel Selikka yordam ber deb qanday murojaat qilishi haqida o'ylarkan, sal xijolat bo'ldi. Chindanam, uch muhojir, uch yevropalik, Soxorga bugun kechqurun kelsalar-u, ertasiga ertalab kema yollashga shoshilsalar, bu qanaqasi bo'ldi. Albatta, Ummom ko'rfazida sayohat qilish uchun bundan tuzukroq bahona topib bo'larmidi? Ha, ikki kecha-kunduz davom etadigan sayrga chiqiladi... Bu g'alati ko'rinmasmikin uning

nazarida? Balki, tilmoch bunday iltimosdan taajjublanadi deb Jyuel behuda xavotirlanayotgandir?

Qanday bo'lmasin, harqalay, ishni paysalga solish yaramasdi. Jyuel Selikka yo'liqib, dengizda ikki kecha-kunduz suzishga dosh bera oladigan biror kema topib berishini iltimos qildi.

– Ko'rfazdan Eronga suzib o'tmoqchimisizlar? – deb so'radi Selik.

Bu savolga e'tiborsizlik bilan, hatto Soxor ma'murlarida tug'ilishi mumkin bo'lgan har qanday shubhani tarqatib yuboradigan darajada bamaylixotir javob berish kerak, degan xayol yilt etib o'tdi Jyuelning miyasidan.

– Yo'q... bu shunchaki geografik tadqiqot, – deb javob berdi u. – Biz ko'rfazdagi orollardan muhimroqlarining joylashgan o'rnini aniqlamoqchimiz... yoki... haligi... Soxor sohillari atrofida orollar yo'qmi?

– Bir necha orol bor, – dedi Selik, – lekin birorta ham muhim, yirikroq orol yo'q.

– Farqi yo'q, – so'zida davom etdi Jyuel. – Sohilga o'rnashishdan avval ko'rfazni bir ko'zdan kechirmoqchimiz, xolos.

– Ixtiyorlaringiz!

Garchi yosh kapitanning javobi shubhali ko'rinsa-da, Selik so'rab-surishtirib o'tirmadi. Darhaqiqat, ularning fransuz vakiliga aytgan rejalari, ya'ni imomatning birorta sohil bo'yi shahrida savdo idorasi ochish niyatlariga Ummon ko'rfazini tekshirishning hech qanaqangi aloqasi yo'qligini mirshabxona ayg'oqchisi juda yaxshi tushunardi, chunki u muhojirlarning yuqoridagi rejalaridan xabardor edi.

Bu suhbatning oqibati tezda ko'rina boshladi. Maluin va uning hamrohlarini yanada sergaklik bilan kuzata boshladilar.

Bu mushkul ahvol o'ylangan rejaning muvaffaqiyatli amalga oshishini tahlika ostida qoldiradi-ku! Xazina topildi deguncha a'lo hazratlarining mirshablari o'sha ondayoq bundan xabardor bo'ladilar. Ana unda a'lo hazratlari tortinib-netib o'tirmay, gapni kalta qilish uchun Komulk poshshoning merosxo'rini u dunyoga jo'natib qo'ya qoladi.

Selik ko'rfazni tekshirishga yaroqli kema topish va ishonsa bo'ladigan xizmatchilarni ham tanlashga va'da berdi. Uch-to'rt kunlik oziq-ovqatni g'amlashga qaror qilindi. Kecha-kunduz tengligi pallasida, ob-havo o'zgarib turadigan bir paytda yo'lda tasodifan ro'y berib qolishi mumkin bo'lgan to'sqinliklarga oldindan tayyorgarlik ko'rish kerak.

Jyuel tilmochga minnatdorchilik bildirib, xizmatlari evaziga kattagina haq to'lashlarini va'da qildi. Bu va'da Selikka ta'sir etdi chamasi, biroz o'ylab turgach, shunday deb qo'shib qo'ydi:

– Mening ham sizlar bilan birga borganim ma'qul emasmi? Arabchani bilmaysizlar, kema xo'jayini va matroslar bilan muomala qilishda qiynalib qolasizlar...

– Siz haqsiz, – deb qo'shildi uning gapiga Jyuel. – Soxordan qaytib ketgunimizcha hamma vaqt biz bilan birga bo'la qoling. Takror aytamanki, bundan aslo afsuslanmaysiz.

Jyuel tilmoch bilan xayrlashib, qumloq cho'milish joyida Tregomen bilan aylanib yurgan

amakisini qidirib topdi-da, ishlar qanday ketayotganini gapirib berdi. Tregomen o'ziga juda aqlli bo'lib ko'ringan bu yosh arabning tilmoch va yo'l boshlovchi bo'lib qolishini eshitib o'zida yo'q suyunib ketdi.

Per-Servan Malo esa jiyanining bu ishini ma'qullab bosh irg'ab qo'ydi. Keyin trubkasining g'ajib tashlangan naychasini almashtirib:

– Qayiq nima bo'ldi? – deb so'radi.

– Tilmochimiz hozir xuddi ana shu ish bilan shug'ullanyapti-da, amaki, uni topib, kerakli oziq-ovqatlar bilan ta'minlaydi.

– Menimcha, bu yurtida har qanaqa kemani bir yo ikki soatda safarga hozirlash mumkin... Jin ursin, butun dunyoni aylanib chiqqani ketayotganimiz yo'q-ku, axir!

– Lekin, oshnam, – dedi Tregomen, – biror kemani topib, uni odamlar bilan ta'minlash uchun qancha bo'lmasin vaqt kerak-ku!.. O'tinib so'rayman, bunchalik betoqat bo'lma.

– Xo'sh, shunaqa bo'lgim kelsa-chi?! – e'tiroz bildirdi Antifer tog'a, Jildas Tregomenga yeb yuborgudek xo'mrayib qararkan.

– Bo'lsang bo'laver, marhamat! – deb javob berdi bu oqko'ngil odam, Antifer tog'aga ehtirom bilan ta'zim qilib.

Kun g'arb tomonga og'ib qoldi hamki, Selikdan darak bo'lmadi. Shu sababli Antifer tog'aning qanchalik asabiylashganini bilish mushkul emasdi. U, jiyanimni mazax qilgan bu arabni ko'rfazga cho'ktirib o'ldirish kerak, deb to'ng'illay boshladi. Yigitcha Selikning yonini olishga uringanda, amakisining quloq solgisi ham kelmadi,

Jildas Tregomen tilmochning yaxshi fazilatlaridan gap boshlagan edi, og'zingni yum, deb o'dag'aylab berdi tog'a.

– Dog'uli, muttaham o'sha tilmochlaring! – baqirardi Antifer tog'a. – Yaramas, qaroqchi! Unga tirnoqcha ham ishonmayman! Uning fikri-zikri ko'proq pulimizni shilishda!

– Unga hech narsa berganim yo'q, amaki.

– Ana shunda landovurlik qilibsani! Agar unga tuzukkina 'zakalat berib qo'yganingda edi...

– Axir o'zingiz u bizni shilmoqchi deyapsiz-ku!

– Buning ahamiyati yo'q!

Jildas Tregomen bilan Jyuel uning bunday bir-biriga zid fikrlarini aniqroq tushuntirib berishiga hatto urinmadilar. Eng muhimi, maluinning sabrsizligini bosib turish, biror tentaklik qilib qo'yishiga yo'l qo'ymaslik yoki, hech bo'lmaganda, gumon tug'dirmaslik uchun o'zini oqilona tutishga ko'ndirish edi. Biroq gapingizga quloq solishni ham istamaydigan qaysar odamni nima ham qilib bo'lardi deysiz? Nahotki gavanda bog'loq turgan baliqchi qayiqlari kam bo'lsa?.. Shulardan bittasini nahotki yollab bo'lmasa... dengizchilar bilan kelishish... o'sha zahotiyoq qayiqqa chiqishu yelkanlarni ko'tarib, shimoli-sharqqa qarab yo'l olish nahotki shuncha qiyin bo'lsa?..

– Bir og'iz ham arabchani bilmaganimizdan keyin ular bilan qanday kelisha olamiz?.. – e'tiroz bildirdi Jyuel.

– Ular bo'lsa bitta ham fransuzcha so'zni bilishmaydi, – ulab ketdi Tregomen.

– Xo'sh, nimaga bilishmaydi ular? – deb o'dag'ayladi Antifer tog'a bo'g'ilib.

– Bu ularning xatosi... ha, kechirib bo'lmaz xatosi ularning!.. – deb javob berdi Jildas Tregomen, yon bersam do'stim sal shashtidan tushar degan umidda.

– Hammasiga sen aybdorsan, Jyuel!

– Yo'q, amaki! Hamma ishni iloji boricha o'rniga qo'yishga harakat qilganman! Tilmochimiz albatta keladi... Aytmoqchi, unga ishonmasangiz, unda Binni Umar bilan gumashtasiga murojaat qila qoling – ular arabchani bilishadi-ku... Ana, ularning o'zlari ham sohil yoqalab kelishyapti...

– Ularga murojaat qil deysanmi? Hech qachon! Bas, yetar... Orqamizdan shatakday ergashib yurganlarining o'zi ham yetar!

– Aftidan Binni Umar bu yoqqa tashrif buyurmoqchi ko'rinadi, – dedi Jildas Tregomen.

– Juda soz, qayiqchi, qani yo'lab ko'rsin-chi! Uni shunday to'pga tutayki, jahannamga ravona bo'lsin!

Darhaqiqat, Souk bilan notarius maluinning yo'liga tuzoq qurishgan edi. Antifer tog'a karvon-saroydan chiqishi bilanoq ortidan ergashishgandi. Ularning maqsadi tog'ani ko'zdan qochirmaslik; oqibati fojiaga aylanishi mumkin bo'lgan bu moliyaviy rejaning intihosi paytida hozir bo'lish edi.

Souk Binni Umarni dahshatli Per-Servan-Malo bilan gaplash deb qistardi. Biroq Antifer tog'aning darg'azabligini ko'rgan notarius undan albatta haqorat eshitishini bilib, yoniga borishga botinolmasdi, Souk iloji bo'lsa, bu quyon yurak sansalorchini jon-jon deb narigi dunyoga jo'natardi. O'zini fransuzchani bilmaydiganga solib bekor qil-

gan ekan, fransuzlar bilan o'zi gaplasha qolgan bo'lardi.

Jyuel esa o'z navbatida amakisining Binni Umarga qilayotgan chidab bo'lmas muomalasi ishga faqat zarar yetkazishi mumkin ekanligini yaxshi tushunardi. Notariusning Antifer tog'aning yoniga yo'lashga jur'at etolmay turganini ko'rib, u bu qulay fursatdan foydalanmoqchi bo'ldi.

– Menga qarang, amaki – dedi Jyuel, – gapimga quloq bering. Mendan rosa jahlingiz chiqishi mumkin, mayli. Ahvolni jiddiyoq o'ylashib, muhokama qilaylik, bunga yetarli miyamiz bor...

– Men ahmoqona degan narsani balki sen aqlli gap dersan, avval ana shuni anglab olish kerak!.. Xo'sh, nima demoqchisan, qani?

– Ko'zlagan manzilimizga yetay deb turgan daqiqada ham Binni Umarga teskari qarab turaverasizmi, sizdan shuni so'ramoqchiydim.

– Ha, teskari qarab turaveraman! Bu ablah burchini bajarib, o'ziga topshirilgan sirni menga aytish o'rniga, ayyorlik bilan menikini bilib olmoqchi bo'ldi... U tovlamachi, firibgar!

– Buni bilaman, amaki, innaykeyin uni oqlamoqchi ham emasman. Lekin xohlaysizmi, yo'qmi, baribir u ish qoshida bo'lishi shart. Ko'mulk poshsho vasiyatnomasining bir bandida shunday deyilmaganmi axir?

– Ha, shunday deyilgan.

– Uchala bochkachani kavlab o'layotganingizda tepasida, orolda bo'lishi kerakmi u?

– Ha.

– Boylikning yuzdan bir ulushi o‘ziga vasiyat qilingani sababli xazinaning qiymatini aniqlashga haqi bormi?

– Ha.

– Modomiki bu ish bajarilayotganda u tepasida turishi shart ekan, qani ayting-chi, sizningcha bu ishning qachon va qayerda sodir bo‘lishini bilishga haqi bormi uning?

– Ha, bor.

– Shunday ekan, sizning aybingiz yoki hatto boshqa biror sabab bilan u vasiy sifatida hozir bo‘lolmay qolgan taqdirda, vorislik masalasi mojaroga olib kelishi va ish sudga borib taqalishiga bahona bo‘lmasmikin u?.. Unda sizning boy berishingiz turgan gap. Shunday emasmi?

– Shunday.

– Demak, amaki, Binni Umar bilan birgalikda ko‘rfaz bo‘ylab sayohatga chiqish uchun rozilik berishga majbur ekansiz-da!

– Ha.

– Ana endi siz, albatta, unga biz bilan safarga chiqishga tayyorlanaver deysiz-da, a?

– Yo‘q! – deb javob berdi Antifer tog‘a.

U «yo‘q» degan so‘zni shunday dag‘dag‘a bilan aytdiki, bu javob notariusning ko‘ksiga xuddi o‘qday borib qadaldi.

– Menga qara, – deb gapga aralashdi Jildas Tregomen, – sen aql-idrok ovozigga quloq solishni istamayapsan, sen nohaqsan. Nega qaysarlik qilib, taqdir oqimiga qarshi suzmoqchi bo‘lasan? Jyuelning so‘ziga kirib, uning maslahatiga yursang oqilona ish qilgan bo‘lasan. Binni Umar senga qanchalik yoqmasa menga ham shunchalik

yoqmaydi, albatta, illo uning biz bilan birga bo'lishi shart ekan, taqdirga tan beraylik-da, axir...

Jildas Tregomen kamdan-kam bunday uzoq gapirardi, buning ustiga ko'pincha do'sti ham so'zini og'zidan yulib olib, oxiriga yetkazishga qo'ymasdi. Biroq bu safar Tregomen o'z dalil-isbotlarini batafsil o'rtaqa tashlab bo'lmagunicha Antifer tog'aning mushtlari qanday siqilganini, tishlari g'ijirlab, aftining qanday bujmayganini asti qo'yavering... O'zining so'zamolligidan mamnun bo'lgan bu oq ko'ngil odam, qaysar do'stimni ishontira oldim, deb ishongandi.

– Bor gapingni gapirib bo'ldingmi, qayiqchi?
– deb so'radi Antifer tog'a.

– Ha, – deb javob berdi Jildas Tregomen, Jyuelga g'olibona qarab qo'yarkan.

– Sen ham gapirib bo'ldingmi, Jyuel?

– Ha, amaki.

– Juda soz! Unday bo'lsa, bor, boraverlaring! Agar o'sha mutasaddi bilan maslahatlashmoqchi bo'lsalaring, marhamat, men qo'l-oyoqlaringdan ushlab turganim yo'q. Menga qolsa u razil va firibgardan boshqa narsa emas! Keyin – xayrli kunmi, xayrli kechmi, keragini o'zlaring tanlab olaverlaring!

Shunday deb, Per-Servan-Malo yerni ostin-ustun qilib yuborgudek bo'ralab so'kindi, og'zidagi trubkasi naychaga solib puflangan no'xatdek otilib ketdi, so'ngra xuddi shamol uchirib ketganday, hatto trubkasini ham olmay g'oyib bo'ldi.

Harqalay Jyuel qisman bo'lsa-da, o'z maqsadiga erishgan edi. Antifer tog'a bu o'zining burchi

ekanini tushunib, jiyaniga notariusni rejalari bilan tanishtirishni man etmadi. Binni Umar Soukning qistovi bilan Jyuelning yoniga kelganida (u maluin ketgach sal dadillashgandi) darrov gaplari qovusha qoldi.

– Janob, – dedi notarius ikki bukilib, o‘zining bu itoatkorona turishi bilan murojaat etishga jur‘at qilgani uchun kechirim so‘rayotgandek, – janob, afv etasiz, kamtarin qulingiz mabodo...

– To‘g‘ridan-to‘g‘ri ishga o‘tavering! – dedi Jyuel. – Xo‘sh, nima kerak sizga?

– Safarimiz nihoyasiga yetdimi, yo‘qmi, shuni bilmoqchiydim.

– Deyarli yetdi.

– Izlagan orolimiz qayerda?

– Dengizda, Soxordan o‘n ikki le narida.

– Ie! Yana dengizda suzamizmi? – deb qichqirib yubordi Binni Umar.

– Shubhasiz.

– Ha, bu siz uchun og‘ir, – dedi Tregomen, hushi uchib, yuragi yorilayozgan bechora notariusga rahmi kelib.

Souk esa suhbat o‘ziga notanish tilda borayotganidan bir og‘iz ham so‘zni tushunmayotgan odamdek ularga mutlaqo beparvo qarab turardi.

– Barakalla-ye... sal dadilroq bo‘ling, – dedi Jildas Tregomen. – Ikki yoki uch kunlik suzish ko‘z ochib-yumguncha o‘tadi-ketadi. Menimcha pirovardi-oqibatda tuppa-tuzukkina dengizchi bo‘lib qolasiz... ha, o‘rganib ketasiz! Axir sizni Umar deydilar-a...

Notarius bosh chayqab qo‘ydi-da, sovuq ter marjonday terilib turgan peshonasini artdi. So‘ngra ayanchli ovoz bilan Jyuelga dedi:

– Kemaga qayerda o'tirmoqchisizlar?

– Shu yerda.

– Qachon?

– Safarga chiqishga taxt bo'lishi bilanoq.

– Qay paytda?

– Yo bugun kechqurun, yo aniqrog'i ertaga ertalab. Tayyor bo'lib turinglar, o'zingiz xam, agar u sizga juda zarur bo'lsa, gumashtangiz Nozim ham.

– Tayyor bo'lib turaman... ha-ha, tayyor bo'lib turaman... – deb ishontirdi Binni Umar.

– Ollo madadkor bo'lsin sizga! – deb qo'shib qo'ydi Tregomen, Antifer tog'a yo'qligida u o'zining tabiiy saxiyligi hamda oq ko'ngilliligini bemalol namoyish qila olardi.

Binni Umar bilan Soukka o'sha la'nati orolning geografik o'rnini aytganda, boshqa narsani bilishning hojati yo'q edi. Lekin yosh kapitan buni aytishni lozim topmadi, shundan keyin ular nari ketishdi.

Jyuel kema bugun kechqurun yoki ertaga ertalab yo'lga chiqadi deb aytib shoshilmaganmikin? Jildas Tregomen buni unga o'sha zahotiyoy aytdi. Chindanam, soat allaqachon uch bo'ldi-yu, tilmochdan esa hamon darak yo'q, Bordi-yu, Selikning xizmatidan voz kechiladigan bo'linsa, unda soxorlik baliqchilar bilan faqat imo-ishora orqali keli-shish amri mahol-ku! Ularga kema yollamoqchi ekanliklarini, nimani izlamoqchi va ko'rfazning ichkari tomoniga bormoqchi ekanliklarini qanday tushuntirib, qanday kelishib oladilar?.. Bu mushkul ahvoldan qanday qutuladilar? To'g'ri, Binni Umar bilan Nozim arabchani bilishadi, ammo-lekin ularga murojaat qilish qanday bo'larkin?..

Omadlariga Selik va'dasining ustidan chiqdi. Bordi-yu, so'zining ustidan chiqmaganida ham bundan nima manfaat ko'rardi u? Tregomen bilan Jyuel soat beshlarda, endi karvonsaroyga jo'nay deb burilganlarida, estakada yonida Selik yo'liqib qoldi

– Nihoyat! – xitob qildi Jyuel.

Selik kech qolgani uchun uzr so'radi. U kemani bir amallab topibdi, juda katta pul va'da qilishga to'g'ri kelibdi.

– Buning ahamiyati yo'q! – dedi Jyuel. – Bugun kechqurun dengizga chiqa olamizmi?

– Yo'q, – javob berdi Selik. – Kema ekipaji juda kech yig'ilishdi.

– Qachon yo'lga tusha olamiz unda?

– Saharda.

– Bo'pti, kelishdik!

– Men sizlarni olib ketgani karvonsaroyga boraman, – qo'shib qo'ydi Selik, – suv qaytishi bilan yo'lga tushamiz.

– Muvofiq shamolda shitob bilan suzib ketamizda, – dedi Jildas Tregomen.

Darhaqiqat, havo safarning juda soz bo'lishidan darak berib turardi, chunki g'arbdan shamol esmoqda edi, Antifer tog'a esa o'z orolini sharq tomondan izlashi kerak edi.

O'N BESHINCHI BOB

*Jyuelning ajoyib havodan foydalanib,
Antifer tog'aning topshirig'i bilan qo'yosh
balandligini o'lchagani*

Ertasiga sahar chog'i, nurafshon quyoshning ilk nurlari hali ko'rfaz betiga jilo berib, o'z zar kokillarini yoyib ulgurmasidan, Selik karvonsaroy hujrasi eshigini taqillatdi. Tuni bilan mijja qoqmagan Antifer tog'a ko'z ochib-yumguncha kiyinib bo'ldi. Jyuel ham amakisidan keyin shoshapisha kiyina boshladi.

– Kema tappa-taxt, – dedi Selik.

– Orqangizdan yetib boramiz, – deb javob berdi Jyuel.

– Qayiqchi qani? – deb qichqirdi Antifer tog'a. – Hali u delfinga o'xshab taltayib yotgandir! Hozir boplab silkilab tashlay!

Shunday deb u butun karvonsaroyini boshiga ko'tarib hurrak otib yotgan delfinning hujrasiga qarab yurdi. Shiddatli silkinishdan Tregomenning ko'zlari ochilib ketdi.

Bu orada Jyuel kecha kelishib qo'rganlariday notarius bilan uning gumashtasini ogohlantirgani jo'nadi. Ular allaqachon tayyor bo'lib turishgan ekan. Nozim sabrsizlanayotganini arang yashirar, rangi pag'a bo'lib oqarib ketgan, Binni Umar esa bazo'r oyoqqa bosib turardi.

Ikkala misrlikka ko'zi tushgan Selik taajjubini yashirolmadi, buni yosh kapitan o'sha zahotiyuq payqadi.

Darhaqiqat bu ajablanarli hol edi. Turli mil-latdan bo'lgan bu kishilar qanday qilib inoqla-shishgan va ko'rfazni tekshirgani birgalashib bo-rishga nima undagan? Mirshabxona ayg'oqchisida shubha uyg'otish uchun shuning o'zi kifoya edi.

– Anavi ikkala muhojir ham sizlar bilan boradimi? – deb so'radi u Jyueldan.

– Ha, – deb javob berdi Jyuel xijolatomuz, – ular bizning hamrohlarimiz. Biz ular bilan Suesdan Maskatga bitta aloqa kemasida kelganmiz...

– Ular tanishinglarmi?

– Albatta. Lekin ular bizdan nariroq yurishadi... chunki amakimning fe'l-atvori sal chatoqroq...

Jyuel poyintar-soyintar qilib javob berardi. Xo'sh, sirasini aytganda, u Selikka hisob berishga majbur emas-ku! Misrliklar fransuzlar shuni xoh-lagani uchun kelishgan bu yerga, tamom-vassalom!

Biroq, garchi vaziyatning bunday o'zgarishi Selikka g'oyatda g'alati ko'ringan bo'lsa-da, u sinchiklab so'rab-surishtirib o'tirmadi va uchala fransuzni tekshirgani singari misrliklarni ham diqqat bilan kuzatishga ahd qildi.

Shu payt Tregomenni surgab Antifer tog'a kelib qoldi – shatakka oluvchi kema xuddi ulkan savdo kemasini tortib kelayotganga o'xshardi. Agar bu o'xshatishni davom etdiradigan bo'lsak, yuqorida aytgan savdo kemamiz imillab safarga hozirlanayotganday edi: Tregomenning uyqusi hamon tarqamagan, ko'zlari yumilib ketayotgandi.

Per-Servan-Malo o'zini Binni Umar bilan Nozimni ko'rmaganga solganini aytib o'tirishning hojati ham bo'lmasa kerak. Antifer tog'a oldinda, uning yonida Selik, qolganlar esa orqada portga qarab yo'lga tushishdi.

Chog'roqqina to'lqin to'sarning chekkasida ikki machtali yaxta langarda turardi. Endi faqat katta-kichik yelkanlarni yoyib yuborish qolgandi, xolos.

«Berbera» deb atalgan bu yaxtada yigirma chog'li matros bor edi. Bu matroslar hajmi ellik tonna keladigan kichikkina kema xizmatini bajarish uchun ortiqcha edi. Jyuel buni darrov fahmladi, lekin hech kimga bu haqda og'iz ochmadi. Darvoqe, ko'p o'tmay yana bir narsani angladi: yigirma kishilik kema ekipajidan kam deganda yarmi dengizchilar emasdi. Chindan ham bular Soxor mirshabxonasining ayg'oqchilari bo'lib, Selikning buyrug'i bilan kemaga chiqishgan edi.

Vaziyatni tarozuga solib ko'rgan biror aqli raso kimsa shu topda Komulk poshsho merosxo'ring yuz millionini o'n pistolga ham olmasdi... mabodo bu boylik umuman o'sha orolda bo'lsa, albatta.

Safarchilarimiz «Berbera»ga bunday mashqlarga o'rganib ketgan dengizchilardek epchillik bilan chiqib olishdi. Tregomenning og'irligidan yengilgina kema chap tomonga sal og'ib ketganini haqiqatni yashirmaslik uchun aytishga majburmiz. O'takasi yorilayozgan notariusni Nozim dast ko'tarib, palubaga itqitmaganida, uning kemaga chiqishi oson bo'lmasdi. Yon tomondan urilayotgan to'lqin natijasida kema chayqalarkan, Binni Umarga o'sha zahotiyoq ta'sir etdi va u zing'illaganicha kema quyrug'idagi hujrachaga kirib ketdi. Shu ondayoq ayanchli ingrangan tovush eshitila boshladi. Asboblarni esa nihoyatda avaylab olib chiqildi. Xronometrni Tregomen dastro'moliga solib, ro'molchanning to'rtala burchagidan mahkam ushlab olib chiqdi.

Kemaning egasi, badqovoq chehrali kekxa arab langar zanjirini tortib, yelkanlarni ko'tarishga buyruq berdi va Jyuelning Selik orqali bergan ko'rsatmasi bilan shimoli-sharq tomon yo'l oldi.

Shunday qilib, kema orol tomon borardi. Agar g'arbiy shamol uzluksiz esib tursa mo'ljallangach yerga bir kecha-kunduzda yetib olish mumkin edi. Biroq o'jar tabiat hamisha insonlarga qarshi biror shumlikni o'ylab chiqaradi. Mana hozir ham bir tomondan qulay shamol esayotgan bo'lsa, ikkinchi yoqdan osmon tutash bulutlar bilan qoplangan edi. Ular faqat Sharqqa qarab suzibgina qolmay, balki qat'iy belgilangan joyga to'ppa-to'g'ri borishlari zarur edi. Buning uchun uzunlik va kenglikni ikki marotaba: birinchi marta choshgoh payti va tushdan keyin, ikkinchi marta quyosh meridiandan o'tayotgan daqiqada kuzatish lozim edi. Toki olam chirog'i – quyosh jamol ko'rsatib odamlarni baxtiyor etmaguncha Jyuel uning balandligini aniqlayolmasdi. Bugun esa bu injiq chiroq zo'r berib ko'rinmaslikka tirishardi.

Ana shuning uchun ham Antifer tog'a «Berbera»ning palubasida u yoqdan bu yoqqa borib-kelarkan, toqati toq bo'lib, dengizdan ko'ra ko'proq ko'kka tikilardi. Ha, ha, u hozir tuman pardasi bilan qoplangan olislarda orol ko'rinib qolarmikin deb emas, balki quyoshga termulardi.

Kemaning quyruq tomonidagi bort yoniga o'tirib olgan Tregomen dilsiyohlik bilan bosh chayqardi. Uning yonginasida turgan Jyuelning chehrasiga o'kinch alomatlari qalqqandi. To'sqinlik... yana bir to'sqinlik... Nahotki bu sa-farning nihoyasi bo'lmasa? Shunday deb o'ylarkan

u xayolan yuzlab le olislarga, Sen-Maloga, hali yetib bormagan maktubini intizorlik bilan kutayotgan sevikli yori yashayotgan mo'jazgina uyga ko'chdi.

– Bordi-yu, bugun bu quyosh ko'rinmasa-chi, unda nima bo'ladi? – deb so'rab qoldi Tregomen.

– Unda kuzatish o'tkazolmayman, – deb javob berdi Jyuel.

– Quyosh ko'rinmayotganda oy yoki yulduzlarga qarab hisoblab bo'lmaydimi?

– Bo'ladi, albatta, lekin hozir oy boshi-da, yulduzlarga kelsak, xuddi kunduzgiga o'xshab kechasi ham bulutli bo'ladi, deb qo'rquyapman. Bundan tashqari, kuzatish shundoq ham qiyin ish, manavi yaxta singari chayqalib turadigan kemada buni bajarish mushkul.

Haqiqatan shamol tobora kuchayib borardi. G'arbda xuddi bahaybat vulqon og'zidan otilib chiqayotgandek, qop-qora bulutlar o'ralib-buralib ko'k sari o'rlardi. -

Tregomenning diqqati oshib ketdi. U o'ziga ishonib topshirilgan yashikdagi xronometrni tizzasiga qo'yib o'tirardi, Jyuel bo'lsa sekstantni qo'lida ushlab turarkan, uni ishga solish fursatini behuda kutardi.

Qo'qqisdan oraga cho'kkan sukunatni Antifer tog'aning bo'ralab so'kishi va uzuq-yuluq gaplari buzdi. U injilda aytilishicha bir vaqtlar Iso Navinga⁶⁴ quloq solgan, hozir esa maluinimizning

⁶⁴ Iso Navin – tavrot afsonalaridan biridagi yahudiylarning afsonaviy rahnamosi, u xudodan dushman qorong'ida ta'siodan qochib qutulmasin deb quyoshning yurishini to'xtatib turishini iltijo qilgan ekan.

jo'ngina bir istagini bajo keltirishni istamayotgan quyoshga qarab musht do'layardi.

U go'yo tog'ani mayna qilayotgandek, goh-goh bulutlar orasidan mo'ralab qo'yardi. Bulutlar ham xuddi yov quvayotgandek, yoxud arshi a'loga chiqib olgan yalmog'iz bir igna sanchishda tikib qo'yayotgan yirtiq ko'rpaday zum o'tmayoq tutashib ketardi. Quyoshning balandligini o'lchab olishga imkon beradigan fursat bo'lmadi, chunki u yuqorida aytganimizdek lahzadayoq yuziga parda tortardi. Jyuel u yilt etib ko'ringanda bundan foydalanib qolishga bir necha bor urinib ko'rdi-yu, biroq bari harakati behuda ketdi.

Arablar bu dengizchilar asboblaridan nima maqsadda foydalanishlaridan bexabar ekanliklaridan yosh kapitanning nima qilmoqchi bo'layotganiga sira aqlari yetmasdi. Hatto boshqalarga qaraganda xiylagina bilimdonroq bo'lgan Selik ham quyoshni kuzatish Jyuel uchun qanchalik ulkan ahamiyatga ega ekanini tushunmasdi. Biroq, sayohatchilarning nimadandir ta'blari juda xira ekanini hammalari ochiq-oydin ko'rib turardilar. Palubada u yoqdan bu yoqqa zir yugurib, bo'ralab so'kayotgan, ko'kka qarab la'natlar yog'dirayotgan, xullasi-kalom, o'zini savdoyilardek tutayotgan maluinga qarab-qarab qo'yisharkan, bu o'zi jinni emasmikin, deb o'ylashardi arablar. Yo'q, hali u jinni bo'lganicha yo'q, ammo-lekin telbalikdan olisda ham emasdi. Jyuel bilan Tregomenning eng qo'rqqan narsasi ham shu edi.

Birgalashib nonushta qilib olamiz, deganlarida Antifer tog'a har ikkoviga ham o'dag'aylab berdi. U bir burda non yeb, asosiy machtaning yoniga,

shundoq palubaga cho'zildi-da, gapirib uni bezovta qilishlarini man etdi.

Havo tushdan keyin ham o'zgarmadi. Osmon hamon quyuq bulut bilan qoplangandi. Dengiz «allanimani oldindan sezayotgandek» (dengizchilar shunday deyishni yaxshi ko'rishadi) juda notinch edi. Haqiqatan ham u Ummon ko'rfazi uzra teztez bo'lib turadigan, janubi-g'arbning hamma yoqni ostin-ustun qilib yuboradigan po'rtanasi qo'zg'alayotganini oldindan sezgan ekan. Misr sahrolaridan bostirib keladigan bu dahshatli hamsinlar⁶⁵ ba'zan qo'qqisdan shartta yo'lini o'zgartirib, sal shashti qaytib, arab sohillariga tashlanadi, Hind okeani to'lqinlariga to'sh urib, kun-payakun bo'lib ketadi.

«Berbera» bahaybat to'lqinlar girdobida qolgandi. Yelkanlarining bog'ichi kalta va asosi yassi bo'lgani sababli u yondan hamla qilayotgan halokatli, bahaybat to'lqinlarga dosh berolmas, bir joyda osoyishta to'xtab turolmasdi. Faqat birgina iloj qolgandi. Bu ham bo'lsa, shimoli-sharqqa qarab shitob bilan suzish. Jyuel buni yaxshi tushungandi. Agar Antifer tog'a kemani ehtiyotkorlik va epchillik bilan boshqarayotgan arabning xatti-harakatiga e'tibor berganida, u ham buni tushungan bo'lardi. Umuman kema ekipaji chinakam dengizchilardek o'zlarini mardona va xotirjam tutardi.

Bu jasur kishilar Ummon ko'rfazida bunaqa bo'ron bilan birinchi marta olishayotganlari yo'q. Biroq ekipajning yarmi bu dahshatli po'rtanaga

⁶⁵ Hamsin – Nil daryosi toshadigan pallada Misr bo'ylab ellik kun mobaynida janubdan esib turadigan issiq va quruq shamol.

xotirjamlik bilan dosh berayotgan bo'lsa, qolgan matroslar palubaga uzala tushib yotib olgan, kema chayqalishidan azob chekardi. Bularning ilgari hech qachon kemada suzmaganlariga sira gumon yo'q edi. Ana shunda Jyuelning xayolidan quyidagilar kechdi: ha, ha, bular kiyimini o'zgartirib olgan mirshabxona ayg'oqchilari, albatta... Selik ham shulardandir balki... Darhaqiqat, Komulk poshsho merosxo'rining ahvoli mushkullashib, ish nihoyat badbin tomonga yuz burgandi.

Havoning bunday ayniganidan Souk ham darg'azab edi. Mabodo bo'ron bir necha kun davom etib, kuzatish olib borib bo'lmasa, unda orolning qayerga joylashganini qanday aniqlash mumkin? Palubada turaverishdan hech qanday foyda chiqmasligini ko'rgan Souk kema quyrug'idagi hujraga yashirinishga ahd qildi. Bu yerda kema chayqalishi bechora Binni Umarni mustahkamlab qo'yilgan jonidan chiqib ketgan bochkaday u yoqdan bu yoqqa dumalatardi.

Jyuel bilan Tregomen Antifer tog'ani pastga tushishga ko'ndirmoqchi bo'lib urinib ko'rishdi, lekin bundan qat'iyan bosh tortdi. Shundan keyin ular tog'ani machta yonida, qatronlangan va cheti qayrilgan brezent soyabon ostida qoldirib, o'zlari kema komandasi xonasiga kirib, u yerdagi kursilarga cho'zilishdi.

– Ekspeditsiyamizning oqibati xunuk bo'ladigan-ga o'xshaydi, – deb g'o'ldiradi Jildas Tregomen.

– Men ham shundan qo'rqyapman, – dedi Jyuel.

– Noumid bo'lmaslik kerak, bo'tam. Havo ochilib ketar, ana unda quyoshning balandligini aniqlab olasan...

– Umid qilamiz, janob Tregomen.

Biroq u, xavotirga solayotgan narsa mutlaqo ob-havo emas (quyosh qachon bo'lmasin, hatto Ummon ko'rfazi uzra ham, baribir ko'rinadi... Agar haqiqatan ham mavjud bo'lsa, orol ham topiladi), balki «Berbera»dagi shubhali kishilar ekanini aytmadi.

Tumanli, zim-ziyo tun mo'jazgina kema uchun jiddiy xavf-xatar tug'dirardi. Bu xavf yaxtaning yengilligida emas (yengilligi tufayli u dahshatli to'lqinlardan omon qolardi, chunki to'lqinlar uni yelkasida ko'tarib, balandga olib chiqib ketar va kuchli zarbalardan saqlab qolardi), balki quturib daf qilayotgan po'rtananing to'satdan kuchayib kelgan hamlisi edi, ana shunday paytda kekxa dengizchi – kema egasining tajribasi ish bermaganida u allaqachon to'ntarilib ketgan bo'lardi. Kemaning egasi yaxtani o'n martacha bunday halokatdan asrab qoldi.

Tun yarimdan oqqanda yomg'ir yog'a boshladi va shamol pasaya bordi. Ehtimol bu havoning o'zgarishidan dalolatdir? Yo'q, rost, tong otishi bilan bo'ron pasayib, momaqaldiraq ham bo'lmaydigandek edi-yu, lekin osmon hamon bulutli va atrofni tuman qoplagandi. Tungi jaladan keyin pastroqdagi bulutlardan shaffofdek tiniq va unday mayda yomg'ir yog'a boshladi.

Jyuel palubaga ko'tarildi va alam bilan peshonasini tirishtirdi, bunday havoda hech qanaqangi kuzatish olib borib bo'lmasdi, yo'lini o'zgartirgandan keyin hozir kema qayerga kelib qolganikin? Kechasi bo'ron uni qay tarafga va qancha joyga surib kelganikin? Ummon ko'rfazini

juda yaxshi bilishiga qaramay kema egasi bu savollarga javob berolmadi. Chor atrofda, to ko'z ilg'agunga qadar masofada tirnoqcha bo'lsa-da, yer qorasi ko'rinmasdi. Orol orqa tomonda qolmaganmikin? Bu ehtimoldan holi emas, chunki g'arbdan esayotgan shamolning zo'ri bilan «Berbera» keragidan ortiq darajada sharqqa qarab og'ib ketgan bo'lishi mumkin. Har holda, kuzatish olib bormasdan biron nima deyish qiyin.

Per-Servan-Malo brezent ostidan chiqib, kema tumshug'iga borib turdi. Ufqqa tikilarkan, yana dag'dag'a va do'q-po'pisalar qila boshladi. Lekin u jiyaniga bir og'iz ham gapirmadi va bir yerda qotib turaverdi.

Jyuel amakisiga biron nima deyishga botinolmasdi. Selik bo'lsa uni ming bir savolga ko'mib tashladi. U bu savollarga to'g'ri javob berishdan qochib, gapni chalg'itardi.

Tilmoch uning yoniga kelib, shunday gap boshladi:

– Attang, bugungi kun ham juda nokulay boshlandi-da!

– Ha, judayam noqulay.

– Anavi asboblaringiz bilan yana quyoshga qarayolmaydigan bo'ldingiz-da, a?

– Shunday bo'lsa kerak deb qo'rqaman.

– Unda nima qilasiz?

– Kutaman.

– Sizga shuni aytib qo'yayki, kemaga faqat uch kunlik oziq-ovqat g'amlangan, bordi-yu, havo ochilib ketmasa, Soxorga qaytishga majburmiz.

– Ehtimol.

– Unda Ummon ko'rfazini tekshirish niyatingizdan qaytarkansiz-da?

– Balki shunday bo‘lar... yoki, loaqal, ekspeditsiyani ob-havo tuzuk bo‘ladigan paytga qoldirarmiz.

– Qulay paytni Soxorda kutasizmi?

– Soxordami yoki Maskatdami, farqi yo‘q.

Yosh kapitan Selik bilan juda ehtiyotkorona gaplashardi, chunki endi unga ayniqsa ishonmay qo‘ygandi. Shuning uchun ham tilmoch yigitdan hech nimani bilib ololmadi.

Tregomen bilan Souk palubaga deyarli bir vaqtda chiqib kelishdi. Birining chehrasiga umidsizlik qalqqan bo‘lsa, ikkinchisining esa butun ufqni tuman qoplab olganini, «Berbera»dan uch-to‘rt yuz metr narini ko‘z ilg‘ayolmasligini ko‘rib g‘azabdan afti tirishib ketdi.

– Ishlarimiz chatoqmi deyman? – deb so‘radi Jildas Tregomen yosh kapitan bilan qo‘l olisharkan.

– Judayam chatoq! – deb javob berdi Jyuel.

– Do‘stimiz qayoqda?

– U yoqda... oldinda...

– Peshonasini bortga urib olmasa go‘rgaydi...
– deb pichirladi Tregomen.

U, do‘stim umidsizlikka tushib, dili siyoh bo‘lib ketgan paytda o‘zini o‘zi nobud qilib qo‘ymasin, deb hamisha qo‘rqib yurardi.

Butun erta iztirobli kutish bilan o‘tdi. Sekstant yashikning tagida yotardi, hozir u xuddi qimmatbaho ziynatlar saqlanadigan qutichaga solib yashirib qo‘yilgan marjonday befoyda bir narsa edi. Qalin tuman pardasi ortidan shu topda aqalli bir tolim quyosh nuri o‘tolmasdi. Choshgohga borib Jildas Tregomen keyin afsuslanmaslik uchun xronometrni palubaga olib chiqib, tekshirib ko‘rmoqchi bo‘ldi,

biroq Parij vaqti bilan hozir «Berbera» turgan Ummon ko'rfazining bu nuqtasi vaqti orasida farq borligi tufayli, uzunlikni aniqlashda undan foydalanib bo'lmadi. Peshindan keyin ham havo yaxshilanmadi. Kemaning qayerdaligi hamon mavhum bo'lib qolaverdi.

Keksa arab ham Selikka xuddi shu haqda gapirib, agar havo ertasiga ham o'zgarmaydigan bo'lsa, kemani g'arbga burib, yaqin oradagi quruqlikka qarab yurajagini aytib, uni ogohlantirib qo'ydi. U yana: «u sohilning qayeridan chiqarkinmiz hali? Soxor kengligidanmi, Maskat yaqinidanmi yoki undan ham naridan, Ormuz bo'g'ozi ro'parasidan yoxud Hind okeani sohillaridagi Rasul-Had burni joylashgan kenglikdan chiqib qolarmikinmiz?» – dedi.

Selik «Berbera» xo'jayinining niyatini Jyuelga aytib qo'yishni o'zining burchi deb bildi.

– Mayli, shunday qila qolsin, – deb javob berdi yosh kapitan.

To qosh qorayguncha ham hech qanday yangilik bo'lmadi. Hatto quyosh botayotgan daqiqada ham yilt etgan nuri quyuq tuman pardasini yorib o'tolmadi. Bu orada yomg'ir deyarli tingan, xuddi suv to'zoniday sezilmasdi ham. Bu havoning o'zgarishidan dalolat emasmikin? Shamol ham tingan edi; faqat ahyon-ahyonda yengilgina shabada esib qo'yardi.

Tregomen qo'lini suvga tiqib, balandga ko'targandi, sharqdan mayingina shabada esayotganini sezdi.

«Eh! Qani endi shu topda «Go'zal Ameliya»da Ransning go'zal sohillari orasidan suzib ketayotgan

bo'lsam, nima qilishimni o'zim bilardim-a!» – deb xayolidan o'tkazdi u.

Biroq «Go'zal Ameliya»ning o'tinga sotib yuborilganiga ko'p vaqtlar bo'lgandi, hozir «Berbera» ham Ransning go'zal sohillarini oralab suzib ketayotgani yo'q...

Jyuel ham o'z navbatida xuddi Tregomenga o'xshab kuzatish olib borardi. Bundan tashqari, uning nazarida quyosh ufq chizig'i ortiga yashirinayotgan daqiqada, go'yo qiziqsinib eshik tirqishidan mo'ralagan odamday, bulutlar yirtig'idan bir qiyo boqib qo'ygandek bo'ldi.

Per-Servan-Malo ham bu oniy qiyo boqishni payqagandi shubhasiz, chunki uning ko'zlari chaqnab ketdi.

Kech ham kirdi. Faqat bir kunlik oziq-ovqat qolgani tufayli hamma yengil-yelpi ovqatlanib oldi. Agar «Berbera» olislab ketmagan bo'lsa, ertasiga albatta quruqlikka yetib olishlari shart edi.

Tun osoyishta o'tdi. To'lqinlar g'alayoni, ensiz ko'rfazlarda bo'lib turganidek, lahzada tinchidi-qoldi. Sharq tomondan esayotgan shamol bora-bora kemani o'ng tomon shamoliga moslashga majbur etdi; yaxtaning qayerdaligini aniq bilmagan xo'jayin Jyuelning Selik orqali bergan maslahatini bajardi va kema tong otishini kutib suzishdan to'xtadi.

Sahargi soat uchlarda tuman tarqab, osmon tiniq tusga kirdi va botib borayotgan tonggi yulduzlar miltillay boshladi. Bularning bari kuzatishning muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimolligidan darak berardi.

Darhaqiqat, tong otishi bilan quyosh zarrin nurlarini taratib, yotog'idan charaqlab chiqib keldi. Uning zar kokillari havoning pastki qatlamida sinib, lolarang tus kasb etdi, butun ko'rfaz sathiga sochilib, ko'zni qamashtira boshladi.

Jildas Tregomen yaltiroq shlyapasini boshidan olib, quyoshga iltifotli salom berdi. Dunyodagi bor quyoshparastlardan hech biri samovot charog'ini bunday kutib olmasa kerak.

Har qaysilarining boshidagi o'y-fikrlar qanday o'zgarib ketganini tasavvur etish qiyin emasdi. Kuzatish daqiqalarini matros va safarchilarning qanchalik sabrsizlik bilan kutayotganlarini asti qo'yaverasiz! Arablar yevropaliklarning hatto sohildan olisda turib ham kemanding qayerdaligini aniqlay olishlarini yaxshi biladilar. Tabiiyki, shu topda ularni «Berbera» ko'rfazdami yoki Rasul-Had burni tomon surib tashlanganmi, degan fikr juda qiziqtirardi.

Quyosh tobora balandlab borardi. Shishadek tiniq osmonda qatra g'ubor ko'rinmasdi, yosh kapitan, ana endi kenglikni aniqlaydigan bo'ldim, degan qarorga keldi.

Choshgoh payti Jyuel o'z tadorikini ko'ra boshladi.

Antifer tog'a tishini tishiga qo'yib, ko'zlari chaqnab, ammo miq etmay uning yonida turardi. Jildas Tregomen o'zining kattakon boshini chayqagancha, o'ng tomonda, Souk sal orqaroqda, Selik chap tomonda turishardi. Hammalari hozir bo'ladigan kuzatishni ipidan-ignasigacha tomosha qilishga hozirlanib turishardi.

Jyuel oyoqlarini palubaga mahkam tirab, sekstantni chap qo'liga oldi-da, dadillik bilan durbinini ufqqa to'g'riladi.

Kema yengil to'lqinlar uzra ohista chayqalib turardi.

Balandlik aniqlandi.

– Bo'ldi, tayyor, – dedi Jyuel.

So'ngra uni yoysimon shkaladagi raqamlar bilan solishtirib ko'rdi-da, hisoblab chiqish uchun kayutaga tushib ketdi.

Yigirma daqiqalardan keyin palubaga ko'tarilib, kuzatish natijalarini aytdi.

«Berbera» hozir shimoliy kenglikning 25°2' da ekan.

Bundan ayonki, kema orol joylashgan kenglikdan uch daqiqa shimolroqda ekan.

Hisoblashni oxiriga yetkazish uchun soat burchagini o'lchashgina qolgandi. Antifer tog'a, Jyuel, Tregomen va Souklar uchun vaqt hech qachon bunchalik imillab o'tmagandi. Ularning nazdida oshiqib kutgan daqiqalari hech qachon kelmaydigandek tuyulardi.

Biroq bu on yetib keldi, bu orada «Berbera» Jyuelning ko'rsatmalariga binoan sal janubroqqa qarab suzib bordi.

Soat ikki yarimda yosh dengizchi balandlikni bir necha bor o'lchab ko'rdi, Tregomen esa xronometrqa qarab vaqtни belgiladi. Zarur bo'lgan hisoblarni bajargach, Jyuel uzunlikni ham topdi: 54°58' ekan. Binobarin, kema izlayotgan orollaridan bir daqiqa sharq tomonda ekan.

Xuddi o'sha topda birovning qichqirgani eshitildi. Arablardan biri g'arb tomonda, taxminan

ikki milcha narida shaklsiz qorayib turgan tepalikni ko'rsatib qichqirardi.

– Mening orolim! – deb qichqirdi Antifer tog'a.

Ha, bu faqat uninggina oroli bo'lishi kerak, zero atrofda hech qanday yer qorasi ko'rinmasdi.

Shunday deya qichqirib, maluin shayton o'yiniga tushayotgandek irg'ishlab, qo'l-oyoqlarini silkib u yoqdan bu yoqqa zir yugura boshladi. Jildas Tregomenning uni o'zining bahaybat og'ushiga olib mahkam quchoqlab tinchitishdan o'zga iloji qolmadi.

Kema o'sha zahotiyoq ko'zga chalingan qoyalar sari burildi. Yelkanlarni qappaytirib turgan sharqdan esayotgan yengilgina shabada yordamida orolga yetib borish uchun yarim soat ham qifoya edi. Darhaqiqat, roppa-rosa o'ttiz daqiqada kema ko'zlangan manzilga yetib keldi. Kuzatish ishi boshlangan joydan bu yergacha bo'lgan masofani inobatga olib, Jyuel orolning koordinatlari Komulk poshsho ko'rsatgan raqamlarga to'ppa-to'g'ri ekaniga ishonch hosil qildi: orol Tomas Antifer o'g'liga vasiyat qilgan kenglikda – ekvatoridan shimoldagi $24^{\circ}59'$ da va Binni Umar Sen-Maloga keltirgan xuddi o'sha uzunlik – Parij meridianidan sharq tomondagi $54^{\circ}57'$ gradus ustida joylashgan edi.

To ko'z ilg'agan ufqqa qadar chor atrofda bepoyon Ummon ko'rfazigina yastanib yotardi.

O'N OLTINCHI BOB

*Komulk poshshoning behisob dengizlarni kezib
yurib, chindan ham Ummon ko'rfazida
bo'lgani hech so'zsiz isbot etilgani*

Shunday qilib, Antifer tog'a kam deganda yuz millionga baholagan orol rostdanam mavjud ekan. Bordi-yu, shu topda orolni aka-uka Rotshildlar adliya tili bilan aytganda «qanday bo'lsa shu turishicha», sira ikkilanmay sotib olmoqchi bo'lganlarida Antifer tog'a uni yarim frank kamiga ham bermasdi.

Sirtqi ko'rinishidan bu orol shir-yalang'och, hech qanday hosil bermaydigan, fayzsiz, hech narsa o'smaydigan, aylanasi ikki-ikki yarim ming metr keladigan, shunchaki tuxumsimon shakldagi toshlar uyumidan iborat edi. Qirg'oqlari arra tishi kabi o'tkir uchli tumshuq va sayoz qo'ltiqchalar bilan kesilgandi. G'arb tomondagi ana shunday qo'ltiqlardan birida «Berbera» panogoh topib, o'zini shamoldan panaga oldi. Bu yerda suv shunday tiniq ekanki, yigirma fut chuqurlikdagi yo'sinlar bilan qoplangan qumloq tubi ko'rinib turardi. Nihoyat yaxta to'xtadi. Qirg'oqqa urilib turgan zaif to'lqinlar uni ohista chayqatib turardi.

Notariusga shuning o'zi kifoya edi, u endi «Berbera»da biron daqiqa ham qolishni istamasdi. U bir amallab trap yoniga borib oldi-da, palubaga o'rmalab chiqib, endi narvonga oyoq qo'yimoqchi bo'lganida, Antifer tog'a shartta yelkasidan ushlab to'xtatdi.

– Ortiq bir qadam ham qo‘ya ko‘rmang, janob Binni Umar!.. – deb o‘shqirdi u. – Birinchi bo‘lib men tushaman, tushundingizmi?

Notarius tushundimi, yo‘qmi, qaysar maluinning o‘z oroliga birinchi bo‘lib qadam bosishini kutishga majbur edi. Antifer tog‘a shunday qildi ham, uning oyog‘idagi dengizchilar etigi qumda birinchi bo‘lib botiq iz qoldirdi.

Shundan keyingina Binni Umar ham pastga tushdi va oyog‘i yerga tekkach yengil tortib, chuqur tin oldi. Keyin boshqalar – Tregomen, Jyuel, Souklar tushishdi. Bu orada Selik orolni diqqat bilan kuzatarkan, muhojirlarning bu yerda nima qilmoqchi bo‘layotganlariga sira aqli yetmasdi... Shuncha qiyinchilik ko‘rib, shuncha pul sarflab, shuncha olisga safar qilishning nima keragi bor ekan?.. Xaritaga manavi qoyalarni belgilab, ularning dengizdagi geografik o‘rnini aniqlash uchun desa, kim ham ishonadi bunga!.. Bu gaplarning bari xuddi telbalarning ahmoqona qilmishiga o‘xshaydi-ku! Antifer tog‘ada-ku telbalikning ba‘zi belgilari paydo bo‘lgan deylik, biroq Jyuel bilan Tregomen haqida aslo bunday deb bo‘lmaydi: har qalay ularning aqli joyida-ku!.. Shunga qaramay ular ham bu sirli tadqiqotga faol ishtirok etyaptilar-ku! Buning ustiga yana anavi ikkala misrlikning bu shubhali ishga qo‘shilishganini aytmysizmi...

Muhojirlarning xatti-harakati Selikning gumonini yanada oshirib yubordi, shuning uchun u orolga tushib, orqalaridan kuzatib bormoqchi bo‘ldi... Biroq Per-Servan-Malo Jyuelga tushmasin

deb ishora qilgan edi, yosh kapitan Selikka bunday dedi:

– Bizni kuzatib borishingizning hojati yo‘q. Bu yerda tilmoch kerak emas... Binni Umar fransuzchani suvdek biladi...

– Xo‘p bo‘ladi, – deyishga majbur bo‘ldi Selik.

Mirshabxona ayg‘oqchisiga qanchalik alam qilmasin, bu masalada u bahslashib o‘tirishni istamadi. U Antifer tog‘aning xizmatiga yollangan ekan, vaqti-soati kelguncha uning har qanday buyrug‘ini ado etishga majbur. Ana shu boisdan Selik hozircha yon bergandi, lekin muhojirlar qaytishda «Berbera»ga biron nima olib keladigan bo‘lsalar, u bu ishga o‘z odamlari bilan birgalikda aralashadi.

Soat to‘rtlar chamasi edi – agar uchta bochkacha ko‘rsatilgan joyda bo‘lsa, ularni kavlab olishga hali vaqt yetarli edi. Bochkachalarning shu yerdaligiga esa maluinimiz aslo shubha qilmasdi.

«Berbera» ularni qo‘ltiqda kutib turadigan bo‘ldi, shunga kelishib olishdi. Yaxtaning egasi Selikning yordamida Jyuelni faqat soat oltigachagina langar tashlab turishi haqida ogohlantirib qo‘ydi. G‘amlangan oziq-ovqat deyarli tugab qolgandi. Saharda Soxorga yetib olish uchun hozir sharqdan esib turgan muvofiq shamoldan foydalanib qolish zarur edi. Antifer tog‘a bir og‘iz ham e‘tiroz bildirmadi. O‘ylagan rejasini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga shu vaqt ham kifoya edi.

Bu yerda uni nima ham ushlab qolardi? Axir butun orolni qadam-baqadam aylanib chiqib,

metrma-metr kavlab o'tirmaydi-ku. Maktubda xazinaning janubiy chekkadagi qoya etagiga ko'milgani va qoyaga ostinma-ustin qilib ikkita «K» harfi qo'yilgani ochiq-oydin yozilgan-ku. Metin bilan uchala bochkachani kavlab olish qiyin emas, keyin Antifer tog'a ularni birpasda kema yoniga zing'illatganча yumalatib keladi. U shohidlarsiz ish ko'rishni ma'qul bilardi. Vasiyatnomada ish tepasida turishi qayd etilgan Binni Umar va uning gumashtasi bundan mustasno, albatta. «Berbera»ning ekipaji bu bochkachalarda nima bor ekanligiga qiziqib o'tirmasa ham kerak, hamma qiyinchilik va mushkulliklar karvon bilan Maskatga qaytayotganlaridagina sodir bo'lishi mumkin. Biroq keyinroq g'amini yer buning...

Bir tomondan Antifer tog'a, Jildas Tregomen va Jyuel, Nozim bilan Binni Umar ikkinchi tomondan yon bag'irlikdan orol tepasiga ko'tarila boshladilar. Orolning dengiz sathidan o'rtacha balandligi yuz ellik futdan oshmasdi.

Ular yaqinlashishi bilan qora o'rdak galalari o'z panogohlariga bostirib kirgan bu notanish raqiblarga norozilik bildirib jon-jahdlari bilan g'ag'illaganча gur-gur osmonga ko'tarilardi. Kim bilsin, balki Komulk poshsho qisqagina muddatga kelib ketgandan beri bu yerga inson bolasi qadam bosmagandir.

Maluin metinni hech kimga bergisi kelmay, o'zi yelkasida ko'tarib borardi. Tregomen belkurakni ko'tarib olgandi, Jyuel esa qo'lidagi kompasni oldinga qilib ushlab olganча, hammani boshlab borardi.

Notarius oldinga o'tib ketmasligi uchun Soukni arang ushlab ketyapti. Binni Umarning oyoqlari garchi u palubadan allaqachon tushgan bo'lsa-da, hamon dag'-dag' qaltirardi. Biroq uning batamom o'zini o'nglab olganini, aqli-hushi ilgarigisidek joyiga kelib qolganini, yo'l azobini unutib, oldinda turgan qiyinchiliklarni hatto o'ylamay qo'yganini aytsak, kitobxon aslo ajablanmasa kerak. Binni Umarni mahliyo etgan xazina xuddi shu orolda-da. Bordi-yu, boylikni Souk qo'lga kiritganida ham vasiyatnomada qayd qilingan uning ulushini berishdan bosh tortmaydi, albatta, bu gapni ovoza qilmasin deb og'zimga urish uchun ham beradi baribir, deb o'ylardi u.

Orol toshloq ekan. Yurish ancha mushkul bo'ldi. Orolning markaziy qismiga yetish uchun oshib bo'lmas do'ngliklarni aylanib o'tishga to'g'ri keldi. Eng tepaga chiqqach shamolda bayrog'i hilpirab turgan «Berbera»ni ko'rishdi.

Bu yerdan orolning hamma yog'i ko'zga tashlanib turardi. U yer-bu yerda baland qoyalar sho'ppayib chiqqan, shulardan birining etagiga o'sha millionlar ko'milgan! Hech qanaqangi yanglishmovchilik bo'lishi mumkin emas, vasiyatnomada qoyaning janubiy yon bag'irlikda joylashgani ochiq-oydin yozilgan.

Jyuel bu qoyani kompas yordamida ko'p o'tmay topdi.

Orol bag'rini uzun tilday yorib chiqqan o'tkir cho'qqili burunni oppoq ko'pikli to'lqinlar qurshab olgandi.

Shunda yosh kapitan bu qoya etagiga ko'milgan boylik o'zi bilan yori o'rtasiga o'tib bo'lmas bir

to'siq bo'lib tushajagini o'ylarkan, qalbini alam tig'i tilib o'tdi. Endi u amakisining qaysarligini hech qachon buka olmaydi!.. Shularni o'ylarkan, uning qalbida vahshiyona bir istak – hamrohlarini noto'g'ri yo'ldan boshlab borish istagi tug'ilib butun vujudini qamrab oldi. Bu istakni u zo'r-bazo'r bosdi...

Tregomen esa ikki qarama-qarshi his iskanjasida qolgandi: bir tomondan Jyuel bilan Enogat qovusholmaydi deb qo'rqsa, ikkinchidan Komulk poshshoning merosi qo'lga kirmasa do'sti Antiferning aqldan ozishidan xavotirlanadi. Shunda g'azabi qaynab qo'lidagi belkurak bilan toshloq yerni qulochkashlab urgandi, atrofga tosh parchalari sachrab ketdi.

– Hoy qayiqchi... ha, seni nima jin urdi? – deb qichqirdi Antifer tog'a.

– Hech narsa bo'lgani yo'q... hech narsa! – dedi Jildas Tregomen.

– Baraka topkur, bu kuchingni chinakam ishga asrasang bo'lardi!

– Asrayman, qariya, asrayman.

Kichikkina to'da janubiy yon bag'irlik bo'ylab borarkan, tezda burun yaqiniga borib qoldi. Burunga yetish uchun olti yuz odimcha yo'l bosishlari kerak edi.

Oldinda Antifer tog'a, Binni Umar va Souklar borishardi. Inson jilovini qo'lida tutib turgan oltin ohanrabo ularni zo'r berib tortayotgandek, qadamlarini tezlashtirdilar. Ular hansirab qolishgandi. Ular boylik hidini sezishgan, undan to'yib-to'yib, yutinib nafas olayotganga o'xshardilar; ularning butun vujudini millionlar havosi chulg'ab

olganday, bordi-yu, bu ohanrabo g'oyib bo'lib qolsa nafaslari bo'g'ilib, tappa qulaydiganga o'xshardilar.

Oradan o'n daqiqa o'tgach, sayohatchilar o'tkir uchi dengiz bag'riga yorib kirgan burun yoniga yetib bordilar. Komulk poshsho ikki «K»dan ostma-ust qilib belgi qo'ygan qoyani xuddi shu yerdan izlash lozim edi.

Ana shunda Antifer tog'aning hayajoni cho'qqisiga yetib, hushidan ketdi. Agar Jildas Tregomen ushlab qolmaganida, tomiriga bolta urilgan terakdek shalop etib qulagan bo'larmidi. Yuzining dir-dir qilib uchib turishigina uning hali hayot ekanidan dalolat berib turardi.

– Amaki... amakijon! – deb qichqirdi Jyuel.

– Do'stim!.. – deb oh chekardi Tregomen.

Shu topda Soukning tirjayib turishi hech kimning nazaridan qochib qutulolmadi. Ko'nglidan kechayotgani yuziga tepib turardi:

«Harom qotsin bu ko'ppak! Unda Komulk poshshoning yakka-yu yagona merosxo'ri bo'lib qolardim!»

Binni Umarning betidan esa, haqiga ko'chganda, butunlay boshqa narsani o'qish mumkin edi: «Mabodo xazinaning qasrga ko'milganini biladigan yakka-yu yolg'iz bu odam o'lib qolsa, mening millionim ham qo'ldan ketdi deyavering».

Biroq bu xunuk voqeaning oxiri yaxshilik bilan tugadi. Tregomenning jonini jabborga berib ishqalashi natijasida Antifer tog'a tezda o'ziga keldi va yerga tushib ketgan metinni yana qo'liga oldi. Ana shundan keyin orolning janubiy qismida qidiruv ishlari boshlanib ketdi.

Oradan ko'p o'tmay, hatto janubi-g'arb tomondan esadigan bo'ronlar paytidagi quturgan dengiz to'lqinlari ham yetolmaydigan darajada balandlab borgan kambargina bir mintaqasimon tepalik ko'zga chalindi. Xazinani saqlash uchun bundan ortiqroq joyni topish amri mahol! Ummon ko'rfazida hokimlik qiluvchi shiddatli po'rtanalar o'n yillar davomida qo'yilgan belgini o'chirib yubormagan bo'lsa, etagiga boyliklar ko'milgan qoyani topish mushkul emas, albatta.

Shu ham gap bo'ldi-yu! Agar lozim bo'lsa, Per-Servan-Malo butun tevarak-atrofni kavlab tilka-pora qiladi! U kerak bo'lsa, qoyalarni birmabir portlatadi, buning uchun haftalar yoki oylar ketsa ham rozi! U kemani oziq-ovqat olib kelgani Soxorga jo'natadi!.. Yo'q-yo'q! Faqat o'ziga, ha-ha, faqat qonuniy merosxo'rga, boshqa hech kimsaga emas, yolg'iz o'ziga tegishli bo'lgan boylikni qo'lga kiritmagunicha oroldan aslo jilmaydi!

Soukning boshidan ham xuddi shu xayollar kechardi shu topda. Ikkovining ham ahvoli-ruhiyasi birday, bir xil kayfiyatda edi. Bu xol inson zoti sha'niga tushgan dog' edi, albatta.

Shunday qilib, hammalari ishga tushib ketishdi: o'rashib-chirmashib ketgan yo'sinlar orasini titishar, sirpanchiq moxlar bilan qoplangan yoriq-tirqishlarni ko'zdan kechirishardi. Antifer tog'a qoyadan yemirilib, ko'chib tushgan toshlarni metini bilan turtib, titib ko'rardi. Tregomen esa belkurak bilan titib-ag'darardi. Binni Umar katta-katta xarsanglar orasida qisqichbaqadek o'rmalab yurardi. Jyuel va Souk ham ish bilan band edi. Hech kim churq

etmasdi. Hatto qabristonda ham bunaqangi sukunat bo'lmaydi.

Darhaqiqat, ko'rfazning ichkarisiga yashiringan bu hilvat orolning qabristondan qayeri kam? Bu go'r kavlovchilar misrlik poshshoning millionlari ko'milgan qabrni izlamayaptilarmi, axir?

Yarim soat qidirishdi hamki, hech narsadan darak bo'lmadi. Shunga qaramay hech qaysilari umidsizlanmadi ham. Ular Komulk poshshoning orolida ekanlariga va bochkachalarning shu yaqin orada, ana shu janubiy chekkada ekanligiga zarracha shubhalanishmasdi ham.

Quyosh tandirdek qizdirar, betlaridan ter marjon bo'lib oqardi. Biroq bu odamlar na issiqni, na charchoqni sezishardi. Hammalari, havo to'satdan xasislik o'z domiga tortgan Tregomen ham uya qurayotgan chumolilardek g'ayrat va shijoat bilan ishlashardi. Faqat Jyuelgina ba'zan nafrat bilan iljayib qo'yardi.

Qo'qqisdan quvonch hayqirig'i yangrab qoldi, to'g'rirog'i, bu yirtqich hayvonning o'kirishini eslatardi. Hayqirib yuborgan Antifer tog'a edi. Bir qo'liga shlyapasini ushlab olgan, ikkinchisi bilan qabr toshiday adl, sip-silliq qoyaga ishora qilardi.

– Ana... ana... – deb takrorlardi u.

Basharti u hozir ma'buda qoshida tiz cho'kkanday muk tushib bu qoya poyini o'psa, hamrohlaridan birortasi ajablanmagan bo'lurdi. Aksincha, qiziq ustida unga qo'shilgan bo'larmidilar.

Jyuel va Tregomen, Souk hamda Binni Umarlar cho'kkalab turgan Antifer tog'a yoniga yugurishdi... Ular ham tog'aning qavatiga tiz cho'kishdi.

Xo'sh, bu qoyada nima bor edi?..

Bu qoyada ular ko'zlari bilan ko'rib, qo'llari bilan paypaslay oladigan narsa bor edi... Komulk poshshoning yozuvi – ostma-ust qilib yo'nilgan ikki «K» harfi ko'zga tashlanib turar, garchi yarmi o'chib ketgan bo'lsa-da, harqalay uni aniq o'qish mumkin edi.

– Ana... anavi yerda... – deya takrorlardi Antifer tog'a hamon.

Shunday deb u kavlash kerak bo'lgan joyga, bundan o'ttiz ikki yil muqaddam xazina ko'milgan tosh sandiqqa, qoya etagidan kavlash zarur bo'lgan yerga ishora qilardi.

O'sha ondayoq metin ishga tushib, qoyaga shunday zarb bilan urildiki, atrofga uchqunlar sachradi. Keyin Jildas Tregomen tosh parchalarini belkuragi bilan chetga uloqtira boshladi. Kavak kengayib va chuqurlashib borardi. Atrofdagilar entikib-entikib nafas olishar, yuraklari shunday gursillab urardiki, yuz millionlik boylik yuzaga chiqib qoladigan so'nggi zarbani kutib tars yorilib ketadigandek edi...

Toshni qazigandan-qazishaverdi, bochkalardan esa nom-nishon ko'rinmasdi. Komulk poshshoning o'z boyligini juda mahkamlab, chuqurroq ko'mish zarur deb o'ylaganining isboti edi bu, xolos. Xullas, to'g'ri qilgan u: boylikni chiqarib olish uchun, sal ortiqroq vaqt ketsa va biroz ko'proq ter to'kilsa nima qipti?

To'satdan allaqanday metall jaranglab ketdi. Metinning biror metall buyumga borib tekkani aniq edi.

– Unday bo'lsa, jiyan, kuzatishni unutib qo'ygan ko'rinasan, chamamda...

Bu gap jon-jonidan o'tganidan yosh kapitan yonib tutaqib ketdi, biroq Enogat iltijoli imo bilan uni tinchlantirdi.

Shu payt gapga Jildas Tregomen aralashdi. U kema egasiga murojaat qildi:

– Grappa!..

– Xizimatingizga tayyorman.

– Biz bir orolchani izlayapmiz...

– Xo'sh, sinor.

– Bu yaqin atrofda biron orolcha bormi?..

– Orolcha deysizmi?

– Ha.

– Bitta orolcha deyapsizmi?..

– Ha, shunday, orolcha... Biz orolcha haqida so'rayapmiz – takrorladi Antifer tog'a. – Eshityapsanmi, kichkinagina, jajjigina, yaxshigina orolcha!.. Nima, tushunmayapsanmi?

– Afv etasiz, sinor! Siz bitta orolcha qidirgan.

– Xuddi shunday... – dedi Jildas Tregomen.

– O'shanaqa orolcha bormi o'zi yaqin atrofda?

– Yo'q, sinor.

– Yo'q deysanmi?

– Yo'q! Bitta bo'lgan... uni o'zim ko'rgan va uning yuzasiga o'zim tushgan.

– Uning yuzasiga? – takrorladi Tregomen.

– Biroq u yo'qolgan...

– Yo'qolgan!? – qichqirib yubordi Jyuel.

– Ha, sinor, o'ttiz bir yil bo'lgan, u yo'qolgan... Avliyo Luchiya haqqi qasam ichaman!

– Qanaqa orolcha edi u? – deb so'radi Jildas Tregomen iltijo bilan qo'llarini ko'ksiga qo'yib.

– A! Ming arava-ye, qayiqchi! – qichqirib yubordi Antifer tog‘a. – Bu orolcha yoki, aniqrog‘i, Juliya oroli-ku!

Juliya oroli!.. Lahzadayoq hammasi Jyuelning yodiga tushdi-qoldi...

Ha, darhaqiqat, Juliya oroli yoki Ferdinand, yo Otam, yo Greyam, yoxud Nerita – istaganingizdek atayvering uni – 1831 yilning 28 iyunida xuddi shu yerda paydo bo‘lgandi. Uning mavjud ekanidan shubhalanish mukiinmidi axir? Neapolitanlik kapitan Korro suv osti vulqoni otilib, orolcha paydo bo‘lgan daqiqani shaxsan o‘zi kuzatgan edi. Knyaz Pinyatelli yangi paydo bo‘lgan orolning qoq o‘rtasidan ko‘kka o‘rlayotgan o‘g‘li ustunni va atrofga mo‘shakbozlik paytidagidek uchqunlar sachratayotganini o‘z ko‘zlari bilan kuzatgan edi. Kapitan Irton bilan doktor Jon Devilar ham bu ajoyib manzaralarning jonli shohidi bo‘lganlar. Vulqon jinslari hamda qaynoq kul bilan qoplangan bu orolga ikki oy mobaynida odamlar bemalol tushib o‘tishgan. Bu plutonik kuchlar⁵⁸ning qo‘qqisidan harakatga kelishi oqibatida yuzaga chiqib qolgan dengiz tubining bir parchasi edi.

So‘ngra 1831-yilning dekabrda esa bu qoyalar asta-sekin cho‘ka boshlab, dengiz yuzasida o‘zidan zarracha iz qoldirmay, g‘oyib bo‘lgandi.

Shunday qilib, ana shu qisqagina muddat oralig‘ida mash‘um taqdir Komulk poshsho bilan kapitan Zoni O‘rtayer dengizining xuddi ana shu qismiga olib kelib tashlagandi. Ularning noma‘lum orolni izlab yurib, kelib-kelib shunaqa

⁵⁸ Plutonik kuchlar – yer qobig‘i ichidagi protsesolar natijasida paydo bo‘ladigan yer osti kuchlari (*Pluton – qadimiy yunon afsonalaridagi yer osti xudosi*).

orolga, ya'ni iyunda paydo bo'lib, dekabrda yana g'oyib bo'ladigan orolga ro'para kelib qolganlarini qarang-a! Orol bilan birgalikda duru javohirlar, Tirkomel hazratlari dengiz qa'riga uloqtirmoqchi bo'lgan xuddi o'sha millionlar tubsizlikka – yuz metr lab dengiz tubiga g'arq bo'lgandi... Bu ibrat bo'larli olijanob ishni bajarishni tabiat o'z zimmasiga olgandi. Ana endi bu boyliklar qachon bo'lmasin yer yuzasiga qayga chiqadi deb aslo xavotirlanmasa ham bo'ladi...

Shu narsani aytib qo'yishni o'zimiz uchun farz deb bilamizkim, Antifer tog'aga bularning bari ayon edi. Bundan uch hafta muqaddam Jyuel to'rtinchi orolchanning Sitsiliya bilan Pantelleriya oralig'ida joylashganini xabar qilganida, Antifer tog'a gap Juliya oroli haqida borayotganini o'sha zahotiy oq fahmlagan edi. Flotda endi ishlay boshlagan chog'larida bu suvlarga bot-bot kirib o'tardi va 1831-yili tug'ilgan, yana o'sha yili g'oyib bo'lgan, uch yuz fut dengiz tubiga cho'kib ketgan bu umri qisqa orolchadan yaxshi xabardor edi...

Aniq tekshirib ko'rib, bunga qanoat hosil qilgach, Antifer tog'a o'z boshidan umrida eng dahshatli zarbani kechirdi. Keyin tinchlanib, Komulk poshshoning boyliklariga ega bo'lish fikridan qat'iy qaytgandi. Ana shuning uchun ham u izlashlarni davom ettirish haqida og'iz ochmagan va so'nggi marta safarga chiqishga urinmagan ham edi. Modomiki, u Tregomenning xohishiga itoat etgan va har qalay yo'lga chiqishga ahd qilgan, yangi chiqimlarga rozi bo'lgan ekan, faqat o'z izzat-nafsini deb ko'ngandi, chunki u bu ishda boshqalardan ko'ra ko'proq ahmoq bo'lib qolmaslikni istardi... Basharti u bankchi Zambuko

hamda notarius Binni Umar bilan Agrijentoda uchrashishni va'da qilib xabar yuborgan ekan, bundan birdan-bir murodi o'z makr va firibgarliklari bilan tamoman shunday jazoga loyiq bo'lgan bu zotlarga saboq berish edi.

Maltalik bankchi va misrlik notariusga qarata shunday dedi u:

– Ha! Millionlar xuddi mana shu yerda! Oyoqlarimiz ostida! Basharti o'z ulushlaringizni olishni istasanglar, sho'ng'isalaring bas!.. Qani, suvga oting o'zingizni, Zambuko!.. Qani tashlang suvga, Binni Umar!..

Basharti bu odamlar – Zambuko va Binni Umar tuzoqqa ilinganlari uchun qachon bo'lmasin o'zlariga la'natlar o'qisalar, o'zining ham xuddi shu maltalik va misrlik kabi ochko'zlik bilan boylik ortidan quvganini unutgan qaysar maluin zahrini sochayotgan damda sodir bo'lgandir bu.

– Ana endi sharqqa qarab bur kemani, – deya qichqirdi Per-Servan-Malo, – uyga jo'nadik!

– U yerda baxtiyor yashaymiz... – dedi Jyuel.

– Hatto poshshoning millionlarisiz ham, – qo'shib qo'ydi Enogat.

– Bo'lmasam-chi, albatta-da!.. Rostki ular suvga g'arq bo'lgan ekan! – dedi Jildas Tregomen, kulgini qistatadigan darajada qo'llarini yozib.

Biroq yosh kapitanning ko'ngli qiziqsinishdan shu yerning chuqurligini o'lchab ko'rishni tusab qoldi...

Jakopo Grappa gumonsirab bosh chayqab qo'ydi-yu, biroq buyruqqa itoat etdi. Arqon uch yuz-uch yuz ellik fut chuqurlikka tushgach, qo'rg'oshin toshday qattiq jismga urildi...

Bu Juliya oroli edi... Ha, bu dengiz qarida g'oyib bo'lgan to'rtinchi orolcha edi.

Jyuelning buyrug'iga binoan kema orqaga yo'l oldi.

Qarshi shamol esganidan gavanga yetib borilguncha tuni bilan shamolga moslanib suzishga to'g'ri keldi. Sho'rlik Binni Umar uchun bu so'nggi sayohat o'n sakkiz soatlik dengiz kasalining azobini tortib, qimmatga to'shdi.

Samarasiz safardan qaytgan «Providensa» Agrijento sohilida langar tashlaganda allaqachon kun yorishib ketgandi.

Sayohatchilar kema egasi bilan xayr-ma'zur qilisharkan, kekxa dengizchi Antifer tog'aga murojaat etdi:

– Sinor?

– Nima deysan?..

– Men sizga bitta gap aytmoqchiman...

– Gapir... oshnam... gapiraver...

– Sinor, umid tamom yo'qolgani yo'q... hammasi tamom bo'lgani yo'q!

Per-Servan-Malo shartga qaddini rosladi, ko'zlari esa xuddi chaqmoqday chaqnab ketdi.

– Hammasi tamom bo'lgani yo'q? – deya takrorlardi u.

– Shunday... Sinor!.. Juliya oroli ming sakkiz yuz va yana o'ttiz bir yil oxirida g'oyib bo'lgan, lekin...

– Lekin..

– U ming sakkiz yuz va yana ellik yildan keyin tag'in ko'tarila boshlagan...

– Xuddi «ochiq»ni ko'rsatishm lozim bo'lgan mening barometrimga o'xshab-a, – xitob qildi Antifer tog'a qah-qah urib.

– Baxtga qarshi, Juliya oroli millionlar bilan... bizning millionlarimiz bilan... Yana yuzaga chiqqan-

ida biz allaqachon olamdan o'tgan bo'lamiz, hatto uch yuz yil yashasang-da, sen ham bo'lmaysan bu yorug' jahonda, ey qayiqchi!..

– Ha, shunday bo'lishi mumkin! – deb javob berdi «Go'zal Ameliya»ning sobiq egasi.

Keksa dengizchi haq gapni aytgandi: Juliya oroli haqiqatan ham O'rtayer dengizi sathi sari asta-sekin ko'tarilayotgan edi...

Oradan yana bir necha asrlar o'tar va balki Antifer tog'aning ajoyib va g'aroyib sarguzashtlarining yechimi tamoman boshqacha bo'lar, kim biladi deysiz buni?

MUNDARIJA

IKKINCHI QISM

Birinchi bob.....	3
Ikkinchi bob.....	16
Uchinchi bob.....	30
To'rtinchi bob.....	45
Beshinchi bob.....	61
Oltinchi bob.....	77
Yettinchi bob.....	92
Sakkizinchi bob.....	106
To'qqizinchi bob.....	125
O'ninchi bob.....	138
O'n birinchi bob.....	156
O'n ikkinchi bob.....	173
O'n uchinchi bob.....	189
O'n to'rtinchi bob.....	207
O'n beshinchi bob.....	228
O'n oltinchi bob.....	246

Adabiy-badiiy nashr

JYUL VERN

**ANTIFER TOG'ANING
AJOYIB VA G'AROYIB
SARGUZASHTLARI**

Roman

Ikkinchi kitob

Muharrir

S. BADALBOYEVA

Badiiy muharrir

S. MUSAMEDOV

Sahifalovchi

N. MAMADALIYEV

Tex. muharrir

A. G'ULOMOV

Litsenziya raqami: AI № 182. 08.12.2010 da berilgan.

Bichimi 84x108 1 32.

Bosma tobog'i 8,25. Shartli bosma tobog'i 13,86.

Garnitura «PeterburgUz». Ofset qog'ozi.

Adadi 5 000 nusxa. Buyurtma №07.

Bahosi kelishilgan narxda.


«Yoshlar nigohi» xususiy korxonasida tayyorlandi.

Nashriyot manzili:

Toshkent, O'qchi ko'chasi, 109-uy.

«ADAD PLYUS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: 100097, Toshkent, Bunyodkor ko'chasi, 28-uy.



**ANTIFER TOG'ANING
AJOYIB VA G'AROYIB
SARGUZASHTLARI**
Jyul Vern

ISBN 978-9943-4990-8-9



9 789943 499089